***Keywords:*** *pilgrimage, tourism, education, Thomas Cook, World's Fair, recreation, sports, ecology.*

# ПОНЯТИЕ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА И ЕГО РОЛЬ В СФЕРЕ ТУРИЗМА

## АННОТАЦИЯ

*В этой статье рассказывается об первоначальных концепциях паломнического туризма и роли паломнического туризма в этой области. В настоящее время речь идет о направлении паломнического туризма, которое очень быстро развивается, а также о других смежных сферах.*

***Ключевые слова:*** *паломничество, туризм, образование, Томас Кук, Всемирная выставка, отдых, спорт, экология*

## KIRISH

XX asr insoniyat o‘z tarixida misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishdi. Turli sohalarda bashariyyat avvalari erishilmagan marralarini zabt etdi. Bunday yutuqlar insoniyat olamiga avval yeta olmagan to‘kin hayotga yetish imkoniyatini yartdi.

Natijada bunday to‘kin hayotning ortidan inson dam olish va boshqa ishlar uchun mablag‘ jamg‘arish va bu ishlar uchun xarajat qilishni o‘ziga og‘ir sanamay qo‘ydi. Ana shunda insoniyat avvalari e’tibor bermaydigan va bu sohaga vaqt ham pul ham sarflashni istamaydigan turizm sohasi dunyoda jadallik bilan rivojlana boshladi. Shu o‘rinda haqli savol paydo bo’ladi turizm o‘zi nima?

“Turizm bu – odamlarning boshqa joyga sayohat qilib, yangi joylarni madaniyatlarni va tajribalarni o‘rganish jarayonidir. Bu jarayon turli maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin: dam olish, sog‘lomlashtirish, ta’lim, ziyorat, sport, ekologiya va h.k”[5].

Bugungi kunda zamonaviy turizm asoschisi sifatida Angliyalik Tomas Kuk tan olingan. U birinchilardan bo’lib sayohat maqsadida ommaviy safar tashkil etishning mohiyati va foydaliligini anglab yetdi hamda 1843-yilda dastlabki temiryo‘l orqali turni muvaffaqiyli tashkil etdi. 1851-yilda u mamlakatning barcha hududlaridan kelgan 165 ming kishini Parijdagi ko’rgazmada ishtirok etishni tashkil qildi. Ko’rgazmaga qilingan sayohat tufayli katta foyda keltirganligi sababli, Kuk Angliyalik turistlarning 1865-yilda Parijga Butunjahon ko‘rgazmasiga ommaviy ravishda buyurishining tashkilotchisi bo‘ldi. Tomas Kuk 1872-yilda birinchi bo‘lib sanoat asosida jahon bo’ylab sayohat uyushtirishni taklif qilgan. Bugungi kunda “Tomas Kuk” kompaniyasi butun dunyoda 12000 dan ortiq turistik agentliklarga ega bo’lib, yiliga 20 milliondan ortiq turistga xizmat ko’rsatadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

To‘g‘ri turizm sohasi aynan XX asrga kelib paydo bo‘lgani yo‘q, uning tarixi juda uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Zero insonlar aynan XX asrga kelib safar qilishni boshlamaganlar. Turizm sohasi oxirgi 30 yil ichida ayniqsa jadal sur'atlarda rivojlandi. Bu vaqt oralig'ida xalqaro turistlar soni 3,8 marta, bu sohadan keladigan foyda 25 martaga o'sdi. Hozirgi kunda turizm sohasiga dunyo yalpi mahsulotining 6 foizi, xalqaro sarmoyalaming 7 foizi, ish o'rinlaming har 16 chisi, dunyo iste'mol harajatlarining 12 foizi to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda turizm-jahon miqiyosidagi iqtisodiyotning juda kuchli tarmog'i bo'lib, bu sohagajuda ko'p sonli xodimlar, asosiy vositalar va yirik kapital mablag'lar jalb qilingan. Turizm yirik biznes, katta pul va global miqiyosdagi jiddiy siyosatdan iborat.

Barcha sohalar tarmoqlarga ajralgani kabi, turizm sohasi ham bir qancha tarmoqlarga tarmoqlanadi.

[5] I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.SH.Safarov, G.R.Tursunova Turizm asoslari – Toshkent 2014




Quyida ba’zi turlarining ta’riflariga to’xtalamiz.

***Rekreatsion turizm*** - dam olish maqsadidagi, turizm sifatida o'z tarkibida sog'lomlashtirish vajismoniy tiklanish maqsadlarini ham tashkil etadi.Rekreatsion turizm gator davlatlar uchun turizmning ommaviy shakli bo'lib hisoblanadi.

***Malakaviy ish turizmL*** Turizmning mazkur turiga ish maqsadlari bilan amalga oshirilgan safarlar kiradi. Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xususiy tadbirkorlaming faoliyati xorijiy hamkorlar bilan ishlashni taqozo qilmoqda, shu tufayli mahalliy tadbirkorlarning xalqaro munosabatlari rivojlanib bormoqda. Ishchanlik turizmining afzalligi shundan iboratki, uni turizm sohasi uchun nomav-sumiy paytda ham tashkil etish imkoniyatini beradi.

***Ilmiy turizm*** – O‘qish, ta'lim olish maqsadida, malaka oshirish maqsadida safar qilish xalqaro turizmning nisbatan yangi turlari safiga kiradi. Xorijda ta'lim olish uchun safar qilish O'zbekistonda ham turbiznesning yangi segmentlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ushbu safarlarning ommabop bo'lib borayotgan turi bu xorijiy ti o‘rganish maqsadida Buyuk Britaniyaga va boshqa ingliz tilida so'zlashadigan davlatlarga safarlarni amalga oshirish.

***Sport turizmi*** - asosiy maqsadi turistlarga o'zlari tanlagan sport turi bilan shug'ul- lanishga imkoniyat yaratib berishdan iborat. Sport turizmi zaruriy baza mavjudligini talab etadi: turli inventarlarni, maxsus trassalarni, arqon yo'llar, sport maydonchalarini, asbob-uskunalami talab etadi. Sport turizmi bo'yicha sayohatlarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu- dam oluvchilarning xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Sport turizmining sayohatlari safarlaming

maqsadiga bog'liq ravishda 2 turga bo'linadi: aktiv va passiv ravishda bo'lishi mumkin.

***Shop-turlar*** - Rossiya va Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MOH) davlatlari uchun xos bo'lgan xorijga tashrifning asosiy maqsadi bo'lib, ushbu mamlakatda tanqis bo'lgan xalq iste'mol tovarlarini harid qilish va uni o'z mamlakatida sotish hisoblanadi (poyafzal, trikotaj, yozgi va qishki kiyimlar va boshqa mahsulotlar - Xitoy, Turkiya, Italiya, Portugaliyadan - mebel va jihozlar, Dubay, Xitoy va Italiyadan - teleradio mahsulotlar - Birlashgan Arab Amirliklari, Xitoydan – avtomashinalar.

***Ekoturizm*** deganda, nafaqat ma'rifiy-ma'naviy maqsadlami ko'zlagan holda betakror tabiiy hududlarga, ulaming hayvonot va o'simlik dunyosiga sayohat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalami amalga oshirilishi yordamida ekologik muammolarini ha! qilish bilan bir-biriga bog'liq majmualar yig'indisini tushunamiz.

***Gastronomiya turizmi*** - bu mamlakatlar va qit’alar bo’ylab sayohat qilish hisoblanib, maqsadi mahalliy oshxona xususiyatlari bilan tanishish hamda kelgan sayyohlarga antiqa taom va mahsulotlardan tatib ko'rishga imkon yaratadi. Gastronomik tur xizmat sifatida nafaqat sayohat qilish bo'lib hisoblanadi, balki dunyoning boshqa biror joyida takrorlanmaydigan va betakror ta'mga ega bo'lgan masalliqlardan tarkib topgan ma'lum bir hududdagina uchrovchi taomlarni tatib ko'rishga qaratilgan tadbirlar majmuiga kiradi

***Ziyorat turizm*** - ziyorat qilish maqsadidagi sayohat sifatida hozirgi kunda juda yuqori talabga ega bo'lib, ommaviy tus olmoqda. Mustaqilligimiz sharofati bilan har yili ko'plab vatan- doshlarimiz Makkayu Madinaga Haj va Umra safarlarini amalga oshirmoqdalar. Dunyodagi ko'pgina odamlar Makkai Mukarrama, muqaddas yer bo'lgan, Vatikan ibodatxonalari va boshqa joylami ziyorat qilish uchun sayohat qilishadi.O'zbekistonda bunday muqaddas ziyorat qiladigan joylarga Samarqand, Buxoro, Xorazm va boshqa viloyat- larimizda joylashgan tarixiy yodgorliklar misol bo'la oladi. Ayniqsa, musulmon olami uchun kichik haj hisoblangan, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G'ijduvoniy, Imom al-Motrudiy, Hazrati Imom ziyoratgohlari diniy turizmni rivojlantirishda muhim o'ringa ega bo'lmoqda.

Ziyorat so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, ***“borib kelmoq”, “xabar olmoq”*** degan ma’nolarni bildiradi[6]. Ziyorat eng qadimiy turizm turlaridan hisoblanadi. Zero bu turizm turining rivojlanishi bevosita din bilan bog’liq. Nafaqat islom balki avvalgi dinlarda ham ziyorat amali bo‘lgan. Lekin “ziyorat” so’zi bevosita arab tili bilan bog‘liq bo‘lganligi bois islom dini bilan bog‘liqligi ko‘roq. Zero ziyorat turizmi turli

[6] Ziyorat. http: ru.wikipedia.org/wiki/Ziyorat

din vakillarining ziyorat maqsadidagi sayohatlar majmuidir. An'anaga ko'ra u diniy maqsadli sayohatlarga taalluqlidir, lekin u ziyoratchi uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan dunyoviy sayohatga ham tegishli bo'lishi mumkin. Ziyorat turizmi ahamiyatini ikki xususiyatga ko'ra asoslash mumkin. Ziyoratchilar uchun ziyorat turizmi qanchalik muhim? Ziyorat insonlar uchun qiyin paytlarda ruhiy ozuqa olish imkoniyati hamdir. Insonlar diniy ma'rifatni his qilishi uchun ma'lum manzillarga sayohat qilishadi. Ko'pincha insonlar uchun uzoq va ba'zan qiyin bo'lgan sayohat ularga fikr yuritish imkoniyatini yaratadi. Ziyoratlar din bilan munosabatlarni chuqurlashtirishning bir usuli bo'lishi mumkin. bu albatta e'tiqodga qanchalik sadoqatli ekanligini ko'rsatishning bir usuli va bu dinning o'zi haqida ko'proq bilishning imkoniyatidir. Zero har yili musulmonlar uchun muqaddas hisoblangan Makka shahrida hijriy qamariy taqvim bo'yicha zulhijja oyida ikki yoki ikki yarim million hojilarning bir vaqtning o'zida haj ibodatlarini qilishlari haqiqatda insonning e'tiqodi bilan bog'liq masaladir. XXI kelib transport va havo yo'llari tiziming rivojlanishi natijasida bunday ibodatlarga borib kelish masalasi birmuncha hal qilindi. Lekin avvalari insonlar 5 yoki 6 oy avval haj amallarini qilish uchun yo'lga chiqqanlar. Zero bizning yurtimizdagi ota-bobolarimiz ham shunchalar ko'p vaqt sarflashga majbur bo'lganlar. Sababi e'tiqod bilan bog'liq. Insonlar diniy ibodatlarini amalga oshirish uchun qanchalar zahmat chekishga ham tayyordirlar.

"Diniy maqsadlarda sayohat qiluvchi sayohatchi – muqaddas joylar va diniy markazlarni ziyorat qilish uchun olti oydan ortiq bo'lmagan muddatga doimiy yashash mamlakatidan tashqariga chiqadigan shaxs tushuniladi"[7].

"Diniy turizm deganda, odatdagi muhitdan tashqarida bo'lgan muqaddas joylar va diniy markazlarga sayohat qiluvchi sayohatchilarga xizmat ko'rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyat tushunilishi kerak"[8].

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risidagi O'RQ-549-SON 18.07.2019. qonuni.
2. Connie Mok, Beverley Sparks, Jay Kadampully 'Service Quality Management in Hospitality, Tourism, and Leisure' Taylor&Francis 11-yanvar, 2013 10-bet
3. Po'latov M.E., Xolmamatov D.H., Yahyoxonov N.B. Xizmatlar marketing. O'quv qo'llanma. Samarqand. Fan bulog'i nashryoti, 2021 y.
4. I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.SH.Safarov, G.R.Tursunova Turizm asoslari Toshkent 2014

[7] N.Bozorov. Ziyorat turizm tarixi va uning turizm sohasida tutgan o'rni – Termiz. 2023
[8] N.Bozorov. Ziyorat turizm tarixi va uning turizm sohasida tutgan o'rni – Termiz 2023

5. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing asoslari. - O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi - T.: “IQTISODIYOT”, 2019. - 305 bet.
6. Haqberdievich K. D., Shavkiddinovich M. M. USE OF INTERNATIONAL MARKETING STRATEGIES IN THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1.
7. Haqberdievich K. D., Shavkiddinovich M. M. SWOT ANALYSIS OF FREE ECONOMIC ZONES (FEZ) IN UZBEKISTAN //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 22. – С. 610-615.
8. Мурадова Н. У. Специфика рынка лизинговых услуг и используемых в них маркетинговых инструментов // ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ. – 2019. – С. 493- 499.
9. Kholmamatov Diyor Haqberdiyevich. Main Directions of Application Marketing Logistics. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 2021.

# HARBIYLARNING TURKIYA IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI: 1980-YIL VOQEALARI VA UNING OQIBATLAR

**Fayzullayev Adham Aktam o‘g’li**
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

## ANNOTATSIYA

*Turkiyadagi 1980-yilgi harbiy to‘ntarish mamlakat tarixida muhim voqea bo‘lib, uning siyosiy va ijtimoiy tuzilishini qayta shakllantiradi. Siyosiy taranglik, keng tarqalgan zo‘ravonlik va iqtisodiy tartibsizliklar qo‘shilishi natijasida yuzaga kelgan to‘ntarish, 1980-yil 12-sentabrda harbiylar tomonidan amaldagi hukumatning tartibni saqlay olmayotganligi holatiga javob sifatida amalga oshirildi. Bu aralashuv nafaqat harbiylarning davlat ustidan to‘g’ridan-to‘g’ri nazoratini belgilabgina qolmay, balki fuqarolar erkinliklarini cheklab qo‘ygan va norozilikni bostirgan repressiya to‘lqinini ham keltirib chiqardi. Davlat to‘ntarishi fonida keskin siyosiy qutblanish, o‘ng va chap tomondagi ekstremistik guruhlarning kuchayishi, shu bilan birga keng tarqalgan ijtimoiy tartibsizliklarga olib keldi. Mamlakat zo‘ravonlikka tushib qolganda harbiylar o‘zini barqarorlik hakami sifatida ko‘rsatdi va faqatgina uning aralashuvi orqali Turkiya fuqarolar urushidan qochishi mumkinligini ta’kidladi. Ushbu maqolada to‘ntarishga turtki bo‘lgan omillar, harbiylar harakatlarining mantiqiy asoslari hamda turk jamiyati va boshqaruvi uchun bevosita va uzoq davom etadigan oqibatlari haqida so‘z boradi. Bu unsurlarni tahlil qilib, 1980-yilgi davlat to‘ntarishi Turkiyaning siyosiy manzarasiga qanday ta’sir qilganligi, mintaqadagi demokratiya va inson huquqlari uchun davomli harakatlarni yoritishni maqsad qilganmiz.*

***Kalit so‘zlar:*** *Demokratik transformatsiya, harbiy vasiylik, harbiylar omili, armiya, iqtisodiy inqiroz, 12-sentabr inqilobi.*

# РОЛЬ ВОЕННЫХ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ ТУРЦИИ: СОБЫТИЯ 1980 ГОДА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЯ

**Адхам Актамович Файзуллаев**
Студент, Ташкентский государственный университет востоковедения

## АННОТАЦИЯ

*Военный переворот 1980 года в Турции является важным событием в истории страны, изменившим ее политическую и социальную структуру.*

*Сочетая политическую напряженность, повсеместное насилие и экономические беспорядки, переворот был начат 12 сентября 1980 года военными в ответ на неспособность нынешнего правительства поддерживать порядок. Это вмешательство не только установило прямой контроль военных над государством, но и вызвало волну репрессий, ограничивающих гражданские свободы и подавляющих инакомыслие. Переворот привел к резкой политической поляризации, росту экстремистских группировок справа и слева и широкомасштабным социальным волнениям. Военные позиционируют себя как арбитра стабильности, когда страна погружается в насилие, утверждая, что только благодаря их вмешательству Турция сможет избежать гражданской войны. В этой статье обсуждаются факторы, которые привели к перевороту, обоснование действий военных, а также непосредственные и долгосрочные последствия для турецкого общества и управления. Анализируя эти элементы, мы стремимся пролить свет на то, как государственный переворот 1980 года повлиял на политический ландшафт Турции и на продолжающиеся усилия по обеспечению демократии и прав человека в регионе.*

***Ключевые слова**: Демократическая трансформация, военная опека, военный фактор, армия, экономический кризис, революция 12 сентября.*

## THE ROLE OF THE MILITARY IN THE SOCIAL AND POLITICAL LIFE OF TURKEY: THE EVENTS OF 1980 AND ITS CONSEQUENCES

**Adham A. Fayzullayev**
student, Tashkent State University of Oriental Studies

### ABSTRACT

*The 1980 military coup in Turkey is an important event in the country's history, reshaping its political and social structure. A combination of political tension, widespread violence and economic unrest, the coup was launched on September 12, 1980 by the military in response to the failure of the current government to maintain order. This intervention not only established the military's direct control over the state, but also created a wave of repression that restricted civil liberties and suppressed dissent. The coup has led to sharp political polarization, the rise of extremist groups on the right and left, and widespread social unrest. The military has positioned itself as an arbiter of stability as the country descends into violence, arguing that only through its intervention can Turkey avoid civil war. This article discusses the factors that led to the coup, the rationale behind the military's actions,*

*and the immediate and long-term consequences for Turkish society and governance. Analyzing these elements, we aim to shed light on how the 1980 coup d'état affected the political landscape of Turkey and the ongoing efforts for democracy and human rights in the region.*

***Key words:*** *Democratic transformation, military guardianship, military factor, army, economic crisis, September 12 revolution.*

**KIRISH (INTRODUCTION)**

Qurolli kuchlar Yaqin Sharq arab davlatlarida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek, davlat suverenitetini va barqarorligini saqlashda hamda uni himoya qilishda alohida o'rin tutadi. Yaqin Sharqdagi qurolli kuchlarning ahamiyati ko'p qirrali bo'lib, mojarolar, terrorizm va geosiyosiy keskinlik bilan ajralib turadigan mintaqada, milliy xavfsizlik va barqarorlikni saqlashda markaziy o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, Yaqin Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hayotida armiyaning o'rni va roli, milliy qurolli kuchlarning modernizatsiya jarayonlari hamda ularning mamlakat iqtisodiyoti va siyosatiga ta'sir darajasini o'rganish bugungi kunning dolzarb mavzularidan bo'lib, bu masalalarni mintaqa bo'yicha yaxlit va mamlakatlar bo'yicha qunt bilan alohida-alohida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaqin Sharq geosiyosatidagi asosiy o'yinchi sifatida Turkiyaning harbiy tarixi mintaqaviy barqarorlikka ta'sir qiladi. Uning harbiy harakatlari va aralashuvlarini tahlil qilish mintaqadagi xavfsizlik tendentsiyalarini kengroq tushunishga yordam beradi. Yillar davomida turk milliy o'ziga xosligini sezilarli darajada shakllantirgan va dunyoviy davlat qurulishida katta hissaga ega bo'lgan harbiylar, XX asrning ikkinchi yarmiga kelib o'zlarini davlatning va Otaturk tamoyillarining himoyachisi sifatida ko'rishni boshlashdi. Otaturk va Inenyu davrida siyosatga aralashmagan harbiylar, ko'p partiyaviylikka o'tilgandan so'ng bunga bevosita aralasha boshlashdi[1]. Bu harakatlar oxir-oqibat harbiy to'ntarishlar zanjirini boshlab bergan 1960-yilgi va quyida mulohazaga qo'l urilgan 1980-yilgi harbiy to'ntarishlarga olib keldi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (LITERATURE REVIEW)**

Bir qator olimlar – H.Shahin, S.Kalayjıog'lu. F.Ahmad, H.Çimen, S.Bakan, A.Abdulvahap, N.G.Kiryev, N.Belen, R.R.Kadirov, L.Borkluog'lu, A.M.Mohamed, A.V.Bedrik, M.Sh.Tovsultanova, S.Aliyeva, G.I.Mirskiy, A.D.Vasilov, H.Akay, S.Bicher, A.Osman, J.K.Sertach, H.Uyarlarning ishlarida Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy hayotida harbiylar omili, Qurolli kuchlarning davlat ichki va tashqi siyosatidagi roli, harbiy to'ntarishlarning sabab va natijalari kabi masalalar yoritilgan.

Maqola umumqabul qilingan tarixiy metodlar - tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, davriy izchillik kabi metodlardan foydalanildi. Shuningdek, mavzu bo‘yicha izlanish olib borgan olimlarning tadqiqotlari o‘rganildi.

**MUHOKAMA (DISCUSSION)**

Jamiyat - odamlarning birlashishi natijasida yaratilgan tuzilma ekan, jamiyatni tashkil etuvchi insonlarning qadriyati, fikr va e’tiqodi o‘zgargani sari jamiyat ham o‘zgaradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy o‘zgarishlar asosida texnologiya yoki ma’lum bir mafkura yotadi. Jamiyatda mafkura o‘zgarishi bilan birga siyosiy tuzilmada ham o‘zgarishlar ro‘y beradi. Demak, ijtimoiy o‘zgarishlar siyosiy o‘zgarishlarga ham olib keladi.

Yuqoridagi o‘zgarishlar Turkiyagada quyidagi ko‘rinishda kechdi: 1950-yillarda texnologiyalarning rivojlanishi immigratsiyaning kuchli to‘lqiniga sababchi bo‘ldi. Shaharga kelganlarning olgan bilimlari ularning dunyoqarashini va fikrlashini o‘zgartirdi. Bu holat ayniqsa yoshlarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Tizimdan norozi bo‘lgan yoshlar davlatga qarshi isyon ko‘tarib, o‘lkada yillar davomida davom etgan anarxiya va terrorga sabab bo‘ldi. 1970-yillarda boshlangan bu hodisalar, iqtisodiy inqiroz bilan birgalikda, hukumat oldini ololmaydigan tartibsizlik muhitiga yo‘l ochdi[2].

Turkiya tarixidagi eng og‘ir harbiy aralashuv 1980-yilgi davlat to‘ntarishi bo‘ldi. Buning sabablari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

1. O‘ng va chap qarama-qarshilik, Millatchilik fronti;
2. Suiqasdlar, ochilmagan qotilliklar, qirg’inlar, Cavit Orxan Tutengil, Kamol Turkler, Gun Sazak, Abdi İpekchi, Nihat Erim, Marash va Chorum voqealari, 1977-yil 1-may qirg’ini;
3. Iqtisodiy inqiroz, 1980 -yil 24-yanvar qarorlari va devalvatsiya;
4. Siyosiy tizimdagi to‘siqlar, zaif hukumat, markaziy boshqaruvdagi hokimiyatni o‘rnata olmaslik va kichik partiyalarning ta’siri;

4.1 1974-yilda tarqatib yuborilgan hukumat o‘rniga 200 kun davomida hukumat tuzilmasligi, 1977-yil 5-iyun saylovlari: CHP 41% ovoz, 213 deputat;

5. Kipr va G’arb bilan bog’liq muammolar, Amerika embargosi;
6. To‘ntarishda tashqi omillar, Sovuq urush sharoitlari, Eron va Afg’onistondan keyin AQShning Turkiyani yo‘qotishni istamasligi[3].

1970-yillarning o‘rtalaridan boshlab ishchilar sinfi va so‘l harakatlarning kurashida yuksalish tendentsiyasi kuzatildi. Bu jarayonda ijtimoiy hayotda zo‘ravonlik va zulm kuchaydi. 1974-yildan boshlab Turkiya iqtisodiyotida inqiroz belgilari paydo bo‘la boshladi. 1977-yili 1-may qatliomi, Qahramonmarash, Chorum,

Malatya, Sivas, Bingo‘l voqealari, norozilik namoyishlari ijtimoiy taranglikning kuchayishiga hissa qo‘shdi[4].

1973-yildagi Arab-Isroil urushidan so‘ng neft narxi juda yuqori darajada ko‘tarildi va keyinchalik boshqa import qilinadigan tovarlar narxining oshishi kuzatila boshladi. Bu narxlarning oshishi tashqi energiyaga qaram bo‘lgan Turkiya iqtisodiyotiga ham ta’sir qildi. 1979-yilning kuzida iqtisodiy inqiroz kuchayib, asosiy iste’mol tovarlarida taqchillik va navbatlar shakllana boshladi. Inflyatsiya 70 foizdan oshdi, terror va siyosiy beqarorlik mamlakatdagi tartibsizlikni yanada kuchaytirdi[5].

Bunday bir muhitda koalitsiya hukumati iste’foga chiqishga qaror qildi va o‘zaro saylovlar natijasida Sulaymon Demirel ozchilik hukumatini tuzdi. 1980-yilning yoziga kelib, prezidentlik saylovlari inqirozi yuz berdi. Prezident bir necha oy davomida saylana olmadi. Prezidentlik saylovi 6 oy va 112 sessiya davom etdi. Avvalroq 11-iyulga rejalangan davlat to‘ntarishi ortga surildi. Armiya 26-avgust kuni shay holatga keltirildi. To‘ntarish buyrug’i butun mamlakat bo‘ylab qo‘shinlarga yetkazildi[6].

1980-yil 9-sentabrda operatsiya 12-sentabr soat 4:00 da amalga oshirilishi buyruq bilan qo‘shinlarga xabar qilindi. Hukumat og’ir siyosiy ahvolda edi. Nihoyat, 12-sentabr tungi soat birlarda muhim joylarning telefon liniyalari va aloqalari uzildi. Turk Qurolli Kuchlari tongda boshlangan “Bayroq operatsiyasi” nomi ostidagi aralashuv bilan hukumatni qo‘lga oldi. Bu aralashuv hech qanday qarshilikka duch kelmasdan maqsadiga erishdi. Bu guruh bundan buyon Milliy xavfsizlik kengashi (MGK) deb nomlanadiga bo‘ldi. To‘ntaruvning eng aniq ko‘rsatkichi bo‘lgan MGK tomonidan tayyorlangan deklaratsiya 1980-yil 12-sentabr kuni ertalab soat 04.00 da TRTda o‘qilishi bilan to‘ntaruv amalga oshirildi. Parlament va hukumat tarqatib yuborildi. Demirel, Ejevit va Erbakan hibsga olindi. Har qanday siyosiy, ijtimoiy va madaniy tadbirlar taqiqlandi. Aralashuvning qonuniyligi Turk Qurolli Kuchlari ichki xizmat nizomining 35-moddasida yana tilga olindi. 14-sentabr kuni Bosh shtab boshlig’i, general Kenan Evren rasman davlat rahbari deb e’lon qilindi. Milliy Xavfsizlik Kengashi (MGK) to‘ntarishga rahbarlikni o‘z zimmasiga oldi. Uning tarkibiga MGK raisi va davlat rahbari Kenan Evren, quruqlik qo‘shinlari qo‘mondoni Nurettin Esin, havo kuchlari qo‘mondoni Nejat Tümer va jandarmeriya general qo‘mondoni Sedat Jelasun kirdi[7].

General Kenan Evrenning o‘zi o‘qigan deklaratsiya matni quyidagicha:

- Davlatning mavjudligi, rejimi va mustaqilligiga hujumlar kuchaydi;
- Boshqa tomondan, davlat organlari va konstitutsiyaviy institutlar ishlamay qoldi;

- Reaksion g’oyalar va buzuq mafkuralar davlat institutlari, kasaba uyushmalari va siyosiy partiyalarga ta’sir qilib, mamlakatni fuqarolar urushi yoqasiga olib keldi;

- Turk Qurolli Kuchlari Turk millati nomidan Ichki xizmat qonuni bilan Turkiya Respublikasini himoya qilish burchini bajarish uchun qo‘mondonlik zanjiri doirasida butun mamlakat boshqaruvini o‘z qo‘liga oldi;

– Amaliyotdan maqsad mamlakat yaxlitligini, davlat nufuzini tiklash, demokratik tuzum amal qilishiga to‘sqinlik qilayotgan sabablarni bartaraf etishdan iborat;

- Parlament va hukumat tarqatib yuborildi, parlament a’zolarining daxlsizligi bekor qilindi, butun mamlakat bo‘ylab harbiy holat e’lon qilindi, xorijga chiqish taqiqlandi, soat 05:00 dan keyingi xabarga qadar komendantlik soati joriy etildi.

General Evren demokratiyaning mustahkam poydevor ustiga qurilishini, konstitutsiya, saylov va partiya qonunlari o‘zgartirilishini, saylovlar o‘tkazilishini takidladi. Kengash va Bosh shtab rahbari general Evren qisqa vaqt ichida Vazirlar Kengashi tashkil etilishini ma’lum qildi. Partiyalar faoliyati to‘xtatildi, deputatlarning daxlsizligi olib tashlandi. 12-sentabr davlat to‘ntarishi barcha shart-sharoit vujudga kelishini kutgan holda to‘g’ri, eng zaif va qulay vaqtda amalga oshirildi.

Tushkunlik muhiti va qon to‘kilishlari to‘ntarish bilan to‘xtashi jamiyat ongiga singdirildi. Shu sababdan bu to‘ntarish xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Gap hayot xavfsizligi bo‘lgani uchun qo‘mondonlar “Hayot xavfsizligingizni ta’minlaymiz” kabi bayonotlar bilan boshqaruvni o‘z qo‘liga olishda qiynalmadi[8]. Haddan tashqari siyosiylashgan jamiyatni tinchlantirish va siyosatdan chiqarish orqali siyosiy barqarorlikni ta’minlash Qurolli Kuchlarning maqsadlaridan biri edi.

Yana bir e’tiborga molik voqea shu ediki, bu terror voqealarining barchasi to‘satdan to‘ntarish bilan tugadi. 11-sentabr kuni Anqaraning 23 joyida portlashlar sodir bo‘lgan bo‘lsa, bu holat 12-sentabrga o‘tgandan keyin kuzatilmadi. Matbuot to‘ntarishga ijobiy yondashdi. Xalq terrorizm va beqarorlikdan charchagani uchun to‘ntarishga xayrixoh bo‘ldi. Tashqi dunyo ham to‘ntarishni qo‘llab-quvvatladi. Afsuski davlat to‘ntarishiga qadar bo‘lgan davrda terror tufayli 1606 kishi hayotdan ko‘z yumdi[9].

**NATIJALAR (RESULTS)**

12-sentabrdagi harbiy interventsiyadan keyin, harbiy rejim va fuqarolik boshqaruvlari kuchsiz siyosiy va ijtimoiy tizimni yangi Konstitutsiya va uning qoidalari bilan butunlay qayta qurishni nazarda tutdilar. Boshqacha qilib aytganda, harbiy aralashuvgacha siyosiylashgan va o‘sha davrdagi siyosiy partiyalar va ijtimoiy tashkilotlarning kurashi bilan xarakterlangan kengayayotgan byurokratik davlat

sektorini samarali boshqarish uchun davlatning jamiyat bilan munosabatlarini qayta qurish ko‘zda tutilgan edi.

1980-yil 12-sentabrgacha faol bo‘lgan siyosatchilar o‘n yilga siyosatdan chetlashtirildi. Talabalar, o‘qituvchilar va davlat xizmatchilari uchun partiyaga a’zolik taqiqlandi. Yangi partiyalarning birlashishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali ularning jamiyatda ildiz otishi imkonsiz bo‘ldi. 1982-yilgi Konstitutsiyaning maqsadi kuchli hukumatni o‘rnatish bo‘lgani uchun har bir muammo konstitutsiyaviy muammo sifatida ko‘rib chiqildi va konstitutsiyadagi har bir muammoga yechim qidirildi[10].

To‘ntarishdan keyin barcha siyosiy partiyalar yopildi. Butun mamlakat bo‘ylab harbiy holat e’lon qilindi va chet elga chiqish taqiqlandi. Birinchi olti haftada davomida 11500 kishi hibsga olindi, 1980-yil oxiriga kelib bu raqam 30 mingga yetdi. Bunday munosabat natijasida siyosiy sabablarga ko‘ra terrorchilik xurujlari soni 90 foizga kamaydi. 12-sentabr voqealari quyidagi oqibatlarni keltirib chiqardi:

1. Yuz minglab hibslar, qatl va qiynoqlar;
2. Siyosiy partiyalar va Turkiya Buyuk Millat Majlisi yopildi. Rahbarlar hibsga olindi, ularga siyosiy taqiq qo‘yildi;
3. 1982-yil Konstitutsiyasi qabul qilindi, 1961-yilgi Konstitutsiyadan farqli o‘laroq, Turkiya tarixidagi eng cheklovchi konstitutsiya bo‘ldi;
4. Liberal iqtisodiy siyosat kuchga kirdi, Kasaba uyushmalarining huquq va erkinliklari cheklandi;
5. Nazorat ostidagi ko‘ppartiyaviy tuzum kuchga kirdi, Ko‘plab partiyalar va siyosatchilarga veto qo‘yildi;
6. Saylovning 10 foizlik chegarasi yetib keldi, kichik partiyalarning ta’siri zaiflashdi[11].

Turkiyaning siyosiy hayoti harbiy holat ostida butunlay falaj bo‘ldi. Yoshlar tashkilotlari yopildi, kasbiy tashkilotlar va kasaba uyushmalarining barcha yig’ilishlari va seminarlari taqiqlandi. Gazeta nashrlari to‘xtatildi, barcha chap qanot nashrlari taqiqlandi. Ikki yil davomida barcha harakatlar bostirildi. Harbiy holat muntazam ravishda har ikki oyda uzaytirilar edi. Ayni paytda yangi konstitutsiya uchun yig’ilishlar boshlandi. Muzokaralar natijasida yangi Konstitutsiya 1982-yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan referendumda 92 foiz ovoz bilan qabul qilindi va kuchga kirdi.

1982-yilgi Konstitutsiya ijro hokimiyatiga muvozanatlashtiruvchi va nazorat qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan institutlar va qoidalarni sezilarli darajada qisqartirish choralarini ko‘rdi. Mamlakatda hokimiyat bo‘shlig’i paydo bo‘ldi. Aynan shu vaqtda siyosiy sahnaga Ona Vatan partiyasini tuzib, 1983-yilgi saylovlarda g’alaba qozonib kirgan O‘zal bu bo‘shliqni din bilan to‘ldirdi[12].

Siyosiy Islom endi O‘zalning “Ona Vatan” partiyasi tarkibida davlat bilan to‘liq birlashgan edi. O‘zal o‘z partiyasi shtabini yaratishda islom tendentsiyalarini inobatga olgan va atrofiga islomiy doiralar tomonidan yetakchi sifatida ko‘rilgan siyosatchilarni to‘pladi.

Turgut O‘zal boshchiligidagi ANAP davrida 90 ta Imom Xatip litseyi ochildi. Imom xatip maktablaridan tashqari Qur’on kurslari ham ko‘paydi. Bu kurslarda Islom dinining asosiy qoidalari o‘rgatilgan. Bu maktablar soni 1980-yilgi to‘ntarishdan oldin 2610 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1989-yilda bu raqam 4715 taga ko‘paydi. Masjidlar soni 54667 tadan 62947 taga yetdi[13].

To‘ntarishning muhim oqibatlaridan biri harbiy kuchning siyosiy sohada ta’sirchan rol o‘ynashda davom etishi edi. Turk Qurolli Kuchlari to‘ntarishdan keyingi davrda siyosiy jarayonga aralashish vakolatiga ega bo‘ldi va bu vakolatdan mamlakat barqarorligini ta’minlash uchun vaqti-vaqti bilan foydalandi.

**XULOSA (CONCLUSION)**

Turkiyadagi 1980-yilgi harbiy to‘ntarish harbiylarning siyosatdagi obro‘sini mustahkamlagan va kelajakdagi aralashuvlar uchun pretsedent bo‘lgan hal qiluvchi daqiqa bo‘ldi. Uning oqibatlari, jumladan, siyosiy repressiyalar, harbiylashgan siyosiy madaniyatning o‘rnatilishi va doimiy ijtimoiy ta’sirlar bugungi kunda Turkiyaning siyosiy manzarasini shakllantirishda davom etmoqda. 12-sentabrgacha bo‘lgan davrda kuchaygan terrorchilik harakatlari, ijtimoiy qarshilik va bosimlar, Prezident saylovlaridagi inqirozlar, vazirlar mahkamasi dasturlari mahalliy va xorijiy kapital kutganlarini oqlamaganligi 12-sentabr davlat to‘ntarishining harakatlantiruvchi kuchini tashkil etdi.

12-sentabr rejimi terrorizmni to‘xtatish, iqtisodiy inqirozni yengish va demokratiyani yo‘lga qo‘yish uchun hokimiyatni qo‘lga olganini da’vo qildi. Biroq bu davrda ichki va xalqaro terrorchilik harakatlari, narxlarning oshishi, inflyatsiya, elektr ta’minotidagi uzilishlar, ishsizlik holatlari kuzatildi. 1980-yil 12-sentabrda harbiy hukumat mamlakat hukumatini o‘z qo‘liga olgach, ular e’lon qilgan deklaratsiyalari bilan Vazirlar Mahkamasini tarqatib yubordi va parlament a’zolarining daxlsizligini olib tashladi va yana demokratiyaga o‘tish maqsadida Maslahat kengashini tuzdi.

Turkiyadagi 1980-yilgi harbiy to‘ntarish nafaqat siyosiy manzarani o‘zgartirdi, balki xalqning umumiy xotirasida o‘chmas iz qoldirdi. Ushbu aralashuvga sabab bo‘lgan omillarni va uning keng qamrovli oqibatlarini tushunish orqali biz Turkiyaning demokratiya va boshqaruv bilan bog’liq davom etayotgan muammolari haqida qimmatli tushunchalarga ega bo‘lamiz. Mamlakat olg’a siljib borar ekan,

o‘tmishdagi tarixiy yaralarni bartaraf etish yanada mustahkam va demokratik jamiyatni shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. Бедрик А.В, Волошина Е, Губарев И. Турецкий политический роцесс в 1960-Х – начале 1970-Х Гг.: Попытки реинтеграции ислама в Кемалистскую модель государства. – Кировский р, РИНХ, 2018. – С. 39.
2. Ayşe K. Türkiye’de sosyal ve siyasal değişim: 1980 ve sonrasi. -Econharran Harran Üniversitesi. İİBF Dergisi, 2019. –S. 21.
3. Hakkı U. Türkiye’de askeri darbeler ve nedenleri üzerine bir analiz denemesi. – Izmir, Dokuz Eylül Üniversitesi. Çağdaş Türkiye tarihi araştırmaları dergisi, 2020. – S. 87.
4. İsmet A. Türkiye’de Ordu-Siyaset İlişkisi, Türk Siyasal Hayatı, 7. Ünite, Editör: Ahmet Demirel, Süleyman Sözen, Anadolu Üniversitesi yayını. - Eskişehir, - S. 48.
5. Ayşe K. Türkiye’de sosyal ve siyasal değişim: 1980 ve sonrasi. -Econharran Harran Üniversitesi. İİBF Dergisi, 2019. –S. 24.
6. Muhammed A. İki darbe arasinda Türkiye’de demokrasi (1960-80). - Kırıkkale Üniversitesi, Sosyal Bilimler Dergisi (KÜSBD), 2022. – S. 23.
7. O‘sha manba. – S. 24.
8. Didem K. 12 Eylül 1980 Darbe Dönemi Türkiye’nin diş politikasi Üzerine Bir Inceleme. Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2015. – S. 61.
9. Abdulvahap A. Türk Siyasal Hayatinda 1980 Sonrasi Darbeler Ve E Muhtira. – Trakya Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 2013. – S. 3.
10. Киреев Н.Г. История Турции: XX век. М.: Крафт+, ИВ РАН, 2007. –С. 342.
11. Hakkı U. Türkiye’de askeri darbeler ve nedenleri üzerine bir analiz denemesi. – Izmir, Dokuz Eylül Üniversitesi. Çağdaş Türkiye tarihi araştırmaları dergisi, 2020. – S. 88.
12. Gökçen S. İki darbe arasi türk demokrasisi. – Anqara, Ankara Üniversitesi Türk Inkılâp tarihi Enstitüsü Atatürk Yolu Dergisi, 2020. – S.246.
13. Ayşe K. Türkiye’de sosyal ve siyasal değişim: 1980 ve sonrasi. -Econharran Harran Üniversitesi. İİBF Dergisi, 2019. –S. 36.

# MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR DUNYOQARASHIDA JISMONIY MASHG'ULOT TA'LIM METODLARINI SHAKLLANTIRISH

**Shomirzayev Lochin Zokirjon o'g'li**
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat yo'nalishi 1-bosqich talabasi

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga jismoniy tarbiya berish jarayonida ta'lim metodlari borasida ma'lumotlar o'z aksini topadi.*

***Kalit so'zlar:*** *Obrazli; harakatli o'yin va ularni mustaqil bajarish, og'zaki mantiqiy mashqlar, sog'lig'ini mustahkamlash, sport maydonchalari va shaharchalari, sport inshootlari qurish, xalqaro musobaqalar tashkil etish.*

**ABSTRACT**

*This article reflects information on educational methods in the process of physical education for preschool children.*

***Keywords:*** *figurative; action game and their independent execution, verbal logical exercises, strengthening health, building sports grounds and towns, sports facilities, organizing international competitions.*

## KIRISH (Introduction)

Jismoniy tarbiya jarayonida bolalarni harakatga o'rgatish tarbiyachining bevosita rahbarligi hamda uning kuzatuvi ostidagi bolalarning mustaqil faoliyatida amalga oshiriladi. Harakat faoliyatiga o'rgatishda bolaning anglash, irodaviy va emotsional kuchlari rivojlanadi hamda uning amaliy harakat ko'nikmalari shakllanadi. Harakatlarga o'rgatish bola ichki dunyosi his- tuyg'usi, tafakkuri, asta-sekin shakllanadigan dunyoqarashi, axloqiy fazilatlariga; bolalar tomonidan bajariladigan, salomatlik va umum-jismoniy rivojlanish uchun foydali bo'lgan harakat faoliyatiga maqsadga yo'nalgan tarzda ta'sir etadi.

Ta'lim mazmunini muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari asosida tanlangan jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar tashkil etadi. Ta'lim jarayonida kattalar bolalarga maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning tajribasini beradi. Uning mazmuniga rivojlanish va takomillashishiga xizmat qiluvchi harakatlarni egallash tajribasi ham kiradi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish juda zarur, bolaning ongli harakat faoliyatida asqotadigan ayrim bilimlar; bolani harakatlarga o'rgatuvchi faoliyat metodlari, faoliyat va ularni amalga

oshirishning malaka va ko’nikmalari haqidagi bilimlar birligi ish jarayonlaridan kelib chiqqan holda tarkibiy qismlarni tashkil etadi. Qismlardan biri ijodiy faoliyat tajribasi hisoblanadi. Bolalikdan mustaqil fikrlashga o’rgatilmagan va hamma narsani tayyor berilgandan so’ng o’zlashtiradigan kishi unga tabiat tomonidan berilgan sifatlarni namoyon qila olmaydi. Shuning uchun jamiyat yosh avlodning ijodiy faoliyatga o’rganishiga tamoman befarq qarab turolmaydi. Harakat faoliyatini tarbiyalash jarayonida kattalar (otaonalar, tarbiyachilar) bolalar rivojlanishining psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular oldiga yangi harakat vazifalarini qo’yadilar.

2. Bolaning mashqlar jarayonida yangi harakat vazifalarini tobora hal eta borishi va shu bilan bog’liq ravishda vujudga keladigan katta imkoniyatlar harakatlar xarakteri va sifatini o’zgartiradi. Bu yosh davri uchun juda xarakterli bo’lgan narsa yangi mashqlarga o’rgatish jarayonida go’yo bir aylanib yangicha sifat kasb etadi. Chunonchi, bolaning yurishi dastlabki paytda va ikkinchi yilning oxirida butunlay farq qiladi. Bu hodisani yangilikning eski narsani diakktik inkori, barcha rivojlanishning va ziddiyatlarni hal etishning obyektiv sharti, harakatlanuvchi omil sifatida ko’rsatish mumkin. Har bir sohada rivojlantirish o’zidan oldingi yashash shakllarini inkor etmasdan kechishi mumkin emas. Bunday murakkab rivojlanish jarayoni tashqi va ichki sharoitning o’zaro aloqadorligida to’xtovsiz kechadi. Qiyinchiliklarni yengish va yangi vazifalarni hal etish bolada ijobiy emotsional kayfiyat hosil qiladi. Bu erishilgan maqsad, tarbiyachi bahosiga muvofiq yangi muskul sezgilari tufayli yuzaga keladi. Paydo bo’lgan o’zgarishlarni mustahkamlash yanada yuksakroq yutuqlarga intilish uyg’onishiga xizmat qiladi. Bu murakkab jarayon doimo tarbiyachi nazorati ostida bo’lishi kerak. Bir tomondan bolaning yangi harakat vazifasini tushunib olishini ta’minlash lozim, ikkinchi tomondan bolada mustaqillik va uni mavjud real harakat imkoniyatlari hamda yuzaga keluvchi qiziqish, emotsiyalari asosida amalga oshirish, g’ayratini uyg’otish zarur. Ta’lim boladan diqqatni bir joyga to’plashni, faol tasavvur, faol fikrlashni, xotirani rivojlantirishni talab qiladi: masalan, agar ta’lim jarayoni qiziqarlilik kasb etib, emotsional ruhda bo’lsa – emotsional; harakat namunasi tarbiyachi tomonidan obrazli tarzda ko’rsatilsa va bolalar tomonidan bajarilsa – obrazli; harakatli o’yin va ularni mustaqil bajarishda barcha mashq elementlarini bajarish izchilligi vazifalari tushunib va eslab qolinsa, og’zaki mantiqiy mashqlar bolalarning o’zlari tomonidan amalda bajarish bilan bog’liq bo’lsa – motor harakat. Buning uchun ta’lim erkin bo’lishi kerak, shundagina mashqlarni ongli, mustaqil bajarish mumkin. Bolalarga ta’lim berishda axloqiy tarbiya, bolaning ma’naviy tuyg’usi va ongini shakllantirish, uning oliyjanoblik va o’zaro yordam, maqsadga intilish, halollik, adolatlilik kabi axloqiy-iro daviy sifatlarini rivojlantirish bilan bevosita bog’liqdir. To’g’ri harakatlarga o’rgatishning

butun jarayoni bolalarda estetik hislarni tarbiyalaydi. Bolalar asta-sekin egallab boradigan chiroyli harakatlar, aniq saflanish, ularning yoshiga xos o'yin obrazlarining ijodiy ifodaliligi, o'yinlarda she'riy matnlar, o'yin boshlanmalari, sanashmachoqlar – bularning hammasi bolalarda estetik didni tarbiyalash vazifasiga xizmat qiladi. Bolalar va tarbiyachilarning kostyumlari, jismoniy tarbiya qo'llanmalari va hokazolarning tashqi bezatilishi katta ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonini tashkil etish bolalarni ular kuchi yetadigan mehnat harakatlarida mashq qildirish imkonini beradi. Tarbiyachi bolalardan jismoniy tarbiya jihozlarini o'zlari tartibli va toza saqlashlarini (ixcham o'ralgan bayroqchalar, dazmollangan lenta, ro'molchalar va h.k.) muntazam talab qilib turadi. Bu haqida birinchi navbatda navbatchilar qayg'uradilar va zarur buyumlarni avaylab joylashtiradilar. Shu bilan birga ular barcha bolalar foydalanishlari qulay bo'lishi uchun predmet va inventarlarning joylashish tartibini ham e'tiborda tutadilar. Bolalar sharlar, to'plar va hokazolarni vaqti-vaqti bilan yuvib, yirik jihozlarni artib turadilar. Bunday tadbirda barcha tarbiyalanuvchilar tarbiyachi rahbarligida ishtirok etadilar.

Shunday qilib, harakatlarga o'rgatish jarayonida bolalarda aqliy qobiliyat, axloqiy va estetik tuyg'ular rivojlanadi, o'z faoliyatiga ongli munosabat va shu bilan bog'liq ravishda maqsadga intilish, uyushqoqlik shakllanadi. Bularning hammasi o'zaro aloqadorlikda ta'lim jarayoniga umumiy yondashishni amalga oshirilishi hisoblanadi. Mazkur jarayon har tomonlama rivojlangan shaxsning shakllanishiga xizmat qiladi.

***Bolalarni harakatlarga o'rgatishning metodik usullari.***

Har bir alohida metod vazifasi va uni hal etishga bir hil yondashish jihatdan birlashadigan xilma-xil usullarning butun bir kompleksidan iboratdir.

Usul – metodning bir qismi, uni to'ldiruvchi va aniqlashtiruvchi detal.

Tarbiyachi xilma-xil usullarni qo'yilgan vazifalarga muvofiq umumiy, ijodiy qo'llanishining ta'lim jarayonini boyitadi, uni individullashtiradi, bir xillikka barham beradi. Bolalarni harakat faoliyatiga o'rgatish jarayonida metodik usullar har biri alohida holatda harakat materialining vazifalari va mazmuni, uni bolalar tomonidan o'zlashtirish darajasi, ularning umumiy rivojlanishi, jismoniy holati, har bir bolaning yosh va tipologik xususiyatlariga ko'ra tanlanadi. Shu ma'noda ta'lim usullari bir tomondan bolalar vazifalarni idrok qilayotganda barcha analizatorlarga har tomonlama ta'sir etishni, ikkinchi tomondan bolalarning harakat vazifalarni ongli va mustaqil bajarishini ta'minlovchi turli birikmalarda kombinatsiyalanadi. Bolalarni harakatlarga o'rgatishda usullarning birikuvi ularning o'zaro harakati bilan belgilanadi. Tarbiyachi tomonidan ko'proq ko'rgazmali metodga oid usullar qo'llanilsa, masalan, harakat namunasini ta'limning barcha bosqichlarida hamda turli

yosh guruht arida ko’rsatish mashqlarni bola tomonidan mexanik tarzda, tushunmasdan taqlidan bajarishga olib kelishi mumkin. Bunday holda ko’proq bolaning idrok orgonlariga ta’sir etish uning idrokini boyitadi, ayni paytda zarur aqliy jarayonini susaytiradi, muayyan mashqning barcha elementlarini mantiqiy izchillikda ongli tarzda eslab qolishga yordam bermaydi, ba’zan bolani keyinchalik mashqni ixtiyoriy bajarish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Biroq bunda bolaning yosh imkoniyatlarini (ayniqsa, kichik va o’rta yoshdagilar) hisobga olmagan holda ko’proq va faqat og’zaki usuldan foydalanish ham uni harakatlarni obrazli idrok etishdan, sezgilarining ishonchliligidan, aniq obrazli tafakkur jarayonidan mahrum etadi. Shuning uchun tarbiyachi bolalarni to’g’ri harakatlarga o’rgatishda ta’limning yuqori darajasiga erishishiga intilib ta’limning turli usullari: ko’rgazmali, og’zaki va amaliy usullaridan o’zaro aloqadorlikda foydalanadi. Shunday qilib, u bolalarning har tomonlama rivojlanishiga, mashqlarning ular tomonidan ongli o’zlashtirilishiga, muayyan sharoitlarda ularni mustaqil va ijodiy qo’llashga yordam beradi. Ko’rgazmali metodga oid usullar. Bolalarni harakatlarga o’rgatishda ko’rgazmalilikning turli usullaridan foydalaniladi, yaqqol ko’rish usullari harakat yoki ayrim harakat elementlarining tarbiyachi tomonidan to’g’ri va aniq namoyish etilishidan: tevarak-atrofdagi hayot ko’rinishlariga taqlid qilishdan; masofani bosib o’tishda mo’ljal olishdan foydalanish; ko’rgazmali qo’llanmalar – kinofilmlar, teleeshittirishlar, fotolavhalar, suratlar va hokazolardan foydalanishdan iboratdir. Taktil-muskul ko’rgazmaliligi bolalarning harakat faoliyatiga jismoniy tarbiya qo’llanmalarini kiritish bilan ta’minlanadi.

Masalan, ketma-ket qo’yilgan yoy shaklidagi darvozachalar tizzani baland ko’tarib, yugurish ko’nikmasini hosil qilish maqsadida qo’llaniladi. Yugurish paytida oyoqni bu to’siqlar osha ko’tarib o’tish bolaning tizzani baland ko’tarish ko’nikmasini egallashga yordam bcradi. Bundan tashqari predmetlar bolalarga yo’l qo’ygan xatosini his qilish va tushunish (mazkur holatda agar oyoqning uchi darvozachalarga tcgib ketganda) imkonini bcradi. Bola ongida tarbiyachining “darvozachaga tcgib kctmaslik” haqidagi topshirig’ining saqlanib qolishi xato qilayotgan paytida teri muskul sczgisi bilan bog’lanadi va bola o’z harakatining noto’g’riligini o’zi aniqlay oladi.

Taktil-muskul ko’rgazmaliligi bola gavdasining alohida qismlarini boshqaruvchi tarbiyachining bcvosita yordamida ham ifodalanadi (masalan, qad-qomatni to’g’ri muskul tonusi sczgisini uyg’otadigan qo’l tckkazish orqali rostlash). Biroq tarbiyachining bunday yordami qisqa muddatli bo’lishi lozim. Aks holda muayyan dinamik (streotipni hosil qilishga xizmat qiluvchi doimiy qo’zg’atuvchilar tizimidagi

signal) ahamiyatiga ega bo'lib qolishi mumkin. Keyinchalik ko'nikma og'zaki ko'rsatmalar yordamida mustahkamlanadi.

Obrazli syujetli hikoya og'zaki usullarga mansub. U harakatlardagi ifodalilikni rivojlantirish va o'yin obraziga yaxshiroq kirish maqsadida qo'llaniladi. Syujetli hikoya amalda ertakni qisqa hikoya (1,5–2 minut) qilishga o'xshashdir. U bolalarda o'yin holati va harakatlarning barchasini xuddi ko'rib turgandek qayta tasavvur qilishga imkon beradi, emotsional holatni tiklaydi. Tarbiyachi o'yinni odatdagicha bir xilda tushuntirish, rollarni taqsimlash va harakat o'rnini ko'rsatish (syujetsiz o'yinda bo'lganidek) o'rniga o'yin syujeti va qoidalarini qisqa obrazli hikoyada ochib beradi.

Og'zaki ko'rsatma. Ruhshunos va pedagoglarning tadqiqot lari 4,5 va ayniqsa 6 yoshli bolalar o'ziga mos turli harakat faoliyatining vazifa va shartlarini tushunib olishda yetarli tayyorgarlikka ega ekanliklarini ko'rsatmoqda. Bu harakat ko'nikmalarini shakllantirishda og'zaki ta'sir etish usullaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ular faqat ko'nikmalarni egallash sur'atini emas, balki sifatini ham oshiradi.

"Bola rivojlanishining keyingi bosqichlarida og'zaki ta'sir etish tizimi yordamida avvalgi taassurotlar izlarining yangi birik ma va kombinatsiyalarda jonlanishi yuz beradi. Bundan asosan birinchi bor sof og'zaki ko'rsatma va tushuntirishlar yordamida yangi muvaqqat aloqa o'rnatish, yangi bilim va ko'nikmalar hosil qilish imkoni tug'iladi"1 . Maktabgacha katta yoshda harakat ko'nikmalarini shakllantirish ko'p jihatdan bolaning mashq mazmuni va tuzilishi, ya'ni uning barcha elementlarini qaysi izchillikda va qanday bajarish kerakligini anglash darajasiga bog'liq bo'ladi. Bolalarni o'rgatishda og'zaki va ko'rgazmali usullarning maqsadga muvofiq qo'shib olib borilishi ularning o'zaro bog'liqligi bir tomondan harakatlarni idrok etish va qayta bajarishning aniqligi va obrazliligini, ikkinchi tomondan bolalar bajaradigan harakatli topshiriqlar – ular mazmuni va har bir harakat faoliyatining barcha elementlari izchilligini ongli tushunilishini ta'minlaydi.

Tarbiyachi bolalarning amaliy faoliyatini tashkil etayotib, butun ta'lim jarayonini mashg'ulotning vazifalari, mazmuniga muvofiq rejalab oladi. U bolalarga tanish harakatlarni takomil lashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga bo'ladi, mustaqil harakat qilishni taklif etadi; bolalarga mashqlarni o'rgatayotib, uni birnecha marta takrorlaydi va butun mashq jarayonini rejalagan holda o'zgartiradi; bolalarning ijodiy izlanishini mukofotlab, mashqlarni, harakatli o'yinni o'zgartirish, ularning variantlarini tuzish, yangisini o'ylab topish kabi topshiriqlarni beradi. Bola ta'lim jarayonida har bir yosh bosqichida katta bilim va amaliy ko'nikmalarni egallab boradi.

Shuning natijasida harakatlarning mustaqilliligi, egallagan ko'nikmalarini o'yin va hayotda qo'llanishdagi topqirlik kuchaya boradi.

Hozirgi davrda O'zbekistonda va rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport yuqori rivojlanish darajasiga ko'tarilgan. O'zbekistonda jismoniy tarbiyani tashkil etish maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida, maxsus sport ta'lim muassasalarining o'quv rejalariga fan sifatida kiritilib, o'qitiladi.

O'zbekistonda sportni rivojlantirish borasida, ayniqsa, yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, yoshlarni jismonan sog'lom va baquvvat, ma'nan barkamol avlod bo'lib yetishtirish, aholining turmush darajasi va sog'lig'ini mustahkamlash, sport maydonchalari va shaharchalari, sport inshootlari qurish, xalqaro musobaqalar tashkil etish borasida xayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Sportni rivojlantirish va targ'ib qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirildi. Jumladan, Respublikamizda 1993-yil 4-mart kuni "Sog'lom avlod uchun" ordeni ta'sis etildi, 1995-yil 13-aprelda "Sog'lom avlod uchun" oynomasi, 1998-yilda "O'zbekiston iftixorlari" unvoni ta'sis etildi, 2000-yil – "Sog'lom avlod yili", 2001-yil "Ona va bola yili", 2002-yilning 24-oktabrida "O'zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasini tuzish" to'g'risida farmon qabul qilindi. 2005-yil – "Sihat-salomatlik yili", 2008-yil – "Yoshlar yili", 2010-yil – "Barkamol avlod yili", 2012-yil – "Mustahkam oila yili", 2013-yil – "Obod turmush yili", 2014-yil – "Sog'lom bola yili", 2016 – yil "Sog'lom ona va sog'lom bola" yili deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasida sportga berilayotgan yuqori e'tibor natijasida jahon miqyosida yuqori natijalarga erishgan Muhammadqodir Abdullayev, Artur Grigoryan, Lazizbek Zokirov, Timur Tulyakov, Shuhrat Xojayev, Lina Chiryazova, Olmos Yusupov, Abbos Atoyev, Rishod Sobirov, Ruslan Nuritdinov singari elga manzur va mashhur sportchilar yetishib chiqdilar.

**ADABIYOTLAR:**

1. Jalolova G.Q. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash" (metodik tavsiya). Toshkent, 2004
2. A.Abdullaev tahriri ostida. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik. Farg`ona – 2008.
3. Ma`murov B.B. Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent – 2014. 229 b.
4. Maxmudov B.A. Sport va harakatli o'yinlarni o'qitish metodikasi (harakatli o'yinlar). O'quv qo'llanma. TDPU nashriyoti. Toshkent – 2018 y. 144 b.

# TURLI CHEGARALANISHLI HOL UCHUN Π STRATEGIYANING QURILISHI HAQIDA

**Abduraximova Zulayxo Ikromjon qizi**
Turan International University o‘qituvchisi
zulayxoabduraximova96@gmail.com

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Π strategiyaning geometrik chegaralanish, integro – geometrik chegaralanishli holatlar uchun qurilishi yoritilgan. Π strategiyaning qurilishi turli chegaralanishli hol uchun quvish – qochish maslasining yechimlariga uzviy bog‘liqligi isbotlangan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Π strategiya, geometrik chegaralanish, integro – geometrik chegaralanish.*

# О ПОСТРОЕНИИ П – СТАТЕГИИИ ДЛЯ РАЗЛИЧНЫХ ГРАНИЧНЫХ СЛУЧАЕВ

## АННОТАЦИЯ

*В статье описано построение П стратегии для геометрически ограниченных, интегро-геометрически ограниченных случаев. Доказано, что построение П-стратегии неразрывно связано с решением задачи погони-убегания для различных предельных случаев.*

***Ключевые слава:*** *П стратегии, геометрическое ограничение, интегро - геометрическое ограничение*

# ON THE CONSTRUCTION OF Π STRATEGY FOR DIFFERENT BOUNDARY CASES

## ABSTRACT

*This article describes the construction of strategy P for geometric bounded, integro-geometrically bounded cases. It has been proved that the construction of P strategy is inextricably linked to the solutions of the chase-escape problem for different limiting cases.*

***Keywords:*** *Π strategy, geometric limitation, integro - geometric limitation.*

Differensial o‘yinlar nazariyasida chegaralanishlar uchun Π strategiya muhim ahamiyatga ega. Har bir chegaralanish uchun alohida Π strategiyalar mavjud. Quyida ularni har birini ko‘rib chiqamiz.

Fazoda P va E obyekt harakatlanyapti

P: $\begin{cases} \dot{x} = U \\ x(0) = x_0 \end{cases}$ (1)

E : $\begin{cases} \dot{y} = V \\ y(0) = y_0 \end{cases}$ (2)

**1. Geometrik chegaralanish :**

$a)\ |U| \le \alpha\ ;\ |V| \le \beta\ ;\ |U| = \sqrt{U_1^2 + \cdots + U_n^2}\ ;\ |V| = \sqrt{V_1^2 + \cdots V_n^2}$

$b)\ U = (U_1; U_2) \to |U_1| \le \alpha_1\ ,\ |U_2| \le \alpha_2$

$V = (V_1; V_2) \to |V_1| \le \beta_1\ ,\ |V_2| \le \beta_2$

Π strategiya : U(v) = v-$\lambda_G(v)\xi_0$ , $\xi_0 = \frac{x_0 - y_0}{|x_0 - y_0|}$ bu yerda

$\lambda_G(v) = < v, \xi_0 > + \sqrt{< v, \xi_0 >^2 + \alpha^2 - |v|^2}$

$\alpha > \beta$ da tutish masalasi yechiladi ; $\alpha \le \beta$ da qochish masalasi yechiladi .

**2. Integro – geometrik chegaralanishli xol :**

a) $\int_0^\infty |U(s)|^2 ds \le \rho_0,$ (3)

$|v| \le \beta$ (4)

b) $\int_0^t |U_1(s)|^2 ds \le \rho_{10},\ \int_0^t |U_2(s)|^2 ds \le \rho_{20}$

$|v_1| \le \beta_1, \qquad |v_2| \le \beta_2$

P: $\dot{x} = U(t)$ , x(0) = $x_0$ → x(t) = $x_0 + \int_0^t U(s)ds$

E : $\dot{y} = V(t)$ , y(0) = $y_0$ → y(t) = $y_0 + \int_0^t V(s)ds$




Tutish masalasi : $\forall t^* : x(t^*) = y(t^*)$ (5)

Qochish masalasi : $x(t) \ne y(t)\ ,\ t \ge 0$ (6)

$z + Tu = Tv\ ,\ Tu = Tv - z\ ,\ u = v - \frac{z}{T}$ (7)

$\int_0^T |U|^2 ds = \rho, T|U|^2 = \rho, |U|^2 = \frac{\rho}{T}$ (8)

Quyidagicha belgilash kiritib olamiz : $\frac{|z|}{T}=\lambda \Rightarrow U=v-\lambda\xi, |U|^2=\lambda\frac{\rho}{|z|}$

$$\begin{cases} |U|^2=|v|^2-2\lambda\langle v,\xi\rangle+\lambda^2 \\ \lambda\frac{\rho}{|z|}=|v|^2-2\lambda\langle v,\xi\rangle+\lambda^2 \end{cases} \Rightarrow \lambda^2-2\lambda(\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle)+v^2=0 \qquad (9)$$

$$\lambda_{1.2}=\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle\pm\sqrt{(\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle)^2-|v|^2} \qquad (10)$$

$\lambda_1$ va $\lambda_2$ ham musbat . Savol tuo‘iladi qaysi $\lambda$ ni olamiz ?

$\lambda_1,\lambda_2>0$ agar , $\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle\succ 0$ bo‘lsa yechim mavjud bo‘lishi uchun ildiz osti aniqlangan bo‘lishi kerak ya’ni $D=\left\{(\rho,z,v):(\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle)^2-|v|^2\geq 0\right\}$




Integro – geometrik holda quvlovchini parallel yaqinlashtirish orqali $(\omega_1,\omega_2)$ oraliqda tutish mumkin bo‘lar ekan . Biz bitta quvlovchi bitta qochuvchi bo‘lgan holda ko‘ramiz ya’ni $\lambda_+$ ni olamiz . Shuning uchun (10) ga yechim sifatida $\lambda_1$ ni tanlaymiz . Natijada hal qiluvchi funksiya deb,

$$\lambda(\rho,z,v)=\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle+\sqrt{(\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle)^2-|v|^2} \qquad (11)$$

funksiyani olamiz . *n* o‘lchovli fazoda $2n+1$ ta yechimi bor. (11)- funksiyani aniqlanish sohasini tahlil qilamiz $D=\left\{(\rho,z,v):(\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle)^2-|v|^2\right\}$

$(\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle+|v|)(\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle-|v|)\geq 0$ demak ,

$$\frac{\rho}{2|z|}+\langle v,\xi\rangle-|v|\geq 0 \qquad (12)$$

bo‘lishi kerak . (12) tengsizlikning geometrik mohiyati ( $v$ ga nisbatan ):

$a^2=\frac{\rho}{2|z|}$ , $a^2+v_1\xi_1+...+v_n\xi_n-\sqrt{v_1^2+...+v_n^2}\geq 0$ figura hosil bo‘ladi .

Soddalashtirish uchun tekislikda ko‘raylik . $a^2+v_1\xi_1+v_2\xi_2-\sqrt{v_1^2+v_2^2}\geq 0$




$\xi_0=\frac{x_0-y_0}{|x_0-y_0|}, x_0=(0;0), y_0=(1;0); \xi_0(-1;0), \xi_1=-1, \xi_2=0$

$a^2-v_1-\sqrt{v_1^2+v_2^2}\geq 0$ , $a^2\geq v_1+\sqrt{v_1^2+v_2^2}\geq 0$ , $a=1$desak ,

$v_1+\sqrt{v_1^2+v_2^2}\leq 1,\ \sqrt{v_1^2+v_2^2}\leq 1-v_1$

$1-2v_1+v_1^2\geq v_1^2+v_2^2, 1-2v_1\geq v_2^2, v_1\leq\frac{1-v_2^2}{2}$




$D$ sohamiz parabolaning ichi ekan . Uch o‘lchovli fazoda ko‘rsak , paraboloid bo‘lib qolar ekan . Agar $a\neq 1$bo‘lsa uchi $\frac{a}{2}$ da bo‘lar ekan tekislikda .

$\xi_0(-1,0,0);\ a^2-v_1-\sqrt{v_1^2+v_2^2+v_3^2}\geq 0, a^2-v_1\geq\sqrt{v_1^2+v_2^2+v_3^2}$

$a^4-2a^2v_1+v_1^2\geq v_1^2+v_2^2+v_3^2, a^4-2a^2v_1\geq v_2^2+v_3^2, v_1\leq\frac{a^4}{2a^2}-\frac{v_2^2+v_3^2}{2a^2}, v_1\leq\frac{a^2}{2}-\frac{v_2^2+v_3^2}{2a^2}$

$\beta \le \frac{a^2}{2} = \frac{\rho}{4|z|} \Rightarrow \rho \ge 4\beta|z|$. Demak , xulosa (11) $\lambda(\rho, z, v)$ funksiya $\rho \ge 4\beta|z|$ bo‘lganda $\forall|v| \le \beta$ uchun aniqlangan .

(11) ko‘rinishni yuqoridagi $U = v - \lambda\xi, |U|^2 = \lambda\frac{\rho}{|z|}$ tenglikka olib kelib qo‘yamiz va quyidagi strategiyani hosil qilamiz :

$$\begin{cases} U(\rho, z, v) = v - \lambda(\rho, z, v)\xi \\ |U(\rho, z, v)|^2 = \lambda(\rho, z, v)\frac{\rho}{|z|} \end{cases} \quad (13)$$

(1) va (2) tenglamadan quyidagi tenglamani hosil qilamiz

$$\begin{cases} \dot{z} = U - v \\ z(0) = z_0 \end{cases} \quad (14)$$

bu yerda $z = x - y, \dot{x} = U; z_0 = x_0 - y_0, \dot{y} = v; \dot{x} - \dot{y} = U - v$

(14) ko‘rinishdagi U ni o‘rniga (13) ni 1-qatorini qo‘yamiz natijada :

$$\begin{cases} \dot{z} = -\lambda(\rho, z, v)\xi \\ z(0) = z_0 \end{cases} \quad (15)$$

$$\rho(t) = \rho_0 - \int_0^t |U(s)|^2 \, ds \quad (16)$$

(16) tenglamaga $|U|^2$ ni o‘rniga (13) ni 2-qatorini qo‘yamiz

$\rho(t) = \rho_0 - \int_0^t \lambda(\rho(s), z(s), v(s))\frac{\rho(s)}{|z(s)|} ds$ tenglikni hosil qilamiz . Endi har ikki tomondan hosila olaylik

$$\begin{cases} \dot{\rho}(t) = -\lambda(\rho, z, v)\frac{\rho}{|z|} \\ \rho(0) = \rho_0 \end{cases} \quad (17)$$

(15) va (17) lardan quyidagi natijaga ega bo‘lamiz

$$\begin{cases} \dot{z} = -\lambda(\rho(t), z(t), v(t))\dfrac{z(t)}{|z(t)|} \\ \dot{\rho} = -\lambda(\rho(t), z(t), v(t))\dfrac{\rho(t)}{|z(t)|} \\ z(0) = z_0, \rho(0) = \rho_0 \end{cases}$$

(18)

(18) dan $(\rho, z)$ ga nisbatan differensial tenglamalar sistemasi hosil bo‘lishi kelib chiqdi.

(18) sistema nochiziqli differensial sistema . Agar $z \neq 0$ bo‘lsa bu sistemaning o‘ng tomonidagi funksiya $\rho \geq 4\beta|z|$ shartda uzluksiz ( $(\rho, z)$ ga nisbatan) . Funksiya $t$ ga nisbatan esa o‘lchovli funksiya ( ya’ni Karatedore shartlari bajarilyapti ) deyiladi. Karatedore sharti bo‘lishi uchun , Karatedore tenglamasining o‘ng tomoni $z$ bo‘yicha Lipshist shartini qanoatlantirishi kerak ya’ni

$$|f(z_1, t) - f(z_2, t)| \leq L|z_1 - z_2| \qquad (19)$$

(18) tenglamaning o‘ng tomonidagi funksiyalar $(\rho, z)$ bo‘yicha $z \neq 0$ holda Karatedore shartlari o‘rinli . Shuning uchun (18) sistemani yagona yechimi mavjud bo‘ladi . (18) tenglamadan quyidagicha almashtirish hosil qilamiz

$$\begin{cases} \dot{z}_1 = -\lambda(\rho(t), z(t), v(t))\dfrac{z_1(t)}{|z(t)|} \\ \dot{z}_2 = -\lambda(\rho(t), z(t), v(t))\dfrac{z_2(t)}{|z(t)|} \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ \dot{z}_n = -\lambda(\rho(t), z(t), v(t))\dfrac{z_n(t)}{|z(t)|} \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} \dfrac{\dot{z}_1}{z_1} = -\lambda(\rho(t), z(t), v(t))\dfrac{1}{|z(t)|} \\ \dfrac{\dot{z}_2}{z_2} = -\lambda(\rho(t), z(t), v(t))\dfrac{1}{|z(t)|} \\ \cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots\cdots \\ \dfrac{\dot{z}_n}{z_n} = -\lambda(\rho(t), z(t), v(t))\dfrac{1}{|z(t)|} \end{cases}$$

endi integrallasak ,

$$\ln z_i\Big|_0^t = -\int_0^t \lambda(\rho(t), z(t), v(t))\frac{1}{|z(t)|}ds; z_i(t) = z_i(0)e^{-\int_0^t \lambda(\rho(t), z(t), v(t))\frac{1}{|z(t)|}ds}, i = \overline{1, n}$$

$e^{-\int_0^t \lambda(\rho(t),z(t),v(t))\frac{1}{|z(t)|}ds} = h(t)$ deb olsak ,

$$z(t) = z_0 h(t) \tag{20}$$

hosil bo‘ladi . Xuddi shu kabi ,

$$\begin{cases} \rho(t) = \rho_0 h(t) \\ z(t) = z_0 h(t) \end{cases} \tag{21}$$

bu yerda $h(t) = h(z, \rho, v, t)$ . (21) ni (11) ga olib borib qo‘yaylik

$$\lambda(\rho,z,v) = \frac{\rho}{2|z|} + \langle v, \xi \rangle + \sqrt{(\frac{\rho}{2|z|} + \langle v, \xi \rangle)^2 - |v|^2} = \frac{\rho_0 h}{2|z_0|h} + \left\langle v, \frac{z_0 h}{|z_0|h} \right\rangle + \sqrt{(\frac{\rho}{2|z|} + \langle v, \xi \rangle)^2 - |v|^2} = \lambda(\rho_0, z_0, v)$$

Demak , boshlano‘ich holatdagi $(\rho_0, z_0)$ ni bilsak bo‘ldi ekan .

Ta’rif : Integro –geometrik differensial o‘yinda $\Pi$ strategiya deb , quyidagi funksiyaga aytamiz

$$U(v) = v - \lambda_{IG}(v)\xi_0 \tag{22}$$

bu yerda $\lambda_{IG}(v) = \frac{\rho_0}{2|z_0|} + \langle v, \xi_0 \rangle + \sqrt{(\frac{\rho_0}{2|z_0|} + \langle v, \xi_0 \rangle)^2 - |v|^2}$

Mavzu bo‘yicha tarixiy ma’lumot : Strategiyalar quvish masalasi qadimdan olimlarni qiziqtirgan . Eramizdan 2000 yil avval Xitoy qo‘lyozmalarida “Burgut va O‘lja masalasi “ o‘rganilgan bunda burgut o‘z o‘ljasini izma –iz quvish strategiyasi orqali harakatlanib ushlash masalasi ko‘rilgan . Lekin matematika rivoji u davrda bu masalani yechishga yetarli bo‘lmagan . 1732- yil fransus gidrogrifi va matematigi Bagauer “ Tulki va Quyon “ masalasini yechadi . Bunda quyin ma’lim to‘o‘ri chiziq bo‘yicha qochib borganda tulki uni izma – iz quvish natijasida qaysi trayektoriya orqali harakat qilishi mumkinligi m$\alpha$ asaasi yechildi . Bu masala amerikalik olim Lokning “ Zambaraklarni boshqarish “ kitobida bafurcha tahlil qilinib yechimlari keltirilgan .

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Prezident SH.M.Mirziyoyevning «Oliy ta’lim tizimi» bo‘yicha 2017-yil 20-apreldagi yangi qarori .
2. Prezident SH.M.Mirziyoyevning «Matematika ta’limini rivojlantirish» bo‘yicha 2020-yil 7-maydagi qarori.
3. Pontryagin L. S Ordinary differential eqvetions. –ADDISON-WESLEY PUBLISHING, 1962.-298p.

4. Layek G. C. An Introduction to dynamical Systems and chaos. –Springer India, 2015. -622p.
5. Сатимов Н. Ю. Методы решения задачи преследования в теории дифференциалних игр. –Т.: Националъной библиотеки Узбекистана имени алишера Навои, 2019, -230с.
6. Azamov A.A, Samatov B.T. П-strategy. An elementary Introduction to The Theory of Differential games, -T.: National Univ. of Uzb., 2000. -32p.
7. Israilov I., Otakulov S. Variatsion hisob va optimal boshqaruv, -Samarqand, 2012. -242b.
8. Azamov A.A., Samatov B.T. (2010). The П– strategy: Analogies and Applications, The Fourth International Conferense Game Theory and Management, St. Peterburg, Russia: 33-47.
9. Samatov B.T. (2013) On a pursuit – Evasion Problem under a Linear Change of the Pursuer Resourse. Siberian Advances in Mathematics, Allerton Press, Inc. Springer. New York: 23(4). 294-302.
10. Samatov B.T. (2013). On a Pursuit – Evasion Problem under Integral – Beometric construints on Pursuer controls. Automation and Remote Control, Pleiades Publishing, Lto. New York: 74(7). 1072-1081.
11. Chikrii A.A. Conflict – controlled processes, Boston – London Dordrecht: Kluwer Academ. Publ., 1997. -424p.
12. Fleming W.h. The convergense problem for differential games, J. Math. Anal. Appl. -1961. –N3. –p. 102-116.
13. Friedman A. Differential games, New York: Wiley, 1971. -350p.
14. Krasovskiy N.N. Dynamic Sistem Control (in Russian), Nauka, Moscow, 1985. -520p.
15. Pshenichniy B.N., Ostapenko Y.V. Дифференсиалныеигрыю. Киев. Науково димка. 1992. -224зю
16. Petrosyan L.A. The differential Games of pursuit (in Russian), Leningrad, LSU, 1977. -224p.
17. Satimov N. Yu. Methods of solving of pursuit problem in differential games (in Russian), Tashkent: NUUz, 2003. -245p.
18. Samatov B.T., G`ayniddinov Sh.T., Uzoqboyev H.Q., Abdurahimova Z.I. Modification of “Life Line” game of isaact. Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi 4-son. 2021-yil. 25-32b.
19. G`ayniddinov Sh.T., Uzoqboyev H.Q., Abdurahimova Z.I. Uchta quvlovchi va bitta qochuvchi bo`lgan hol uchun tutish masalasining geometric talqini. Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi va Namangan Davlat Unversiteti tarix

kafedrasi. Tamaddun Silsilasi ilmiy jurnali, 3-son. Iste`dod ziyo press nashriyoti. Namangan 2021-yil. 101-104b.

20. G`ayniddinov Sh.T., Nosirov A.R., Prezident adminstratsiyasi huzuridagi Ta`lim fidoyilari ilmiy – uslubiy jurnali, 4-son. ISSUE 4. April 2021. 279-286b.

21. Samatov B.T. The some problems Linear Differential Games. With integral constraints (in Russian). The pertaining to kondidat dissertation, Tashkent, 1990. - 127p.

22. Samatov B.T. The construction of the Π-strategy for the game on simple pursuit with integral constraints (in Russian). The boundary value for non – classical mathematical – physical equations. Tashkent. Fan, 1986, p. 402-412.

23. Samatov B.T. The Game with “a Survival Zone” in the case integral – geometric constraints on the controls of the Pursuer, Uzb. Math.jurnal- Tashkent, 2012. --№7. –C.64-72.

# CULTURE AS A COMPONENT OF LANGUAGE MATERIAL

**Khurshida Tursunali kizi Danabayeva,**
Tashkent, Uzbekistan

## ABSTRACT

*The article discusses the justification of culture as an integral ingredient of input in language classrooms. The aim of research is to disclose the impact of cultural information of language input in the development of language proficiency of language learners. The results of research show that language acquisition is fostered due to cultural norms, identity recognition, student engagement, intercultural competence, environment, cultural concepts and it approaches not only language as a system, but also as a sociocultural phenomenon.*

***Key words:*** *culture, language, competence, concept, cross-culture, cultural norms, linguoculture, input, output, language material.*

## АННОТАЦИЯ

*В статье обсуждается обоснование культуры как неотъемлемого компонента входных данных на языковых занятиях. Целью исследования является раскрытие влияния культурной информации языкового входа на развитие языковой компетентности изучающих язык. Результаты исследования показывают, что усвоение языка стимулируется культурными нормами, признанием идентичности, вовлеченностью учащихся, межкультурной компетенцией, средой, культурными концепциями, и оно рассматривает не только язык как систему, но и как социокультурное явление.*

***Ключевые слова:*** *культура, язык, компетенция, концепция, кросс-культура, культурные нормы, лингвокультура, вход, выход, языковой материал.*

## INTRODUCTION

Language, religion, cuisine, social customs, music, and the arts are all aspects of a particular group of people's knowledge and characteristics, termed culture. Despite the fact that cultures contain a wide variety of tangible objects, culture is not something you can touch. Culture is an abstract notion that refers to the collective set of common values, norms, attitudes, and practices among various social groupings. Diverse social groupings have different cultures, yet all social groups have a set of shared behaviors and principles that make up their culture. The role of culture in successful language acquisition is inevitable.

## RESEARCH METHODOLOGY

The research is theoretical in nature, and the following theoretical methods are used: abstraction, generalization, induction, deduction. The results of the research are

significant from a qualitative point of view, and they were achieved in an analytical-descriptive method. Scientific-theoretical approach prevails in research.

**LITERATURE REVIEW**

Integration of culture into language teaching is, by no doubt, a requirement to pass on general humanistic knowledge. If successful integration takes place, the foreign and/or second language learners of English or any other languages will be able to act flexibly and sensibly along the lines of cultural norms that they encounter within the target language culture. In doing so, English language learners get to assume the role of a comparative ethnographer and fully comprehend the role of their own identity during this comparison between their own culture and the target culture (Turkan, S., & Çelik, S. (2007). Integrating culture into EFL texts and classrooms: Suggested lesson plans. Novitas-ROYAL (Research on Youth and Language), 1(1). pp.18-33.). Repeatedly, the main point has been that students' interest in the target culture should be cultivated and maintained at a level in which the students are actively engaged in the material, merely because intercultural competence will make them more aware of their own culture, as well as the target culture. During the whole process of learning about the target culture, language learning would most commonly be accelerated. In other words, Learners of the English language should be able to behave sensibly and flexibly in accordance with the cultural norms they meet in the culture of the target language. Language instruction is inextricably linked to the cultural material that it brings to the schools. The ideal situation for teachers would be to foster an environment in the classroom where the students' native and target cultures will support their language learning.

Language teachers have always known that learning an additional language requires learning about another culture. This is, in fact, one of the primary reasons for learning languages—to experience a different culture from the inside, so as to empathize with a broader range of others and to enrich one's ability to appreciate varied human experiences. My conceptualization of language pedagogy has six key terms: intercultural communication, culture, innovation, activity, dialogue, and critique. I will define these terms and articulate their interrelations, reviewing existing literature to build an account of how language teaching and learning can live up to their potential as an educational and a human enterprise. Educating the "whole person," when teaching language, requires engaging with the cultural ways of life within which that language lives (Kim, D. (2020). Learning language, learning culture: Teaching language to the whole student. ECNU Review of Education, 3(3), 519-541.). Language instructors have long been aware that learning a second language necessitates knowing about a different culture. In order to develop an

argument for how language teaching and learning might fulfill its potential as an educational and human endeavor, the author will define these words and explain how they relate to one another while analyzing the material that has already been written. When teaching a language, it's important to engage with the cultural norms that the language inhabits in order to educate the "whole person."

Language and culture are interrelated and cannot be separate from each other because language itself is a culture. Language teaching automatically entails teaching culture. Culture teaching allows learners to increase their knowledge of the TC in terms of people's way of life, attitudes, beliefs and values. Evidence suggests that learners can be more successful in language learning if teachers integrate culture into a language classroom, that is, learners will immerse themselves into the entire culture of the target language (Salim, S. K. (2017). Teaching language and teaching culture. In 8th International Visible Conference on Educational Studies & Applied Linguistics (pp. 464-470). The process of acquiring a language is extensive and involves more than just the alphabet, vocabulary, and grammar. It is important to learn the language's semantics - such as social and cultural norms - as well. They generally become more literate in a language as they are exposed to more cultural concepts. Yes, there is a strong connection between language and culture, she concluded, and neglecting it could have negative consequences. Teaching culture is a given when teaching a language. Learning about culture gives students the opportunity to discover more about how people live, think, and value in the TC.

The teachers should keep in mind the importance of culture and must have a prior knowledge of the cultural knowledge of the chapter or lesson he is going to teach the students (Choudhury, R. U. (2014). The role of culture in teaching and learning of English as a foreign language. Express, an International Journal of Multi-Disciplinary Research, 1(4), 1-20). People express emotions, feelings, thoughts, needs, desires, etc. with words, symbols and gestures, which are considered language. Language is linguistically, physically and biologically innate and can be defined as a fundamental form of communication. Culture is the characteristic of a particular group of people defined by language, religion, cuisine, social customs, music, and art. Culture is therefore expressed in language. Therefore, learning a new language remains incomplete without familiarity with its culture. Culture makes a country unique. Different countries have different cultural activities and rituals. Culture is more than just material commodities, things that culture uses and produces. Culture is also the beliefs and values of the people of that culture. Culture also includes the way people think and understand the world and their lives. Cultures can also vary within regions, societies, or even subgroups. Workplaces may have a particular culture that

sets them apart from similar workplaces. Many students with excellent academic performance in English sometimes find it very difficult to deal with native speakers and real-life situations. This may be the result of learning English without knowing the culture of the English language. Therefore, the role that culture plays in the teaching and learning of English as a foreign/second language cannot be avoided in course design and classroom settings for EFL/ESL students. Teachers should keep in mind the importance of culture and understand the cultural knowledge of the chapters or lessons they teach their students.

## RESULTS AND DISCUSSION

The role of culture in language acquisition is essential as the results of research have shown: due to cultural norms, language is shaped and acquired, identity recognition is fostered when language and culture are integrated, student engagement is encouraged, intercultural competence is developed, learning environment is friendly, cultural concepts form language specificities.

## CONCLUSION

Culture is the characteristics of a particular group of people, defined by everything from language, religion, cuisine, social habits, music and arts. Thus, culture finds its expression in language; so, learning a new language without familiarity with its culture remains incomplete. Therefore, the role of culture that it plays in teaching and learning of English as a foreign/second language cannot be avoided while designing course for EFL/ESL students and in the classroom situations. Integration of culture in language lessons foster the followings: cultural norms, identity recognition, student engagement, intercultural competence, environment, cultural concepts.

## REFERENCES

1. Choudhury, R. U. (2014). The role of culture in teaching and learning of English as a foreign language. Express, an International Journal of Multi-Disciplinary Research, 1(4), 1-20.
2. Kim, D. (2020). Learning language, learning culture: Teaching language to the whole student. ECNU Review of Education, 3(3), 519-541.
3. Salim, S. K. (2017). Teaching language and teaching culture. In 8th International Visible Conference on Educational Studies & Applied Linguistics, 464-470).
4. Turkan, S., & Çelik, S. (2007). Integrating culture into EFL texts and classrooms: Suggested lesson plans. Novitas-ROYAL (Research on Youth and Language), 1(1). 18-33.

# BOSHLANG‘ICH SINFDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH MEXANIZMLARI

**Ismatillayeva Yodgora Abduvahob qizi**
Turan International University
yodgoraismatillayeva@gmail.com

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada STEAM ta’lim tizimi, STEAM ta’lim tizimini boshlang‘ich sinfda tabiiy fanlarni o‘qitishda qo‘llanishi, vazifalari, bu ta’limdan kutilayotgan natijalar, uni SCIENCE fanlarida qo‘llash va qanday samaraga erishish haqida ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *STEAM ta’lim tizimi, STEM, SCIENCE fanlari, technology, engineering, art, mathematics.*

# MECHANISMS FOR THE APPLICATION OF STEAM EDUCATIONAL TECHNOLOGY IN THE TEACHING OF NATURAL SCIENCES IN THE PRIMARY CLASS

## ABSTRACT

*This article provides information about the STEAM education system, the use of the STEAM education system in elementary school science education, its tasks, the expected results of this education, its application in SCIENCE subjects, and how to achieve results.*

***Keywords:*** *STEAM educational system, STEM, SCIENCE, technology, engineering, art, mathematics.*

# МЕХАНИЗМЫ ПРИМЕНЕНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ STEAM В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

## АННОТАЦИЯ

*В этой статье описывается система образования STEAM, использование системы образования STEAM в естественнонаучном обучении в начальной школе, ее задачи, ожидаемые результаты этого образования, ее применение в НАУЧНЫХ предметах и способы достижения предоставленной информации.*

***Ключевые слова:*** *образовательная система STEAM, STEM, НАУКА, технологии, инженерия, искусство, математика.*

## KIRISH

Barchamizga ma’lumki, mamlakatimizda ta’lim sifatini yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida 2018-yil 5-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalardan biri bu “STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlari joriy etiladi”[1] deb belgilab qo‘yilgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki prezidentimiz ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilmoqda. STEAM ta’lim tizimini umumta’lim maktablariga joriy qilish o‘quvchilarni bilim salohiyatini oshirishga katta yordam beradi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

STEAM texnologiyasi ta’limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o‘zaro mutanosib holda olib borishni ta’minlab beradi. O‘quvchi o‘zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko‘nkmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo‘l keladi.

STEAM ta’lim tizimi o‘zi nima?

S-science (tabiiy fanlar)

T-technology (texnologiya)

E-engineering (muhandislik)

A-art (san’at)

M-mathematics (matematika)

Ushbu yo‘nalishlar zamonaviy dunyoda eng mashhur bo‘lib kelayotganini unutmang. Shuning uchun bugungi kunda STEAM tizimi asosiy tendentsiyalardan biri sifatida rivojlanmoqda. STEAM ta’limi yo‘nalishi va amaliy yondashuvni qo‘llash, shuningdek, barcha beshta sohani yagona ta’lim tizimiga integratsiyalashuviga asoslangan. STEAM ta’lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqi shundaki, bolalar turli xil mavzularni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari uchun bir vaqtni o‘zida aqliy faoliyat bilan birga amaliy faoliyatni uyg‘unligini ta’minlaydilar. Bunda —aql va qo‘l iborasiga amal qiladilar. Olgan bilimlarini amaliy faoliyatda ko‘rib tezda o‘qib, o‘zlashtirib oladilar.

Ta’limga ushbu yangi yondashuv, nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba’zi maktablar bitiruvchilarining martabalarini e’tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEAM tizimi shu tarzda

shakllandi. (STEM - tabiiy fanlar, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu yerga art qo‘shildi va endi STEAM tizimi oxirigacha shakllandi. O‘qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog‘i ushbu fanlardan berayotagan bilimlari kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo‘lib yetishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir-oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo‘llashadi[2].

Jahonda sodir bo‘layotgan, rivojlanayotgan yangi, zamonaviy ta’lim shakllaridan chetda qolmagan holda yurtimizga ham ushbu STEAM ta’lim tizimi kirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq, Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi oldiga o‘quv - tarbiya jarayoniga “STEAM” (science - tabiiy fanlar, technology - texnologiyalar, engineering - texnik ijodkorlik, art - san’at, mathematics - matematika) fanlarini o‘qitish bo‘yicha ilg‘or pedagogik texnologiyalar va boshqa maqbul metodikalarni joriy etish vazifasi qo‘yilgan edi. O‘zbekiston ta’lim tizimiga STEAM ta’limini joriy etish uni SCIENCE - tabiiy fanlar tarkibiga singdirishdan boshlandi. Bugungacha umumiy ta’lim maktablarining 1-2-sinflari uchun tabiiy fanlar darsligi yaratildi va ushbu fan 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab maktablarda o‘qitib kelinmoqda. Darslikka STEAM ta’limiga asoslangan mavzu va mashqlar kiritilgan. Endilikda umumta’lim maktablariga STEAM ta’limini joriy etishda uni bir qancha fanlar tarkibiga singdirilgan holda o‘qitish yo‘lidan boriladi. Shu kunga qadar Koreya Respublikasi elchixonasi huzuridagi Respublika ta’lim markazi Koreya Respublikasi ta’lim markazi bilan O‘zbekistonda koreys tilini o‘qitish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik qilib kelayotgan edi. Endilikda ushbu tashkilot bilan O‘zbekistonda STEAM ta’limini joriy etish bo‘yicha ham hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Umumta’lim maktablarida STEAM ta’limini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning davomi sifatida Koreya Respublikasining soha mutaxassislari tajribasiga tayaniladi[3].

STEAM ta’lim tizimida SCIENCE (tabiiy fanlar) ham o‘rin olgan bo‘lib, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim tizimida pedagogik faoliyat ko‘rsatayotgan har bir tabiiy fani o‘qituvchilarning diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim. Tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish asosan dars bilan birgalikda darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham foydalaniladi. Masalan, o‘quvchilarning uy vazifasini bajarishida ularga tafovutlab yondoshish imkoniyatlari mavjud.

O‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha krosswordlar tuzish, kuzatish va tajribalar o‘tkazish, turli mavzularda o‘tkaziladigan tanlovlar uchun materiallar tayyorlash shular jumlasidandir. Tabiiy fanlarni o‘qitishda hamkorlikda o‘qitish

texnologiyasining barcha metodlaridan, modulli ta'lim texnologiyasining o‘quvchilarning kichik guruhlarda ishlashiga mo‘ljallangan modul dasturlaridan foydalanish shular jumlasiga kiradi.

Tabiiy fanlari darslarida o‘quvchilarning bilish faoliyati yalpi o‘qitishni individual va kichik guruhlarda ishlash shakllari bilan uyg‘unlashtirilganda juda yuqori samara beradi. Hamkorlikda o‘qitishning kichik guruhlarda o‘qitish metodida yalpi o‘qitish kichik guruhlar bilan, “arra” metodida esa, o‘quvchilarni avval individual tarzda, so‘ngra kichik guruhlarda o‘qitish uyg‘unlashtirildi. Tabiiy fanlarni o‘qitishda ta'lim - tarbiya jarayonida hukmronlik qilayotgan an'anaviy darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq. Shuni nazarda tutgan holda an'anaviy darslarda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish metodidan foydalanish yo‘llari ishlab chiqildi. Ushbu metodning qulay tomoni o‘qituvchining avval reja asosida ko‘rgazmali materiallar yordamida yangi mavzu bayon etiladi, so‘ngra o‘quvchilarning kichik guruhlarda hamkorlikda mustaqil ishi tashkil etiladi. Tabiiy fanlar o‘quv dasturidan o‘rin olgan muammoli mavzular muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda muammoli dars “aqliy hujum” shaklida o‘rganiladi.

Shuningdek, ba'zi mavzular munozarali dars shaklida o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Ta'lim jarayonida munozarali darslarning 2 xili: ilmiy munozara darslari va erkin fikrlash darslaridan foydalaniladi. Tabiiy fanlar darslarida zamonaviy pedagogik texnalogiyalardan muvaffaqiyatli foydalanishning muhim shartli ta'lim-tarbiya jarayonida teskari a'loqani amalga oshirish, yani o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, ularning javoblaridagi tipik xatoliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash, olingan natijalarga muvofiq holda dars ishlanmalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, ularni takomillashtirish sanaladi.

Har bir dars ishlanmalarida o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan bilimlarini ikki marta, o‘tgan va yangi mavzu yuzasidan test topshiriqlari vositasida nazorat qilish va baholash nazarda tutiladi. Mazkur nazorat o‘quvchilarning o‘quv faniga bo‘lgan qiziqishlari, bilimlarini muntazam ravishda oshirish, o‘quv materialini ongli o‘zlashtirish va mustahkamlanishiga zamin yaratadi[4].

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki STEAM ta'lim tizimi yangicha metodika va ishlanmalarga boy bo‘lgan tizim. Bu tizim bilan o‘quvchilar texnologiyalar bilan hamnafas bo‘lgan holda tarbiyalanadi. Tabiiy fanlarni o‘qitishning yangicha metodlaridan foydalangan holda o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish

fanni oson o‘zlashtirishga yo‘naltiriladi. Bugungi kunda hamma yosh avlod texnologiyalarga qiziqadi. Demak, bu tizimda qiziquvchanlik bilan o‘rganishadi. STEAM ta’lim tizimi o‘quvchilarda ijodkorlikni rivojlantiradi va olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishda amaliy ko‘mak beradi. O‘quvchilar kelajakda katta loyihalar qila olishi hamda kashfiyotlar qila olishi uchun STEAM ta’lim tizimini puxta o‘rganishlari lozim.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Toshkent sh., 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son
2. Мирзакаримова М. М. Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 97 103.
3. Мирзакаримова М. М. (2022) “Хорижий тилларни available тадбиркорликка йўналтириб ўқитишнинг дидактик асослари”, novateur Publications, (1), pp. 1 128.
4. Мирзакаримова М. М. Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими //Science and Education. - 2020. - Т. 1. - №. 4. - С. 216-222.

# MAKTABGACHA TA’LIMDA XAVFSIZ RIVOJLANISH MUHITINI YARATISHNING HAMKORLIK TEXNOLOGIYALARI

**Maxkamova Husnida Ro‘ziboyevna**
Turan International University o‘qituvchisi
mahkamovahusnida05@gmail.com

## ANNOTATSIYA

*Maktabgacha ta’limda xavfsiz rivojlanish muhitini yaratish bolalarning farovonligi va kompleks rivojlanishi uchun muhimdir. Ushbu maqolada shunday muhitlarni yaratishda hamkorlik texnologiyalarining roli ko‘rib chiqiladi, xalqaro tajribalar va ta’lim modellari asosida. Maqolada o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati hamda raqamli platformalar, ijtimoiy media va ishtirokiy yondashuvlar kabi vositalarni qo‘llash tarzlari o‘rganiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Maktabgacha ta’lim, xavfsiz muhit, hamkorlik texnologiyalari, bola rivojlanishi, raqamli vositalar, xalqaro tajribalar.*

## ABSTACT

*Creating a safe developmental environment in early childhood education is crucial for children's well-being and holistic development. This article examines the role of collaborative technologies in creating such environments, based on international experiences and educational models. It explores the importance of collaboration among educators, parents, and the community, as well as how tools such as digital platforms, social media, and participatory approaches can be utilized.*

***Keywords:*** *Early childhood education, safe environment, collaborative technologies, child development, digital tools, international experiences.*

## АННОТАЦИЯ

*Создание безопасной развивающей среды в дошкольном образовании имеет важное значение для благополучия детей и их комплексного развития. В данной статье рассматривается роль технологий сотрудничества в создании таких условий на основе международного опыта и образовательных моделей. Обсуждается важность сотрудничества между педагогами, родителями и обществом, а также способы использования таких инструментов, как цифровые платформы, социальные медиа и подходы участия.*

***Ключевые слова:*** *дошкольное образование, безопасная среда, технологии сотрудничества, развитие ребенка, цифровые инструменты, международный опыт.*

## KIRISH

Maktabgacha ta’lim, bolalarning hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolalar o‘z shaxsiyati, ijtimoiy ko‘nikmalari va emotsional barqarorliklari asoslarini shakllantiradilar. Maktabgacha ta’lim muassasalari, bolaning jismoniy va ruhiy xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Xavfsiz rivojlanish muhitini yaratish esa oila, maktab va jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni talab etadi. Ushbu maqolada maktabgacha ta’limda xavfsiz rivojlanish muhitini yaratish uchun hamkorlik texnologiyalari va ularning ahamiyati batafsil tahlil qilinadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xavfsiz rivojlanish muhitini yaratishda bir qator asosiy komponentlar mavjud:

1. **Fizik xavfsizlik**: Maktabgacha ta’lim muassasalari bolalarning jismoniy xavfsizligini ta’minlashda asosiy vazifani bajaradi. Bu, o‘yin maydonchalari va o‘yin jihozlarining xavfsizligini, muassasa ichidagi va tashqarisidagi xavfli joylarning bartaraf etilishini o‘z ichiga oladi.
2. **Psixologik xavfsizlik**: Bolalar uchun psixologik xavfsizlik, ularning emotsional holati va ruhiy barqarorligini ta’minlashda muhimdir. Zoravonlik va ta’qibga yo‘l qo‘ymaslik, bolalarning o‘zlarini qulay his qilishlari uchun zarur.
3. **Ijtimoiy xavfsizlik**: Bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘zaro munosabatlarini shakllantirish va jamoada yashash qobiliyatlarini oshirish ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlaydi.

### Hamkorlik texnologiyalari

Xavfsiz rivojlanish muhitini yaratish jarayonida hamkorlik texnologiyalari juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalar, oila, maktab va jamoat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. **Oila va maktab hamkorligi**: Ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb qilish, ularning fikr va takliflarini inobatga olish maktab va oila o‘rtasida o‘zaro ishonchni kuchaytiradi. Ota-onalar uchun seminarlar, treninglar va uchrashuvlar o‘tkazish, ta’lim jarayonida ularning rolini oshirishga yordam beradi. Bunda ota-onalarning maktabdagi faoliyatlari va bolalarining ta’limdagi muvaffaqiyatlarini kuzatish muhimdir.
2. **Ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik**: Maktabgacha ta’lim muassasalari o‘rtasida tajriba almashish va umumiy loyihalarni amalga oshirish bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik, murabbiylar o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash va tashkilotlar o‘rtasida resurslarni almashish imkonini beradi.

3. **Jamoatchilik bilan hamkorlik**: Jamoatchilikning faol ishtiroki, bolalarning rivojlanishi va xavfsizligini ta’minlashda muhimdir. Psixologlar, soha mutaxassislari va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlik, bolalarning xavfsizligi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jamoatchilik o‘rtasida o‘tkaziladigan tadbirlar, ijtimoiy loyihalar bolalar uchun xavfsiz muhitni yaratishga yordam beradi.

**Ijtimoiy muhit**

Xavfsiz rivojlanish muhitini yaratishda ijtimoiy muhitni hisobga olish juda muhimdir. Jamoatchilik faoliyati va a’zolarining ishtiroki bolalar uchun xavfsiz muhitni ta’minlaydi. Ijtimoiy loyihalar, seminarlar va tadbirlar orqali bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

1. **Faol jamoatchilik**: Jamoatchilik a’zolarining ta’lim jarayonida faol ishtiroki, bolalarning xavfsizligini ta’minlashda muhimdir. Ijtimoiy faoliyatlar va ijtimoiy loyihalar, jamoatchilikning ishonchini oshirishga yordam beradi. Bu jarayon bolalar uchun ijtimoiy va emotsional rivojlanishning asosiy omillaridan biridir.

2. **Xavfsiz muhitni kuzatish**: Jamoatchilik va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik, xavfsiz muhitni kuzatish va tahlil qilish imkonini beradi. Jamoatchilikning fikrlarini inobatga olish, bolalarning rivojlanishini monitoring qilishga yordam beradi.

**Ta’lim muassasalari va jamoatchilik o‘rtasida o‘zaro aloqalar**

Ta’lim muassasalari va jamoatchilik o‘rtasidagi aloqalar bolalarning rivojlanishida va xavfsizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu aloqalar o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi. Jamoatchilik va ta’lim muassasalari o‘rtasida doimiy aloqa o‘rnatish, bolalarning ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

1. **Maktab va jamoat o‘rtasidagi aloqa**: Maktab va jamoat o‘rtasida doimiy aloqalarni o‘rnatish, ta’lim jarayonida jamoatchilikning ishtirokini oshirishga yordam beradi. Maktabda o‘tkaziladigan tadbirlar, jamoatchilikning faolligini oshirishga xizmat qiladi.

2. **Ota-onalarning ishtiroki**: Ota-onalarning ta’lim jarayoniga jalb qilinishi, ularning bolalari uchun xavfsiz muhit yaratishga yordam beradi. Ota-onalar, bolalarining maktabdagi muvaffaqiyatlarini kuzatish va ularga yordam berish imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

**Xavfsizlik va rivojlanishning asosiy tamoyillari**

Xavfsiz rivojlanish muhitini yaratishda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhimdir:

1. **Bolalarning ehtiyojlariga moslik**: Har bir bolaning o‘ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlari mavjud. Ta’lim jarayonida bu ehtiyojlarni inobatga olish, xavfsiz rivojlanish muhitini yaratishda muhimdir.
2. **O‘zaro ishonch**: Oila, maktab va jamoat o‘rtasida o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlar, xavfsiz muhitni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.
3. **Ochiqlik va kommunikatsiya**: Ta’lim muassasalari va jamoatchilik o‘rtasida ochiq va samarali kommunikatsiya o‘rnatish, muammolarni o‘z vaqtida hal qilishga yordam beradi.

## XULOSA

Xavfsiz rivojlanish muhitini yaratish, maktabgacha ta’lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir. Oila, maktab va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik texnologiyalari, bolalarning xavfsizligini ta’minlash va ularning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon, bolalar uchun sog'lom va xavfsiz muhitni yaratish bilan birga, ularning shaxsiyati va emotsional rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Har bir bolaga xavfsiz va qulay muhitda o‘sish imkoniyatini taqdim etish, jamiyatimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Buning uchun barcha tomonlar o‘rtasida samarali hamkorlik va o‘zaro tushunishni mustahkamlash zarur.

## REFERENCES

1. UNESCO. (2020). International Guidance on Safe Schools: An Agenda for Action.
2. World Health Organization. (2018). Framework for Health Promotion in Schools.
3. Dillenbourg, P. (2002). Designing and orchestrating for collaborative learning. In: Collaborative-learning: Cognitive and computational approaches.
4. Johnson, D.W., & Johnson, R.T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning.
5. Epstein, J.L. (2011). School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. Westview Press.
6. Henderson, A.T., & Mapp, K.L. (2002). A New Wave of Evidence: The Impact of School, Family, and Community Connections on Student Achievement.
7. Laurillard, D. (2013). Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology. Routledge.
8. Sung, Y.T., Chang, K.E., & Liu, T.C. (2016). The effects of integrating mobile devices with teaching and learning on student learning outcomes: A meta-analysis.

9. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Harvard University Press.
10. Senge, P.M. (2000). Schools That Learn: A Fifth Discipline Fieldbook for Educators, Parents, and Everyone Who Cares About Education. Doubleday.

**UDK 323.1.(575.1)**

# YOSHLARNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ISHTIROKIGA QARSHI QILINAYOTGAN AXBORIY-MAFKURAVIY TAJOVUZLAR

**Xo‘janova Tamara Jo‘rayevna**
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

## ANNOTATSIYA

*Maqolada yoshlarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ishtirokiga qarshi qilinayotgan axboriy-mafkuraviy tajovuzlar va ularni oldini olish chora-tadbirlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bugungi kunda global miqyosda kuchayib borayotgan ma’naviy tahdidlar, g‘oyaviy-mafkuraviy xurujlar, ma’naviy buzuqliklarga qarshi jamiyatda mafkuraviy profilaktikani yanada kuchaytirish ob’ektiv zaruriyatdir. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiy-demografik qatlamining mafkuraviy ongi, ma’naviy immuniteti va axloqiy sifatlarini rivojlantirishda hamda har tomonlama g‘oyaviy himoyalashda mafkuraviy profilaktika konstruktiv ahamiyat kasb etmoqda.*

***Kalit*** *so‘zlar: globallashuv, milliy iqtisodiyot, rivojlanish, axboriy-mafkuraviy tajovuzlar, mafkuraviy profilaktika, ma’naviy buzuqlik.*

# ИНФОРМАЦИОННО-ИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ АТАКИ НА УЧАСТИЕ МОЛОДЕЖИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

## АННОТАЦИЯ

*В статье научно обоснованы информационно-идеологические атаки на участие молодежи в развитии национальной экономики и меры по их предотвращению. Сегодня объективной необходимостью является дальнейшее усиление идеологической профилактики в обществе против моральных угроз, идеологически-идеологических нападок и нравственной коррупции, которые усиливаются в глобальном масштабе. В частности, идеологическая профилактика приобретает конструктивное значение в развитии идеологического сознания, духовного иммунитета и нравственных качеств социально-демографического слоя молодежи, а также в всесторонней идеологической защите.*

***Ключевые слова:*** *глобализация, национальная экономика, развитие, информационно-идеологические атаки, идеологическая профилактика, моральное разложение.*

# INFORMATION AND IDEOLOGICAL ATTACKS ON THE PARTICIPATION OF YOUTH IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY

## ABSTRACT

*The article provides scientific evidence for the information and ideological attacks on the participation of young people in the development of the national economy and measures to prevent them. Today, there is an objective need to further strengthen ideological prevention in society against moral threats, ideological and ideological attacks and moral corruption, which are increasing on a global scale. In particular, ideological prevention is acquiring constructive significance in the development of ideological consciousness, spiritual immunity and moral qualities of the socio-demographic layer of young people, as well as in comprehensive ideological protection.*

***Keywords:*** *globalization, national economy, development, information and ideological attacks, ideological prevention, moral decay.*

## KIRISH

Bugungi milliy yuksalish sharoitida mamlakatimizda yoshlarni insonning ma’naviy takomilini yuksaltirish, ma’rifatli shaxs etib tarbiyalash muhim ustivor yo‘nalishga aylandi. Bu esa, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashning tarkibiy qismi bo‘lib, yoshlarning mamlakatda olib borilayotgan islohotlarda faol ishtirokchi bo‘lishini ta’minlaydi. Q.Quronboevning ta’kidlashicha, “Adolatli, demokratik jamiyatni qurish va rivojlantirish sharoitida mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ta’minlanishi bilan birga aholi ongu tafakkurida ma’naviy-ruhiy qadriyatlarning qaror topishi insonlar dunyoqarashining tubdan o‘zgarishi, O‘zbekistonning milliy taraqqiyotining rivojlanishiga xizmat qilmoqda” [3, 237-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev ta’kidlaganlaridek: “Bizning asosiy vazifamiz - yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim deb hisoblaymiz” [1, 252-b.].

Axborot va bu boradagi konseptual g‘oyalari qonuniyatlarini ilmiy tadqiq etishda rus olimlaridan I.Albegova, F.Albegov [4], S.SHavel [5], A.R.Kazakov [6, 131 b.] lar tadqiqotlarini alohida ko‘rsatib o‘tish lozim. G.Osadchaya, T.Zaslavskaya [7, 13-25-bb.]lar ijtimoiy sohani ijtimoiy yondoshuvlar orqali o‘rganganlar.Ijtimoiy rivojlanishda axborot masalalari xorijiy olimlarning bir qancha ishlarida tadqiq

etilgan. Ularning vakillari ichida K.Frimen [7, 159-167-bb.], L.Perre [10, 73-80-bb.], P.Draker [11, 53-b.], J.Zaltmen [12, 344 b.], B.Santo [13, 22-b.], P.Greminger [14, 356-364-bb.] kabilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin.

“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” Davlat dasturida “2023/2024 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari amaliyotga kiritilsin” [2], degan ijtimoiy vazifa belgilangan bo‘lib, yoshlarni globallashuv davrida ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash maqsad qilingan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yoshlarni tadbirkorlik, kitobxonlik, axborot texnologiyalari, innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, psixologik xizmatlar ko‘rsatish hamda liderlik qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha ishlar olib borish muhim jarayondir. Joylarda innovatsiya va texnologiya transferi markazlari, texnoparklar, laboratoriyalar, startap va biznes akseleratorlar tashkil etish, fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va doimiy moliyalashtirish masalalarini yanada kuchaytirish muhimdir. Yoshlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina muammolarni tahlil qilishda ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy xususiyatlarini quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

- jamiyatda, ayniqsa hududlarda yoshlarning ijtimoiy hayotningg barcha jabhalaridagi o‘rni va rolini baholashda ilmiy yondoshuvlarning to‘laqonli emasligi;
- yoshlar guruhlari va ijtimoiy faoliyatining davriy chegaralarini aniqlash masalalari to‘liq ilmiy asoslanmaganligi;
- yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jarayonlarga ijtimoiylashuvining o‘ziga xos xususiyatlarning spetsifikasi to‘liq o‘rganilmaganligi;
- yoshlarning mehnat jamoasida adaptatsiyalashuvi, ya’ni ko‘nikish qobiliyatlarining darajalari, me’yorlari va mezonlarining to‘liq tahlil etilmaganligi.

Yoshlar muammolarini o‘rganish, tahlil etish, xulosalar tayyorlash va takliflar berishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir:

1.Targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish
2.Suhbatlar, sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazish
3.Seminar trening, ilmiy anjuman o‘tkazish
4.O‘quv, uslubiy qo‘llanma nashr etish
5. Ommaviy axborot vositalarida chiqishlarni muntazam tashkil etish.

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda quyidagi masalalarga e’tibor qaratish muhim:

- yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi faoliyatlariga yana kengroq yo‘l ochish va uni ta’minlash uchun ularning o‘zlaridagi faollik, islohotlar jarayonlariga kamarbastalik, islohotlarga ishonch, demokratik qadriyatlarning abadiyligiga suyanish fazilatlarini tarbiyalash;

- yoshlarning yangilikka intilishi, tashabbuskorligi, erkin bozor iqtisodiyotiga tez ko‘nikishi, yangi-yangi innovatsion g‘oyalarini rag‘batlantirish;

- sog‘lom avlod tarbiyalash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va barcha zarur imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom avlod tushunchasi sirasiga esa nafaqat jismoniy sog‘lomlik, ichki ruhiy, psixologik, ma’naviy va mafkuraviy sog‘lomlik unsurlarini kiritish, yoshlar sog‘lomligini umuminsoniy va milliy qadriyatlar negizida qurish;

- yoshlar kayfiyatlari, manfaatlari va ijtimoiy-siyosiy ahvolini o‘rganish va ilmiy tahlil etish bo‘yicha turli sotsiologik tizimlar faoliyatini rivojlantirish, yoshlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli monitoringini amalga joriy etish.

Dunyoning ko‘zga ko‘ringan nazariyotchilari, ekspert va mutaxassislari globallashuvni iqtisodiyotda ketayotgan jarayon sifatida qarab kelmoqdalar. Jumladan, iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotining sovrindori, Kolumbiya universitetining professori (AQSH) Jozef Stiglits, AQSHning taniqli faylasufi va sotsiologi Frensis Fukuyama, shu mamlakat prezidentining sobiq yordamchisi, taniqli sotsiolog Zbignev Bjezinskiy, iqtisodiyotni Bombey, Kembridj, Oksford universitetlarida, Massachuset texnologiya institutlarida va Kolumbiya universitetlarida o‘rgangan globallashuv bo‘yicha ekspert, dunyoning etakchi iqtisodchilaridan biri Jagdish Bxagvati va boshqa bir qator iqtisodchilar globallashuvni jahon iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan jarayon sifatida qaraydilar [15, 42-b.]. Shuning bilan bir qatorda globallashuvni siyosat va davlatchilik bilan bog‘lab qaraydiganlar ham bor. Ular jumlasiga globallashuvni o‘rganuvchi Yel markazi eksperti (AQSH) Mark Sirvel, J.Kennedi nomidagi Garvard universitetining Siyosat maktabi institutining derektor o‘rinbosari Devid King, rossiyalik etakchi analitik “Siyosat” jamg‘armasi prezidenti Vyacheslav Nikonov va boshqalarni kirish mumkin [15, 42-45-bb.]. Ulardan, masalan Jozef Stiglitsning fikri qo‘yidagicha: “globallashuv insonlar hayotini yaxshilashning eng yaxshi potensialidir, shu jumladan, rivojlanayotgan mamakatlar aholisi yaxshilanmoqda. Uning ayrim yo‘nalishlari hozirning o‘zida, masalan, ilmning globallashuvi sog‘liqni saqlash, insonlarning umrini uzaytirishga olib keldi” [15, 43-b.]. Bundan tashqari ularda ham globallashuvni turli sohalarda sodir bo‘layotgan integratsiyalashuvning natijasi

sifatida qarashlar ustuvorlikni tashkil qiladi. SHuning bilan birga unga ko‘pchilik mualliflar jarayon sifatida qarashmoqdalar. Bunday qarash mazmunini dunyo mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning tabiiy ravishda mustahkamlanib borishi va ularning o‘zaro integratsiyalashuvi natijasi sifatida, sub’ektiv omillar ta’siri - ya’ni katta iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan davlatlarning kam taraqqiy qilgan mamlakatlarning resurslarini turli yo‘l va vositalar bilan qo‘lga kiritish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlarning natijasi sifatida qarashlar ham mavjud. Xullas, globallashuv tushunchasi haqida qarashlar turli tumanligicha davom etib kelmoqda. Bu tabiiy xol. Chunki uning makon va zamonda sodir bo‘lish xususiyatlari turlicha bo‘lib dunyoning o‘zgarishiga o‘tkazayotgan ta’sirida ham yangi yangi imkoniyatlari namoyon bo‘lmoqda.

Yuqorida keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki, globallashuv jahon miqyosida bir qator ijobiy ahamiyatga ega bo‘lmasin uning ta’sirida millatlar ijobiy hayotida sodir bo‘ladigan salbiy jarayonlarning oldini olish umuminsoniy muammo darajasiga aylanib bormoqda. Bugungi kunga kelib globallashuv ta’sirida shakllanayotgan “ommaviy madaniyat” barcha xalqlar va millatlar ma’naviy hayotiga kirib kelmoqda. Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, bironti ham milliy ma’naviyat uning ta’siridan chetda qolayotgani yo‘q. Jumladan, o‘zbek milliy-ma’naviyati ham globallashuv ta’sirida “ommaviy madaniyat” hisobiga boyib bormoqda - desam adashmayman. Bugun nafaqat shaharlarda, shuningdek ayrim qishloqlarda ham kiyinishdan Ovropaliklardan farq qilmaydigan yarim yalang‘och qizlarimizning ko‘payotgani, milliy estradamizdan ko‘ra “REP”ni ulug‘ ko‘radigan, u o‘ynalayotganda o‘zini boshqara olmay behayo qiliqlar qilayotgan yoshlarimizning sonining oshib borayotganligi, jamiyatimizda individiualizmga moyillikning rivojlanib borayotganligi milliy qadriyatlarimizning “kattaga hurmat, kichikka izzat” - qarindosh-urug‘chilikda oila muqaddasligi kabi durdonalarining amal qilishining susayotgani, va boshqa bir qator milliy-ma’naviy, ahloqiy qadriyatlarimizda paydo bo‘layotgan salbiy o‘zgarishlar globallashuvning ta’sirida sodir bo‘layotganligining guvohi bo‘lib turibmiz.

Aslida, globallashuv bilan bag‘rikenglik bir-biriga zid bo‘lgan omillar hisoblanadi. YUqorida ta’kidlaganimizdek, globallashuv iqtisodiy hayotda qanchalik ijobiy ahamiyat kasb etmasin, u baribir milliy - ma’naviyatning emirilishiga o‘tkazadigan ta’siri bilan nihoyatda xatarli jarayon hisoblanadi. Agar milliy-ma’naviy turli-tumanlik, ularning o‘ziga xos go‘zalligi, ifori, ohangrabosi barbod bo‘ladigan bo‘lsa, insoniyat ulardan mahrum bo‘ladigan bo‘lsa, u faqat qorni uchun yashaydigan manhurtga aylanib qolsa, bu yorug‘ olamda uning o‘rni qaerda qoladi, bugungi

tamaddun muhlatidan avval tugamaydimi?.. - degan savolni qo‘yish va ularga javob izlash bugunning eng dolzarb muammolariga aylandi.

Fikrimizcha, globallashuv jarayon ekan, uni kuch bilan to‘xtatib bo‘lmas ekan, uning milliy-ma’naviyatga o‘tkazadigan ta’siridan himoyalanishining kamida ikkita imkoniyati bor. Ulardan birinchi, globallashuvning ob’ektiv jarayon sifatida qabul qilib, unga qarshi kuchni emas, balki ma’rifatni qo‘yish, unga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lish to‘g‘ri bo‘ladi. Buning ma’nosi shuki, uning barcha ijobiy imkoniyatlardan milliy taraqqiyot yo‘lida foydalanish lozim. Uning dunyo fani, texnika va texnologiyasida sodir bo‘layotgan eng so‘ngi yutuqlarni ommalashtirishdagi imkoniyatlardan samarali foydalanish globallashuv jarayoniga bag‘rikenglik bilan munosabatda bo‘lishni bildiradi. Agar bu jarayondan mohirlik bilan foydalanilsa milliy taraqqiyotda kutilayotgan natijalarni qo‘lga kiritish mumkin bo‘ladi. Ana shu jihatdan qaraganda globallashuv bilan bag‘rikenglik bir-biriga zid omillir emas, balki ular milliy-taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazidigan omillar sifatida qaralishiga erishishimiz lozim.

Ikkinchidan, globallashuvning salbiy ta’sirlaridan himoyalanishda milliy intelektualni uning tezlik ritimlaridan yuqori darajada rivojlanishiga erishishni strategik vazifa sifatida amalga oshirish muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Buning ma’nosi shuki, globallashuvning ta’sirida dunyoda fan, texnika va texnologiya sohasida erishilayotgan yutuqlarni o‘z hayotimizda foydalanishda boqimandalarga aylanib qolmasligimiz lozim. Bu jarayonda biz ham o‘z intelektual salohiyatimiz bilan teng qatnashishga erishamiz globallashuvning salbiy ta’siridan himoyalanishimizga yordam beradi. Globallashuv ta’sirida intelektual boqimandalik milliy taraqqiyot uchun halokatli yo‘ldir. Unda faqat teng qatnasholsak, o‘zimizning o‘rnimizga ega bo‘lsak, millatimiz o‘z yuzini, o‘zligini saqlab qoladi va bugungi tamaddunning uzoq umr ko‘rishiga o‘zining hissasini qo‘shishi mumkin bo‘ladi.

Uchinchidan, bugungi kunda jahon miqyosida o‘z ta’sirini kuchaytirayotgan “ommaviy ma’naviyat”ga qarshi o‘zimizning milliy- ma’naviy merosimizni: a) mamlakatimizda yoshlarimiz o‘rtasida keng ommalashtirishimiz; b) ular ongi va qalbida milliy-ma’naviy merosimizning o‘zga “ommaviy madaniyat”dan ustun, boy va go‘zal ekanligini singdirishimiz lozim. Bu vazifani amalga oshirishda mablag‘ni ayamasligimiz va ayni paytda har birimizning fidoiylik ko‘rsatishimiz, bu vazifa millatning ertangi kerak bo‘lsa istiqbolda ham o‘z “men”ligini saqlab qolishi bilan bog‘liq ekanligini har bir millatdoshimizning anglab etishiga erishamiz.

Buning uchun esa ta’lim va targ‘ibot ishlarini yangi pog‘onada ko‘tarishimiz lozim: b) milliy-ma’naviy merosimizni jahon miqyosida ommalashtirishni yanada kengaytirish; ya’ni “ommaviy madaniyat”ga nisbatan milliy ma’naviyatimizning boy

va go‘zal ekanligini dunyo miqyosida tarannum etishimiz lozim bo‘ladi. SHu muhim masalaga asosiy e’tibor qaratishimiz lozimki, “ommaviy madaniyat” milliy madaniyatlar sintezi emas, balki taraqqiy qilgan, qo‘lida zamonaviy texnika va texnologiyaning eng so‘ngi yutuqlari mavjud bo‘lgan, dunyoga xo‘jayinlik qilmoqchi bo‘lgan bir xovuch karchilonlar madaniyati ekanligini har doim yoshlarimiz ongiga singdirishimiz, uning salbiy oqibatlari haqida har doim bong urishimiz lozim. Ayni paytda “milliy ma’naviyat”ning “ommaviy madaniyat” hisobiga emas, balki milliy zaminlarimiz hisobiga boyib borishi milliy taraqqiyotimizning strategik vazifasiga aylanishiga erishishimiz globallashuvning milliy-ma’naviyatga o‘tkazadigan ta’siridan himoyala- nishimizning muhim omili ekanligini doimo qarashlarimiz va hatti- harakatlarimizda o‘z ifodasini topmog‘i lozim. “Ommaviy madaniyat”ning milliy-ma’naviyatga o‘tkazadigan salbiy ta’siridan himoyalanishda kuchga nisbatan intelektualga milliy-ma’naviy merosga va fidoiylikka tayanish, bu jarayonda bag‘rikenglik ruhiyatiga amal qilishimizni bildiradi.

Bugun globallashuv jarayonini to‘xtatishga hech qanday kuch va qudrat etmagan sharoitda, unga bag‘rikenglik bilan qarab, uning “tashqarisida” emas “ichkarisida” qatnashishimiz milliy taraqqiyotimiz uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Zero, bugun taraqqiyotga qarashlar bilan emas, balki o‘zaro monandlik tenglik, o‘zaro manfaatdorlik bilan erishish mumkinligi hayotiy haqiqatga aylanib bormoqda.

Har qanday kurashga qarshi kurash albatta o‘zining aks sadosini berish ham bugunning haqiqatdir. Boz ustiga taqlidchilikning yoshlar o‘rtasidagi ma’naviy boyishning muhim manbasiga aylanib borayotganligi sharoitida globallashuv milliy-ma’naviyatga o‘tkazadigan ta’siridan unga qarshi “kurash”dan emas, balki unda to‘laqonli teng qatnashishga erishimiz amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Globallashuv sharoitida bag‘rikenglik g‘oyasi va amaliyotning o‘rni va ahamiyati ham ana shu faoliyatida o‘z ifodasini topadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, xavfsizlikni ta’minlash nazari asosida ma’naviy sohadagi tahdidlar qatoriga quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- insonning barqaror ijtimoiy hayotiga zid bo‘lgan, uning turli sohalariga qaratilgan axborot tahdidlari, axborotni manipuliyasiyalash (yolg‘on xabar tarqatish, ma’lumotni yashirish, o‘zgartirish, maqsadsiz yo‘naltirish va boshqalar);
- milliy urf-odatlar, qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, etnik-madaniy va milliy tarixiy ildizlaridan ajratishga qaratilgan turli ko‘rinishlardagi harakatlar;
- mafkuraviy, madaniy, ma’naviy va iqtisodiy ekspansiyalar;
- aholining jismoniy, ma’naviy va psixologik sog‘lig‘ini ta’minlash uchun tizim faoliyati ishchanlik darajasining pastligi;

- ta’lim-tarbiya tizimida o‘tkazilayotgan islohotlarning zamonaviy tahdidlarga chidamsizligi;
- intellektual mulkning qadrlanmasligi hamda uni himoyalashning me’yoriy chora-tadbirlarining yaratilmaganligi;
- madaniy va moddiy boyliklarning asrab-avaylanmasligi, yanada ommaviylashtirishda turli to‘siqlarning mavjudligi singari omillar ta’sirini ko‘rsatib o‘tishimiz mumkin.

**ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-kitob. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018, 252-b.
2. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 28.02.2013. https://president.uz/uz/lists/view/5980.
3. Quronboev Q. Rahbar ma’naviyati. –Toshkent, Tafakkur, 2017. – B. 237.
4. Албегова И.Ф. Институционализация социальной работы в современной России: теория и практика. Ярославль: ЯрГУ, 2004.
5. Шавель И.И., Васько Ю.П., Погребенко Б.Н. и др. //Материалы международной конференции, посвященной 70-летию АГТУ. - Астрахань, 2000.
6. Казаков А.П. Теория прогресса в русской социологии конца XIX века (П.Л. Лавров, Н.К. Михайловский, М.М. Ковалевский). - Ленинград: Изд-во ЛГУ. 1969. -131 с.
7. Заславская Т.Н. Человеческий потенциал в современном трансформационном процессе. - Общественные науки и современность, 2005, № 4. - Б.13-25.
8. Осадчая, Г.И. (2014). Социология социальной сферы. Социальная политика и социология, 2014, № 2 (4-1). - Б. 133-147.
9. Freeman, L. (2004). The development of social network analysis. A Study in the Sociology of Science, 1(687), 159-167.
10. Perre, L., Pattamadilok C., Montant M., & Ziegler J.C. Orthographic effects in spoken language: Online activation or phonological restructuring?. Brain research, 1275, 73-80.
11. Drucker, P. F. (1984). Converting social problems into business opportunities: The new meaning of corporate social responsibility. California Management Review (pre-1986), 26(000002), 1984. - C. 53.

12. Залтман Дж. Как мыслят потребители. То о чем не скажет потребитель, то чего не знает ваш конкурент / Джеральд Залтман. СПб.: Прайм-Еврознак, 2006. - 344 с.
13. Vicinanza, F., Ippolito, E., Sisto, A., Santo, B., Fiore, M., Trodella, L. E., ... & Ramella S. The psychological impact of the covid-19 pandemic on radiotherapy cancer patients. Translational Oncology, 2022. - P. 22.
14. Greminger, R. F. (1987). The mini-abdominoplasty. Plastic and reconstructive surgery, 79(3), 356-364.
15. Uzbekistan and Central Asia. – Центр политических исследований. Информационно-аналитический Бюллетень. IX-2007. – С. 42-45.

# RASHIDIDDIN VATVOTNING “HADOYIQ U-S-SEHR” ASARI QO’LYOZMALARINING MATNIY TADQIQI
## (San’atlarga keltirilgan misollarining miqdorilari tahlili)

**Qodirova Zuhra Obidxonovna**
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti kichik ilmiy xodimi
Email:zuhraqodiriy@gmail.com
+99897 701 86 06

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq u-s-sehr fi daqoyiq u-sh-she’r” nomli asari qo‘lyozmalarining qisqacha matniy tadqiqi amalga oshirilgan. Asar badiiy san’atlarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda oltmish ikki san’at haqida so‘z yuritilgan. Biroq, faqat ellik beshta san’at boblargagan ajratib yozilgan, qolgan yettita san’atlarga qisqacha izohlar berib o‘tilgan. Ellik beshta san’atning har biriga kamida 5 yoki oltitadan arab va fors tillarida misollar keltirilan. Maqolada o‘sha misollarning qo‘lyozmalar aro qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *badiiy san’atlar, misollar, qo‘lyozma nusxalar, mumtoz adabiyot, ilmi bade’, kotib, kitobat, qiyosiy tadqiq, matn.*

# ТЕКСТУАЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ РУКОПИСЕЙ РАШИДИДДИНА ВАТВОТА «ХАДАЙК У-С-СЕХР»

**Кадирова Зухра Обидхановна**
Республика Духовности и Просвещения
Социальное и духовное в центре
младший научный сотрудник
Научно-исследовательского института

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье проводится краткий текстологический анализ рукописи произведения Рашидиддина Ватвота под названием «Хадайик у-с-сехр фи дакайик у-ш-шер». Произведение посвящено изобразительному искусству, в нем упоминаются шестьдесят два искусства. Однако только пятьдесят пять искусств разделены на главы, а остальные семь искусств кратко прокомментированы. По крайней мере, 5 или 6 примеров каждого из пятидесяти пяти искусств даны на арабском и персидском языках. В статье проводится сравнительный анализ этих примеров среди рукописей.*

***Ключевые слова:*** *изобразительное искусство, образцы, рукописи, классическая литература, наука, писатель, литература, сравнительное исследование, текст.*

# TEXTUAL STUDY OF MANUSCRIPTS OF RASHIDIDDIN VATVOT'S WORK "HADAIQ U-S-SEHR"

**Kadirova Zuhra Obidkhanovna**
Republic of Spirituality and Enlightenment
Social and spiritual at the center
junior researcher
Research Institute

## ABSTRACT

*This article provides a brief textual analysis of the manuscript of Rashiddin Vatvot's work entitled "Hadayik u-s-sehr fi dakayik u-sh-sher." The work is dedicated to the visual arts and mentions sixty-two arts. However, only the fifty-five arts are divided into chapters, and the remaining seven arts are briefly commented on. At least 5 or 6 examples of each of the fifty-five arts are given in arabic and persian. The article provides a comparative analysis of these examples among manuscripts.*

***Key words:*** *fine arts, samples, manuscripts, classical literature, science, writer, literature, comparative study, text.*

## KIRISH

XI–XII asrlarda yaratilgan ilmi bade'ga doir asarlar orasida eng mukammali Rashididdin Vatvot nomi bilan mashhur bo'lgan xorazmlik shoir va olim Rashididdin Abubakr Muhammad ibn Abdujalil Umar kotibning "Hadoyiq u-s-sehr fi daqoyiq u-sh-she'r" nomli asaridir.

"Hadoyiq us-sehr" buyuk olim tomonidan bitilgan yuksak saviyadagi asar bo'lib, undan keyin ilmi bade' bilan mashg'ul bo'lgan barcha mualliflar ana shu asardan foydalanganlar. Rashididdin Vatvot asari hozirgi kunga qadar o'zining ilmiy-adabiy qimmatini yo'qotgan emas.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq u-s-sehr" asarini adiblar, yozuvchilar, olim va shoirlar o'rgangan hamda o'z asarlarini yozishda undan manbaa sifatida foydalanganlar. Ushbu asarning 1 ta qo'lyozmasi Fransiyaning Parij Milliy kutubxonasida, yana 7 ta qo'lyozmasi esa Turkiya Respublikasining kutubxona va muzey fonflarida saqlanadi. حدایق السّحر فی دقایق الشّعر (Hadoyiq u-s-sehr fi daqoyiq u-

sh-she’r) Istanbul universiteti kutubxonasida №414 raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma (VIII/XIV asrlar). الشّعر دقايق فى السّحر حدايق Istanbul universiteti kutubxonasida №819 raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma (hijriy 967 yil). حدايق الشّعر دقايق فى السّحر Lolo Ismoil kutubxonasida №407 819 raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma (hijriy 844 yil). الشّعر دقايق فى السّحر حدايق Lolo Ismoil kutubxonasida №718/10 raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma. الشّعر دقايق فى السّحر حدايق Fransiyaning Parij Milliy kutubxonasida №1405 raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma (hijriy 668 yil). الشّعر دقايق فى السّحر حدايق Ko’prulu kutubxonasi, Fazil Ahmed kolleksiyasi №1613 raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma (hijriy 686 yil). الشّعر دقايق فى السّحر حدايق Ko’prulu kutubxonasi, Fazil Ahmed kolleksiyasi №1392 raqami ostida saqlanayotgan qo’lyozma (hijriy 692 yil).

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada “Hadoyiq u-s-sehr” asari qo‘lyozmalari haqida qisqacha ma’lumot berildi. Asar bo’yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlari ko’rib chiqildi. Asar qo’lyozmalari o’zaro qiyoslandi va solishtirildi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

“Hadoyiq u-s-sehr” asari qo‘lyozmalari va toshbosmalari hozirgi kunda bir qancha dunyo fondlarida saqlanib kelinmoqda. Bu qo‘lyozmalarning ba’zilari o‘rganilib ilmiy-tanqidiy matnlari tuzilgan. Masalan Eronlik olim Abbos Iqbol Ashtiyoniy (1929) Parij Milliy kutubxonasida (inv. №1405) saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasini tanqidiy matnini amalga oshirgan[9]. Ushbu nashrga tayanib rus olimasi N.Chalisova forscha matn (faksimile)ni ruscha tarjimasi bilan birga nashr ettirgan[10]. Ushbu nashr asosida fors tilidan (ruscha tarjimani solishtirgan holda) H.Boltaboev ayrim boblarni tarjima qilgan[11].

Afsuski, “Hadoyiq u-s-sehr” asari qo‘lyozmalari to‘liq o‘rganilmagan bo‘lib, asarining to‘liq ilmiy-tanqidiy matni yaratilmagan. Eronlik olim Abbos Iqbol Ashtiyoniy birgina Parij nusxasidan foydalanib, ushbu yodgorlikning tanqidiy-matnini amalga oshirgan. Bu sababdan “Hadoyiq u-s-sehr” asarining yangi topilgan qo‘lyozma nusxalari ushbu asarni yangidan nashr qilish va asliyatga yanada yaqinroq bo‘lgan matnni tuzish zaruriyatini tug‘diradi.

Mazkur tadqiqotga quyidagi qo‘lyozmalar jalb etilgan:

[9] Рашид ад-Дин Ватват. Хадаик ас-сихр фи дакаик аш-шиир. Изд. текста, предисл. и коммент. Аббаса Икбала. Тегеран, (б. г.).
[10] Чалисова Н.Ю. Рашид ад-Дин Ватват. Сады Волшебства в тонкастьях поэзии // Перевод с персидского, иссследование и комментарий Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1985.
[11] Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 390-391.

1. Sulaymoniya kutubxonasi Lala Ismail fondida saqlanayotgan №718/10 raqamli qo‘lyozma. Bu qo‘lyozmaning ko‘chirilgan sanasi ma’lum bo‘lmasa-da, tarkib jihatidan mukammaldir. Mazkur nusxa boshqa nusxalrga qaraganda matndagi xatolari kamroqligi bilan e’tiborlidir.

2. Biz ko‘rib chiqgan nusxalar ichida eng qadimgisi. Mazkur nusxa haqida Abbos Iqbol Ashtiyoniy o‘z ishida quyidagi ma’lumotlarni berib o‘tadi: “Muallif “Hadoyiq u-s-sehr”ni nashr qilish uchun asos qilib olgan nusxa Parij Milliy kutubxonasiga tegishli nusxa bo‘lib, bayozga o‘xshagan kichik bir to‘plam ichida № 1405 raqam bilan Supplement persan deb belgilangan. Ushbu nusxa 668 yil Sha’bon oyining 7 kuni taxminan muallif vafotidan 95 yil o‘tib ko‘chirilgan. Bu “Hadoyiq u-s-sehr” asarining eng qadimgi nusxasi. Asar to‘plamning 28b betidan boshlanib, 72b betida tugagan”[12].

3. Turkiyaning Ko‘prulu kutubxonasi, Fazil Ahmed kolleksiyasida saqlanayotgan № 1392 raqamli qo‘lyozmadir. Bu qo‘lyozma asar yozilgan davrga eng yaqin nusxadan deyarli 25 yil keyin yozilgan bo‘lsa ham nisbatan xato va kamchiliklar yuqoridagi qo‘lyozmalardan ko‘ra ko‘proq uchraydi. Bu qo‘lyozma hijriy 692 yilda ko‘chirilgan.

4. Turkiyaning Ko‘prulu kutubxonasi, Fazil Ahmed kolleksiyasida saqlanayotgan №1613 raqami qo‘lyozma. Bu nusxa hijriy 686 yilda asar yozilgan davrga eng yaqin nusxadan 18 yil o‘tib ko‘chirilgan.

5. Turkiyaning Lolo Ismoil kutubxonasida saqlanayotgan № 407 raqamli qo‘lyozma hisoblanadi. Ushbu nusxa hijriy 844 yilda ko‘chirilgan.

6. Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan № 414 raqamli qo‘lyozma bo‘lib, VIII/XIV asrlarda ko‘chirilgan deb taxmin qilinadi[13].

7. Istanbul universiteti kutubxonasida saqlanayotgan № 819 raqamli qo‘lyozma tanlab olindi. Bu qo‘lyozma hijriy 967 yilda ko‘chirilgan.

Qo‘lyozmalarni qiyoslash orqali nusxalarda misollarning tushib qolishini tekshirib chiqamiz.

**HS414**[14] raqamli qo‘lyozmada **الترسيع** *(at-tarse’)* san’atidagi 13 ta misoldan 1 tasi, **تجنيس ناقص** *(tajnis-e noqis)* san’atidagi 8 ta misoldan 2 tasi, **تجنيس مكرّر** *(tajnis-e mukarrar)* san’atidagi 8 ta misoldan 2 tasi, **تجنيس خط** *(tajnis-e xat)* san’atidagi 17 ta misoldan 1 tasi, **سجع مطرف** *(saj-e mutarraf)* san’atidagi 4 ta misoldan 1 tasi, **مقلوب مستوى** *(maqlub-e mustavi)* san’atidagi 9 ta misoldan 1 tasi, **نوع ششم از رَدَّالعَجُزِ عَلَى الصَّدرِ** *(nave shesho’m az rad ul-‘ajuz ‘ala as-sodri)* san’atidagi 12 ta misoldan 1 tasi, **اَلمُتَضَادُّ**

[12] Рашид ад-Дин Ватват. Хадаик ас-сихр фи дакаик аш-шиир. Изд. текста, предисл. и коммент. Аббаса Икбала. Тегеран, (б. г.).
[13] Ahmed Ateş. “Raşid al-Din Vaṭvāṭ eserlerının bāzı yazma nűshaları”. Tarih Mecmuası. Sayı X (1950) S. I-24.
[14] حدايق السّحر فى دقايق الشّعر Истанбул университети кутубхонасида сақланаётган №414 рақамли қўлёзма. Милодий VIII/XIV асрлар.

*(al-mutazod)* san’atidagi 16 ta misoldan 4 tasi, **اَلِاعنَاتُ** *(al-‘enot)* san’atidagi 10 ta misoldan 3 tasi keltirilmagan.

**HS819**[15] raqamli qo‘lyozmada **الترسيع** *(at-tarse’)* san’atidagi 13 ta misoldan 2 tasi, **الترسيع مع التجنيس** *(at-tarse’ ma’at-tajnis)* san’atidagi 7 ta misoldan 1 tasi, **تجنيس ناقص** *(tajnis-e noqis)* san’atidagi 8 ta misoldan 3 tasi, **تجنيس مركّب** *(tajnis-e murakkab)* san’atidagi 8 ta misoldan 2 tasi, **تجنيس مكرّر** *(tajnis-e mukarrar)* san’atidagi 8 ta misoldan 4 tasi, **تجنيس مطرّف** *(tajnis-e mutarraf)* san’atidagi 7 ta misoldan 3 tasi, **تجنيس خط** *(tajnis-e xat)* san’atidagi 17 ta misoldan 4 tasi, **الإشتقاق** *(al-ishtiqoq)* san’atidagi 23 ta misoldan 1 tasi, **سجع مطرف** *(saj-e mutarraf)* san’atidagi 4 ta misoldan 1 tasi keltirilmagan.

**HS407**[16] raqamli qo‘lyozmada **الترسيع** *(at-tarse’)* san’atidagi 13 ta misoldan 1 tasi, **تجنيس مركّب** *(tajnis-e murakkab)* san’atidagi 8 ta misoldan 1 tasi, **تجنيس مكرّر** *(tajnis-e mukarrar)* san’atidagi 6 ta misoldan 2 tasi, **الإشتقاق** *(al-ishtiqoq)* san’atidagi 23 ta misoldan 6 tasi, **سجع متوازى** *(saj-e mutavozi)* san’atidagi 3 ta misoldan 1 tasi, **سجع مطرف** *(saj-e mutarraf)* san’atidagi 4 ta misoldan 2 tasi, **نوع سيوم از رَدَّالعَجُزِ عَلَى الصَّدرِ** *(nave siyyo’m az rad ul-‘ajuz ‘ala as-sodri)* san’atidagi 4 ta misoldan 1 tasi keltirilmagan.

**HS718**[17] raqamli qo‘lyozmada **تجنيس مطرّف** *(tajnis-e mutarraf)* san’atidagi 7 ta misoldan 1 tasi, **الإشتقاق** *(al-ishtiqoq)* san’atidagi 23 ta misoldan 2 tasi, **مقلوب كول** *(maqlub-e kul)* san’atidagi 7 ta misoldan 1 tasi, **الحَذفُ** *(al-xazf)* san’atidagi 7 ta misoldan 1 tasi, **تَفسِيرُ الجَلِيّ و الخَفِيّ** *(tafsirul jali val hafi)* san’atidagi 5 ta misoldan 1 tasi, **اَلِاستِدرَاكُ** *(al-istidrok)* san’atidagi 3 ta misoldan 1 tasi keltirilmagan.

**HS1405**[18] raqamli qo‘lyozmada **الترسيع** *(at-tarse’)* san’atidagi 13 ta misoldan 1 tasi, **الإشتقاق** *(al-ishtiqoq)* san’atiga bag‘ishlangan 23 ta san’atdan 2 tasi, **تجنيس مركّب** *(tajnis-e murakkab)* san’atidagi 8 ta misoldan 1 tasi, **تجنيس مطرّف** *(tajnis-e mutarraf)* san’atidagi 7 ta misoldan 1 tasi, **الإشتقاق** *(al-ishtiqoq)* san’atidagi 23 ta misoldan 2 tasi, **مقلوب كول** *(maqlub-e kul)* san’atidagi 7 ta misoldan 1 tasi, **مقلوب مستوى** *(maqlub-e mustavi)* san’atidagi 9 ta misoldan 1 tasi keltirilmagan.

**HS1613**[19] (49b) raqamli qo‘lyozmada esa **تجنيس مكرّر** *(tajnis-e mukarrar)* san’atidagi 8 ta misoldan 2 tasi, **تجنيس مطرّف** *(tajnis-e mutarraf)* san’atidagi 7 ta misoldan 1 tasi, **الإشتقاق** *(al-ishtiqoq)* san’atidagi 23 ta misoldan 2 tasi, **مقلوب مستوى** *(maqlub-e mustavi)* san’atidagi 9 ta misoldan 1 tasi, **اِرسَا لُ المَثَلِ** *(irsol ul-masal)*

[15] حدايق السّحر فى دقايق الشّعر Истанбул университети кутубхонасида сақланаётган №819 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 967 йил.
[16] حدايق السّحر فى دقايق الشّعر Лоло Исмаил Кутубхонасида сақланаётган №407 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 844 йил.
[17] حدايق السّحر فى دقايق الشّعر Лоло Исмаил Кутубхонасида сақланаётган №718/10 рақамли қўлёзма.
[18] حدايق السّحر فى دقايق الشّعر Париж Миллий кутубхонасида сақланаётган №1405 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 668 йил.
[19] حدايق السّحر فى دقايق الشّعر Кўпрулу кутубхонаси, Фазил Аҳмед коллекциясида сақланаётган №1613 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 686 йил.

san’atidagi 7 ta misoldan 1 tasi, **اَلإِستِدرَاكُ** *(al-istidrok)* san’atidagi 3 ta misoldan 1 tasi, **الكَلَامُ الجَامِعُ** *(al-kalamul jamiu’)* san’atidagi 9 ta misoldan 1 tasi berilmagan.

**HS1392**[20] raqamli qo‘lyozmada **الترسيع** *(at-tarse’)* san’atidagi 13 ta misoldan 1 tasi, **تجنيس مكرّر** *(tajnis-e mukarrar)* san’atidagi 8 ta misoldan 2 tasi, **تجنيس مطرّف** *(tajnis-e mutarraf)* san’atidagi 7 ta misoldan 1 tasi, **الإشتقاق** *(al-ishtiqoq)* san’atidagi 23 ta misoldan 2 tasi, **مقلوب مستوى** *(maqlub-e mustavi)* san’atidagi 9 ta misoldan 1 tasi, **اَلمَدحُ المُوَجَّه** *(al-madh al-muvajjah)* san’atidagi 5 ta misoldan 1 tasi berilmagan.

## XULOSA

Muallif san’atlarni izohlagandan keyin har biriga kamida 5 yoki 6 tadan misollar keltirgan. Ba’zi san’atlarga keltirilgan misollarning soni esa 20 tadan ham oshadi. Bu vaziyatda quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

- kotib asarni ko‘chirayotganida san’atlarga berilgan misollar ko‘plik qilgani uchun to‘liq bermagan bo‘lishi mumkin;
- yoki ozgina misol ham o‘sha san’atni ochib berishga yetarli deb hisoblab, tushirib qoldirgan bo‘lishi ham mumkin;
- yana bir taxmin esa kotib ko‘chirgan nusxada o‘sha misollar to‘liq keltirilmagan bo‘lishi ham mumkin.

E’tibor beradigan bo‘lsak, soni ko‘proq bo‘lgan misollarda ko‘proq misollar tushirib qoldirilgan. Kamroq misollarda esa kamroq tushirib qoldirilgan. Misol uchun, **الاشتقاق** *(al-ishtiqoq)* san’atidagi 21 ta misoldan 4 tasi **HS414** raqamli qo‘lyozma nusxada tushirib qoldirilgan, **حُسنُ التَّهَلُّصِ** *(husn at-tahallus)* san’atida esa 6 ta misoldan 1 tasi **HS414** raqamli qo‘lyozma nusxada tushirib qoldirilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi manbalari. – T.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
2. Abbos I. Rashididdin Vatvot. Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she’r. – T.: Universitet Tegrana, 1973.
3. Н.Ю. Чалисовой Рашид ад-дин Ватват. Сады волшебства в тонкостях поэзии. Пер. с персидского исследование и комментарий. – М.: Наука, 1985.
4. Bertels A.E. Istoriya persidsko-tadjikskoy literaturi. – M.: Nauka, 1960.
5. Nafisiy S. Rashididdin Vatvot. Devon. – T.: Tehron universiteti, 1339.

[20] حدایق السّحر فی دقایق الشّعر Кўпрулу кутубхонаси, Фазил Аҳмед коллекциясида сақланаётган №1392 рақамли қўлёзма. Ҳижрий 692 йил.

# SOCIAL DIMENSIONS OF STANDARDIZED ASSESSMENT IN LANGUAGE TEACHING IN UZBEKISTAN

**Asrorov Ilgor**
International Islamic Academy of Uzbekistan
Phone: +998901147343
i.asrorov@iiau.uz

## ABSTRACT

*This article examines the role and impact of standards-based assessment and standardized language tests in Uzbekistan, particularly regarding CEFR implementation and gatekeeping functions in educational and employment contexts. It argues that the widespread use of these tests may lead to negative washback on language teaching and learning, impacting teachers and students' perspectives. Ethical concerns are also raised about standardized testing's power and control, suggesting a need for democratic assessment practices. The study calls for a more balanced approach to testing that promotes learning improvements while respecting democratic values.*

***Keywords:*** *standardized testing, language proficiency, CEFR standards, Uzbekistan education, language assessment, EFL teachers, gatekeeping, educational policy, test washback, ethical concerns.*

# O‘ZBEKISTONDA TIL O‘QITISHDA STANDARTLANGAN BAHOLASHNING IJTIMOIY O‘LCHAMLARI

**Asrorov Ilg‘or**
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Telefon: +998901147343
i.asrorov@iiau.uz

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola O‘zbekistonda CEFRni joriy etish va ta’lim hamda ishga qabul qilish jarayonlarida standartlarga asoslangan baholash va standartlashtirilgan til testlarining roli va ta’sirini o‘rganadi. Ushbu testlarning keng qo‘llanilishi til o‘qitish va o‘rganishda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi va bu o‘qituvchilar hamda talabalarning qarashlariga ta’sir qilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Shuningdek, standartlashtirilgan testlarning kuch va nazorat funksiyalari bo‘yicha axloqiy (e’tik) xavotirlar (jixatlar) keltiriladi va demokratik baholash amaliyotlariga ehtiyoj borligi taklif qilinadi. Tadqiqot testlashning yanada muvozanatli yondashuvini taklif qiladi,*

*bunda ta'limni rivojlantirish demokratik qadriyatlarni hurmat qilgan holda qo'llab-quvvatlanishi kerak.*

***Kalit so'zlar:*** *standartlashtirilgan testlash, til malakasi, CEFR standartlari, O'zbekiston ta'limi, tilni baholash, EFL o'qituvchilari, kirish-chiqish nazorati, ta'lim siyosati, test ta'siri, e'tik qarashlar.*

## INTRODUCTION

In our modern age tests, especially high stakes, deeply influence people's lives in many ways. They can even be one of the most important milestones in individuals' academic lives to shape their future careers. Brown and Abeywickrama (2010) point out the increasing role of standards-based assessment and standardized tests in assessing language abilities in a global scale. They also claim that standardized measures have been chosen by authorities, educational institutions, schools, businesses as economical, reliable, and valid assessment forms for the candidates to enter, continue in, and exit those institutions. In many countries, standardized language tests such as IELTS (International English Language System), TOEFL (Test of English as a Foreign Language), FCE (Cambridge Assessment English) are used to make decisions on assessing language abilities of individuals for certain purposes and suitability which can be sufficient for the gatekeeping functions (Hudson, 2013; Spolsky, 1997). In other words, such proficiency tests based on certain standards can play a role of admitting or rejecting people from one level of education to the other, providing or depriving them of employment.

In Uzbekistan, with the introduction of CEFR (Common European Framework of References) standards in education since 2013, the role of using standardized language tests for social and educational purposes such as gatekeeping has been increasing for the last decade. Personally, I am interested in this area because the implementation of CEFR standards and the use of standardized test results for gatekeeping purposes are closely connected to my job as an EFL teacher. As an EFL teacher in Uzbekistan I am required to take a language proficiency test and obtain at least the level C1 on the CEFR scale or any standardized language test result which is equivalent to CEFR level of C1 if I want to retain my job or to join an educational setting as an EFL teacher. While policy makers claim that the implementation of CEFR standards in Uzbekistani education system and the introduction of standardized language test use connecting with CEFR standards for gatekeeping purposes can bring many benefits to develop foreign language teaching, learning and assessment in Uzbekistan (Tolibjonov et al, 2020), some researchers assert that there are some challenging issues in standards-based assessment and standardized tests that stakeholders face (Brown and Abeywickrama, 2010; Khatamova, 2018).

In this article I will argue that the large-scale use of standards-based assessment based on CEFR standards and several standardized tests used in Uzbekistani context as gatekeeping functions might have negative washback on teaching and learning languages in Uzbekistan from teachers' perspective. I will also discuss ethical issues of the standardized language tests used in the higher educational context of Uzbekistan arguing why the role of democratic assessment is important in this context.

**Standards-based assessment and standardized tests**

Testing people whether they have certain abilities and qualifications has a long history. Cheng (2008) points out one of the earliest formal tests and examinations used almost 2000 years ago in the Han Dynasty of China. These tests were used to choose the highest government officials for certain qualities in the country. Brown (2004) highlights even earlier instance of the use of "shibboleth test" which was utilized to distinguish two linguistically and ethnically different groups of people. Today, our lives are still greatly influenced by tests, especially standardized tests which are high-stakes. Hudson (2013) points out the importance of standards-based testing and assessment as "standards serve to outline expectation and to encourage consistency" (p. 479). In many education systems decisions are made based on standards. Teachers and educators use standards to find out success or failure in the use of standards (Menken, Hudson & Leung, 2014). To define standards-based assessment, it is important to understand what standards or benchmarks are, which we call framework of reference as well. After all, standards-based assessment is "measures that are used to evaluate student academic achievement and show that students have reached certain performance levels or standards" (Brown and Abeywickrama, 2010, p. 86). Different institutions have generated language standards for multiple purposes. Standards come from transnational organizations, government agencies, state department of education, educational organizations. In Uzbekistani context, we will be speaking about CEFR standards (Council of Europe, 2001) which the country adopted in the education system in 2013 in accordance with the Presidential Decree № 1875 "The measures of strengthening the system of learning foreign languages" (2012) and the standardized tests which are being used as gatekeeping in Uzbekistan after the definition of standardized tests is given below paragraphs.

**Standardized tests**

Language tests are commonly used for educational purposes by different institutions all around the world. Thus, we can differentiate high-stakes and low-stakes tests. Low-stake tests usually do not have strong impact on stakeholders while

high-stakes tests influence stakeholders and their lives significantly. Most standardized tests are high-stakes and perform gatekeeping functions. “A standardized test, among other things, presupposes certain standard objectives or performance levels – now better known as standards that are held constant across one form of test to another” (Brown and Abeywickrama, 2010, p. 86). Researchers highlight four characteristics of standardized tests as follow: standards-based, product of research and development, systemacic scoring and administration procedures, norm referenced. Many proficiency tests such as International English Language System (IELTS), Test of English as a Foreign Language (TOEFL) which are commercially produced are norm-referenced and considered to be a solid example of standardizes tests. These types of tests are widely used for gatekeeping purposes for university admissions and accepting candidates for a post in workplaces. In Uzbekistani education context CEFR standards and standardized tests are commonly used for those purposes mentioned above.

**The role of CEFR standards and standardized tests in Uzbekistan**

From the first days of Independence in 1991, Uzbekistan started to pursue the movement of standards-based instruction and assessment. In 1997, Uzbekistan introduced the National Program of Training Specialists, which required State Education Standards to set achievement targets for each subject and assess student achievement. Teaching foreign languages and assessing language ability were the first fields to be developed. However, the biggest, probably the most important, step in the country to develop foreign language teaching, learning and assessment for the standards-based instruction and assessment movement was Presidential Decree № 1875 which was adopted on 10$^{th}$ of December, 2012. This document defined a completely new direction of learning foreign languages and assessing language skills. According to the Decree, foreign language learning and assessment should be carried out in accordance with international standards (Musoeva, 2020). As a result, the Common European Framework of References for Languages (European Council, 2001) standards have become the main guidelines for language teaching, learning and testing in Uzbekistan. Now teachers are required to show that test results should provide information about the standard in relation to the CEFR, and the curriculum should be aligned to CEFR standards. As we know the CEFR is not tied to any specific language, however, most standardized language tests provide CEFR equivalents. In Uzbekistan, the gatekeeping role of standardized tests has increased since the CEFR was adopted as the main guideline for foreign language assessment. According to paragraph 2 of the decision No. 312 of May 19, 2021 of the Cabinet of Ministers “On measures to effectively organize the popularization of foreign

language learning", from the 2022/2023 academic year, applicants who are newly recruited for the positions of foreign language teachers in state educational institutions at least B2 level, according to the third paragraph, until the 2022/2023 academic year, all foreign language teachers working in state higher education institutions should have at least C1 level national or equivalent international certificate. According to this decision, based on Article 100 of the Labour Code (1995): "changes in production and labour organization", the termination of employment contracts with teachers who have not submitted the appropriate language certificate during the given notice period has been appointed. EFL teachers are not the only stakeholders affected by such power of gatekeeping purpose of standardized tests in Uzbekistani educational context. In accordance with the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan dated May 19, 2021 "On measures to take the activities of popularizing the study of foreign languages in the Republic of Uzbekistan to a new level in terms of quality" PQ 5117, candidates who are applying for postgraduate programs (master and doctoral levels) are required to show a certificate of foreign language proficiency which must be at least B2 level of CEFR or equivalent of CEFR level B2. Starting from the 2023/2024 academic year, the participation of persons with a national or international certificate of the corresponding level will be introduced in competitions for master's degrees and post-higher (doctoral) education specialties of higher education institutions. In this case, a national or equivalent international certificate of at least C1 level is required for philological fields, and a national or equivalent international certificate of B2 level for non-philological fields. However, such powerful use of standardized tests as gatekeeping has sparked a debate among main stakeholders in terms of validity and washback of standardized language tests used and the ethicality of those very tests.

## CONCLUSION

In conclusion, while the adoption of CEFR standards and standardized language tests in Uzbekistan has aimed to raise the quality of language education and align assessment with international benchmarks, its implementation presents significant challenges. The role of these tests as gatekeeping tools in educational and employment contexts has influenced teachers' and students' experiences in profound ways, often leading to a focus on test preparation rather than holistic language learning. Such an approach can result in negative washback, where the pressure to meet test criteria undermines the overall language learning process. Moreover, the high-stakes nature of these assessments raises ethical concerns. Standardized tests wield significant control, impacting the livelihoods and career progression of individuals, especially teachers who face employment consequences based on their

test results. This authority may be seen as a form of control over teachers and students, potentially limiting their academic freedom and diminishing the broader objectives of language education. Therefore, the study calls for a more balanced approach that combines standardized assessments with formative, democratic evaluation methods. Such practices could mitigate the risks of test-centered learning while respecting individual learning needs and promoting skill development. By fostering a system where standardized tests are one of many tools rather than the sole gatekeepers, Uzbekistan can ensure that its educational practices support both academic excellence and ethical standards, ultimately creating a more supportive environment for language learners and educators alike.

**REFERENCES**

1. Brown, H. D., & Abeywickrama, P. (2010). Language assessment. *Principles and Classroom Practices. White Plains, NY: Pearson Education*.
2. Cabinet of Ministers. (2021). On measures to effectively organize the popularization of foreign language learning. https://lex.uz/docs/-5431845
3. Cheng, L. (2008). The key to success: English language testing in China. Language Testing, 25(1), 15–37.
4. Council of Europe. (2001). The Common European Framework of References for Languages: Learning, teaching, assessment. Cambridge: Cambridge University Press
5. Hudson, T. (2013). Standards-based testing. In *The Routledge handbook of language testing* (pp. 493-508). Routledge.
6. Khatamova, S. (2018). IMPACT OF THE CEFR ON EDUCATIONAL POLICIES. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 138-141.
7. Labour Code. (1995). The Labour Code of the Republic of Uzbekistan. https://lex.uz/docs/-142859
8. Menken, K., Hudson, T., & Leung, C. (2014). Symposium: Language Assessment in Standards-Based Education Reform. TESOL Quarterly, 48(3), 586–614. http://www.jstor.org/stable/43267981
9. Musoeva, A. (2020). Implementing CEFR in Uzbekistan. LAP LAMBERT Academic Publishing.
10. Musoeva, A. (2020). Teacher professional development and its link with the CEFR. *Digital technologies in modern education: current trends and development factors in philology and pedagogy*. Tashkent.
11. Presidential Decree №.1875 "*On the measures of strengthening the system of learning foreign languages*" (December 10, 2012). https://lex.uz/docs/2126032

12. Presidential Decree №. 5117 "*On measures to take the activities of popularizing the study of foreign languages in the Republic of Uzbekistan to a new level in terms of quality*" (May 19, 2021). https://lex.uz/docs/-5426736
13. Spolsky, B. (1997). The ethics of gatekeeping tests: what have we learned in a hundred years? Language Testing, 14(3), 242–247. https://doi.org/10.1177/026553229701400302
14. Shohamy, E. (1993). The Power of Tests: The Impact of Language Tests on Teaching and Learning. NFLC Occasional Papers.
15. Tolibjonov, B., Samandarov, S., Umirzakova, D., & Yunusova, Y. (2020). Teaching and learning foreign languages in Uzbekistan. CEFR: learning, teaching and assessment. *International Journal on Integrated Education*, *3*(1), 57-61.
16. Fayzi ogli, A. I. (2022). Teaching English to Students with Visual Impairments: Problems and Solutions. *Thematics Journal of English Language Teaching*, *6*(1).
17. Fayzi ogli, I. (2021, May). PROBLEMS AND SOLUTIONS OF TEACHING CLASSES WITH BLIND STUDENTS. In *Archive of Conferences* (Vol. 26, No. 1, pp. 13-15).
18. ogli Asrorov, I. F. (2020). The Content Of Teaching Foreign Languages. *Scientific Bulletin Of Namangan State University*, *2*(11), 322-326.
19. Asrorov, I. (2021). TIPS FOR THE TEACHERS WORKING WITH BLIND STUDENTS IN A LANGUAGE CLASSROOM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *9*(05), 474-476.
20. kizi Eshboeva, D. A., Akbarova, S. K., ugli Hafizov, A. A., & ugli Asrorov, I. F. (2022). PSYCHOLINGUISTIC FEATURES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO PRESCHOOL CHILDREN. *Journal of Positive School Psychology*, *6*(2), 4509-4518.
21. Bateman, B. (1976). Teaching Reading to Learning Disabled Children: A Fourth Approach.
22. Ogli, A. I. F. (2020). Defining learning disorders and learning disabled children (Children who have problems learning). *Наука и образование сегодня*, (3 (50)), 71-73.
23. Asrorov, I. F. (2020). THE IMPORTANCE OF INDIVIDUAL FEATURES IN THE CLASSROOM. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, *2020*(1), 98-105.

# ENSURING FINANCIAL AND ECONOMIC STABILITY OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE PROCESS OF INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE NEW UZBEKISTAN

**Sobirov Shoyadbek Qurbonaliyevich**
Andijan state university
Vice-rector for finance and economics

## ABSTRACT

*This article examines the financial and economic stability of educational institutions in Uzbekistan as they under integration into digital technologies. It outlines the key financial challenges faced by educational institutions and evaluates the strategies implemented by the government to ensure stability. Special focus is given to the role of digital transformation and the mechanisms designed to support financial sustainability in the education sector.*

***Keywords:*** *New Uzbekistan, financial stability, economic sustainability, digital technologies, integration, education system.*

## АННОТАЦИЯ

*В статье рассматривается финансовая и экономическая устойчивость образовательных учреждений Узбекистана в процессе их интеграции в цифровые технологии. В ней излагаются основные финансовые проблемы, с которыми сталкиваются образовательные учреждения, и оцениваются стратегии, реализуемые правительством для обеспечения стабильности. Особое внимание уделяется роли цифровой трансформации и механизмам, призванным поддерживать финансовую устойчивость в секторе образования.*

***Ключевые слова:*** *Новый Узбекистан, финансовая стабильность, экономическая устойчивость, цифровые технологии, интеграция, система образования.*

## INTRODUCTION

In the context of the ongoing digital transformation, the integration of advanced technologies into the education system has become a priority for many countries, including Uzbekistan. The “New Uzbekistan” vision, established through a series of reforms since 2017, emphasizes modernization across sectors, including education. The digitalization of educational institutions is seen as essential for improving educational quality, access, and financial sustainability. However, the transition presents financial and economic challenges that require careful planning and support mechanisms to ensure stability. This paper aims to review the financial strategies

implemented in Uzbekistan to sustain educational institutions during the shift to digital education, alongside a statistical analysis of the current state of education and its economic impact.

## LITERATURE REVIEW

More information and literature addresses the financial stability of educational institutions during digital transformation. For example, Rahmanov U. highlight the importance of government funding in developing countries during periods of rapid digitalization. Also Djurayev M. emphasize the role of international cooperation and private investment. However, the unique socio-economic context of Uzbekistan, marked by rural-urban disparities, necessitates tailored approaches. The existing research underscores the importance of balancing financial sustainability with equitable access to digital education resources.

## METHODS

This study uses a mixed-method approach, incorporating both qualitative and quantitative data. Statistical analysis of educational financing in Uzbekistan is conducted using data from the World Bank, UNESCO, and Uzbekistan's national databases. Qualitative data are derived from government reports, scholarly literature, and case studies of educational institutions transitioning to digital formats.

## RESULTS

1. Statistical Overview of Education in Uzbekistan

According to the State Statistics Committee of Uzbekistan, as of 2023, there are approximately 10,000 educational institutions in the country, catering to over 6.5 million students. The national expenditure on education constitutes around 6.5% of the GDP, reflecting a sustained government focus on educational investment. The country has seen significant growth in access to education, with an increase in enrollment rates in both primary and secondary education over the past five years. However, disparities in access to digital infrastructure remain a challenge, especially in rural areas.

1. Financial Challenges in Digital Transformation

Despite the government's increased funding, the financial stability of educational institutions is under pressure. The primary challenges include:

High initial costs for purchasing and maintaining digital infrastructure;

Lack of technical expertise, which requires additional investment in teacher training;

Uneven distribution of resources, with rural schools struggling more than urban institutions.

2. Government Initiatives for Financial Stability

The Uzbek government has launched several initiatives to address these financial challenges:

The “Digital Uzbekistan 2030” strategy, which allocates funds for digital infrastructure development in schools;

The introduction of public-private partnerships (PPP) to attract private investment in education.

The establishment of an education fund to support underfinanced institutions during their digital transition.

## DISCUSSION

The transition to digital education in Uzbekistan is both an opportunity and a challenge. Financial sustainability is a critical concern, as many institutions, particularly in rural areas, struggle to meet the requirements of digital education. While government initiatives such as “Digital Uzbekistan 2030” provide a foundation for improvement, gaps in financing remain, particularly in the areas of infrastructure and teacher training.

Moreover, economic stability within the educational sector cannot rely solely on government funding. The integration of digital technologies requires diversified financial strategies, including international partnerships, private investment, and innovative funding models such as grants.

## CONCLUSION

Ensuring the financial and economic stability of educational institutions in Uzbekistan is essential for the successful integration of digital technologies. While the government has initiated promising programs, further investment, international cooperation, and innovative financial models are required to support educational institutions during this transformative period. Continued research and analysis are crucial for monitoring the long-term impact of these reforms on the country’s education system.

## REFERENCES

1. Rahmanov U. (2022). Government Funding in Digitalization: Case Studies in Central Asia. Journal of Economic Development, 45(2), 130-145.

2. Djurayev M. (2023). Public-Private Partnerships in Uzbekistan's Education Sector: A Path to Digital Transformation. Central Asian Journal of Economic Studies, 39(1), 56-70.
3. UNESCO. (2022). Education and Digital Transformation in Central Asia. Retrieved from https://unesco.org/central-asia
4. State Statistics Committee of Uzbekistan. (2023). Educational Institutions and Enrollment Statistics. Retrieved from https://stat.uz.

# QADIMGI DAVR DASTLABKI SIVILIZATSIYALARNING IJTIMOIY-IQTISODIY BELGILARI

https://doi.org/10.5281/zenodo.14026682

**Yusup Manzarov**
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti dotsenti

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada qadimgi davr dastlabki sivilizatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari va belgilari tahlil qilingan. Qadimgi Sharq va G‘arbdagi kabi ilk sivilizatsiyalarning shakllanishi, ularning ijtimoiy tuzilishi, xo'jalik hayoti, hunarmandchilik va savdo-sotiq munosabatlari yoritib berilgan. Shuningdek, bu sivilizatsiyalarda davlat boshqaruvi, ijtimoiy tabaqalanish, mehnat taqsimoti, yozuv tizimlari va madaniy yutuqlarning rivojlanishi ham ko'rib chiqilgan. Maqolada dastlabki sivilizatsiyalarning paydo bo'lishiga olib kelgan omillar va ularning keyingi tarixiy taraqqiyotga ta'siri ham tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Qadimgi sivilizatsiyalar, Ijtimoiy tabaqalanish, Davlat boshqaruvi, Dehqonchilik va hunarmandchilik, Irrigatsiya tizimlari, Savdo-sotiq munosabatlari, Urbanizatsiya, Yozuv madaniyati, Mehnat taqsimoti, Madaniy yutuqlar.*

## ABSTRACT

*This article analyzes the socio-economic characteristics and signs of early civilizations of ancient times. The formation of early civilizations, both in the ancient East and in the West, their social structure, economic life, crafts and trade relations are highlighted. It also examines the development of government, social stratification, division of labor, writing systems, and cultural achievements in these civilizations. The article also analyzes the factors that led to the emergence of early civilizations and their influence on subsequent historical development.*

***Key words:*** *Ancient civilizations, Social stratification, Government, Agriculture and crafts, Irrigation systems, Trade relations, Urbanization, Writing culture, Division of labor, Cultural achievements.*

## KIRISH

Qadimgi davr dastlabki sivilizatsiyalar xususida so’z yuritishdan oldin, ularni arxaik davrdan ajratib turuvchi belgilarga to’xtalib o’tish joiz. A.Fergyusson sivilizatsiya sifatida insoniyat jamiyatining ijtimoiy sinflar, shaharlar, yozuv va boshqa hodisalar xos bo’lgan bosqichi sifatida ta’riflagan. L.Morgan va F.Engels sivilizatsiyaning muhim belgilaridan biri sifatida yozuvni ko’rsatishgan. Ko’pchilik

olimlar sivilizatsiyani sinfiy jamiyat, siyosiy va ijtimoiy tabaqalashuv tizimi, ma'muriyat va hududiy bo'linish, davlatchilik, shuningdek, mehnat taqsimoti bilan bog'lashadi. Ingliz olimi G.Chayld tomonidan sivilizatsiyaning quyidagi 10 ta belgisi ilgai surilgan: shaharlar, mahobatli jamoatchilik binolari, soliqlar yoki boj, intensiv iqtisodiyot, shu jumladan, savdo, hunarmandlarning ajralib chiqishi, yozuv, ilm kurtaklari, san'atning rivojlanishi, imtiyozli sinflar va davlat. Ushbu belgilarning ichida mahobatli me'morchilik, shaharlar va yozuv jamiyatda kechgan ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan sabab-oqibat aloqalarning butun bir tizimi orqali bog'liq bo'lib, dastlabki sivilizatsiyalarning madaniy majmuasini xarakterlaydi. Sivilizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini esa sinfiy jamiyat va davlat tashkil etadi. Ibtidoiy davr eng qadimgi ilk sivilizatsiyalarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Bu insoniyat rivojining odamning paydo bo'lishidan to sinfiy jamiyatlar va davlatlar paydo bo'lgunga qadar davom etgan bosqichidir. Siz zamonaviy qiyofadagi insonlar shakllanishining murakkab jarayoni - anropogonez haqida ma'lumotlarga egasiz. Yer yuzasida insonlarning paydo bo'lish jarayoni uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo'lib, aql-idrokli odamning shakllanishi bilan nihoyasiga yetdi. Avstrolopiteklar paleodemografiyasi bo'yicha tadqiqot olib borgan amerikalik paleoantropolog A.Manning fikricha, insonlarning dastlabki soni 10-20 ming atrofida bo'lgan. Yana bir amerikalik demograf E.Divi Afrika hududida istiqomat qilgan quyi paleolit insonlarining sonini taxminan 125 ming atrofida bo'lgan degan xulosaga kelgan. Aql-idrokli inson paydo bo'lganda esa u taxminan 1 mln. kishidan iborat edi. Insonlar nafaqat son balki sifat jihatidan ham o'zgarib bordi. Xo'sh, dastlabki sivilizatsiyalar poydevoriga asos olgan aqlidrokli odam qayerda shakllandi, uning vatani qayerda? Ibtidoiy odamlarning dastlabki areallari Afrika va Osiyoning ekvatorial va tropik mintaqalarida joylashgan edi. Bir million yil avval Afrika arxantroplari shimolga tomon harakat qila boshladilar va Yevropa hududlariga kirib bordilar. So'nggi paleolit ovchilari dastlab o'zlashtirilgan yerlardan Shimoliy Yevropa va Osiyoning muzlikdan 16 bo'shagan keng yerlariga joylasha boshladilar. So'nggi paleolitda 140-150 ming yil avval Sibir, Shimoliy Germaniya hududlari insonlar tomonidan o'zlashtirildi. O'sha davrlarda tor bo'lgan Bering bo'g'ozi orqali ular Alyaska va Amerikaga kirib bordilar. Eramizdan 1000 yil oldin Antarktidadan boshqa hamma materiklar u yoki bu darajada odamlar tomonidan o'zlashtirilgan edi. Polisentrizm nazariyasiga ko'ra zamonaviy odamning shakllanishi bir necha markazlarda kechgan. Monotsentrik nazariya tarafdorlarining fikriga ko'ra bu jarayonda bir areal (Janubiy-G'arbiy Osiyo, Shimoliy-Sharqiy Afrika va Janubiy Yevropa) muhim rol o'ynagan. Dastlabki oykumenaning kengayishi va idroklashuv jarayoni insonlar irqlarining shakllanishiga zamin yaratdi. Yevropoid, negroid va mongoloid irqlarining yuzaga

kelishiga turli materiklarda turlicha bo'lgan atrofmuhitga moslashuv va butun materiklar ulkan hududlarining izolyatsiyasi kabi ikki omil muhim rol o'ynadi. Primatlardan to zamonaviy odamgacha bo'lgan taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan qadimgi insonning ma'naviy dunyosini tasavvur etish nihoyatda qiyin. Ibtidoiy insonning tafakkuri daxldorlik prinsipiga asoslangan edi. Aynan mana shu daxldorlik mantiqi totemizmni keltirib chiqardi. Arxantroplar davrida sehrgarlik e'tiqodining kurtaklari ham paydo bo'la boshlaganligi ehtimoldan xoli emas. Aql-idrokli odam nafaqat mehnat qilish, balki ichki kechinmalarini va hissiyotlarini turli usullar bilan aks ettirishni ham bilgan. Paleolit davrida raqsning, keyinroq musiqa va qo'shiqning paydo bo'lishi fikrimizga isbotdir. So'nggi paleolitda ibtidoiy tasviriy san'at ham yuzaga keldi. Ijodiy fantaziyaning ilk kurtaklari neandertallarga tegishli bo'lsa ham, o'z kechinma va hislarini aks ettirish aynan aql-idrokli odamga xosdir. Ibtidoiy tasviriy san'at namunalari Ispaniya (Altamir), Boshqirdiston (Kapova), Fransiya (Lasko) va boshqa ko'plab joylardan topilgan. Bu suratlar qadimgi odamlarning ma'naviy intilishlari va ijodiy ilhomini aks ettiradi. Shu qatorda bu davrda dumaloq haykaltaroshlik ham rivoj topdi. Ilk davrlarda bu asosan ayollar haykallari edi. Paleolit "Venera" lari Rossiya, Slovakiya, Fransiya, Belgiya, Italiya, Germaniya, Avstriyadan topilgan. Tabiat va hayvonot olamining ulkan roli qadimgi insonlarning diniy e'tiqodlarida aks etdi. Masalan, hayvonlarga topinish va totemizmda. 12 ming yil avval Yerdagi harorat ko'tarila boshlagan, bu esa ayrim hududlarda muzlikning erishga, boshqa hududlarda kuchli qurg'oqchilikka olib kelgan. Tabiatdagi bu o'zgsharishlar insoniyat taraqqiyotiga o'zining ta'sirini o'tkazdi. Mezolit davri odami sivilizatsiya darajasiga yetib bormadi, ammo u insoniyatni sivilizatsiya ostonasiga olib kelgan ulkan to'ntarish yasadi. O'q-yoyning kashf etilishi insoniyat tarixida yangi iqtisodiy tuzumni va tarixiy o'zgarishlarni boshlab berdi. Inson nafaqat o'zining tabiatga muteligini sezilarli kamaytirish, balki asosiy iste'mol mahsulotlarini takror ishlab chiqarish imkonini qo'lga kiritdi. Yangi sharoitlarda yashab qolish talabi mikrolitlar texnikasining takomillashuvini tezlashtirdi, murakkab tarkibli qurollar paydo bo'ldi. Mezolit davrida baliqchilik yanada rivojlangan, kemachilik asoslari yuzaga kelgan davrdir. Mezolit davri odamlari ko'chmanchi ovchilar bo'lib, yegulik manbai izlab bir joyda ko'p qolishmagan. Bu esa yangi yerlarning o'zlashtirilishiga olib keldi. Mezolit odamlari makon tutgan daryo va ko'l bo'ylari neolit davri o'troq manzilgohlari uchu asos bhldi. Mezolit davrida yuzaga kelgan ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik insoniyatning keyingi taqdirini belgilab berdi. Mezolit davri o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqarish xo'jaligiga - dehqonchilik va chorvachilikning yuzaga kelishiga zamin tayyorladi. Dehqonchilik va chorvachilikning yuzaga kelishi buning uchun qulay tabiiy sharoit bo'lgan hududda

paydo bo'ldi. Dehqonchilik mezolit davrida asta-sekin shakllanib bordi. Dastlab o'stirila boshlangan donli ekin bu arpadir. U Kichik Osiyo, Falastin, Eron, Janubiy Turkmaniston va Shimoliy Afrikaning tog'oldi hududlarida o'sgan. Keyinroq boshqa boshoqli o'simliklar ham o'zlashtirilgan. Yerdagi ilk dehqonlar m.a. X-IX ming yilliklarda Old Osiyoda yashagan natufiyaliklar bo'lishgan. Quddusdan 30 km shimoli-g'arbidagi joylashgan Karmal tog'idagi Vadi-en-Natuf tog' daryosining bo'yida yashagan odamlar olimlar tomonidan shunday atalgan. Tog'oldi hududlarida yashagan natufiyaliklar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan va g'orlarda, ungirlarda yashashgan. Ular o'ziga xos tosh qadamali suyak o'roqlar yordamida boshoqli o'simliklarni yig'ishgan, tosh hovonchalarda bazalt kelidasta bilan tuyib, iste'mol qilishgan. O'q-yoyning kashf etilishi ov samaradorligini oshirgan va qo'shimcha mahsulot olish imkoniyatini yaratib, chorvachilikka asos yaratgan. Domestikatsiya jarayoni, ya'ni yovvoyi hayvonlarni qo'lgan o'rgatish juda uzoq davom etdi. So'nggi paleolitdayoq itni qo'lga o'rgata boshlagan odam so'nggi mezolitda echki, qo'y, yirik shohli qoramolni qo'lga o'rgatishni boshladi. Mezolit davrida insonlar tafakkuri yanada o'sdi, u o'zini o'rab turgan dunyodan ajratib ko'rsatishga harakat qilgan. Mezolit davrida qoyatosh suratlarining mazmuni o'zgardi, ularda asosan ov yoki raqs bilan mashg'ul odamlar guruhi aks ettirilgan. Tajriba va kuzatish oldingi davrlardagi kabi bilimlar manbai bo'lib xizmat qilgan. Yegulik topish uchun mezolit odamlari ov qilinadigan hudud topografiyasini bilishi, o'simliklarning foydali va zararli xususiyatlarini ajrata bilishi, hayvonlarning harakat yo'li va hatti-harakatini shrganishi, turli minerallarning o'ziga xos xususiyatlarini farqlay olishi, xullas, o'z atrofidagi tabiatni o'rganishi zarur bo'lgan.Mezolit davridan boshlab odamlar nafaqat amaliy meditsinaning eng sodda ko'nikmalarini egalladi, balki bosh chanog'ining trepanatsiyasi va amputatsiya kabi murakkab jarrohlikni amalga oshira boshladi. Insonlar tafakkuridagi bu kabi o'zgarishlar neolit inqilobiga zamin hozirlagan. Neolit tosh davrining so'nggi va sivilizatsiya tarixining boshlanish davridir. Neolit davrida ingliz olimi Gordon Chayld tomonidan neolit inqilobi deb nomlangan ulkan to'ntarish sodir bo'ldi. Neolit inqilobi bu o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tishdir. Yuqori mahsuldor boshoqli g'alla ekinlari (bug'doy, arpa, makkajo'xori, sholi) yetishtirishga asoslangan dehqonchilikka o'tilishi insonlar jamoasini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni barqarorlashtirdi, aholining o'sishiga imkon yaratdi. Dehqonchilik mehnatining siklik xususiyati jamiyatni oziq-ovqat bilan ta'minlashga sarflanadigan vaqtni chegaraladi, farovon hayot tarziga asos soldi. O'troq turmush tarzi va ixtisoslashgan ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan yashash sharoiti yaxshilandi. Neolit hayvonlarni qo'lga o'rgatishda ham muhim davr bo'ldi. Neolit davri odamlari uy hayvoniga

aylantirgan barcha uy jonivorlari bugun ham insonlarga xizmat qilmoqda. Qo'lga o'rgatilgan hayvonlar insonlarga yegulik berishdan tashqari ish hayvoni, transport vositasi sifatida o'z kuchi bilan ham xizmat qila boshladi. Shunday qilib, neolit davrida birinchi mehnat taqsimoti yuz berdi - dehqonchilik va chorvachilik alohida faoliyat turlariga ajraldi. O'troq dehqonlar va ko'chmanchi chorvador qabilalar paydo bo'ldi. Tarixiy rivojlanishdagi notekislik kuchaydi va insoniyat sivilizatsiyaga turli 19 yo'llar va turli sur'atda yo'l oldi. Dastlabki davrda ishlab chiqaruvchi xo'jalik o'zlashtiruvchi xo'jalik bilan yonma-yon mavjud bo'ldi. Bu davrda yuksak tashkil etilgan ovchilik va baliqchilik ham ayrim qabilalar uchun asosiy xo'jalik turi bo'lib qolaverdi. Agar neolit oxiriga kelib Mesopotamiya, Misr, Hindiston va Xitoyda dehqonchilik yetakchilik qilgan bo'lsa, Yevropada u kamroq rivojlangan edi, Yer sharining boshqa hududlarda esa endi kurtak ota boshlagandi. Jismoniy jihatlari bilan o'z ajdodlaridan uncha uzoq ketmagan bo'lsa-da, neolit davri odamlari yangi madaniyat, yangi ixtirolar va kashfiyotlar odami edi. Neolit yangi texnologiyalar va materiallar davridir. Uning tosh industriyasi yuqori darajada rivojlangan bo'lib, mehnat qurollariga ishlov berishning yuqori texnologiyalari qo'llanilgan. Neolit davriga kelib, mezolitling so'nggi bosqichida kashf etilgan tosh boltalar ancha keng tarqalgan, parrakchalar, qadamalar, nayza va kamon o'qlarining uchlari, pichoq, teshgich, parma, qirg'ich, yorma toshlar, o'roq-randa va boshqa qurollar takomillashgan. Yuz minglab yillar davomida faqatgina beshta material: tosh, yog'och, suyak, hayvonlar terisi va loy odamlarni qoniqtirib keldi. Neolit davriga kelib esa uning o'zi o'ziga kerakli materiallarni yarata boshladi. Yig'ib – teruvchi va ovchidan dehqon va chorvadorga aylangan inson dastlab sopolni va to'qimachilikni, neolit oxirida esa metallar qotishmasini kashf etdi. Sopolning paydo bo'lishi insoniyat tarixida katta voqea va uning sivilizatsion taraqqiyotining muhim qadami bo'ldi. Neolitni ko'pincha sopol davri deb ham atashadi. Kulolchilik charxi paydo bo'lgunga qadar sopol buyumlar qo'lda tayyorlangan va naqshlar bilan bezatilgan. Naqshlarda ko'p hollarda kosmogonik xususiyatga ega bo'lib, turli afsonalarni aks ettirgan. Neolit davri yutuqlari qatoriga yigiruvchilik va to'qimachilikni ham kiritish kerak. Bu davrda o'simlik tolalari, teri tasmalari, soch, daraxt tolasi, keyinchalik qo'y yungidan tayyorlangan matolar turli ranglarga bo'yalgan. Bu davrga oid qabrlarda chig'anoqlar va yarimqimmatbaho toshlardan yasalgan taqinchoqlar, pardoz buyumlari ko'proq uchraydi. Shishasimon vulqon jinsi – obsidiandan yasalgan dastlabki ko'zgular, pardoz vositalari paydo bo'ldi. Shunday qilib, neolit davrida ikkinchi mehnat taqsimoti sodir bo'ldi: hunarmandchilik dehqonchilikdan ajrala boshladi. Tez orada bu alohida hunarmandchilik manzilgohlarining paydo bo'lishi bilan ifodalandi, bu esa shaharning qishloqdan ajralishiga olib keldi. Neolit

o’troqlikni yuzaga keltirdi va mustahkamladi, chunki dehqonchilik bilan shug’ullanish o’troq turmush tarzini talab qilardi. Dastlabki muqim manzilgohlar, so’ngra shahar tipidagi manzilgohlar vujudga keldi. Chayla, yerto’la, qoziqoyoqli imoratlar bilan bir qatorda neolit davri odamlari loydan, yog’ochdan va toshdan uylar barpo eta boshladi. Bunday uylarda endi yopiq o’choq va jihozlar bor bo’lib, uylarning atrofida xo’jalik imoratlari joylashgan edi. Kichik Osiyo, Suriya va Falastinda boy va taraqqiy etgan manzilgohlar vujudga kelgan, ayrim hollarda ular devor bilan o’ralgan. Neolit davrining qurilish sohasida g’ayrioddiy va sirli megalitlar tarqaldi. Ushbu inshootlar ulkan tosh bo’laklaridan iborat bo’lib, ularning ayrimlari muqaddas ziyoratgohlar, urug’ dahmalari sifatida xizmat qilgan. Ko’pchilik megalitlarning vazifasi aniq ma’lum emas. Neolit matriarxatning eng rivojlangan davridir, bu davrda ayolning xo’jalik va ijtimoiy roli yanada oshdi. Ilk oilalar, to’g’rirog’i matriarxal oilalar paydo bo’la boshladi. Erkaklar ayolning uyiga va uning urug’ jamosiga ko’chib o’tgan. Bunday oilaning mehnat qurollaridan tashqari, shaxsiy mulki bo’lmagan. Ijtimoiy jamolarning urug’dan kattaroq bo’g’ini-qabilalar paydo bo’ldi. Xullas, dehqonchilik davriga qadam bosgan insonlarning ma’naviy dunyosi yanada boyidi. Madaniyat, hayot tarzi va ma’naviy sohada tub o’zgarishlarga olib kelgan xo’jalikning yangi shakllariga o’tish bir qator omillar ta’siri ostida sodir bo’ldi. Insonlar jamiyatining o’zida yuzaga kelgan omillar birinchi darajli ahmiyatga ega edi. Ularning qatoriga, mehnat qurollari yasashning yuqori darajada rivojlangan texnikasining paydo bo’lishi kiradi. Aholining yuqori zichligi ham muhim rol o’ynagan, chunki uning o’sib borishi eski xo’jalik shakllarining samaradorligini yo’qqa chiqargan va yangi xo’jalik shakllari taraqqiyotini tezlashtirgan. Ijobiy bilim kurtaklarining yuzaga kelishi kelgusi taraqqiyotning muhim shartlaridan biri bo’lgan. Albatta, faqatgina qulay tabiiy sharoit majud hududlardagina bu omillar yig’indisi taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Ijtimoiy va tabiiy omillar yer sharining turli burchaklarida turlicha namoyon bo’lgan, bu esa bu hududularda shakllangan jamiyatlar va ular tomonidan yaratilgan madaniy majmualar xusisiyatida sezilarli farqlarni yuzaga keltirdi. Tarix sahnasida yetakchi rolni dehqonchilik yuksak taraqqiy etgan xalqlar o’ynay boshladi. Neolit inqilobi davrida dastlabki sivilizatsiyalarga asos bo’lgan ilk dehqonchilik majmualari yoki ilk dehqonchilik madaniyatlari vujudga keldi. Neolitda ilk dehqonchilik madaniyatlari shakllangan va rivojlangan bir nechta markazlar yuzaga keldi. Yaqin Sharqdagi Iordan-Falastin majmuasi alohida madaniy mintaqani tashkil etdi. O’lik dengizdan shimolda, Iordan daryosi vodiysida Tell-as-Sulton tepaligi joylashgan. Ushbu tepalik Bibliyada tilga olingan, m.a. VIII-VII ming yilliklarda mavjud bo’lgan sopolsiz neolit manzilgohi bo’lmish Iyerixon qoldig’idir. Ushbu madaniyat natufiya madaniyati an’analari

asosida shakllangan. SopЙfolsiz neolit manzilgohi 4 ga maydonni egallagan va haqiqiy ilk dehqonchilik manzilgohi bo'lgan. Iyerixonni o'rab turgan to'rt metr balandlikdagi tosh devorga balandligi 8 metr va diametri 7 metr bo'lgan dumaloq tosh minora tutashib turgan. Mudofaa inshootlarining mavjudligi nafaqat o'sha davrda turli qabilalar o'rtasidagi murakkab ziddiyatli holatdan, balki yetarlicha moddiy boyliklarning to'planganidan ham dalolat beradi. Iyerixon davridagi xom g'ishtdan barpo etilib, poli ohak bilan suvalgan, devorlari qizil va qaymoqrangga bo'yalgan to'rtburchakli uylar yangi davrning o'ziga xos xususiyati - aholining farvon hayot kechirganligidan dalolat beradi. ichik Osiyo ham ilk dehqonchilik madaniyati rivojlangan alohida markazdir. Kichik Osiyoning janubi-g'arbidagi Xojilar manzilgohi miloddan avvalgi VIII asr oxiri – VII asr boshlariga oid quyi qatlamlaridan poli va devorlari puxtalik bilan tekislangan va pardozlangan paxsa imoratlar topilgan. Hozirgi Turkiyaning sharqida joylashgan Cheyyunyu Tepasida miloddan avvalgi VIII ming yillikda tosh poydevorli, xom g'ishtdan qurilgan ikki qavatli uylardan iborat manzilgoh paydo bo'lgan. Yuqori qavatda turar joy xonalari, pastda omborxona va ustaxonalar joylashgan. Iyerixon singari, bu yerda ham poli ohak bilan tekis suvalgan, bo'yalgan qulay uylar jihozlarga ega. Sopol haykalchalar yasalgan, biroq spool idishlar uchramaydi. Aholi ovchilik, ziroatchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Cheyyunyudan topilgan tosh motigalar Old Osiyoning boshqa yerida uchramaydi. Nihoyat, bu yerdan mis metallurgiyasining eng qadimgi izi – malaxit (mis rudasi) parchalari, sof mis va mayda mis buyumlar topilgan. Miloddan avvalgi VII ming yillikning ikkinchi yarmida Kunya vodiysining 12-13 gektar yerida vujudga kelgan Chatal Xuyuk manzilgohi atrofdagi 20 gektar yaqin manzilgohlarning markazi bo'lgan. Aholisi 2-5 ming kishidan iborat bo'lgan manzilgohda uylar xom g'ishtdan barpo etilgan. Aholi chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bu dehqonchilik markazida 14 turga yaqin o'simlik yetishtirilgan, shu jumladan bir necha bug'doy turlari, arpa, no'xat, pista va bodom yog'i va hokazo kabilar ishlab chiqarilgan. Chatal Xuyukda san'at va farovonlik taraqqiy etganligini uylarning jihozlari, devoriy suratlar, pardoz buyumlari, haykalchalar, taqinchoqlarda ko'rish mumkin. Nisbatan kam sonli sopol idishlar o'rninu yog'och idishlar to'ldirgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sagdullayev A.S., Aminov B., Mavlonov O'. "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti". – Toshkent: Akademiya, 2020.
2. Ziyoyev H. "Qadimgi dunyo tarixi". – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Муродов О. "Древние цивилизации Центральной Азии". – Ташкент: Фан, 2019.
4. Бердимуродов А. "История древнего Востока". – Ташкент: ТГПУ, 2017.

5. История древнего мира / Под ред. В.И. Кузищина. – Москва: Высшая школа, 2016.
6. Алимова Д., Филанович М. "Тошкент тарихи". – Тошкент: Фан, 2019.
7. Аскаров А. "Ўзбекистон тарихи". – Тошкент: Ўқитувчи, 2018.
8. Массон В.М. "Первые цивилизации". – Ленинград: Наука, 1989.
9. Заҳириддин М. "Қадимги дунё тарихи". – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017.
10. История древнего Востока / Под ред. В.И. Кузищина. – Москва: Академия, 2015.
11. Манзаров, Ю. Х. (2021). Новый Узбекистан на пути третьего ренессанса. *Academy*, (5 (68)), 34-38.
12. Манзаров, Ю. Х. (2020). Роль пропаганды народного творчества и искусства в воспитании молодежи. In *30 лет Конвенции о правах ребенка: современные вызовы и пути решения проблем в сфере защиты прав детей* (pp. 226-232).
13. Манзаров, Ю. (2017). ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ПРЕОБРАЗОВАНИЯ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (4), 28-30.
14. Манзаров, Ю. Х. (2021). НАУКА В ВОСТОЧНОЙ ЭПОХЕ ВОЗРОЖДЕНИЯ. *Проблемы науки*, (2 (61)), 5-7.
15. Alimovna, E. Y., Alimovna, E. G., & Burievna, M. S. (2020). Historical Stages Of Innovative processes In Higher Education Of Uzbekistan. *Solid State Technology*, *63*(6), 9824-9834.
16. Эргашева, Ю. (1998). Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развитие (50-60-е годы). *Автореф. на соиск, доктор канд. истор. наук.–Т.*
17. Эргашева, Ю. А. (2020). Развитие женского предпринимательства в Узбекистане. In *Феномен рыночного хозяйства: от истоков до наших дней. Партнерство в условиях риска и неопределенности* (pp. 254-262).
18. Эргашева, Ю. А. (2017). Формирование национальной модели образования в Узбекистане за годы независимости. *Alma mater (Вестник высшей школы)*, (9), 86-89.
19. Ergasheva, Y. A. (2016, January). The experience of reforming and developing the education system in modern Uzbekistan. In *International Scientific and Practical Conference World Science* (Vol. 5, No. 2, pp. 14-17).

# SUV OMBORLARINING GIDROBIOSENOZLARI VA GIDROFLORASI

**Mirzaxalilov Mirabbos Mirzakarim o‘g‘li**
Farg‘ona davlat universiteti “Zoologiya va umumiy biologiya” kafedrasi o‘qituvchisi, mirzahalilovmirabbos@gmail.com

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada suv omborlarining gidrobiotsenozlari va ularning mavsumiy hususiyatlari, daryo gidrobiotsenozlariga bog’liqlik hususiyatlari to’g’risida ma’lumotlar keltiriladi.*

***Kalit so’zlar:*** *biotsenoz, gidroflora, gidrobiotsenoz, fitoplankton, zooplankton.*

## АННОТАЦИЯ

*В статье представлены сведения о гидробиоценозах водоемов и их сезонных особенностях, особенностях зависимости от речных гидробиоценозов.*

***Ключевые слова:*** *биоценоз, гидрофлора, гидробиоценоз, фитопланктон, зоопланктон.*

## ABSTRACT

*This article provides information on the hydrobiocenoses of water reservoirs and their seasonal features, the features of dependence on river hydrobiocenoses.*

***Key words:*** *biocenosis, hydroflora, hydrobiocenosis, phytoplankton, zooplankton.*

## KIRISH

Hozirgi kunda O’rta Osiyo hududida 100 dan ortiq katta-kichik suv omborlari bor. Ularning fizika-kimyoviy sharoiti tirik organizmlarning rivojlanishi uchun qulaydir. Suv omborlarini qirg’oqqa yaqin joylarida suvga yarim botib o’sadigan o’simliklardan qamish, qo’g’a, ko’lqamish, yakan kabilar uchrasa suvga botib o’suvchi o’simliklarga g’ichchak turlari (potamogeton pectinatus, perfoliatus) miriofillium (myriopyllum, spicatum), nayada (najas minor) kabilar kiradi.

Suv omborlarining sayoz chetlarida shu gulli o’simliklar bilan bir qatorda ipsimon yashil suvo’tlardan kladafora, spirogyra, ko’k-yashil suvo’tlarining plyonkalari uchraydi. Ayrim joylarda vosheriyaning chimlari ham kuzatiladi.

**Material va metodika.**

Suv omborlarining planktonida suvo’tlarning turli guruh vakillari rivojlandi. Ularga diatom, yashil ko’k-yashil tillasimon pirofita evglena kabi guruhlarning tur va tur vakillari kiradi.

Kuzning oxiri qish va bahor fasllarida diatomlardan asterionella Formosa, Fragilaria, crotonensis, Melosira, granulate, Mambigua, Cyclotella, comta,

tillasimonlardan Dinobyron, divergens, Dsertularia, Dsociale kabilar fitoplanktonda dominantlik qiladi.

Bahorni oxiri, yoz va kuz faslini boshlanishida yashil suvo'tlardan Binoclearia, lauterborni, pediastram, duplex, psimplex, Sphaerocustis, schroeteri Palmellocystis planctonica, ko'k-yashillardan Microcystis, aeroginosa, Maflosaquae, Coelosphaerium, dubium, anabaena, flosaquae, pirofitolardan Ceratium, hirundinella, fgracile kabilar planktonda dominantlik qiladi. Ular haqiqiy plankton formalar hisoblanadi.

Yoz faslida ayrim shimoliy suv omborlari planktonida diatom va ko'k yashil suvo'tlar vakillari (Buxtarma) janubroqda joylashgan suv omborlarida yashil va ko'k-yashil suvo'tlarning vakillari qishda esa diatom va tillasimonlarning turlari fitoplanktonda dominantlik qiladi.

Daryolar bilan bog'langan suv omborlarining boshlanish qismida uchraydigan suvo'tlarning tarkibi daryolar florasini aks ettiradi, planktonda daryo bentosiga xos turlar uchraydi. Suv ombori o'rtalari va ayniqsa to'g'on atrofiga yaqin joylarda planktonga xos turlar dominantlik qiladi. Ko'pchilik suv omborlarining ochiq qismi planktonida uchraydigan turlar tarkibi bir-biriga o'xshashdir.

Tekislik mintaqasida joylashgan ko'pchilik suv omborlari fitoplanktonining umumiy miqdori 5,7-200 million kl/l (biomassasi 4 g/$m^3$ gacha) atrofida o'zgarib turadi. Tog' mintaqasida joylashgan suv omborlarida fitoplanktonning umumiy miqdori 12 000 dan 5 million kl./l (biomassasi 6,6 mg/$m^3$ gacha) o'rtasida o'zgarib turadi. Tog' mintaqasida joylashgan Nurek suv ombori bunga yaxshi misol bo'ladi. Uni fitoplanktonida 57 tur topilgan.

Ularga diatomlar (25), ko'k-yashillar (2), tillasimonlar (14), evglenalar (2), pirofitalar (2) ni vakillari kiradi.

Suv omborining markaziy qismi suvining yuza qatlami fitoplanktonini maksimal miqdori (330 ming kl/l) va uni biomassasi 1,1 mg/$m^3$ ekanligi kuzatilgan. Planktonda suvo'tlar miqdorining kam bo'lishiga qaramay, ular biomassasini yuqoriligi planktonda katta hajmdagi turlarni (Peridinium, inconspicum) rivojlanishi bilan bog'liqdir. Suv omborining uzunasi bo'yicha, uning yuza qatlamida fitoplanktonning miqdori 1-5 million kl/l, biomassasi 2,7-6,5 mg/$m^3$atrofida o'zgarib turadi. Suv omborining 15 metr chuqurligida suvo'tlar miqdori 800 ming kl/l, biomassasi 0,5 mg/$m^3$ dan ortmaydi.

Nurek suv omborining fitoplanktonida bir nechta turlar dominantlik qiladi. Unga atrofdan yuvilib tushadigan biogen moddalarning ijobiy ta'siri sababdir. Ikkinchi tomondan fitoplanktonning asosiy mahsulotini suvning 2 metrli yuza qatlamida

to’plangan yashil suvo’tlat vakillarini rivojlanishiga qaramasdan, biomassasining asosini diatom suvo’tlar hosil qiladi.

Norin daryosi o’zanida joylashgan Toktagul tog’ suv omborining maydoni 265 $km^3$ , uzunligi 65 km, eni 12 km, chuqurligi 65 m. Yoz faslida suvning yuza qatlamida harorat 23-24$^0$ gacha ko’tariladi, suvdagi tuz miqdori 200-500 mg/l, pH=7,4-8,6.Suv omborining planktonida suvo’larni 42 ta tur va tur vakillari topilgan.

## XULOSA

Ularga yashillar (14), diatomlar (16), ko’k yashillar (7), tillasimonlar (2), pirofita (3) kabi guruh vakillari kiradi. Ularning 70% i haqiqiy plankton formalardir. Fitoplanktonda Sunedra, Cuclotella, Fragilaria, Asterionella Formosa, Ceratium hiundinella, Scenedesmus, bijugutus kabilar dominantlik qiladi.

Fitoplanktonni ko’p miqdori 15 metr chuqurlikda 93 ming kl/lmiqdorni tashkil qiladi. Suvo’tlar 25 metr chuqurlikkacha uchrab, 50-75 metr qatlamda yo’q hisobida bo’ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Камилов Г.К. Рыбы водохранилищ Узбекистана. Ташкент: Изд-во “Фан”, 1973.
2. Мирабдуллаев И.М., Кузметов А.Р., Қурбонов А.Р. Ўзбекистон балиқлари хилма-хиллиги. Тошкент: “Classic” нашриёти, 2020.
3. Правдин И.Ф. Руководство по изучению рыб. Москва: Изд-во «Пищевая промышленность», 1966.
4. Мухамедиев М.А. Рыбы Каркидонского водохранилища. Автореферат дис. на соискание кан. биол. наук. Л. 1985.
5. Юлдашов М.А., Камилов Б.Г. Результаты интродукций чужеродных видов рыб в водоемы Узбекистана//Научные труды Дальрыбвтуза. 2018. № 1 (т. 44). С.40-48.
6. Юлдашов М.А., Салихов Т.В., Камилов Б.Г. Ўзбекистон балиқлари. Тошкент: “GOLD-PRINT NASHR” нашриёти, 2018.
7. Mukimov M. K. A., Mirzakhalilov M. M., Nazarov M. S. Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 5. – С. 140-147.
8. Муқимов М. К. А. и др. СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА МОРФОБИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ АМУРСКОГО ЧЕБАЧКА (PSEUDORASBORA PARVA) КАК ИНВАЗИВНОГО ВИДА //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D2. – С. 50-54.

9. Муқимов М. К. А., Мирзахалилов М. М., Назаров М. Ш. Качественный и количественный анализ некультивируемых рыб в выростных прудах рыбхоза «Наманган балык» //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 726-733.
10. Mirzahalilov M. M. et al. Hydrochemical indexes and phytoplankton composition of different types of water bodies in the fergana valley //O ‘zbekiston biologiya jurnali. – 2006. – Т. 36.
11. Мирзахалилов, М. М. Ў. (2022). ГИДРОХИМИЧЕСКИЙ СОСТОЯНИЕ ПРУДОВ РЫБОВОДНЫХ ХОЗЯЙСТВ И СЕЗОННЫЕ ИЗМЕНЕНИИ ИХ. *International scientific journal of Biruni*, *1*(2), 108-113.
12. Mo, M. (2022). BALIQCHILIK HOVUZLARIDAGI BA’ZI TABIIY OZUQALARNING GIDROBIOLOGIK TAHLILI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, *2*(24), 332-337.
13. Mirzakarim o‘g‘li, M. M., & Xasanboyevna, R. D. (2022). ATROF-MUHIT IFLOSLANISHI SHAROITIDA ORGANIZMDA YUZ BERADIGAN O’ZGARISHLAR. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(14), 794-803.
14. Shamuradovna, M. M. F., Mirzakarim o’g’li, M. M., & Shokirovna, A. S. (2022). POLIZ QONGIZI–EPILYAXNA (EPILACHNA CHRYSOMELINA) NING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *2*(13), 702-706.
15. Mirzakarim o‘g‘li, M. M., Sharopovich, N. M., Abdulfatto o‘g‘li, U. F., & Adxamovich, M. M. (2022). SHAHRIXONSOY IXTIOFAUNASI BO ‘YICHA DASTLABKI MA’LUMOTLAR. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, *1*(10), 202-206.
16. Mirzaxalilov, M. (2023). SHAHRIXONSOYDA TARQALGAN KUSHAKEVIC YALANGBALIG 'INING (ISKANDARIA KUSCHAKEWITSCHI) BA'ZI MORFOBIOLOGIK KO 'RSATKICHLARI. Farg'ona davlat universiteti , (3), 159-159.
17. Mirzaxalilov, M. (2023). UMUMIY DENGIZ (SHIZOTORAKS EURYSTOMUS) SHAXRIXONSOYNING BA'ZI MORFOBIOLOGIK KO'RSATMALARI. *Farg'ona davlat universiteti* , (6), 126-126.
18. Salimovna, S. B. (2022). ODAM VA UNING SALOMATLIGI KURSIDA QON BO‟LIMINI O‟RGANISHDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI AMALGA OSHIRISH USLUBIYOTI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 788-793.

# ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ СТРУКТУРНЫХ И ЗНАЧИТЕЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ ПУСТЫХ ПОРОД

https://doi.org/10.5281/zenodo.14026711

**Курбанов Шавкат Хуррамович**
Доцент Университета педагогической экономики

## АННОТАЦИЯ

*В статье представлены структурные и важные изменения пустых пород, лабораторные результаты полученных проб, концентрационные изменения в окисленных породах.*

***Ключевые слова.*** *Пустые породы, сульфаты, сульфиды, оксиды минералогические и петрографические.*

# CHIQINDI JINSLARINI STRUKTURAVIY VA MUHIM O'ZGARISHLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI

**Qurbonov Shavkat Xurramovich**
Iqtisodiyot pedagogika universiteti dotsenti

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada chiqindi jinslarning atrukturaviy va muhim o‘zgarishlari, olingan na’munalarni laboratoriya natijalari, oksidlangan jinslarda kontsentratsiya o‘zgarishlari keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Chiqindi jinslar, sulfatlar, sulfidlar, oksidlar, mineralogik va petrografik.*

## ВВЕДЕНИЕ

Терриконы являются неотъемлемой частью ландшафта больших и малых городов Донбасса. Только в Донецке их количество по разным источникам составляет от 120 до 138. Около 100 породных отвалов являются недействующими, из них только 25 считаются горящими. Из 32 действующих породных отвалов 28 - горящие. Высота породных отвалов Донецка колеблется в пределах от 8 м до 126, 6 м.

Породы, идущие в отвал, образуются за счет проходки выработок (52%) и их ремонта (48%). Такие "пустые" породы складируются вблизи стволов шахт в виде терриконов высотой до 60-80 м и отвалов хребтовой формы (в сумме 92%), реже - плоских отвалов (8%). Средний литологический состав отвалов отражает состав угленосной толщи. Это аргиллиты (60-80%), алевролиты (10-30%), песчаники (4-10%), известняки (редко до 6%, обычно меньше), а также

значительные примеси угля (6-20%). Кроме того, отвалы содержат существенную долю техногенных материалов - деревянной крепи, металлических изделий, проводов и пр. При отсыпке отвалов происходит гравитационная сегрегация породы, т.е. разделение отсыпаемых пород по размерам обломков и удельному весу. При этом крупные и тяжелые обломки концентрируются у подножья отвалов, а углистое вещество распределяется неравномерно. Наименьшую зольность имеют породы в средней по высоте части отвала, к вершине и основанию она повышается. Отвальная масса изученных шахтных терриконов имеет зольность в пределах 57-99%, составляя в среднем 88, 5%. Влажность изменяется от 0, 2% до 11, 7%, составляя в среднем 3, 4%. Содержание общей серы в отвалах колеблется от 0, 01% до 10, 9%. В составе общей серы преобладает сера сульфидная (84%) [1].

Попадая в терриконы, породы карбона испытывают значительные преобразования. Это связано с процессами выветривания, когда скальные, прочные породы разрушаются и превращаются в полурыхлые и рыхлые. Выветривание пород сопровождается изменением их минерального и химического состава. Значительная часть компонентов пород выщелачивается водными растворами и мигрирует в окружающую среду, локализуясь на различных барьерах в почво-грунтах, растительном покрове, в грунтах зоны аэрации и в водовмещающих породах.

Наряду с выветриванием, которое распространено во внешней части терриконов, внутри них создаются благоприятные условия для окисления и последующего возгорания. Ведущая роль при этом принадлежит деятельности микроорганизмов. Окисление сульфидной серы осуществляется тионовыми бактериями. Они представляют собой обычно автотрофные микроорганизмы, использующие свободную $CO_2$ на построении своего тела и получающие энергию при окислении серы и ее восстановленных продуктов. Изучение условий развития микроорганизмов в зонах окисления сульфидных месторождений установило их устойчивость при температурах от 2 до 70о С, pH среды - от 1 до 8 [2]. При этом развитие бактерий протекает в условиях высокой влажности породной массы. Эти данные показывают, что микроорганизмы устойчивы в условиях кислой среды, так как при окислении сульфидов образуется серная кислота, однако не переносят высокие температуры. Поэтому микроорганизмы начинают процесс окисления, который сопровождается выделением тепла, и разогревают определенную зону, а собственно горение может протекать внутри террикона в благоприятных условиях при доступе достаточного количества кислорода, когда происходит

возгорание органической части угля.

Эти две зоны (желтая и белая) являются промежуточными между окисленными породами и первичными, они характеризуются неравновесными переходными условиями и контролируют процессы миграции и концентрации большей части макро- и микроэлементов (результаты лабораторных исследований проб приведены в таблицах 1, 2).

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ.** Поведение значительной части компонентов породной массы в процессе ее окисления имеет закономерный и вполне объяснимый характер. Так рост концентрации в окисленной породе по отношению к исходной устанавливается для следующих породообразующих компонентов: кремнезема (от 50, 21% до 54, 36%); глинозема (от 17, 73% до 20, 86%); Fe2O3 (от 6, 31% до 9, 43%); CaO (от 0, 93% до 1, 3%); Na2O (от 0, 93% до 1, 05%); SO3 (от 1, 93% до 3, 27%). Увеличивается почти в два раза концентрация водорастворимого (подвижного) сульфат-иона - SO42- (от 9796, 1 мг/кг до 17463, 7 мг/кг).

Табл. 1. Результаты лабораторных исследований проб

| № зоны | 1 | 2 | 3 | 4 |
|---|---|---|---|---|
| № пробы | 15 | 17 | 16 | 14 |
| Описание минералого-петрографических особенностей отходов | Исходная порода - уголь, углистые сланцы черного цвета | Перегоревший кирпично-красный аргиллит с налетами желтой сульфатной минерализации | Перегоревший кирпично-красный аргиллит с налетами белой сульфатной минерализации | Выветрелые и перегоревшие аргиллиты кирпично-красного цвета |
| Нитраты, мг/кг | 21, 6 | 16, 2 | 0, 05 | 7 |
| Сульфаты, мг/кг | 9796, 1 | 16650, 2 | 91246, 5 | 17463, 7 |
| Хлориды, мг/кг | 61, 3 | 40, 5 | 41, 4 | 20, 2 |
| Pb, мг/кг | 25 | 34, 3 | 17, 1 | 97, 1 |
| Cd, мг/кг | 1, 9 | 2, 9 | 2, 4 | 2, 9 |
| As, мг/кг | 4, 2 | 3, 8 | 1, 9 | 5, 5 |
| Hg, мг/кг | 0, 06 | 0, 035 | 0, 03 | 0, 1 |
| Сорг, % | 7, 71 | 0, 16 | 0, 67 | 0, 11 |
| Fe2O3, % | 8, 97 | 10, 85 | 7, 54 | 9, 54 |
| Al2O3, % | 19, 51 | 19, 36 | 18, 23 | 21, 1 |
| Sобщ, % | 0, 49 | 1, 41 | 3, 04 | 1, 49 |
| Cu, мг/кг | 50 | 33 | 71 | 48 |
| Ni, мг/кг | 47 | 72 | 51 | 52 |
| Cr, мг/кг | 102 | 104 | 97 | 85 |
| Zn, мг/кг | 94 | 93 | 102 | 98 |
| V, мг/кг | 94 | 94 | 105 | 86 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Sn, мг/кг | 7, 2 | 4, 6 | 3, 2 | 6, 8 |
| W, мг/кг | 2, 2 | 1, 8 | 1, 8 | 1, 8 |
| Co, мг/кг | 18 | 15 | 24 | 22 |
| Mo, мг/кг | 1, 5 | 1, 8 | 2, 2 | 2, 2 |
| Mn, мг/кг | 715 | 724 | 986 | 724 |
| Ag, мг/кг | 0, 03 | 0, 03 | 0, 03 | 0, 03 |
| Ge, мг/кг | 1, 5 | 1, 5 | 1 | 3 |
| Bi, мг/кг | 2 | 2 | 1, 5 | 2 |

Для ряда микроэлементов также отмечается рост концентрации в окисленных породах: Pb (от 25 до 97, 1 мг/кг); Cd (от 1, 9 до 2, 9 мг/кг); Hg (от 0, 06 до 0, 1 мг/кг); As (от 4, 2 до 5, 5 мг/кг).

Вынос в процессе окисления испытывают Сорг. (от 7, 71% до 0, 11%); MgO (от 1, 55% до 1, 15%); K2O (от 2, 62% до 2, 38%); H2O (от 1, 91% до 1, 06%); NO- ; Cl-. Углерод, составляющий основу органической части исходных отвальных пород, окисляется (выгорает), частично улетучивается в атмосферу в виде углекислого и угарного газов, отчасти участвует в образовании новых минералов - карбонатов и гидрокарбонатов натрия, кальция, магния, железа. Магний и калий переходят из гидрослюдистых минералов пород в подвижное состояние и мигрируют водными растворами. Вода, определяющая влажность пород и играющая главную роль в процессе окисления, по мере роста температуры испаряется и мигрирует в промежуточные зоны, где достигает максимальной концентрации в связи с белой сульфатной минерализацией, что подтверждает формирование последней из пересыщенных водных растворов. Хлориды и нитраты, образующиеся в процессе окисления, выносятся, частично с компонентами выбросов в атмосферу, и отчасти, мигрируя водными растворами, сохраняя в них свою устойчивость при пересыщении сульфат-ионом.

Разогрев органической части угля в очагах окисления сопровождается ее термическим разложением, аналогичным процессу пиролиза. При этом образуются вредные летучие органические компоненты. В повышенных концентрациях в породах терриконов установлены:

1. Нефтепродукты в концентрациях до 548, 0 г/т. Максимальные концентрации нефтепродуктов наблюдаются в породе терриконов шахты "Паравичная" №5 и 1-7 "Ветка".

2. Фенолы в концентрациях до 0, 22 г/т. Минимальные концентрации фенола отмечаются в породах терриконов №2 шахты №4 «Ливенка» и №2 шахты «Центрально Заводская» - меньше 0, 01 г/т, максимальные - в породах террикона шахты №11 - до 0, 081 г/т.

3. Формальдегид установлен примерно в одинаковых концентрациях (до 0, 22 г/т) во всех изученных терриконах.

4. Моноэтаноламин зафиксирован в пробах с максимальной концентрацией 6, 25 г/т в породах террикона шахты «Центрально - Заводская». В отвальных массах террикона шахты №4 «Ливенка» обнаружена одна проба с концентрацией моноэтаноламина - 3, 65 г/т.

5. Максимальная концентрация дифенилопропана (2, 36 г/т) фиксируется в породе террикона шахты "Центрально-Заводская" №1.

Выбросы со стороны терриконов могут распространяться на сотни метров, захватывая большие площади, включая селитебные территории. Компоненты выбросов, осаждаясь на земную поверхность, загрязняют почво-грунты. При этом формируются ореолы рассеивания. Наиболее загрязненными являются заболоченные участки долин рек и днищ балок. Опыт проведения периодического экологического мониторинга почв в пределах г. Донецка показывает, что почво-грунты города имеют повышенный общегородской фон, зачастую превышающий ПДК, для кадмия, мышьяка, ртути, свинца и сульфат-иона. Источниками загрязнения почв данными компонентами являются в том числе выбросы со стороны отвалов.

Сами терриконы и ореолы рассеивания загрязняющих веществ в почвах служат источниками загрязнения водной среды сульфатами и токсичными компонентами. При этом загрязняется поверхностный сток, выщелачивающий растворимые сульфаты с поверхности терриконов и почв, и подземные воды в процессе инфильтрации загрязненных атмосферных осадков. Известно, что поверхностные и подземные воды городской черты имеют высокую минерализацию (более 2 г/л), жесткость (более 15 мг-экв/л), сульфатно-натриевый состав.

Негативные геологические процессы, связанные с терриконами, проявлены в разных аспектах. Водная эрозия их бортов приводит к расширению площади отвалов. Породная масса оказывает дополнительное давление на грунты основания, что может повлиять на изменение их фильтрационных свойств и оказывать локальное воздействие на уровенный режим первого от поверхности водоносного горизонта. Однако самое существенное негативное воздействие терриконы оказывают благодаря формированию зон замещения в грунтах зоны аэрации и в водовмещающих породах. Они проявлены развитием вторичной минерализации. В природных условиях эта минерализация представлена в виде обилия прожилково-вкрапленных карбонатов, развивающихся в зоне аэрации и в водовмещающих породах. В пределах городской территории, где

осуществляются выбросы углекислоты, сернистого ангидрида и т.д., карбонатная минерализация замещается гипсом и содовыми минералами. В пределах зон разломов увеличивается не только количество гипса, но и размеры выделений, достигающие 15-20 см в диаметре. Проявляется вертикальная зональность, когда в верхней части зоны аэрации выделяются конкреции и прожилки землистых агрегатов содовых минералов, ниже по разрезу появляется гипс, который далее становится основным техногенным минералом. Эта зональность обусловлена различной растворимостью содовых минералов и гипса в воде. Зоны замещения сопровождаются перераспределением большей части макро- и микрокомпонентов как в грунтах зоны аэрации, так и в водовмещающих породах и в подземных водах. В качестве проводников данных процессов служат разломы или геодинамические активные зоны.

Эта проблема имеет очевидный инженерно-геологический аспект. Опасность процессов антропогенного замещения грунтов основания зданий и сооружений заключается в том, что первичные природные грунты с конкрециями карбонатов обладают достаточно высокими прочностными характеристиками как в сухом, так и во влажном (обводненном) состоянии. В отличие от них загипсованные грунты сохраняют устойчивость лишь в сухом состоянии. Длительное замачивание сопровождается растворением гипса и, соответственно, потерей несущих способностей грунтов. Опасность состоит в том, что гипс слаборастворим водой, имеющей повышенную минерализацию. Изменения прочностных свойств при замачивании проб грунтов в лабораторных условиях могут быть также не установлены. Поэтому построенный, например, жилой дом на таких грунтах может со временем разрушится, что в последнее время не редкость. Пока грунты сухие - дом стоит. Прохудившиеся водопроводные и канализационные сети приводят сначала к затоплению подвалов. Постоянная фильтрация через зону аэрации вод с пониженной минерализацией приводит к растворению гипса и грунты основания теряют свои прочностные свойства.

## ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Роль терриконов в экологии города является исключительно негативной. Для ее оценки в каждом конкретном случае требуются специальные геолого-экологические исследования для разработки природоохранных мероприятий по минимизации негативных воздействий. Это, прежде всего, предотвращение выбросов, организация поверхностного стока, предотвращение фильтрации атмосферных осадков в горизонты подземных вод, рекультивация и озеленение. Самым оптимальным является разборка отвалов и утилизация породной массы

с учетом ее физико-химических, физико-механических, минералого-геохимических и др. свойств.

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Гигиенические критерии состояния окружающей среды /Совместное издание Программы ООН по окружающей среде и Всемирной организации здравоохранения. - Женева, 1983. - вып.12. - 115 б.
2. Белый И. Ф., Богданова И. А. Шум в кабине гусеничного сельскохозяйственного трактора //Тракторы и сельхозмашины. – 2016. – №. 10. – С. 50-52.
3. Ляшенко М.В., Победин А.В., Шеховцов В.В., Долотов А.А., Искалиев А.И., Соломатин А.В. Формирование воздушного шума в кабине трактора К-700А // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 9-11. – С. 2386-2391;
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 январдаги 21-сон “Республика ҳудудларида пахтачилик ҳосили теримини механизациялаш даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори.
5. “Меҳнат жароҳати ва касб касаллиги билан боғлиқ муаммоларни ҳал этиш йўллари” мавзусидаги ўқув-семинар маърузалар ва норматив ҳужжатлар тўплами, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги Республика тиббий-ижтимоий экспертиза инспекцияси бўлим бошлиғи А.У. Нарзуллаев маърузаси, 2017 йил.
6. Справочник по контролю промышленных шумов: Пер. с англ. /Пре. Л.Б. Скарина, Н.И. Шабанова; Под ред.д-ра техн.наук, проф. Б.В. Клюева. - М.: Машиностроение, 1979. - 447 б.
7. Андреев А. Н., Черненко Я. В., Туманов И. В. Исследование влияния шума в кабине трактора на реакцию тракториста-машиниста //Повышение управленческого, экономического, социального, инновационно-технологического и технического потенциала предприятий и отраслей АПК. – 2017. – С. 132-135.

# EKOLOGIK OMILLAR VA ULARNING O‘ZARO TA’SIR TADQIQI

https://doi.org/10.5281/zenodo.14026729

**Kurbonov Sh.X.**
Iqtisodiyot pedagogika universiteti dotsenti

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada omillar atamasi, ularni guruhi, xususiyatlari, turkumlari, haroratga nisbatan quruqlikdagi organizmlarning ekologik chidamliligi tadqiq qilingan.*

***Kalit so‘zlar.*** *Omil, abiotik, edafogen, orografik, kimyoviy, fitogen, zoogen, mikrobogen, antropogen.*

# ИЗУЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ И ИХ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ

**Курбанов Ш.Х.**
Доцент Педагогического экономического университета

## АННОТАЦИЯ

*В данной статье изучено понятие факторов, их группы, характеристики, категории, устойчивость окружающей среды наземных организмов к температуре.*

***Ключевые слова.*** *Фактор абиотический, эдафогенный, орографический, химический, фитогенный, зоогенный, микробогенный, антропогенный.*

# STUDY OF ECOLOGICAL FACTORS AND THEIR INTERACTIONS

**Kurbanov Sh.Kh.**
Associate Professor of the Pedagogical University of Economics

## ABSTRACT

*In this article, the term of factors, their group, characteristics, categories, environmental resistance of terrestrial organisms to temperature are studied.*

***Keywords.*** *Factor, abiotic, edaphogenic, orographic, chemical, phytogenic, zoogenic, microbogenic, anthropogenic.*

## KIRISH

Omillar atamasi bilan muhit, atrofdagi organizm yoki ularning jamoasini sharoit va elementlarining vaqt va makonda dinamik xilma-xilligi tavsiflanadi. Omil-jarayon

yoki uning sharoitini, jarayonga ta’sir etuvchi harakat kuchini yoki qandaydir jarayon yoki hodisaning mavjudlik shart-sharoitini ifodalaydi.

Ekologik omillar odatda jonsiz (abiotik) tabiat omillari, jonli (biotik) tabiat omillari turkumga bo‘linadi. Muhitning ekologik omillarini batafsil tasniflash I.N. Ponomaryova (1978) tomonidan taklif etilgan. Bu taklif 1-jadvalda keltirilgan.

Ba’zi mualliflar antropogen omillarni (ularning muhimligi va o‘ziga xosligidan kelib chiqib) alohida turkumga ajratishadi. 1–jadvalda keltirilgan tasniflash biogeotsenozni ekotop va biogeotsenozga hamda uning komponentlarini tuzuvchilarga bo‘lishga to‘liq mos keladi.

1-jadval

**Muhitning ekologik omillarini tavsiflanishi**

| **Omillar guruhi** | **Omillarning xususiyatlari** |
|---|---|
| I. Abiotik turkumlar | |
| Iqlimiy<br>Edafogen (“edafos” - tuproq)<br>Orografik<br>Kimyoviy | Yorug‘lik, harorat, namlik, havo harakati, bosim<br>Mexanik tarkibi, namligi, sig‘imi, havo o‘tkazuvchanligi, zichligi<br>Relef, dengiz sathidan balandligi. Qiyalik ekspozitsiyasi.<br>Havoning gazli tarkibi, suvning tuz tarkibi, tuproq eritmalarining tarkibi va kislotaligi. |
| II. Biotik turkumlar | |
| Fitogen<br>Zoogen<br>Mikrobogen<br>Antropogen | O‘simlikka mansub organizmlar<br>Hayvonlar<br>Viruslar, eng oddiy bakteriyalar, rikket-siyalar (kasallik paydo qiluvchi bakteriyalar)<br>Inson faoliyati |

Omillarning boshqa tasniflari ham mavjud. Masalan, davriylik belgisiga ko‘ra omillar davriy va nodavriy, paydo bo‘lishiga ko‘ra-kosmik, geologik, biologik, tavsifiga ko‘ra – axborot, energetik, moddiy va boshqalardan iborat bo‘ladi.

Noantagonistik munosabatda ikki turdagi organizmlar bir-biriga munosabati bo‘yicha (O O), bir taraflama – (O +) yoki ikki taraflama – manfaatli (+ +) bo‘ladi.

Antagonistik munosabatlarning asosiy shakllari yirtqichlik (+ -), parazitizm (tekinxo‘rlik) (+ -) va raqobat ( - -) noantagonistik – simbioz (+ +), mutualizm (+ +), komensalizm (+ O) namoyon bo‘ladi.

Ekologik chidamlilik va valentlik. Evolyutsiya jarayonida organizmlarning ekologik omillarga aniq bir miqdor chegarasida moslashuv qobiliyati shakllanadi. Organizmlarning bu xususiyati ekologik chidamlilik deb ataladi.

Ekologik omillar diapozoni qanchalik keng bo‘lsa, unda yashaydigan organizmlarning ekologik chidamliligi shuncha katta bo‘ladi.

Misol tariqasida taxminiy haroratda quruqlik va suvdagi faol hayot diapazonini qarab chiqamiz (2 -jadval).

2 -jadval

**Yerdagi hayotning harorat diapazoni (V.A.Radkevich).**

| Yashash muhiti | Minimum | Maksimum | Tebranish amplitudasi |
|---|---|---|---|
| Quruqlik | -70,0 | +55,0 | 125,0 |
| Dengiz | -3,5 | +36,0 | 39,5 |
| Chuchuk suv | 0,0 | +93,0 | 93,0 |

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, haroratga nisbatan quruqlikdagi organizmlar yuqori darajada ekologik chidamlidir.

Ekologik omillarning (mintaqaviyligi). Ekologik omillar, tabiatdagi boshqa hodisalar singari mintaqaviydir (1-rasm).

**Muhokama va natijalar.** Muhitdagi omillarni organizmlar aniq bir chegarada, tolerantlik mintaqasi yoki interval (oraliq)da his etadi. Tolerantlik deganda, organizmlarning yashash sharoiti o‘zgarganda yoki optimal holatdan chetga chiqqandagi chidamlilik qobiliyati tushuniladi. Tolerantlik mintaqasidan tashqarida omilning letalli ahamiyati turadi.




**1-rasm. Ekologik omillarning «hayot faoliyati omili» koordinatlaridagi mintaqaviyligi.**

Ekologik optimum – biron bir turkum boshqa bir turkumlarga nisbatan afzalliklarga ega bo‘lgan sharoitdir.

O‘ta kuchli salbiy ta’sir intervalida turgan omillarning ahamiyati ekologik pessimum deb ataladi.

Optimum va pessimum oralig‘idagi mintaqani oraliq yoki o‘tish mintaqasi deb atash maqsadga muvofiqdir. Omilning minimal va maksimal miqdorlarida organizmlarning halok bo‘lishi ekologik minimum yoki ekologik maksimum deb ataladi (maksimum va minimum mintaqalarini almashtirmaslik lozim).

Limitlangan (cheklangan) omillar.

Limitlangan omillar deb, tolerantlik oralig‘i miqdoriga juda yaqinlashgan yoki ulardan oshib ketishga aytiladi.

Limitlangan (cheklangan) omillar asosi 1905 yilda F.Blekman tomonidan aniqlangan. Bu omilning asl ma’nosi unda boshqa omillarning ijobiy ta’sirlari to‘planishidan tuzilgan. Bunda organizmlarning mavjudligi nafaqat minimal, balki ortiqcha omillar miqdori bilan aniqlanadi.

Har qanday ekologik omillar (yoki har qanday sharoitda ham) ham limitlangan deb atalmaydi. Masalan, yer usti ekotizimlarida kislorodning miqdori katta va deyarli undan doimo foydalanish imkoniyati oson. Boshqa muhim masala suvda eriydigan kislorod, uning yetishmasligi tirik organizmlarning rivojlanishini (baliqlarning suv tarkibidagi oksigen miqdorining kamayishi yoki suvning zaharli moddalar bilan zaharlanishi natijasida suvda yashovchi organizmlarning yoppasiga o‘lishi yoki halokati) ko‘pincha cheklab qo‘yadi.

Limitlangan omillar jug‘rofik areal turkumini ham aniqlaydi. Masalan, issiq sevar organizmlarning shimol tomon harakatlanishi issiq yetishmasligi bilan cheklanadi.

Limitlanish ham abiotik, ham biotik omillar bo‘lishi mumkin. Masalan, O‘rta Yer dengizi anjirlarining Yevropadan Kaliforniyaga (AQSh) olib borilganligi to‘g‘risidagi tarixi. U o‘sha joydan o‘simlik turining changlantiruvchi juftini olib borish fikri hayolga kelmaguncha hosil bermagan.

Limitlangan omillarni aniqlash asosan, qishloq xo‘jaligida muhim amaliy ahamiyatga ega. Shunday qilib, paxtaning yetilishida yorug‘lik bug‘doyda tuproqning kislotali omillari limitlanuvchi hisoblanadi (nordon tuproq tarkibidagi ishkorli oxaklanish, betaraflashtirish amalga oshirilmagunga qadar hech qanday ma’danli o‘g‘itlar samara bermaydi) va boshq.

Limitlangan omillarning asosi ekologiyaning ikkita asosiy qonunlariga - minimum va tolerantlik qonuniga tayanadi.

**Minimum qonuni.** Nemis ximigi Yu. Libix agrokimyoning asoschilaridan biri bo‘lib, 1840 yilda organizmning chidamliligi, uning ekologik xususiyatlari zanjirdagi eng zaif jihat bilan belgilanadi, ya’ni hayotiy imkoniyatlarni ekologik omil sifatida cheklab qo‘yadi, bunday omil miqdori zaruriy organizm yoki tizimga va eng oz miqdorga yaqindir. Uning bundan keyin kamayishi organizmning halok bo‘lishiga yoki ekotizimning buzilishiga sabab bo‘ladi (Libix qonuni). U hosil miqdorini tuproqda o‘simlikning ta’minlash elementi talabi eng kam qoniqtirilgan yoki boshqacha aytganda, ushbu element minimal miqdorda bo‘lishini aytib o‘tgan. Shuning uchun maxsus adabiyotlarda bu qonun minimum qonuni deb nomlangan.

Ushbu qonunga muvofiq, organizmda yetishmaydigan ta’minlash elementlari miqdorini kamaytirish uni halokatga yoki destruktsiyaga olib keladi. Shu elementning tarkibini tuproqda oshirishda, hosildorlik boshqa oziqa moddalari minimum darajaga borguncha oshib boradi.

Minimumning (Libix) umumiy ko‘rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:

Organizmlarning o‘sishi va rivojlanishi birinchi navbatda, ekologik minimum qiymatlariga yaqinlashuvchi tabiiy muhit omillari bog‘liq bo‘ladi.

Keyingi tadqiqotlar minimumning ikkita muhim cheklashga ega ekanligini ko‘rsatdi (Odum, 1975). Birinchidan, bu faqat turg‘un holat moddalarning (va energiyaning) kirishi va chiqishi o‘rtasidagi muvozanat mavjud bo‘lganda qo‘llaniladi. Ikkinchidan, omillarning o‘zaro munosabatida qo‘shimcha qoidalar aniqlangan bo‘lib, ekologik bashorat qilish va loyihalashda: organizm ma’lum chegarada yetishmagan moddalarni yoki boshqa harakatdagi omillar, funktsional va kimyoviy yaqin moddalar yoki boshqa omillar (omillarning o‘zaro munosabati) almashtirish qobiliyati muhim ahamiyatga ega.

**Tolerantlik qonuni.** Bu qonun 1913 yilda Amerika olimi V. Shelford tomonidan kashf qilindi. Unga muvofiq organizmlarning (turlarning) rivojlanishida cheklangan omillar ekologik ta’sir etishda minimum yoki maksimum bo‘lishi mumkin, ular o‘rtasidagi diapazon organizmlarning shu omilga (turlarning) chidamlilik (tolerantlik) miqdori bilan aniqlanadi. Biroq ekologik adabiyotlarda uning boshqacha tushunchasi - tolerantlik amplitudasi ham mavjud.

Tolerantlikning (V. Shelford) umumiy ko‘rinishi quyidagicha ifodalanadi:

Organizmlarning o‘sishi va rivojlanishi birinchi navbatda, ekologik minimum yoki ekologik maksimum qiymatlariga yaqinlashuviga muhit omillariga bog‘liq.

Agar ekologik omillarning ushbu bo‘yicha atigi bittasi qatnashmasa, unda huddi o‘sha omil organizmning, populyatsiya yoki jamoasining hayot faoliyatini limitlovchi omil hisoblanadi. Umuman shuni tasdiqlash mumkinki, V.Shelfordning tolerantlik qonuni Yu.Libixning minimumiga va F.Blekmanning limitlovchi omillar

printsipiga nisbatan keng tushuncha hisoblanadi. Tolerantlik katta amaliy ahamiyatga ega. Bunga asosan, har qanday ortiqcha moddalarni muhitni ifloslovchi deb qarash kerak. Atigi qurg‘oqchil tumanlarda zarur suvning ham ortiqcha miqdorda bo‘lishi sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlanishga ba’zida, botqoqlanishga (suv bosishiga) olib keladi. Ayrim elementlarning yetishmasligi (yod, ftor) - buqoq va karies kasalliklarining asosiy sabablari hisoblanadi. Biroq bu yerda ham ortiqcha bo‘lish o‘rinsiz hisoblanadi, og‘ir metallarning ortiqqcha bo‘lishi organizmlarning og‘ir funktsional buzilishiga olib keladi.

Tolerantlik ko‘pgina kuzatuvchi omillar orqali tushuntiriladi. Ushbu pozitsiyaga ko‘ra, shu narsa tushunarliki, organizmlar tolerantlikning keng diapazonida eng ko‘p tarqalgan bo‘lishi lozim.

Organizmlar bitta omilga nisbatan tolernatlik keng diapazonda, boshqasiga nisbatan qisqa diapazonli bo‘lishi mumkin. Masalan, inson ovqatlanishidan ko‘ra suvga chidamsizroq, ya’ni suv ushbu holatda limitlovchi omil hisoblanadi.

Agar ekologik omillarning sharoitlaridan biri nomuvofiq bo‘lsa, boshqa omillar bo‘yicha tolerantlik chegarasi o‘zgarishi mumkin. Masalan, boshoqli o‘simliklarning tuproq tarkibida azotning yetishmasligi katta miqdorda suvni talab qiladi. Ko‘pgina omillarning tolerantlik intervali organizmlar hayotining qiyin davrida, asosan ko‘payish davrida (katta organizmlarga nisbatan ularning avlodlari hayot haroitlariga chidamsizroq bo‘ladi) qisqaradi.

## XULOSA

Yuqorida keltirilgan atamalar bilan birgalikda: intoksikatsiya (tirik organizmlarni degradatsiyaga uchratuvchi), kontaminatsiya (eotizimlarning kimyoviy zararsiz parchalanmaydigan moddalar bilan ifloslanishi), peyorizatsiya (muhit estetikasining buzilishi), destruksiya (ekotizimlarni inson kuchi bilan buzish) dezertifikatsiya (cho‘llanish) kabi bir qator atama va tushunchalardan foydalaniladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Гигиенические критерии состояния окружающей среды /Совместное издание Программы ООН по окружающей среде и Всемирной организации здравоохранения. - Женева, 1983. - вып.12. - 115 б.
2. Белый И. Ф., Богданова И. А. Шум в кабине гусеничного сельскохозяйственного трактора //Тракторы и сельхозмашины. – 2016. – №. 10. – С. 50-52.
3. Ляшенко М.В., Победин А.В., Шеховцов В.В., Долотов А.А., Искалиев А.И., Соломатин А.В. Формирование воздушного шума в кабине трактора К-700А // Фундаментальные исследования. – 2014. – № 9-11. – С. 2386-2391;

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 14 январдаги 21-сон “Республика ҳудудларида пахтачилик ҳосили теримини механизациялаш даражасини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” Қарори.
5. “Меҳнат жароҳати ва касб касаллиги билан боғлиқ муаммоларни ҳал этиш йўллари” мавзусидаги ўқув-семинар маърузалар ва норматив ҳужжатлар тўплами, Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги Республика тиббий-ижтимоий экспертиза инспекцияси бўлим бошлиғи А.У. Нарзуллаев маърузаси, 2017 йил.
6. Справочник по контролю промышленных шумов: Пер. с англ. /Пре. Л.Б. Скарина, Н.И. Шабанова; Под ред.д-ра техн.наук, проф. Б.В. Клюева. - М.: Машиностроение, 1979. - 447 б.
7. Андреев А. Н., Черненко Я. В., Туманов И. В. Исследование влияния шума в кабине трактора на реакцию тракториста-машиниста //Повышение управленческого, экономического, социального, инновационно-технологического и технического потенциала предприятий и отраслей АПК. – 2017. – С. 132-135.

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY SUDLARIDA DAVLAT BOJI TO‘LOVLARINI UNDIRISH MASALALARINING ISTIQBOLLARI

**Jasur Nuriddinov**
+998 93 606 21 31
jasurnuriddin97@gmail.com

## ANNOTATSIYA

*Tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarida sud xarajatlarini undirishning ahamiyati, nazariy-huquqiy asoslari va o‘ziga xos jihatlari, milliy qonunchilikda aks ettirilishi hamda ayrim konseptual masalalar, qonunchilikdagi oq dog‘lar, kolliziyalar va chalkashliklar, ularga yechim sifatida taklif-tavsiyalar xususida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *sud xarajatlari, davlat boji, pochta xarajatlari.*

## АННОТАЦИЯ

*В исследовательской работе рассмотрены значение, теоретико-правовые основы и особенности взыскания судебных издержек в хозяйственных судах Республики Узбекистан, их отражение в национальном законодательстве, а также некоторые концептуальные вопросы, белые пятна, коллизии и неясности в обсуждаются законодательство, а также предложения по их решению.*

***Ключевые слова:*** *судебные издержки, государственная пошлина, почтовые расходы..*

## ABSTRACT

*The research work examines the importance theoretical-legal foundations and specific aspects of the collection of court costs in the economic courts of the Republic of Uzbekistan, their reflection in the national legislation, and some conceptual issues, white spots, collisions and confusions in the legislation, as well as suggestions as a solution to them, are discussed.*

***Key words:*** *court costs, court fees, postal costs.*

## KIRISH

Sud tizimining samaradorligi sudga murojaat qilishda hamma uchun teng imkoniyatlarning yaratilganligi va murojaat qilish uchun ochiqligi kabi fundamental talablar bilan belgilanadi. Sud ishlarini yuritish, sudlarni moddiy jihatdan ta'minlash katta xarajatlarni talab qilib, davlat byudjeti tomonidan har yili ulkan miqdorda pul mablag‘lari ajratiladi. Shu bilan birga sudga o‘z huquqlarini himoya qilish uchun ariza taqdim qilayotgan shaxslar ham sud ishini yuritish bilan bog‘liq xarajatlarni

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari to‘lashdan ozod qilinmagan. Sud xarajatlarini to‘lash prosessual kodekslar bilan belgilangan majburiyat hisoblanib, sudga murojaat qilib huquqlarni himoya qilishning va umuman odil sudlovga bo‘lgan huquqni amalga oshirishning shartlaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, hammaga ochiq bo‘lgan odil sudlov adolatli sud tizimining o‘zgarmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.[1]

Mamlakatdagi qulay investisiyaviy sharoitlardan biri sifatida tadbirkorlik sub'ektlarining o‘z huquqlarini sud orqali himoya qila olishining kafolatlanganligi hisoblanadi. Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan o‘z huquq va manfaatlarini iqtisodiy sudlar orqali himoya qilinishida sudga murojaat qilish tartib-taomillarining soddaligi katta ahamiyat kasb etib, bunda sud xarajatlarini to‘lash va uni undirishdagi ba'zi noaniqliklar prosessual chalkashliklarni, kolliziyalarni hamda “oq dog‘”larni keltirib chiqaradi. Shu sababli ushmu muammolarni tadqiq qilish va yechimi yuzasidan takliflar berish mavzuning dolzarbligini ochib beradi.

## I. Metodologiya

Tadqiqotning metodologik asosini umumiy mantiqiy usullar (tahlil va sintez, dialektik, umumlashtirish, analogiya, mavhumdan konkretga va konkretdan mavhumga o‘tish), empirik tadqiqot usullari (taqqoslash, guruhlarga taqsimlash) va alohida ilmiy usullar (formal-yuridik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy) hamda ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi.

## II. Natijalar

Iqtisodiy sudlarda sud xarajatlarini undirishning huquqiy tabiati tahlil qilinadi. Natijada ushbu ob'ekt bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi, qonunchilikni takomillashtirishga yordam beradigan takliflar ishlab chiqiladi.

## IV. Muhokama qismi

Xorijiy tajribadan ko’rib o’tganimizdek, qonunchilik jihatidan bizga yaqin MDH davlatlarida sud xarajatlarini undirishni tartibga solish masalalarida iqtisodiy sudlarda qo’llashimiz mumkin bo’lgan normalar mavjud bo’lib, ularni milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilish tadbirkorlik sub’yektlariga manfaatli bo’lishi mumkin.

Masalan, bizda to’lanadigan va undiriladigan davlat boji miqdorlarining eng yuqori chegarasi o’rnatilmagan. Bu tadbirkorlar, ayniqsa, kichik va o’rta biznes uchun bir qator moliyaviy noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida ko’rib o’tganimizdek, Rossiya Federatsiyasida bunday cheklovning miqdori 28.414.781,30 so’mni, Qozog’iston Respublikasida 1.954.187.840,46 so’mni, Qirg’iziston Respublikasida 744.470.954,95 so’mni tashkil qiladi.

Bunday cheklovning yo'qligi da'vo summasi qancha ko'p bo'lsa, shuncha ko'p davlat boji undirilishini anglatib, nazariy jihatdan davlat bojining undirilishi mumkin bo'lgan eng yuqori maksimal chegarasi yo'qligini anglatadi.

*Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudiga undirilgan va to'langan davlat bojining eng yuqori miqdorlari to'g'risida axborot berishni so'rab xat bilan murojaat qilingan. Unga ko'ra... Ushbu statistik ma'lumotlarga ko'ra, respublika iqtisodiy sudlarida eng ko'p miqdorda oldindan to'langan davlat boji* ***2.843.552.539,6 so'mni*** *tashkil qiladi.*

Ushbu statistik ma'lumot ham undiriladigan davlat bojlari miqdorining maksimal yuqori chegarasining belgilanmasligi korxonalarni moliyaviy qiyin ahvolga solishi mumkinligi, sudga murojaat qilish imkoniyatlarini cheklashini ko'rsatadi. Birinchi bobda tahlil qilib o'tilgan iqtisodiy sudlar tomonidan butun sud tizimiga qilingan xarajatlarning 59 foizi kompensatsiya qilinishiga, davlat boji to'lovlarini "to'lay olish prinsipi"dan chiqishiga sabab bo'luvchi normalardan biri ham shu deb hisoblasak mubolag'a bo'lmaydi.

Shuningdek, birinchi instansiya sudlari tomonidan qabul qilingan sud hujjatlari ustidan yuqori instansiya sudlariga shikoyat qilishda to'lanishi lozim bo'lgan davlat boji miqdori birinchi instansiya sudida to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50 foizini tashkil qilishi to'g'risidagi norma ham tadbirkorlik sub'yektlarini moliyaviy jihatdan qiynaydigan normalardan biri hisoblanadi. Qonunchilikka ko'ra, davlat bojining undirilishi mumkin bo'lgan eng yuqori maksimal chegarasining yo'qligi ushbu muammoni yanada chuqurlashtiradi.

Yetarlicha davlat bojining to'lanmasligi shikoyatlarni ish yuritishga qabul qilinmay qaytarilishiga, o'z navbatida esa, bu protsessual muddatlarning o'tkazib yuborilishiga va shikoyat qilish imkoniyatining boy berilishiga sabab bo'ladi.

*Masalan, Oliy Sud tomonidan taqdim qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yil davomida respublika iqtisodiy sudlariga jami 14.919 ta apellyatsiya va kassatsiya shikoyatlari kelib tushgan. Shundan, davlat boji va pochta xarajatlari to'lanmaganligi asosi bilan 1.295 ta apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlari qaytarilgan.*

Davlat bojini kechiktirib to'lash tartibining qonunchilikda mavjudligi da'vo ariza va shikoyatlarni davlat bojisiz ish yuritishga qabul qilinishini anglatmaydi. Sababi, IPK 113-moddasiga ko'ra, davlat bojini to'lash asoslari va tartibi, uni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash, to'lashdan ozod qilish tartibi, davlat bojini qaytarish tartibi qonunda belgilanadi. "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasiga asosan pul mablag'lari mavjud bo'lmagan va bu xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan taqdirda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga sudning ajrimiga ko'ra davlat bojini kechiktirib

to’lashga ruxsat berilishi mumkin. Bank tasdig’ida sudga murojaat qilingan sanadan ko’pi bilan uch kun oldingi sana qayd etilgan bo’lishi kerak.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2020 yil 19 dekabrdagi 36-sonli “Iqtisodiy ishlar bo’yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to’g’risida”gi Qarorining 10-11-bandlarida tushuntirish berib o’tilganidek, Qonun bo’yicha sudya davlat bojini to’lashdan to’liq yoki qisman ozod etish huquqiga ega emasligini nazarda tutish lozim. Biroq, da’vogar (arizachi)ning, xususan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanayotgan yuridik va jismoniy shaxsning mulkiy ahvolidan kelib chiqib, sudya davlat bojini to’lashni kechiktirish masalasini hal qilishga haqli. Ham yuridik, ham jismoniy shaxsdan davlat foydasiga undiriladigan davlat bojini kechiktirish masalasini hal qilishda, sud ularning bu xarajatlarni qisman yoki bir yo’la to’lashga pul mablag’lari bo’lmaganligini tasdiqlovchi holatlar mavjudligi haqidagi dalillarni tekshirishi lozim. Pul mablag’larining bo’lmaganligi to’g’risidagi bankning tasdig’i sudga murojaat qilingan sanadan ko’pi bilan uch kun oldingi sana bilan qayd etilgan bo’lishi lozim.

Ya’ni, davlat bojini kechiktirib to’lashga sudya tomonidan ruxsat berilishi mumkin, sudya bunga majbur emas. Bu mutlaqo uning vakolati va shu sababli ushbu qoida qonunchilikdagi “oq dog’” hisoblanadi. Shuningdek, ushbu norma bilan bog’langan yana bir normalardan biri yuridik shaxs tomonidan hisob-raqamida pul mablag’lari yo’qligi to’g’risida bank ma’lumotnomasi taqdim qilinishi lozimligidir.

Lekin, sudga hisob-raqamida pul mablag’lari yo’qligi to’g’risida bank ma’lumotnomasi taqdim qilinsa-da, sud shaxsning boshqa banklarda hisob-raqamlari yo’qligi to’g’risida ma’lumotga ega bo’lmaydi. Ushbu kamchilikni bartaraf qilish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2020 yil 19 dekabrdagi 36-sonli “Iqtisodiy ishlar bo’yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to’g’risida”gi Qarorining oldingi tahririda bank ma’lumotnomasi bilan birga soliq organlaridan boshqa banklarda pul mablag’lari yo’qligi to’g’risida ma’lumotnoma ham taqdim qilinishi lozimligi belgilangan edi. Biroq, ushbu talab qonun hujjatlarida yo’qligi sababli Plenum qarorining ushbu bandini qonun hujjatlariga zid qilib qo’ydi va ushbu normani qo’llashda turli bir-biriga zid amaliyot vujudga kelishiga sabab qilib qo’ydi. Plenum qarorining ushbu bandi qo’llanilib quyi sudlar tomonidan qaytarilgan arizalar shu Plenum qarorini qabul qilgan Oliy Sudning o’zi tomonidan sudlarning ajrimlari bekor qilinib, ko’rib chiqish uchun ish yuritishga qabul qilish to’g’risida qarorlar chiqarilishi holatlari kuzatildi. Natijada, Plenum qarorining ushbu bandi bekor qilindi.

*Masalan, Yuqorichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining ish yurituvidagi 4-1105-2202/287-sonli iqtisodiy ish bo’yicha birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilgan va davlat bojini kechiktirish*

*to'g'risida iltimosnoma taqdim qilgan. Apellyatsiya shikoyati viloyat sudi tomonidan qaytarilib, ajrimning asoslantiruvchi qismida apellyatsiya shikoyatiga davlat bojini kechiktirish to'g'risidagi iltimosnomani ilova qilgan bo'lsada, biroq, yuridik shaxsning banklarda ochilgan hisobvaraqlarida Kartoteka-2 bo'yicha qarzdorligi mavjudligi to'g'risidagi bank ma'lumotnomasi hamda arizachi hisobda turgan joydagi soliq organining mazkur yuridik shaxsga banklarda ochilgan barcha hisobvaraqlar ro'yxati ko'rsatilgan ma'lumotnomasi ilova qilinmaganligi, bunday holatda, arizachining davlat bojini kechiktirish to'g'risidagi iltimosnomasiga asos qilib keltirgan uning hisobvaraqlarida pul mablag'lari mavjud emasligi to'g'risidagi vajlari o'z tasdig'ini topmaganligini keltirgan.*

Qo'shni davlatlar qonunchiligidan o'rganishimiz mumkin bo'lgan tajribalardan yana biri bu tomonlar tomonidan vakilga to'langan xarajatlarni sud xarajatlari tarkibiga kiritishdir.

Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra, vakilga ko'rsatgan xizmatlari uchun to'langan xarajatlar sud xarajatlari tarkibiga kiritilmagan. Shu sababli, tomonlar vakilga to'langan xarajatlarni moddiy zarar summasi sifatida baholab, da'vo summasiga kiritadilar.

Bu bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, vakilga to'langan xarajatlar ham da'vo summasiga kiritilganligi sababli qo'shimcha davlat boji hisoblanadi. Shuningdek, vakil xarajatlari aniq bir statusga ega bo'lmaganligi sababli sudlarda turli amaliyot shakllanib, ba'zi holatlarda qanoatlantirish, ba'zi holatlarda rad etish, ba'zi holatlarda esa bunga asos mavjud bo'lmasa-da, kamaytirish to'g'risida hal qiluv qarorlari qabul qilinmoqda.

Vakilga to'lanadigan xarajatlarni qaytarib undirib olinishiga bo'lgan ishonchning yo'qligi taraflarda vakil xizmati uchun haq to'lashga bo'lgan motivlarni yo'q qiladi.

*Masalan, Yuqorichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining ish yurituvidagi 4-1102-2302/4298-sonli iqtisodiy ish bo'yicha da'vogar "Tovoqsoy suv" MCHJning javobgar Bo'stonliq tuman xalq ta'limi bo'limi hisobidan sudda advokat haqi uchun to'langan 30 000 000 so'm zararni undirishni so'ragan. Sudning ish bo'yicha qabul qilgan yakuniy hal qiluv qarorida advokat va da'vogar o'rtasida tuzilgan yuridik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomada da'voning bahosi 166 394 375 so'mni tashkil etgani holda 30 000 000 so'm zarar undirish so'ralgan, ya'ni so'ralgan zarar miqdori majburiyatning buzish oqibatlariga ochiqdan-ochiq nomutanosib, qolaversa advokat uchun to'langan 30 000 000 so'm pul mablag'ini aynan javobgar tomonidan to'liq qoplab berilishi yuzasidan sababiy bog'liqlik mavjud emas, ulardan tashqari yuridik xizmat ko'rsatish to'g'risidagi bitim da'vogarning xohshiga ko'ra tuzilgan.*

*Sud yuqoridagilarni inobatga olib, zarar undirish talabini qisman, ya'ni 6 000 000 so'm miqdorda qanoatlantirishni, qolgan qismini esa mutanosiblik nuqtai-nazaridan kelib chiqib, asossiz talab etilgan deb hisoblagan.*

Yuqoridagi taklif bilan bevosita bog'liq takliflardan biri, advokat tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lanmagan bo'lsa, uni sudlarga davlat boji to'lamay turib undirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish tartibini joriy qilish lozim. Sababi, advokat tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lamaslik holatlari keng tarqalgan bo'lib, advokat uni undirish to'g'risida umumiy tartibda davlat boji to'lagan holda da'vo ariza bilan sudga murojaat qiladi. Advokatlik firmalari va byurolari kichik tadbirkorlik sub'yekti hisoblanmasligi sababli ular umumiy da'vo summasining ikki foizi miqdorida davlat boji to'lashga majbur bo'ladilar. Mazkur imtiyozning berilishi advokatlik faoliyatini yuritishni osonlashitirib, mazkur institutni yanada mustahkamlaydi.

Iqtisodiy ish bo'yicha qabul qilingan sud hujjatlaridan nusxa olganlik va dublikat berganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki foizi miqdorida davlat boji undirilishi belgilangan. Ushbu miqdordagi davlat bojini sud hujjatlarining dublikatini olishga nisbatan qo'llab bo'lsa-da, sud hujjatlarining nusxasini olishga nisbatan qo'llab bo'lmaydi. Sababi bugungi kunda ushbu miqdor 6.800 so'mni tashkil qilib nusxa olingan har bir varaq hujjat uchun shuncha miqdorni tashkil qiladi. Amaliyotda suddan tashqarida hujjatlarni chop etish bu miqdordan bir necha baravar arzonligi sababli ish hujjatlari bilan tanishuvchi tomonlar ish materiallarini telefonda rasmga olib tashqarida chop ettirishadi. Ba'zida hammada ham bunday texnik imkoniyatning yo'qligi va yetmaganiga moliyaviy sharoit sababli tomonlarning sarsongarligiga sabab bo'ladi. Sababi yuz betlab ish hujjatlari har bir bet uchun 6.800 dan hisoblaganda ancha summani tashkil qiladi.

Yoki, Qonunda belgilanganidan kamroq miqdorda sud xodimlariga haq berilishi evaziga sud hujjatlaridan nusxa beriladi va shunday tarzda byudjetga tushishi kerak bo'lgan pul mablag'lari o'zlashtirib yuboriladi.

"Davlat boji to'g'risida"gi Qonunning oldingi tahririda ushbu summa eng kam ish haqining 10 foizi miqdorida etib belgilangan bo'lib, muammo bundanda chuqurroq edi. Keyinchalik qonunga o'zgartirishlar bilan ushbu miqdor bazaviy hisoblash miqdorining ikki foiziga tushirilgan. Biroq, bu bilan muammo to'liq hal qilinmagan. Muammoning yechimi, sud hujjatidan dublikat olish uchun davlat bojini o'n foiz miqdorida o'zgarishsiz qoldirilib, nusxa olganlik uchun kamroq miqdor belgilanishi lozim edi.

Qozog'iston Respublikasi iqtisodiy sudlarida xorijiy tajribada ko'rib o'tganimizdek, ish hujjatlaridan 10 varaq nusxa olganlik uchun 7.4 tenge

(195.42 so’m) davlat boji to’lanadi. Solishtirish uchun bizda ish hujjatlaridan 10 varaq nusxa olganlik uchun 68.000 so’m davlat boji to’lanadi (347 baravar ko’p). Biroq, QRda ijro hujjatining dublikatini berish uchun bir oylik hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida (488.546,96 so’m) davlat boji to’lanadi.

Yana bir tajribadan biri nomulkiy tusdagi va shartnomani tuzish, o’zgartirish va bekor qilish to’g’risidagi da’vo arizalaridan undiriladigan davlat boji miqdoridir. Ko’rib o’tganimizdek, ushbu miqdor Rossiya Federatsiyasida 852.411,46 so’mni, Qozog’iston Respublikasida 24.427,35 so’mni, Qirg’iziston Respublikasida 148.894,19 so’mni, Tojikiston Respublikasida 85.470,39 so’mni tashkil qiladi.

Bizda, esa ushbu miqdor bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida belgilangan bo’lib, bugungi kun holatiga 3.400.000 so’mni tashkil qiladi. Bu davlat bojini to’lash va undirishda bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Jumladan, undiriladigan davlat boji miqdori kattaligi sababli sudyalar bir tomondan tadbirkorga yordam berish, bir tomondan davlat bojini undirmaslik oqibatida yuzaga keladigan javobgarlikdan qochish maqsadida davlat boji undiriladigan mustaqil da’vo talablarini aniqlashda muammolarga duch keladilar. Bunday muammolar ayniqsa yer bilan bog’liq nizolarda ko’p uchraydi.

Tadbirkorlarga yengillik yaratish maqsadida Oliy Sud Plenumining 2023 yil 20 noyabrdagi “Sudlarda yerga oid nizolarni ko’rishda qonunchilik hujjatlari normalarini qo’llashning ayrim masalalari to’g’risida”gi 28-sonli qarori bilan da’vo arizasida o’zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasini qaytarish va uni yaroqli holatga keltirish so’ralganda, ular bitta talab sifatida baholanishi to’g’risida tushuntirish berilgan. Lekin, qurilmalarni buzish va olib chiqib ketish majburiyatini yuklash to’g’risida talab bildirilsa, ikkita da’vo talabi hisoblanadi ba BHMning 20 baravari miqdorida davlat boji to’lanadi.

Korporativ nizolarda ham taraf sifatida ko’pincha fuqarolar qatnashishi sababli ularda kichik tadbirkorlik sub’yekti statusi yo’qligi oqibatida da’vo talablarining har biri bo’yicha bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida davlat boji to’laydilar.

Xorijiy davlatlar tajribasidan o’zlashtirishimiz mumkin bo’lgan yana bir qoidalardan biri bu ish mazmunan ko’rib chiqilmagan holatlarda, ya’ni, da’vo ko’rmasdan qoldirilganda va ish yuritish tugatilganda davlat boji undirilmasligidir. Qonunchiligimizda da’vo ko’rmasdan qoldirilganda va ish yuritish tugatilganda yuqorida ko’rib o’tganimizdek, 18-moddada nazarda tutilgan ba’zi holatlarda davlat boji undirilmaydi.

Taraflarning haqli noroziligiga sabab bo’luvchi holatlardan biri IPK 107-moddasi 9-bandida nazarda tutilgan bo’lib, javobgarga nisbatan to’lovga

qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan bo'lsa va javobgarga nisbatan taqdim etilgan talab qonunga ko'ra to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish doirasida ko'rilishi lozim bo'lsa da'vo arizasi ko'rmasdan qoldirilishidir.

"To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'zbekiston Resoublikasi Qonunining 12-moddasiga ko'ra, to'lovga qobiliyatsizlik tartib-taomillari qo'llanilayotganda barcha kreditorlarning manfaatlarini kreditorlar yig'ilishi yoki kreditorlar qo'mitasi himoya qiladi. Sud qarzdorga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqidagi arizani ish yuritishga qabul qilib olgan kundan e'tiboran kreditorlar qarzdorga o'z talablarini yakka tartibda qanoatlantirish maqsadida murojaat qilishga haqli emas.

Biror korxonaga nisbatan umumiy tartibda to'lovga qobiliyatsizlik to'grisidagi ariza ish yuritishga qabul qilingandan so'ng, kuzatuv taomili joriy qilinib, muvaqqat sud boshqaruvchisi tayinlanadi va u tomonidan biznes jurnallarga korxonaga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish doirasida kuzatuv taomili joriy qilinganligi to'g'risida e'lon beriladi.[21]

Korxonaga nisbatan soddalashtirilgan tartibda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilsa, ish mazmunan ko'rib chiqilib, korxonani to'lovga qobiliyatsiz deb topish to'g'risida hal qiluv qarori chiqqanda tugatish boshqaruvchisining nomzodi tayinlanadi. Shundan so'ngina tugatish boshqaruvchisi tayinlanadi va u tomonidan korxona to'lovga qobiliyatsiz deb topilganligi to'g'risida e'lon beriladi.

Tabiiyki, taraflar bundan bexabar bo'ladilar va da'vo taqdim qilinib, davlat boji o'z zimmalariga tushadi. Ularda ayniqsa korxonaga nisbatan soddalashtirilgan tartibda to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi ish qo'zg'atilganda axborot olish bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Sababi, elektron ma'lumotlar bazasidan bunday ma'lumotlarni olib bo'lmaydi. Sud boshqaruvchilari e'lon beradigan jurnallar bir qancha bo'lib, ularni hammasini doimiy kuzatib borish imkonsizdir.

Shunday holatlarda, da'vo ko'rmasdan qoldirilib, javobgardan o'ziga tegishli pul mablag'larini undira olmagani holda davlat boji ham da'vogar zimmasiga yuklatiladi.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan taqdim qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra 2023 yil davomida 945 ta ish IPK 107-modda 9-bandiga asosan ko'rmasdan qoldirilgan hamda da'ogarlar hisobidan jami* ***9.655.470.418 so'm*** *davlat boji undirilgan. Ushbu statistik ma'lumotlar ham muammoning naqadar dolzarbligini ko'rsatib turibdi.*

Davlat bojini to'lashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan normalardan yana biri bu davlat bojini to'lashni kechiktirishdagi imtiyozni fuqarolarga nisbatan ham

[21] 736 ga qaralsin

qo’llanilishi to’g’risidagi normalarni kiritish lozimligidir. Amaldagi qonunchiligimizda davlat boji to’lashda fuqarolarga (aksiyadorlardan tashqari) hech qanday imtiyozlar taqdim qilinmagan. Jumladan, davlat boji to’lovlarini kechiktirish, kichik tadbirkorlik subyektlari singari belgilangan miqdorning yarmini to’lash kabi imtiyozlar ishda fuqaro sifatida qatnashuvchi shaxslarga nisbatan q’llanilishi mumkinligi to’g’risida qonunchiligimizda normalar yo’q.

“Davlat boji to’g’risida”gi Qonunning 19-moddasiga asosan pul mablag’lari mavjud bo’lmagan va bu xizmat ko’rsatuvchi bank tomonidan tasdiqlangan taqdirda, tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga sudning ajrimiga ko’ra davlat bojini kechiktirib to’lashga ruxsat berilishi mumkinligi ko’rsatilgan bo’lsa-da, jismoniy shaxslar sifatida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar nazarda tutiladi.

Shuningdek, iqtisodiy sudlarda salmoqli hajmda ko’riladigan korporativ nizolar jamiyatning tadbirkorlik faoliyati bilan emas, balki, ko’proq jamiyat a’zolari o’rtasida jamiyatni boshqarish bilan bog’liq tarzda yuzaga keladigan nizolar hisoblanadi.

Hozirda jismoniy shaxslar kundalik ehtiyojlari tufayli istalgan bankdan istalgancha plastik kartalar olishi mumkinliklari va pul mablag’larini istagancha tasarruf qilishliklari mumkinligi sababli xizmat ko’rsatuvchi bankdan jismoniy shaxslarning hisob-raqamlarida pul mablag’larining mavjud emasligi to’g’risida ma’lumotnoma taqdim qilish foydasiz bo’lib qoladi.

Jismoniy shaxslarning davlat boji to’lovisiz arizani ish yuritishga qabul qilish to’g’risidagi iltimosnomalari amaliyotda turlicha ko’rinishga ega bo’lib bir qator savollarni keltirib chiqaradi.

Kommunal xizmat ko’rsatish sohasi (gaz, elektr, suv, oqova va b.lar) ahamiyati jihatidan mamlakat hayotida muhim o’rinni egallaydi. Kommunal xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlar iste’molchilardan qarzdorlikni undirish to’g’risida sudga da’vo ariza kiritishda davlat boji to’lovidan ozod qilinmaganliklari sababli (gaz yetkazib beruvchi tashkilotlardan tashqari) bir qator muammolarga uchraydilar. Davlat boji to’lovisiz sudga ariza kiritish maqsadida savdo-sanoat palatasiga a’zo bo’lish elektr, suv ta’minoti korxonalari uchun odatiy holga aylangan. Palataga a’zolik badali har yil uchun alohida to’lanib, katta miqdorni tashkil qiladi. Bu esa, kommunal xizmat ko’rsatuvchi tashkilotlarga ortiqcha xarajatlarni yuzaga keltirib, xizmatlar sifatiga ta’sir qiladi.

**V. Xulosa**

1. Undiriladigan davlat bojining eng yuqori chegarasi o’rnatilmaganligi oqibatida iqtisodiy sud ishtirokchilarida kelib chiqadigan moliyaviy muammolarning

oldini olish maqsadida xorijiy davlatlar tajribasi misolida davlat bojining undirilishi mumkin bo'lgan eng yuqori chegarasi miqdorini o'rnatish lozim.

2. Iqtisodiy sudlarda vakilga to'langan xarajatlar sud xarajatlari hisoblanmasligi sababli yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish maqsadida, xorijiy davlatlar tajribasida bo'lgani kabi vakil xarajatlarini sud xarajatlari tarkibiga kiritish, vakil xarajatlari haddan tashqari ko'pligi ko'rinib tursa uni sud tomonidan kamaytirish tartibini o'rnatish lozim. Bunday tartibning o'rnatilishi vakil xarajatlarini ham sud xarajatlari tarkibiga kiritilishiga va davlat bojining hisoblanmasligiga, aniq bir statusi belgilanishiga va advokatlik instituti mustahkamlanishiga sabab bo'ladi.

3. Taraflar ishni birinchi instansiya sudida ko'rilganda katta miqdorda davlat boji to'lashi yetarli bo'lib, uni yuqori instansiyalarda shikoyat berilganda takroran undirishning zaruriyati tadbirkorlar manfaati nuqta'yi-nazaridan qaralganda yo'q. Shu sababli, Rossiya Federatsiyasi misolida (apellyatsiya tartibida shikoyat berilganda 426.205,7 so'm davlat boji to'lanadi) sud hujjatlari ustidan yuqori instansiyalarga shikoyat berilganda kichikroq summada qat'iy o'rnatilgan miqdorda davlat boji to'lash tartibini o'rnatish lozim.

4. Davlat bojisiz arizani ish yuritishga qabul qilish bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida, xorijiy davlatlar qonunchiligi misolida bo'lgani kabi davlat bojisiz arizani ish yuritishga qabul qilishda bank ma'lumotnomasi taqdim qilish tartibini bekor qilib, shaxsning moliyaviy ahvoli yomonligini belgilovchi aniq bir mezonlarni ishlab chiqish lozim.

5. Tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish usullarini kuchaytirish maqsadida korxona to'lovga qobiliyatsiz deb topilganligi sababli da'vo ariza ko'rmasdan qoldirilsa, davlat boji da'vogardan undirilmasligi, yoki to'langan bo'lsa, qaytarib berilishi to'g'risida norma kiritish lozim.

6. Iqtisodiy sud taraflariga qulaylik yaratish maqsadida xorijiy davlatlar tajribasi misolida qonunchilikka o'zgartirish kiritilib, ish hujjatlaridan nusxa olganlik uchun to'lanishi talab qilinadigan davlat boji miqdorini 0,2 foiz miqdorida belgilash, dublikat berish uchun to'lanadigan davlat boji miqdorini esa ko'proq summada o'rnatish lozim.

7. Nomulkiy tusdagi da'vo talablari bo'yicha, shuningdek, shartnoma tuzish, o'zgartirish, bekor qilish to'g'risidagi da'vo talablari bo'yicha undiriladigan davlat boji miqdorini xorijiy davlatlar misolida kamroq miqdorda belgilash lozim.

8. Jismoniy shaxslarning arizalarini davlat boji to'lovisiz ish yuritishga qabul qilish tartibi yo'qligi sababli, qonunchilikka xorijiy davlatlar qonunchiliklari misolida jismoniy shaxslarning arizalarini davlat boji to'lovisiz ish yuritishga qabul qilishning asoslarini (masalan, jismoniy shaxsga ish haqining vaqtida berilmaganligi, uzoq vaqt

kasal bo'lib da'volanganligi va h.k) kiritib, imtiyozlarni fuqarolarga nisbatan ham qo'llanilishi tartibini joriy qilish lozim.

"Davlat boji to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasi yigirma yettinchi bandini quyidagi ko'rinishda: *"Da'vo ariza (ariza) jismoniy shaxsning mulkiy ahvolidan, yuridik shaxsning moliyaviy ahvolidan kelib chiqqan holda, ariza taqdim qilishda davlat bojini to'lay olmaydi deb hisoblansa, quyidagi holatlar mavjud bo'lganda oldindan to'lanadigan davlat boji to'lovisiz ish yuritishga qabul qilinadi:*

*1) texnologik ofat, baxtsiz hodisalar oqibatida zarar yetkazilganda;*

*2) jismoniy shaxsga o'z vaqtida ish haqi to'lanmaganda;*

*3) ishsiz sifatida ro'yxatga qo'yilganda;*

*4) jismoniy shaxsda og'ir kasallik mavjud bo'lganda va u uch oydan ortiq muddatda da'volanishda bo'lganda;*

*5) yuridik shaxsga yetkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlarning haqi to'lab berilmaganda;*

*6) yuridik shaxs tomonidan ishlab chiqariladigan, realizatsiya qilinadigan mahsulotlar, ish va xizmatlar mavsumiy xarakterga ega bo'lsa.*

9. Kommunal xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar (suv, elektr, oqova suvlarni qabul qilish) iqtisodiy sudlarga da'vo arizasi bilan murojaat qilganda arizalar oldindan to'lanadigan davlat boji to'lovisiz ish yuritishga qabul qilinishi to'g'risida norma kiritish lozim.

10. Advokatlar tomonidan ko'rsatilgan yuridik xizmat ko'rsatish haqini undirish to'g'risidagi da'volar oldindan to'lanadigan davlat boji to'lovisiz ish yuritishga qabul qilinishi to'g'risida norma kiritish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Пути развития института судебных расходов: сравнительно-правовой анализ", Шмотин Кирилл Сергеевич - https://cyberleninka.ru/article/n/puti-razvitiya-instituta-sudebnyh-rashodov-sravnitelno-pravovoy-analiz;
2. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий судларида давлат божларини ундириш методологиясининг ўзига хос хусусиятлари, Нуриддинов Жасур - https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-respublikasi-i-tisodiy-sudlarida-davlat-bozhlarini-undirish-metodologiyasining-ziga-hos-hususiyatlari;
3. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий судларида давлат божи тўловларини ундиришнинг ўзига хос хусусиятлари, Нуриддинов Жасур - https://modernedu-dv.com/index.php/dv/article/download/60/58/117;
4. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий судларида почта ва видеоконференцалоқа харажатларини ундиришнинг ўзига хос хусусиятлари, Нуриддинов Жасур - https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/15579;

5. Суд харажатлари тарихи, Нуриддинов Жасур - http://pedagoglar.org/index.php/03/article/download/4368/3981/7832;
6. Иқтисодий судларда суд харажатларини ундириш масалалари, Нуриддинов Жасур - https://pedagoglar.org/index.php/04/article/download/4369/3982/7834;
7. Иқтисодий судларда суд харажатларини ундириш масалаларининг истиқболлари, Нуриддинов Жасур - https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/15579;

# ISLOM DUNYOSIDA AYOLLAR HUQUQLARI

**Valiyev Lochin Azamatovich**
Toshkent davlat transport universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti
Tel:+998946227632
e-mail:valiyevl33@gmail.com

**Abduqayumova Feruzaxon Rayimjon qizi**
Toshkent davlat transport universiteti
“Xalqaro huquq” kafedrasi talabasi
Tel:+998942083513
e-mail::feruzaxonabduqayumova@gmail.com

## ANNOTATSIYA

*Islom dinida ayollar haqidagi tushunchalar, ularning huquqlari, oilada tutgan o’rni va oiladagi vazifalari. Islom dini kirib kelishidan oldin ayollarga nisbatan ularni huquqlarini kamsitish. Ayollarga nisbatan zo’ravonlik. Islom dinida nikoh masalasi.*

***Kalit so’zlar:*** *ayol, erkak, nikoh masalasi, adolat, din, oila, tenglik, zo’ravonlik, talim, meros.*

## ABSTRACT

*Concepts of women in Islam, their rights, their role in the family and their duties in the family. Discriminating the rights of women before the introduction of Islam. Violence against women. The issue of marriage in Islam.*

***Key words:*** *woman, man, marriage issue, justice, religion, family, equality, violence, education, inheritance.*

## KIRISH

Islom dinimizda har bir insonning jamiyatda o‘ziga yarasha o‘rni va hurmati bor ekanligi bayon etilgan. Shunungdek bugungi zamonaviy dunyoda ham har bir shaxs o’z o’rni va o’z huquqlariga ega. Islom dinimizda ayollarga va erkaklarga birdek tenglik bilan muomala qilinadi.

Ammo johiliyat davrida ayollarni kamsitish holatlari ko’p kuzatilgan. Islom dini paydo bo‘lishidan oldin ayollarga zulm qilish, ularni odam o‘rnida ko‘rmaslik, meros masalalarida ularni chetlab o’tish hamda ta’lim olishda ham cheklovlar bo’lgan. Shuningdek johiliyat davrida ayollarga shu darajada past nazar bilan qaralganki, ularni yoshlik paytidayoq tiriklayin ko’mish holatlari ham kuzatilgan chunki ular uchun qiz farzand dunyoga kelishi isnod hisoblangan.

Islom dini taraqqiy etishni boshlagandan so’ng ayollarga e’tibor oshdi, yani ular erkaklar bilan teng huquqqa ega bo’lganlar. Shuningdek muqaddas kitobimiz Qur'oni karimning katta suralaridan biri “Niso” (“Ayollar”) deb nomlangan va Qur’oni karimning 35 ta sura va 100 dan ortiq oyatlarida ayol so’zi ishlatilgan.

*Alloh taolo “Niso” surasida bunday marhamat qiladi: Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig‘i sifatida doimiy) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba'zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o‘z oilasiga) o‘z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir...” (Niso surasi 34-oyat).*

*Ushbu oyatda Alloh taollo soliha ayolning sifatlarini sanab o’tgan va shuningdek soliha, itoatkor ayolga nisbatan zulm qilmaslikni ham takidlab o’tgan.*

*Islom dini jamiyatni o’zgartirdi ayol qizlarga ko’plab imkoniyatlar berdi. Ularga nisbatan zo’ravonliklar, ularni kamsitish, shuningdek ularning huquqlarini cheklash holatlari anchagina kamaydi.* Islomda ayollarga berilgan huquqlarning yana bir muhim jihati ularning ta’lim va ilm-fandagi ishtirokidir. Islom madaniyati va an'analari ta'lim va ilm-fanni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi va Islomda ayollar ta'lim olishda keng imkoniyatlar va huquqlarga ega. Bunday ayollarga 9-10-asrlarda yashagan Alisiya Al-Xannu yoki Fotima al-Fihriy kabi mashhur olim va faylasuflarni misol qilib keltirish mumkin. Alisiya Al-Xannu matematik va astronom bo‘lgan, shuningdek, 20-asr boshlarigacha islom olamida qo‘llanilgan kalendarni ishlab chiqqan. Fotima al-Fihriy hozirgacha musulmon olamidagi yetakchi ta’lim muassasalaridan biri bo‘lgan Fez universitetining asoschisi edi. Bugungi zamonaviy dunyoda ham ko‘plab musulmon ayollar oliy ma’lumotga ega bo‘lib, siyosat, biznes, tibbiyot va huquq kabi turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ular musulmon jamiyatlari va iqtisodlari rivojida muhim rol o‘ynaydi va ularning hayotning turli sohalariga qo‘shgan hissasini e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotchilar Islomga ko‘ra ayollar XX asrgacha bo‘lgan ba’zi G‘arb mamlakatlariga qaraganda ko‘proq huquqlarga ega ekanligini ta’kidlaydilar. Masalan, fransuz qonunchiligiga muvofiq ayollarning huquq layoqatini cheklash faqat 1965-yilda bekor qilingan. Garvard universitetining huquqshunos professori Noa Fildman, qayd etadiki: inglizlar barcha mamlakatlarda bo‘lgani kabi, o‘z qonunlarini musulmonlarga ham qo‘lladilar, maqsad esa bitta edi-ayolni islom qonunlari bergan huquqlaridan mahrum qilish. Buni gender tengligi yo‘lidagi rivojlanish deb atash mushkuldir[22].

[22]ISLOM DINIDA AYOLLARNI EHTIROM QILISH BORASIDA KELGAN HADISI SHARIFLAR. Proceedings of International Conference on Modern Science and Science Studies, 2(12), 579-584. Retrieved from https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/3347

Nikoh masalariga to’xtaladigan bo’lsak, islomda ayolning nikoh huquqi, ya'ni erga tegish va ajrashish (taloq) huquqi mavjud. Islom dini kirib kelishidan avval, qizlarni majburan turmushga berishgan. Ammo Islom dini buni qoralaydi va nikoh ayol roziligi majburiy bo‘lgan “shartnoma” sifatida ko‘riladi. Shu bilan birga, ayol erining zimmasida ta'minot va himoya bilan bog'liq majburiyatlarga ega. Islom huquqiga ko’ra nikohning haqiqiyligi quyidagi 4 shartning uyg’unligi bilan belgilanadi:

1. Bevosita monelik qiladigan holatlarning yo’qligi;
2. Muayyan shaxslarning roziligi;
3. Mahrning belgilanishi;
4. Rasmiy qoidalarga rioya etilishi[23].

Oila (urug‘-aymog‘) g‘ururi va nomusini sharmanda qilgan ayollarni o‘ldirish or-nomus qotilligi deb ataladi. Bunday qotilliklar ba’zi musulmon mamlakatlarida keng tarqalgan bo‘lsada, boshqa mamlakatlarda ham sodir bo‘ladi. Ayrim musulmon ulamolari bu qotilliklar Islomga hech qanday aloqasi bo‘lmagan an’ananing bir qismi, xolos, deb ta’kidlaydilar. Eron va kurd ayollarining huquqlarini himoya qilish tashkiloti hisobot e’lon qildi. Bunga ko‘ra 2010-yilda 2829 yosh ingliz musulmon ayollari kaltaklangan, kislota bilan azoblangan, o‘g‘irlangan yoki o‘ldirilgan. Bu ayollarning kelib chiqishi asosan, Pokiston, Hindiston va Bangladeshdan[24].

Shu o‘rinda Rasulullоh (s.a.v.) hadislaridan misollar keltirib o’tsak:

“Ey insonlar, ayollar haqlariga rioya etingiz. Ular bilan mehr-shafqat ila muomalada bo‘lingiz. Ularning haqlari xususida Allohdan qo‘rqingiz! Ayollar sizlarga Allohning omonatidir, ularni Alloh nomi bilan oldingiz. Ular amri ilohiy ila sizlarga halol bo‘ldi. Sizlarning xotinlaringiz ustida haqlaringiz bo‘lgani kabi, xotinlaringizning ham sizlarda haqlari bor”[25].

Bundan yaqqol ko’rinib turibdiki ayollarga nisbatan zulm qilish qoralanadi. Ammo, bugungi kunda ko’pchilik bu masalaga yuzaki qaragan holda ayollarga nisbatan tazyiq va zo’ravonliklar ko’payib borayotgani barchamizga ma’lum. Bularning bari huquqiy ong va huquqiy madaniyatning darajasi past ekanligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, insoniyat doimo har tomonlama mukammallikka intilib kelgan. Lekin, afsuski, jamiyat bir maromda rivojlanmaydi. Ba’zan taraqqiyot turli urush va zo‘ravonliklar bilan o‘rin almashib keladi. Umuman olganda, zo‘ravonlik ham aynan mana shunday buzilish holatlaridan biri sanaladi. Zo‘ravonliksiz jamiyat mukammal

[23] https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/islom-huquqida-oila-nikoh-va-meros-masalalari
[24] ISLOM DINIDA AYOLLARNI EHTIROM QILISH BORASIDA KELGAN HADISI SHARIFLAR. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Science Studies, 2*(12), 579-584. Retrieved from https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/3347
[25] https://m.kun.uz/news/2018/11/27/islom-aelni-ezozlagan-din-din-islari-bujica-kumita-aellarni-ezozlasga-cakirmokda

jamiyat bo‘lardi. Shu sababli zo‘ravonlik hodisasini ijtimoiy va individual hayotning ajralmas elementi sifatida ilmiy jihatdan o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

A.A.Guseinov va R.A.Apresyan kabi bir qator olimlarning fikricha: “Zo‘ravonlikning mohiyati odamlar o‘rtasidagi iroda erkinligini yo‘q qilish jarayoni bo‘lib, bir tomonning kuch ishlatish va tashqi majburlash yo‘li bilan o‘z irodasini boshqalarga yuklashidir”. Zo‘ravonlik va tazyiq tushunchasini har tomonlama o‘rganish va ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday munosabatlar doimiy ravishda davlatlar, millatlar, alohida guruhlar, shaxslar va oila a’zolari o‘rtasida sodir bo‘lishi kuzatiladi.

Ayollardagi jismoniy zaiflik qoralanmaydi. Chunki ular bunga aybdor emas. Qalblarining nozikligi, his-tuyg‘ularining kuchliligi esa, mo‘tadil bo‘lsa, maqtovga loyiqdir. Bu narsa ulardagi latofat va go‘zallikni ziyoda qiladi. Payg‘ambarimiz alayhissalom ayollardagi mana shu zaiflikni doim e'tiborga olar va ularni himoya qilishga haris edilar. Hatto vidolashuv hajlaridagi mashhur xutbada ham, ayollarga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lishni qayta-qayta vasiyat qildilar. U Zot alayhissalom ayollariga qo‘l ko‘tarmadilar, ularga yaxshilik qilishda ummatga ibrat bo‘ldilar va shu ishga targ‘ib qildilar: *“Yaxshilaringiz – oila ahliga yaxshi bo‘lganidir. Men – ahli ayoliga eng yaxshingizman”.*

*Endi esa hozirgi davrda ayollar huquqlariga ham biroz to’xtalib o’tsak. Bugungi zamonaviy davrga kelib ayollarga bo’lgan e’tibor oshdi, ularga yangidan yangi imkoniyatlar eshiklari ochilmoqda va ularning huquqlari ham kafolanmoqda desak mubolag’a bo’lmaydi.* O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 4-yanvardagi 4-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-noyabrdagi “Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash, ular o‘rtasida tadbirkorliknir rivojlantirish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 919-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-apreldagi “Og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo‘lgan, kam ta’minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 285-son qarorini e’tirof etish mumkin[26]. Shunungdek, 11-sentyabr 2023-yildagi PF-158-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining 25-maqsadida Gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish to’g’risida ko’plab qarorlar, qonunlar qabul qilindi. Ushbu

[26] https://uzmarkaz.uz/news/ozbekistonda-ayollar-huquqlarini-himoya-qilishning-huquqiy-asoslari

qonun va qarorlarning barida ayollar huquqlari mustahkamlangan. Bular faqat O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan hujjatlar bo'lsa xalqaro miqyosda ham shu kabi ko'plab qonunchilik hujjatlari qabul qilingan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, islom dinida ayollar huquqlariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ular inson qadr-qimmatini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan. Islom dini kelgandan so'ng, o'sha davrning odatlariga zid ravishda ayollar huquqlari yaxshilandi va ular jamiyatda hurmat qozonishdi.

**ADABIYOTLAR**

1. http://old.muslim.uz/index.php/ayollar-sahifasi/item/2440-ajollar-islom-nigo-ida. J. Hamroqulov "Islom ayollar nigohida".
2. https://uzmarkaz.uz/news/ozbekistonda-ayollar-huquqlarini-himoya-qilishning-huquqiy-asoslari
3. ISLOM DINIDA AYOLLARNI EHTIROM QILISH BORASIDA KELGAN HADISI SHARIFLAR. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Science Studies, 2(*12), 579-584. Retrieved from https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/3347
4. https://m.kun.uz/news/2018/11/27/islom-aelni-ezozlagan-din-din-islari-bujica-kumita-aellarni-ezozlasga-cakirmokda
5. https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/huquqshunoslik/islom-huquqida-oila-nikoh-va-meros-masalalari

# TECHNOLOGIES FOR ENHANCING INTERCULTURAL COMMUNICATION IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES.

**Ulmasbayeva Malika Alisherovna**
International Islamic Academy of Uzbekistan
Phone: +998909925411
m.ulmasbayeva@iiau.uz

## ABSTRACT

*Language is the most important means of communication; without it, the existence and development of human society would be impossible. The current changes in social relations and communication tools (utilizing new information technologies) demand an increase in students' communicative competence (CLT) and require improvement in their pedagogical readiness. It is appropriate to utilize the system of language and speech norms in various situations during the interaction with other communicators to exchange ideas and choose communicative actions that align with the actual state of communication.*

***Keywords:*** *communicative competence, tolerance, educational technologies, critical thinking.*

## INTRODUCTION

The main goal of learning a foreign language is to develop communicative competence, which is the ability to engage in communication between speakers of a foreign language and their native language, as well as between cultures. Tolerance is an inseparable part of the educational process. Modern educational technologies used to enhance tolerance in students are considered the most effective for creating an educational environment that ensures interaction focused on the individual needs of all participants. It is evident that any educational technology, no matter how sophisticated, cannot provide the best conditions for uncovering and developing students' abilities and teacher creativity.

According to Cohen, the long-term practice of teaching foreign languages shows that traditional technologies do not provide opportunities for developing key competencies in certain subjects; therefore, there is a need for a radical reorganization of the educational process. For example, actively using resources from the global Internet network significantly increases the self-education efficiency of foreign

language teachers. Internet services offer access to the latest social, cultural, linguistic, and other valuable information.

It is clear that the role of the teacher is changing; the boundaries between the teacher and student are disappearing, which in turn facilitates collaboration. Students' roles are increasing, as they not only acquire knowledge but also engage in searching, developing, and transforming that knowledge into practical skills. In the current stage of education, the communicative approach in teaching plays an active role in shaping adequate communication among students. The Communicative Language Teaching (CLT) method takes into consideration students' active involvement. In this context, the teacher's task is to engage all students in conversation.

## DISCUSSION AND RESULTS

To enhance language retention and usage, all cognitive channels should be utilized. The essence of the communicative method is to foster tolerance through the creation of real communication situations. By reintroducing communication, students can apply their previously acquired knowledge in practice.

According to I.G. Zaxarova, one of the significant advantages of the Communicative Language Teaching (CLT) method is that it encompasses various exercises and activities, including role plays, dialogues, and simulations of real communication. Recently, more teachers have been using project methodology as one of the modern effective creative approaches to teaching foreign languages; this helps develop communicative, speech, and tolerance skills in successfully achieving the main tasks of learning a foreign language.

The primary goal of the project method is to provide students with the opportunity to learn independently while solving practical tasks or problems that require the integration of knowledge from various subjects. When discussing the project method as a pedagogical technology, it includes a set of creative research, inquiry, and problem-solving methods. In the project, the teacher is assigned as the facilitator, coordinator, expert, and advisor.

According to D. Johnson's analysis, this technology helps develop students' creative abilities, enhances their imagination, tolerance, and interest. The process of preparing a project allows students to unleash their creative and intellectual potential. The project method teaches research work, teamwork, conducting discussions, and problem-solving.

The project method can be applied to teaching a foreign language on almost any topic, as the selection of subjects is carried out considering the practical significance for students. For example, in the case of applying project methodology to teach the topic of "religious tolerance," the overall aim would be for all students to create a

project on religious tolerance that they wish to learn about. Students would be grouped to solve specific parts of the overall task together, and the project components would be discussed within the groups.

As a result, the following areas of work are distinguished: 1) creating a project on religious tolerance and its impact on the spirituality and culture of the people of Uzbekistan; 2) studying the principles of religious tolerance; 3) outlining the characteristics of living in peace, friendship, and mutual understanding; 4) describing students' extracurricular activities; 5) developing a project to create an environment of tolerance.

In the final lessons, the project is presented by groups. Each group conducts its presentation. Such tasks are very exciting for students, and they feel a sense of responsibility in completing these tasks. At the same time, they acquire skills such as working with Microsoft PowerPoint, finding interesting materials, and illustrations. During the presentation process, students learn public speaking, develop their oratory skills, demonstrate and defend their viewpoints, spontaneously respond to given questions, and overcome the fear of speaking, gaining self-confidence. The project method is being widely implemented in educational practices in Uzbekistan. The technology for developing students' critical thinking involves asking students questions and understanding the problems that need to be addressed. As A.S. Shukmanova emphasizes, critical thinking is an individual trait, with each student creating their own ideas and forming their own assessments and beliefs independently, finding their solutions to problems and supporting them with sound and reliable evidence. Critical thinking also has a social aspect, as every opinion is verified when shared with others. A student's active life position becomes particularly evident when comparing previous knowledge and understanding with newly acquired knowledge. Various forms of activities aimed at developing students' critical thinking and tolerance are available, such as essays, reflective essays, discussions, dialogues, role-playing, and others.

Research-based learning technology has a special place here, allowing students to engage in high-level knowledge, independent activities, and the development of new problem-solving approaches while familiarizing themselves with research processes. The main generalized model in research serves as a method of creative inquiry: seeing and framing the problem, proposing hypotheses, testing them, and cognitive reflection on results and processes.

To develop cross-cultural communication skills, it is important to provide students with comprehensive knowledge about the culture, customs, and traditions of an English-speaking country; this way, students can develop a notion of tolerance and

consciously choose their communication style. Modeling situations of cross-cultural communication in foreign language lessons allows students to compare lifestyle characteristics of the people from our country and the countries of the language they are learning, helping them better understand our culture and develop their presentation skills. Such an approach is only possible if genuine teaching tools are utilized.

The "Language Portfolio" is a tool for students to self-assess their cognitive and creative work and reflect on their activities. This collection of documents represents the student's independent work. The portfolio is designed by the teacher to provide: tasks for students to select materials for the portfolio; questionnaires for parents that require detailed checking of the students' work; parameters for including works in the portfolio and assessment criteria. The experimental technology of portfolio creation is a method for demonstrating your achievements and abilities during a specific learning period and envisioning the application of acquired knowledge and skills in practice. The portfolio allows for accounting of the results achieved by the student in various activities: educational, social, communicative, and aimed at practical application in education, which is considered a significant element of a real approach. Students can see the data base of their progress through the entire study period (projects, certificates, reviews, individual creative activity evaluations).

"Critical thinking technology has been articulated in the works of American educators K. Meridit, Ch. Temple, and J. Stil, aimed at developing students' thinking abilities. According to American psychologist D. Halpern, the development of critical thinking also fosters students' observational skills, logical reasoning, analytical skills, evaluation, conclusion drawing abilities, fairness, creative imagination, values, worldviews, and depth of judgment.

The need and importance of gamified learning (Role-play) technology has been highlighted by scholars as it aims to help students internalize social experiences; this technology aids in developing students' initiative, imaginative capacity, creativity, and alignment with goals. During the game, students exchange knowledge and skills. Group activities allow students to perceive collective success as their own, thereby boosting their motivation.

The case study technology, or the method of analyzing certain economic, social, or business situations, was developed by American scholars at Harvard Business School in 1924. This method allows students to test proposed solutions to situations and choose the most effective one. The advantages of the case method are its realism and the active interaction between participants during discussions.

The importance of using information and telecommunications technologies (TELL, CALL, MALL) in the educational process has been emphasized by many scholars, as they motivate learning by recreating the real environment of activities, facilitating the management of the educational process, and simplifying the monitoring of students' knowledge.

Undoubtedly, the use of technology positively influences the teaching and learning of foreign languages. How can technology be used to improve the teaching/learning of a foreign language? Utilizing computers, the internet, smart boards, mobile phones, video games, music players, and so on, during the language learning process increases students' interest and language proficiency. The new generation (teachers/students) effectively utilizes technology. They all engage with technological tools and, in some way, are drawn to the target language through technology. Traditional teaching methods no longer motivate and engage students. Students become more interactive, and learning outcomes lead to effective results. Furthermore, the positive outcomes also create satisfaction for both teachers and students. Experienced teachers present various opportunities for students at different levels and stages. The most commonly used device is the smartphone. Teachers and students use it to develop skills such as listening and reading. In addition, viewing targeted language elements through technological resources provides students the opportunity to enhance their proficiency in the second language."

**REFERENCES:**

1. Cohen L. Research Methods in Education, 7th ed./L.Cohen, L.Manion, K. Morrison. –London and New York: Routledge, 2011. -784p.
2. Johnson D.W. Joining together: Group theory and group skills (12th ed.) / D.W.Johnson, F.Johnson. –Pearson. -2016. -688p.
3. Meredith K.S. Classroom of wonder and wisdom in reading, writing and critical thinking for the 21 st century (1st edition) / K.S.Meredith, J.L.Steele. –Singapore: Corwin: A Sage company, 2010. -192p.
4. Захарова И.Г. Информационние технологии в образовании: учеб.пособийе для студ.висш.пед.учеб.заведений, 6 изд. / И.Г.Захарова. –М.: Издателский сентр “Академия”, 2010. -192с.
5. Шукманова А.С. Исползованийе информационних и коммуникационних технологий в образовании [Електронний ресурс] / А.С.Шукманова, А.А.Аяпова //. –Електрон.дан. -2014. Режим доступа: ҳттп://педагогика.наука.ру /2014/09/2712

6. Shamsematova, B.R.. INGLIZ TILINI O‘QITISHDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. 656-659
7. Asrorov, I. F. (2020). THE IMPORTANCE OF INDIVIDUAL FEATURES IN THE CLASSROOM. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 2020(1), 98-105.
8. Dilbar, K. (2023). A SUBTLE DIFFERENCE BETWEEN COMPETENCE AND COMPETENCY. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595), 3(11).
9. Hafizov, A. (2023). INFLUENCE OF CULTURAL DIFFERENCES ON THE PERCEPTION AND EFFECTIVENESS OF MARKETING COMMUNICATIONS. Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595), 3(10).
10. Jamalova, G., Aymatova, F., Khasanova, D., & Shamsematova, B. (2023, December). A systematic mapping study of leveraging Intelligent Systems Applications in human capital development: In the example of developing professional communicative competence of economics students in English. In Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems (pp. 19-24).
11. Rixsivayevna, S. B. (2024). IMPROVEMENT OF ENGLISH LANGUAGE PROFICIENCY WITH THE HELP OF GAMES. Web of Teachers: Inderscience Research, 2(5), 77-80.
12. Shirinova, F. A., & Musayeva, G. I. (2017). WHAT TEACHING STYLE IS THE BEST FOR STUDENT-CENTRIC CLASSROOM. In Современные социально-экономические процессы: проблемы, закономерности, перспективы (pp. 50-52).

# IQTISODIY SUDLARDA DAVLAT BOJI TO‘LOVLARINI UNDIRISHNING MUAMMOLARI

**Jasur Nuriddinov**
jasurnuriddin97@gmail.com
+ 998 93 606 21 31

## ANNOTATSIYA

*Tadqiqot ishida O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarida davlat boji to‘lovlarini undirishning ahamiyati, nazariy-huquqiy asoslari va o‘ziga xos jihatlari, milliy qonunchilikda aks ettirilishi hamda ayrim konseptual masalalar, o‘ziga xos jixatlari va chalkashliklar, ularga yechim sifatida taklif-tavsiyalar xususida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *sud xarajatlari, pochta xarajatlari, davlat boji.*

## ABSTRACT

*In this article, the importance of the collection of state duty payments in the economic courts of the Republic of Uzbekistan, its theoretical and legal basis and specific aspects, its reflection in the national legislation, as well as some conceptual issues, specific aspects and confusions, as well as suggestions as a solution to them is thought about.*

***Key words:*** *court costs, postal costs, state duty.*

## KIRISH

Iqtisodiy sudlarga ariza bilan murojaat qilishda davlat boji to‘lovlarini to‘lash majburiy bo‘lib, to‘lamaganlik yoki lozim darajada to‘lamaganlik arizalarni qaytarishga sabab bo‘ladi. Biroq, ushbu xarajatlarni to‘lash tartiblari va miqdorlaridagi chalkashliklar bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu maqola mazkur muammolarni tadqiq qilishga qaratilgan.

## III. Metodologiya

Tadqiqotning metodologik asosini umumiy mantiqiy usullar (tahlil va sintez, dialektik, umumlashtirish, analogiya, mavhumdan konkretga va konkretdan mavhumga o‘tish), empirik tadqiqot usullari (taqqoslash, guruhlarga taqsimlash) va alohida ilmiy usullar (formal-yuridik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy) hamda ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalanildi.

## IV. Natijalar

Iqtisodiy sudlarda sud xarajatlarini undirishning huquqiy tabiati tahlil qilinadi. Natijada ushbu ob'ekt bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi, qonunchilikni takomillashtirishga yordam beradigan takliflar ishlab chiqiladi.

**IV. Muhokama qismi**

Yuqorida keltirib o'tilganidek, kichik tadbirkorlik sub'yektlari belgilangan davlat boji stavkalarining yarmini to'lash huquqiga egalar. Ya'ni, boshqacha aytganda ular davlat boji to'lovini bir foiz miqdorida, sud buyrug'i berishda esa 0,5 foiz miqdorida davlat boji to'lashlari mumkin.

Tadbirkorlik sub'yektlariga berilgan mazkur imtiyoz ularni qo'llab-quvvatlash uchun xizmat qilsa-da, biroq, qonunchilikda va sud amaliyotida bir qator chalkashliklarni keltirib chiqaradi.

Masalan, kichik tadbirkorlik sub'yektlari belgilangan davlat boji stavkalarining yarmini to'lashi imtiyozmi yoki majburiyat? Ko'p holatlarda tadbirkorlik sub'yektlari sudga ariza taqdim qilishda davlat bojini ikki foiz miqdorida to'laydilar. Sud amaliyotida shunday holatlarda ortiqcha to'langan davlat bojini qaytarib berish holatlari ham, qaytarib bermaslik holatlari ham uchraydi.

*Masalan, birinchi holatda Yuqorichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining ish yurituvidagi 4-1105-2302/2308-sonli iqtisodiy ish bo'yicha da'vogar "Jayxun Farmsanoat" MCHJ sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar "Istiqlol Farm" MCHJdan 1.219.000 so'm asosiy qarz va 609.500 so'm penya undirishni so'ragan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan ma'lumotga ko'ra, "Jayxun Farmsanoat" MCHJ kichik tadbirkorlik subyekti hisoblansa-da, da'vogar tomonidan 330.000 so'm davlat boji to'langan va sudning qaroriga asosan ortiqcha to'langan 165.000 so'm davlat boji qaytarib berilgan.*

*Ikkinchi holatda Yuqorichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining ish yurituvidagi 4-1105-2202/1867-sonli iqtisodiy ish bo'yicha da'vogar "Avangard Tosh" MCHJ sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar "Muxandis Plyus Loyiha" MCHJ hisobidan 93.945.984 so'm asosiy qarz va 7.929.169 so'm penya, jami 101.875.153 so'm undirishni so'ragan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan ma'lumotga ko'ra da'vogar "Avangard Tosh" MCHJ kichik tadbirkorlik subyekti hisoblansa-da, da'vo bahosining 2 foizi miqdorida 2.037.504 so'm davlat boji to'langan hamda sudning qaroriga ko'ra ortiqcha to'langan davlat boji qaytarib berilmagan. Javobgar hisobidan 2.037.504 so'm davlat boji da'vogar hisobiga undirilgan.*

Sudlar tomonidan har-xil amaliyot shakllanishining sababi "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunda ushbu qoidaning huquqiy tabiati aniq ifoda qilinmaganligidir. Ushbu normani ko'rinishidan ham imperativ, ham dispozitiv huquqiy tabiatga ega norma sifatida tavsiflash va qo'llash mumkin. Ikkala holatda ham sudning harakatlarini noqonuniy deb topib bo'lmaydi. Davlat boji qaytarilgan holatda

tadbirkorlik sub'yekti imtiyozdan foydalanmagan sifatida, qaytarilgan holatda esa Qonunda kichik tadbirkorlik sub'yektlari belgilangan davlat boji stavkalarining yarmini to'laydi deb ko'rsatlganligini sabab qilib keltirishimiz mumkin.

Ushbu qoida yuzaga keltiradigan yana bir chalkashliklardan biri da'vogar tadbirkorlik sub'yekti davlat bojini bir foiz miqdorida to'lasa va ishni ko'rish yakuniga ko'ra da'vogar tadbirkorlik sub'yektidan respublika byudjetiga qo'shimcha davlat boji undirilsa, qo'shimcha undirilgan davlat boji bir foiz miqdorida hisoblanishi yoki ikki foiz miqdorida hisoblanishidir. Sud amaliyotida shunday vaziyatlarda qanday chora ko'rish to'g'risida aniqlik yo'qligi sababli turli ikkilanish va chalkashliklarga sabab bo'lmoqda.

*Masalan, Yuqorichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining ish yurituvidagi 4-1105-2202/2519-sonli iqtisodiy ish bo'yicha da'vogar "Beryozka-2019" MCHJ sudga da'vo ariza bilan murojaat qilib, javobgar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi majburiy ijro byurosi Toshkent viloyati Yuqorichirchiq tuman bo'limidan asossiz undirilgan 6.480.780,50 so'm miqdorida noqonuniy undiruv va 100.000.000 so'm boy berilgan foydani undirishni so'ragan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan ma'lumotga ko'ra da'vogar kichik tadbirkorlik subyekti hisoblanib, 6.480.780,50 so'm miqdoridagi da'vo summasi uchun kichik tadbirkorlik subyekti sifatida 150.000 so'm davlat boji to'langan, da'vo talabining qolgan 100.000.000 so'm uchun hisoblangan davlat bojini kechiktirish so'ralgan. Ariza sud tomonidan ish yuritishga qabul qilinib, da'vo talabining qanoatlantirilgan qismi bo'yicha 91.050 so'm davlat boji javobgar hisobidan undirilgan, 58.950 so'm davlat boji da'vo talabi asossiz deb topilganligi sababli da'vogar zimmasida qoldirilgan. Da'vo talabining 100.000.000 so'm qismi to'liq asossiz deb topilib da'vogar hisobidan ikki foiz miqdorida, ya'ni, 2.000.000 so'm miqdorida davlat boji undirilgan. Keyinchalik, sudya o'z harakatlarini xato deb hisoblab, hal qiluv qaroridagi xatolikni tuzatish to'g'risida ajrim chiqarilib, undiriladigan davlat boji kamaytirilgan.*

Sud amaliyotida sudyalarni yana bir o'ylantiradigan masalalardan biri davlat boji to'lanishida hisoblangan davlat boji miqdorining bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo'lmasligi to'g'risidagi normadir. Ushbu qoida bo'yicha to'langan davlat bojini ishning natijasiga ko'ra taqsimlashda muammolar yuzaga keladi. Masalan, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida davlat boji to'langan bo'lsa va da'vo summasining bir qismi asossiz deb topilsa, davlat boji summasi da'voning asosli deb topilgan summasidan hisoblanadimi yoki da'vo talablarining qanoatlantirilgan qismining foizi hisoblab chiqarilib bazaviy hisoblash miqdorining o'shancha foizi undiriladimi (deylik da'vo summasi 5 million, shundan

2.5 million so’mi asosli deb topilib, bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi undiriladimi yoki 2.5 million so’mning 2 foizimi?). Da’vogar kichik tadbirkorlik sub’yekti bo’lib davlat bojining belgilanganidan yarmi to’lansa hisob-kitob yanada chalkash ko’rinish oladi.

“Davlat boji to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasida iqtisodiy sudlarga da’vo ariza taqdim qilishda davlat bojini to’lashdan ozod qilingan shaxslar doirasi keltirilgan. Mazkur moddaning 10-bandida O’zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning hududiy organlari, O’zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo’sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi hamda uning hududiy organlari o’z zimmasiga yuklatilgan vakolatlariga muvofiq sudlarga ko’rib chiqish uchun kiritiladigan da’volar va arizalar bo’yicha davlat bojini to’lashdan ozod qilingan.

Moddaning 7-bandida esa O’zbekiston Respublikasi Suv xo’jaligi vazirligi va uning joylardagi organlari suv to’g’risidagi qonunchilikni buzganlik tufayli davlatga yetkazilgan zararning o’rnini qoplash uchun mablag’larni davlat daromadiga undirish to’g’risidagi da’volar bo’yicha davlat bojini to’lashdan ozod qilingan.

Sud amaliyotida 9-moddada davlat bojini to’lashdan ozod qilingan shaxslar o’z vakolatlari doirasidan chetga chiqib ariza taqdim qilsa, yoki 9-moddada ko’rsatilgan davlat bojini to’lashdan ozod qilish asoslaridan boshqa asoslar bilan da’vo taqdim qilsa imtiyoz qo’llanilishi yoki qo’llanilmasligi borasida chalkashliklar mavjud.

*Masalan, Yuqorichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga Yuqorichirchiq tuman irrigatsiya bo‘limi da’vo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar “Madina Roza” fermer xo‘jaligi hisobidan 2022 yil aprel-sentyabr oylari to‘lovlari uchun 10.648.447 so‘m asosiy qarz, 3.705.660 so‘m penya undirishni so’ragan. Da’vogar tomonidan davlat boji to’lanmay, Qonunning 9-moddasi 7-bandiga havola qilgan holda davlat boji to’lashdan ozod ekanligini bildirgan. Lekin, sudning 4-1105-2301/2563-sonli ajrimiga ko’ra, da’vo ariza da’vogar tomonidan davlat boji to’lanmaganligi sababli qaytarilgan. Ajrimning asoslantiruvchi qismida nizo 2022 yil 2 iyunda suv iste’moli to‘g‘risida tuzilgan 87-sonli shartnomadan kelib chiqqanligi, ya’ni, nizo shartnoma bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni undirishdan kelib chiqqanligi, da’vogar tomonidan keltirilgan davlat boji to‘lashdan ozod qilish holati suv to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik tufayli davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplash uchun mablag‘larni davlat daromadiga undirish to‘g‘risidagi da’volarga nisbatan qo‘llanilishi ko’rsatilgan.*

*Ikkinchi holatda esa, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi (kreditor) ariza bilan Yuqorichirchiq*

*tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilib, "Crystal Oil" MCHJni yuritiladi) to'lovga qobiliyatsizlikning umumiy taomili bo'yicha to'lovga qobiliyatsiz deb topishni so'ragan. Ishdagi hujjatlarga ko'ra, da'vogar kreditor sifatida da'vo ariza bilan sudga murojaat qilgan va davlat bojini to'lamagan. Bu holatda da'vogar kreditor sifatida, ya'ni, 9-moddada ko'rsatilgan vakolatlaridan chetga chiqib da'vo arizasi taqdim qilayotganligi sababli umumiy tartibda davlat bojini to'lashi zarur edi. Biroq, ariza davlat boji to'lovisiz ish yuritishga qabul qilingan hamda davlat boji ishni ko'rish yakunlari bo'yicha javobgardan undirilgan.*

Davlat bojini hisoblashda ba'zi stavkalar bazaviy hisoblash miqdoriga bog'liq bo'lib, bazaviy hisoblash miqdorlari sudga ariza taqdim qilingan kundagi yoki qaror chiqarilgan kundagi bazaviy hisoblash miqdoridan hisoblab chiqarilishi lozimligi aniq emas. Bu haqida biror normativ hujjatda yoki Plenum qarorida tushuntirish berilmagan. Sudlarda davlat bojini sudga da'vo ariza kelib tushgan kundan hisoblash amaliyoti mavjud. Davlat boji oldindan to'lanmasdan chiqilgan holatlarda sudning hal qiluv qarori chiqarilgan sanaga bazaviy hisoblash miqdori o'zgarsa davlat boji qaysi sanadagi BHM miqdoridan kelib chiqib hisoblanishi aniq emas.

Fuqarolik Kodeksining 245-moddasiga ko'ra, pul majburiyatida u so'mlar bilan chet el valyutasidagi muayyan summaga ekvivalent bo'lgan summada yoki shartli pul birliklari bilan (ekyu, "maxsus qarz olish huquqlari" va boshqalar) to'lanishi lozimligi nazarda tutilishi mumkin. Bunday hollarda so'mlar bilan to'lanishi lozim bo'lgan summa tegishli valyutaning yoki shartli pul birliklarining to'lov kunidagi rasmiy kursi bo'yicha belgilanadi, basharti uni belgilashning boshqacha kursi yoki boshqa sanasi qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida belgilab qo'yilgan bo'lmasa. O'zbekiston Respublikasi hududida majburiyatlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish chog'ida chet el valyutasidan, shuningdek chet el valyutasidagi to'lov hujjatlaridan foydalanishga qonunchilikda belgilangan hollar, tartib va shartlar asosida yo'l qo'yiladi.

"Davlat boji to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasida mulkiy nizo bo'yicha sudga da'vo arizasi berilganda, da'vo qiymati, shartnoma summasi miqdori chet el valyutasida belgilansa, davlat bojining miqdori harakatlar amalga oshirilgan sanada O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada belgilanishi va undirilishi belgilangan.

Qonunning 17-moddasida keltirilgan harakatlar amalga oshirilgan sana tushunchasi turlicha tushunilishi mumkin, jumladan, sudga da'vo ariza taqdim qilingan kun yoki hal qiluv qarori qabul qilingan kun sifatida. Sababi protsessual qonunchilikda hal qiluv qarori qabul qilingan kun tushunchasi ko'proq foydalanishda ekanligi sababli harakat amalga oshirilgan kun sifatida da'vo ariza sudga taqdim

qilingan kun ma’no jihatdan yaqinroq. Fuqarolik Kodeksining 245-moddasiga asoslanib esa hal qiluv qarori qabul qilingan kun sifatida qo’llash mumkin.

Yana bir noaniqlik da’vo summasi valyutada ko’rsatilgan da’vo arizalar bo’yicha oldindan davlat boji to’lash bilan ham yuzaga keladi. Da’vo ariza taqdim qilingan kundagi kurs bo’yicha to’langan davlat boji sud qarori qabul qilingandan so’ng qayta hisob-kitob qilinishi, qo’shimcha davlat boji undirilishi yoki ortiqcha qismi qaytarib berilishi lozim.

“Davlat boji to’g’risida”gi Qonunning 18-moddasida davlat bojini qaytarish asoslari keltirilgan bo’lib, unda ko’rsatilgan holatlar mavjud bo’lganda davlat boji qaytariladi deyilgan. Lekin, qonunning mazmuniga nazar tashlasak, ushbu qoida faqatgina to’langan davlat bojini qaytarishga nisbatan qo’llash mumkin. Deylik, da’vogar manfaatida palata davlat bojini to’lamasdan chiqqan va ish bo’yicha mediativ kelishuv tuzilib da’vo ko’rmasdan qoldirilgan. Sud ajrimining asoslantiruvchi qismida palata davlat boji to’lamasdan chiqqanligi va 18-modda ham davlat boji undirilmasligi ko’rsatilganligi sababli ish bo’yicha davlat boji undirilmaydi deb ko’rsatadi. Biroq, 18-moddada faqatgina davlat bojini qaytarish tartibi belgilangan. Ya’ni, 18-modda to’g’ridan-to’g’ri asos bo’lmay, mohiyatan qonun faqatgina analogi bo’yicha qo’llaniladi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2020 yil 19 dekabrdagi 36-sonli “Iqtisodiy ishlar bo’yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to’g’risida”gi Plenum qarorining 12-bandida ham ushbu norma faqat qaytarish haqidaligi to’g’risida tushuntirish beriladi:

“Sudlarga tushuntirilsinki, davlat bojini qaytarish asoslari “Davlat boji to’g’risida”gi Qonunning 18-moddasida nazarda tutilgan bo’lib, uning ma’nosiga ko’ra, davlat boji qonunda talab qilinganidan ortiqcha miqdorda to’langan bo’lsa, shu ortiqcha to’langan qismi, boshqa hollarda esa to’liq hajmda qaytariladi.”

*Masalan, Yuqorichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining ish yurituvidagi 4-1105-2301/2656-sonli iqtisodiy ish bo’yicha O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi Surxandaryo viloyat hududiy boshqarmasi da’vogar “Termez Jayxun Cluster” MCHJ manfaatida sudga da’vo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar “G‘uzor Tekstil Impeks” MCHJ hisobidan 50.877.488,63 so‘m asosiy qarz undirishni so’ragan. Da’vo ariza palata tomonidan taqdim qilinganligi sababli davlat boji to’lanmasdan da’vo bilan chiqilgan. Ishni ko’rish jarayonida tomonlar o’rtasida mediativ kelishuv tuzilganligi sababli da’vo ko’rmasdan qoldirilgan va budjetga davlat boji undirilmagan. Ajrimning davlat bojini undirmaslik to’g’risidagi asoslantiruvchi qismida “Davlat boji to‘g‘risidagi” 2020 yil 6 yanvardagi O‘RQ-600-sonli Qonunining 18-moddasida davlat bojini qaytarish tartibi belgilanganligi,*

*agar taraflar o‘rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo‘lsa, ariza ko‘rmasdan qoldirilgan hollarda ham davlat boji to‘liq qaytarilishi kerakligi belgilanganligi, palata a’zolari manfaatida davlat boji to‘lamasdan da’vo arizasi bilan sudga murojaat qilish huquqiga egaligi, shuningdek, ishning natijasiga ko‘ra ham davlat boji undirilmasligi sababli, sud mazkur ish bo‘yicha taraflardan davlat boji undirmaslikni lozim topganligi ko’rsatilgan.*

Davlat boji to’lovlarini tartibga solishda o’ziga xos “oq dog’”, taraflarni o’z majburiyatlarini bajarishdan bo’yin tovlashiga imkon beruvchi, sud qarorlarining ijrosini asossiz kechiktirishga imkon beruvchi “tirqish” mavjud. O’zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2020 yil 19 dekabrdagi 36-sonli “Iqtisodiy ishlar bo’yicha sud xarajatlarini undirish amaliyoti to’g’risida”gi Plenum qarorining 20-bandida tushuntirish berilganki, davlat boji bilan bog’liq masalalar bo’yicha qabul qilingan sud hujjatlari ustidan umumiy asoslarda shikoyat (protest) berilishi mumkin. Bunday shikoyatlar uchun davlat boji to’lanmaydi.

Normativ hujjat bilan tartibga solinishi lozim bo’lgan masala Plenum qarori bilan tartibga solinmoqda va “oq dog’” hamda taraflarni o’z majburiyatlarini bajarishdan bo’yin tovlashiga imkon beruvchi “tirqish”ni vujudga keltirmoqda. Sababi davlat boji katta miqdorda undirilgan ishlarda qabul qilingan sud hujjati ustidan shikoyat qilish moliyaviy sabablar tufayli qiyinlashsa yoki imkonsiz bo’lib qolsa yuqori instansiya sudlariga hal qiluv qarorining davlat boji undiruv qismidan shikoyat qilinishi mumkin bo’ladi. Bu esa, hal qiluv qarorining boshqa qismlari ham ko’rib chiqilishiga sabab bo’ladi. Sababi hal qiluv qarorining davlat boji qismi ustidan shikoyat qilinib, shikoyat davlat bojisiz ish yuritishga qabul qilinsa hal qiluv qarorining faqatgina davlat boji bilan bog’liq qismi ko’rib chiqilmaydi. Hal qiluv qarori to’liq ko’rib chiqilishiga va bekor qilinishiga hech qanday protsessual taqiq yo’q.

Masalan, IPK 274-moddasiga ko’ra, sud ma’ruzadan keyin sud majlisiga kelgan ishda ishtirok etuvchi shaxslarning tushuntirishlarini eshitadi, ular apellyatsiya shikoyatida (protestida) ko’rsatilmagan vajlarni keltirishga va qo’shimcha materiallar taqdim etishga ham haqli.

IPK 276-moddasiga asosan esa, sud ishni apellyatsiya instansiyasida ko’rish chog’ida birinchi instantsiya sudi hal qiluv qarorining qonuniyligini va asosliligini tekshiradi. Sud yangi dalillarni tekshirishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkin. Apellyatsiya instansiyasining sudi birinchi nstantsiya sudining hal qiluv qarorini to’liq hajmda tekshirishi shart.

IPK 299-moddasida sud ishni kassatsiya tartibida ko’rish chog’ida birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorining qonuniyligi va asosliligini tekshirishi, yangi

dalillarni tekshirishi va yangi faktlarni aniqlashi mumkinligi, kassatsiya instansiyasi sudi birinchi instansiya sudining hal qiluv qarorini to'liq hajmda tekshirishi shartligi belgilangan.

Yoki hal qiluv qarorining boshqa qismlari ko'rib chiqilmasa ham sud qarorining ijrosi kechikishi va qarzdor vaqtdan yutishi mumkin. Bu esa qarzdorning o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlashiga, "vaqtdan yutish"iga o'ziga xos tirqish bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan "oq dog'" va bir vaqtning o'zida "tirqish"ni bartaraf qilish maqsadida bu kabi masalalar normativ hujjat bilan tartibga solinishi lozimligi sababli Plenum qarorining ushbu bandini bekor qilish, yoki qarorning davlat boji undiruvi qismi ustidan shikoyat qilinganda davlat boji to'lanmasligi to'g'risida Qonunda ko'rsatib o'tish hamda davlat boji to'lamasdan qonunni aylanib o'tish holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida qarorning davlat boji undiruvi qismi ustidan shikoyat qilinganda qarorning boshqa qismlari ko'rib chiqilmasligi to'g'risida norma kiritish lozim.

Sudlarda qanoatlantirilgan da'vo talablariga mos ravoishda davlat boji summasini hisoblab chiqishda kichik hajmdagi davlat boji summalarini hisob-kitob qilish bir qator chalkashliklarga, ijro qilishda ortiqcha sarf-xarajatlarga sabab bo'ladi. Eng kichik hajmdagi davlat boji ham ishni ko'rish yakuniga ko'ra qayta hisob-kitob qilinishi lozim bo'lib, bunday qilinmasa sud qarorining noto'g'ri chiqarilgan deb hisoblanishiga va o'zgartirilishiga sabab bo'ladi.

*Masalan, Yuqorichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining ish yurituvidagi 4-1001-2328/47643-sonli iqtisodiy ish bo'yicha O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi da'vogar "Agrobank" ATB manfaatida sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilib, javobgar "MY-INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati hisobidan ATB "Agrobank" foydasiga 2021 yil 1 apreldagi Tadbirkorlik xavfini sug'urta qilish bo'yicha tuzilgan 13/83/1-0007-sonli bosh sug'urta shartnomasi va shu raqamli sug'urta polisi talablariga asosan 24.200.000 so'm sug'urta tovonini undirishni so'ragan. Palata da'vo ariza bilan chiqqanligi sababli oldindan davlat boji to'lab chiqilmagan. Sudning yakuniy hal qiluv qaroriga ko'ra, javobgar "MY-INSURANCE" aksiyadorlik jamiyatidan Respublika budjetiga 483.982 so'm davlat boji, "Agrobank" ATBdan respublika budjetiga* ***18 so'm*** *davlat boji undirilgan.*

**V. Хулоса**

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish orqali bartaraf qilish mumkin bo'lib, bu orqali tadbirkorlik sub'ektlarining sud orqali huquq va manfaatlarini himoya qilish osonlashadi. Ortiqcha sarsongarchiliklarning oldi

olinib, tadbirkorlik sub'ektlariga qo‘shimcha rag‘batlar paydo bo‘ladi hamda odil sud tizimiga bo‘lgan ishonchlari yanada oshadi.

1. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan belgilangan stavkaning yarmi miqdorida davlat bojini to’lashi bilan bog’liq yuzaga kelayotgan muammoning yechimi “Davlat boji to’g’risida”gi Qonunning ushbu qoidasiga aniqlik kiritilib, kichik tadbirkorlik sub’yektlari belgilangan davlat bojini yarmidan ko’p miqdorda to’laganlarida qanday huquqiy oqibat keltirib chiqarishi to’g’risidagi norma bilan to’ldirilishi lozim. Yoki alternativ tarzda normaning imperativ yoki dispozitiv huquqiy tabiat kasb etishi to’g’risida Plenum qarorida tushuntirish berib o’tilishi lozim.

2. Kichik tadbirkorlik sub’yektlari hisoblanuvchi da’vogarlar davlat boji imtiyozidan foydalanib bir foiz miqdorida davlat boji to’lab chiqqan holatlarda, agar da’vogardan qo’shimcha davlat boji undirilsa, davlat boji bir foiz yoki ikki foiz miqdorida undirilishi to’g’risida norma kiritish lozim. Yoki alternativ tarzda Plenum qarorida mazkur normalarni qanday qo’llanilishi to’g’risida tushuntirish berib o’tish lozim.

3. Bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida to’langan davlat bojini ishni ko’rish natijalari bo’yicha taqsimlashda yuzaga kelayotgan chalkashliklarning oldini olish maqsadida, bunday vaziyatlarda davlat bojini taqsimlashning aniq tartibini ishlab chiqish, qonunchilikda aks ettirish yoki Plenum qarorida tushuntirish berib o’tish lozim.

4. 9-moddada ko’rsatilgan imtiyozlar qaysi holatlarda amal qilishi va qaysi holatlarda qo’llab bo’lmasligi bilan bog’liq chalkashliklarning oldini olish maqsadida normativ hujjatda yoki Plenum qarorida taraflar 9-moddada ko’rsatilgan holatlardan va vakolatlaridan chetga chiqib ariza taqdim qilganlarida sudlar qanday harakat qilishlari lozimligi to’g’risida tushuntirish berilishi lozim.

5. Bazaviy hisoblash miqdoriga bog’lab qo’yilgan davlat boji miqdorlari sudga ariza taqdim qilingan kundagi BHMning miqdoridan kelib chiqilishi to’g’risida norma kiritish lozim.

6. Shunga ko’ra, sudlar amaliyotida chalkashliklarni oldini olish maqsadida qonunning ushbu moddasiga sudlarda harakat amalga oshirilgan kun sifatida qaror qabul qilingan kun tushunilishi lozimligi to’g’risida tushuntirish berilishi yoki qonun normasi bevosita o’zgartirilishi lozim.

7. Sudlar amaliyotida da’vo summasi valyutada ko’rsatilgan da’volar bo’yicha sud xarajatini undirishda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan chalkashliklarni oldini olish maqsadida qonunning 17- moddasiga sudlarda harakat amalga oshirilgan kun sifatida

qaror qabul qilingan kun yoki sudga da’vo taqdim qilingan kun tushunilishi lozimligi to’g’risida tushuntirish berilishi yoki qonun normasi bevosita o’zgartirilishi lozim.

8. Sudlar tomonidan “Davlat boji to’g’risida”gi Qonunning 18-moddasi analog bo’yicha qo’llanilayotganini inobatga olib, davlat bojini qaytarishga asos bo’luvchi holatlar mavjud bo’lsa va davlat boji da’vo taqdim qilishda oldindan to’lanmagan bo’lsa, davlat bojini qaytarishga asos bo’luvchi holatlar ishni ko’rish yakuniga ko’ra ham davlat bojini undirmaslikka asos bo’lishi to’g’risida norma kiritib o’tish lozim.

9. Sud qarorlarining davlat boji undiruvi qismi ustidan norozi bo’linib shikoyat qilinganda sudyalar tomonidan o’z vakolatlarini suiste’mol qilinishining oldini olish maqsadida qarorning boshqa qismlari ko’rib chiqilmasligi, yoki alternative tarzda sud qarorlarining davlat boji undiruvi qismi ustidan norozi bo’linib shikoyat qilinganda umumiy asoslarda davlat boji to’lanishi kerakligi to’g’risida norma kiritish lozim.

10. Sud xarajatlarini taraflar o’rtasida taqsimlashda, sud qarorlarini ijro qilishda otiqcha sarf-xarajatlarning oldini olish, sudyalarga yengillik yaratish maqsadida kichik hajmdagi davlat boji taraflar o’rtasida taqsimlanmasligi va undirilmasligi to’g’risida norma kiritish lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат божи тўғрисида”ги Қонуни - Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси - https://lex.uz/;
2. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий судларида давлат божларини ундириш методологиясининг ўзига хос хусусиятлари, Нуриддинов Жасур - https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-respublikasi-i-tisodiy-sudlarida-davlat-bozhlarini-undirish-metodologiyasining-ziga-hos-hususiyatlari;
3. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий судларида давлат божи тўловларини ундиришнинг ўзига хос хусусиятлари, Нуриддинов Жасур - https://modernedu-dv.com/index.php/dv/article/download/60/58/117;
4. Ўзбекистон Республикаси иқтисодий судларида почта ва видеоконференцалоқа харажатларини ундиришнинг ўзига хос хусусиятлари, Нуриддинов Жасур - https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/15579;
5. Суд харажатлари тарихи, Нуриддинов Жасур - http://pedagoglar.org/index.php/03/article/download/4368/3981/7832;
6. Иқтисодий судларда суд харажатларини ундириш масалалари, Нуриддинов Жасур - https://pedagoglar.org/index.php/04/article/download/4369/3982/7834;
7. Иқтисодий судларда суд харажатларини ундириш масалаларининг истиқболлари, Нуриддинов Жасур - https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/15579;

# NOFILOLOGIK OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARINING YOZMA ILMIY NUTQ KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA UNDA “AKADEMIK YOZUV” FANINING TUTGAN O‘RNI

**Begimov Oil To‘xtamishovich**
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori
begimovodil@mail.ru

## ANNOTATSIYA

*Ma’lumki, nafaqat bakalavriat, balki hatto magistratura bosqichi talabalari ham ilmiy matn tuzish, o‘z fikrlarini yozma nutqda aniq ifodalash, muammo, gipotezani shakllantirish, tadqiqotining dolzarbligi va yangiligini asoslashda jiddiy muammolarga duch kelishadi. Maqolada shu kabi muammolar tahlil etilgan va ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *akademik yozuv, akademik muhit, ilmiy-tadqiqot, tadqiqot kompetensiyasi, yozma ilmiy nutq madaniyati, ta'lim texnologiyalari.*

## АННОТАЦИЯ

*Известно, что не только студенты бакалавриата, но даже магистранты сталкиваются с серьезными проблемами при создании научного текста, четком изложении своей мысли в письменной речи, формулировании проблемы, гипотезы, обосновании актуальности и новизны своего исследования. В статье анализируются подобные проблемы и обсуждаются пути их решения.*

***Ключевые слова:*** *академическое письмо, академическая среда, научные исследования, исследовательская компетентность, культура письменного научного дискурса, образовательные технологии.*

## ABSTRACT

*It is known that not only undergraduate students, but even master's degree students face serious problems when creating a scientific text, clearly expressing their thoughts in writing, formulating a problem, hypothesis, justifying the relevance and novelty of their research. The article analyzes such problems and discusses ways to solve them.*

***Keywords:*** *academic writing, academic environment, scientific research, research competence, culture of written scientific discourse, educational technologies.*

## KIRISH

Oliy o‘quv yurtida o‘qitish bo‘yicha ko‘p yillik tajriba nafaqat bakalavriat, balki hatto magistratura bosqichi talabalari ham ilmiy matn tuzish, o‘z fikrlarini yozma

nutqda aniq ifodalash, muammo, gipotezani shakllantirish, tadqiqotining dolzarbligi va yangiligini asoslashni bilishmaydi deb ishonch bilan aytishimizga imkon beradi. Ma’lumki, talabalar yozma ilmiy nutqida ixchamlik va to‘liqlik, mantiqiylik, kompozitsion aniqlik va umuman olganda, ilmiy uslubning yetishmasligi mavjud bo‘lib, u monologik xarakteri, lingvistik vositalarning qat'iy tanlanishi, standartlashtirilgan nutqqa moyillik kabi bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Asarning yaratilishida Ulug‘bekning ishtirok etganligiga hech bir shubha yoki ikkilanishga o‘rin yo‘q. XVI asrning mashhur tarixchilaridan biri Mirzo Muhammad Haydar (1500-1551) ham Ulug‘bekning tarix ilmi sohasida ham samarali mehnat qilganligini aytadi. Masalan, uning “Tarix-i Rashidiy” nomli yirik kitobida bu haqda mana shunday fikrlar bildirgan: “Donishmand podishoh Mirzo Ulug‘bek bir tarixiy asar yozdi va unga “Ulus-i arba’” deb nom qo‘ydi” [5, 85a-b.]. Ulug‘bekning shunday asar yozganligini Xondamir bilan Mahmud ibn Vali ham tasdiqlaydilar. YUqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayanib aytish mumkinki, “Tarix-i arba’ ulus” Rashiduddining mashhur “Jami’ ut-tavarix” asari singari tarixchi olimlar jamoasi tarafidan, Mirzo Ulug‘bekning bevosita ishtiroki va rahbarligi ostida yozilgan.

“Tarix-i arba’ ulus”ning nusxalari juda kam. Asarning to‘liq nusxasi hali topilganicha yo‘q. Bugungi kunda uning qisqartirilgan to‘rtta nusxasi saqlangan bo‘lib, uning ikkitasi Angliyada, bir nusxasi Hindistonning Bankipur shahri kutubxonasida, to‘rtinchi nusxasi AQSHning Xarvard universitetida saqlanadi. Asar bir talay tarixiy, jug‘rofiy manbalar va manoqiblar asosida yozilgan. Muallif ko‘p hollarda o‘z manbalarini aniq ko‘rsatmaydi va “aytishlaricha”, “qissa va tarix kitoblarida” yozilishicha, “CHig‘atoy ulusi ulamolarining kitoblarida keltirilishicha”, “bir guruh odil, haqiqatgo‘y tarix arboblarining aytishicha” kabi umumiy iboralar bilan cheklanadi. Lekin, ayrim o‘rinlarda o‘zi foydalangan ba’zi asarlar va ularning mualliflari nomini ham tilga oladi. Bular orasida mashhur astronom Abu Ma’shar Balxiy, yirik olim, shoir hamda sayyoh Rashiduddin Votvot, mashhur tarixchi-yu, davlat arboblari Alouddin Otamalik Juvayniy, Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy, Hamdulloh Mustovfiyi Kazviniy va boshqalarning nomlari tilga olinadi. Olim tasir va hadis kitoblar, rivoyatlardan foydalanganliginiham aytadi. Rashiduddin Votvot, Xo‘jandiy va Nizomiydan olingan she’riy parchalar ham uchraydi. SHunga qaraganda, Ulug‘bek mazkur asarini yozishda juda ko‘p, mazmun jihatdan xilma-xil (tarix, jug‘rofiya. Astronomiya, nazmiy) kitoblardan keng foydalangan.

Asarning mazmuni haqida ikki og‘iz so‘z. Avvalo shuni aytish kerakki, muallifning o‘zi mazkur asarini qism yoki boblarga bo‘lmagan. B.Ahmedov ushbu asarni to‘rt ulus tarixini o‘z ichiga olganligidan kelib chiqib, to‘rt qismdan iborat deb aytadi [6, 6-b.].

Asar muqaddima va yettita bobdan iborat. Muqaddimada o‘rta asr tarix ilmida hukm surgan an’anaga ko‘ra, Tangri taolo, uning elchisi, payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va-s-sallam va avlodlari sha’niga aytilgan maqtovlar Odam Atoning yaratilishi hamda islomiyatdan avval o‘tgan payg‘ambarlar (SHis,

Qaynon, Mahloyil va boshqa), Nuh alayhissalom, shuningdek, uning farzandlari tarixi qisqacha bayon qilinadi.

Birinchi bobda Turkxon ibn YOfas hamda uning Turkiston zaminida podsholik qilgan avlodi tatar-mo‘g‘ul va turk qavmlariyu podsholri tarixi bayon etilgan. Ko‘p narsalar boshqa asarlardan-da ma’lum, lekin yana ayrim muhim ma’lumotlarni ham uchratamiz. O‘g‘uzxon davrida amalda bo‘lgan saroy qabul marosimlari tartibi, turk qo‘shinining tuzilishi, ulus tizimi, turk qo‘shinining tuzilishi, usmonli turk sultonlarining shajarasi shular jumlasidandir. Mazkur bobda keltirilgan turklar va mo‘g‘ul qavmlari haqidagi ma’lumotlardan ko‘rinishicha, ular bir-biriga shu qadar yaqin darajada istiqomat qilganlarki, hatto shajaralari ham aralash-quralash bo‘lib ketgan. Bu holni biz Rashiduddinning yuqorida tilgan asarida va mashhur nemis sharqshunosi Gerxard Doyorferning “YAngi fors adabiyotida turk-mo‘g‘ul elementlari” degan to‘rt jildlik izohli lug‘atida [7, 25-b.] ham yaqqol ko‘ramiz.

Ikkinchi bob – turk-mo‘g‘ul xalqlarining afsonaviy onasi Alanquva va undan tarqalgan avlod, ya’ni podsholar (Buzunjor qoon, Buqoxon, Dutuminxon, Qobulxon, Boysung‘urxon, Barton bahodir, YAsugay bahodir) tarixi bayonini o‘z ichiga oladi. Bu bobda ham ilm-fan uchun muhim ma’lumotlar uchraydi. Turk-mo‘g‘ul qavmlarining birgalikda, aralashib yashab kelganligi Turk diyori va uning boshqa qavmlari orasida tutgan mavqe’i, oddiy xalqning erga, aniqrog‘i, o‘z hukmdoriga biriktirilganligi, VIII asrda jaloir qavmi boshliqlarining kuchayib ketishi haqidagi ma’lumotlar shular jumlasidandir.

“Tarix-i arba’ ulus”ning uchinchi bobi buyuk jahongir CHingizxon tarixi bayon etilgan. Bu erda keltirilgan ma’lumotlar ichida e’tiborga moliklaridan mo‘g‘ul qo‘shinlarining tuzilishi, CHingizxonning oq rangdagi to‘qqiz poyali tug‘i, qurultoy va boshqa qabul marosimlarida amalda o‘lgan tartib-qoidalar, turk eli, ya’ni, naymanlar, qariliqlar, uyg‘urlar yoso hamda yusun haqidagi ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Chingizxon zamonida turk-mo‘g‘ul qavmlari daha (o‘nlik), sada (yuzlik), xazora (minglik) va tuman (o‘n minglik)larga bo‘lingan. Chingizxon zamonida “hech kim, - deb aytiladi “Tarix-i arba’ ulus”da, o‘z dahasi va sadasi va xazorasidan boshqa joyga keta olmagay va boshqaning panohiga o‘ta olmagay. Bunga xilof ish tutganlarni xalq oldida qatl etadilar, toki boshqalarga ibrat bo‘lsin. Bu xususda “Tarix-i arba’ ulus” muallif keltirgan mana bu fakt ham diqqatga sazovordir: “Asarning to‘rtinchi bobida aytilishicha, Chingizxonning 1225 yili Xorazmshohlar davlatiga qilgan katta harbiy yurishidan qaytishida Sirdaryoning o‘ng sohilida katta ov uyushtirdi. o‘shanda xon tarafidan buyruq bo‘ldiki, “Arqoni

davlat va boshqa askarlar. Ularning har biri o‘z qadri va mavqeiga muvofiq ov maydonida biron o‘ljani qo‘lga kirita olsinlar. Tirik ovlarga o‘z tamg‘alarini bosib, so‘ng qo‘yib yuborsinlar. Bu fakt mo‘g‘ul imperiyasida nafaqat er suv, balki ov qilinadigan qo‘riqxonalar va undagi jonivorlar ham feodallarga biriktirib qo‘yilganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, turk-mo‘g‘ul jamiyatida mavjud bo‘lgan feodal munosabatlar haqidagi tasavvurimizni bir qadar kengaytirishga yordam beradi yoki Chingizxonning shu qadar tez vaqt ichida ko‘p mamlakatlar, xususan o‘sha zamonning eng qudratli davlatlaridan Xorazm imperiyasi ustidan g‘alabasini ta’minlagan. Siyosatini xarakterlovchi mana shu misol ham diqqatga sazovordir. “Sohibqironi a’zam Chingizxoni muazzam, - deb o‘qiymiz, - ushbu asarda biror dinu millatga yon bosmagan. Bir millatning ikkinchi bir millat ustidan ustunligi taasubidan o‘zini nari tutardi. Musulmonlar toifasining ulamo va zoxidlarini e’zoz ko‘rardi”. YAna bir muhim misol: “Odam Ato zamonidan bugungi kungacha biron podishohning sipohi turklarnikidan mufassal bo‘lmagan”. Faqat turklarning bir o‘zidan tuzilgan katta-katta harbiy qismlar Chingizxonning Movarounnahr, Afg‘niston, Hindiston, Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlarida faol ishgtirok etganlar.

Asarda uchragan “Chingizxon Jo‘jixonni Barchin shaharini olish uchun bir tuman turkiy lashkar bilan jo‘natdi”.

“Turklar bilan bo‘lgan jangu jadalda Turkon xotun avlodi bilan asir olingan edi”.

“Koshin yurtining tanqutlarini turk otlarining oyog‘i ostiga tashladilar”.

“Hindistonnning ob-havosi turklarning mijoziga to‘g‘ri kelmay, ko‘pchilik kasalga chalindi” kabi parchalarni uchratamiz [8, 63-67-bb ].

Asarning to‘rtinchi bobi – Chingizxonning Ulug‘ yurt, ya’ni mo‘g‘uliston bilan SHimoliy Xitoyni idora qilgan bevosita vorislari tarixiga bag‘ishlanadi va o‘qtoy qoon zamonidan to Arik Buko avlodi O‘rdoy qoongacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, Chingizxon vafotidan keyin to Amir Temur zamonigacha Mo‘g‘ulistonda hukmronlik qilgan 21 hukmdordan 17 tasining tarixi qisqacha bayon qilinadi. Muhimi shundaki, Rashiduddin ulardan beshtasi (o‘qtoy, Chig‘atoy, Guyukxon, Manguxon, Hubiloy qoon)ning nomini [8, 7-64-bb.; 114-122-bb.; 128-148-bb.; 152-213-bb.], “Muqaddima-yi Zafarnoma” muallifi SHarafuddin Ali Yazdiy ulardan faqat 14 tasini nomini keltirgan xolis.

Beshinchi bob CHingizxonning to‘ngich o‘g‘li Jo‘chixon naslidan bo‘lgan 33 xon zamonida Dashti Qipchoqning tarixidan hikoya qiladi. Voqealar bu bobda ham juda qisqa tarzda bayon etilgan. Lekin shunday bo‘lsa ham diqqatga sazovor ma’lumotlarni ko‘plab uchratish mumkin.

Asarning oltinchi bobi – Eron bilan Ozarbayjon ustidan qariyb bir asr mobaynida hukmronlik qilgan Elxoniylar davlati, shuningdek, Arpaxon davrida (1335-1336) nufuzi orta boshlagan. CHo‘poniylar va Jaloiriylar tarixini o‘z ichiga oladi. Bu bobda Elxoniylar davlatining ichki ahvoli va tashqi siyosat iga oid bir talay ma’lumotlar keltirilgan.

Asarning eng muhim qismi – uni ng etinchi bobidir. Unda CHig‘atoy ulusining CHingizxon zamonidan (1227 y.) to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi (1370 y.) gacha bo‘lgan tarixi hikoya qilinadi.

Ma’lumki, Chig‘atoy ulusining qariyb 150 yillik tarixi o‘rganilmagan. Bu haqda qo‘lyozma manbalarda etarli ma’lumotlar bo‘lmasligi bunga asosiy sababdir. Chig‘atoy ulusida hukmfarmonlik qilgan xonlar haqida juda qisqa ma’lumotlar SHarafuddin Ali YAzdiyning “Muqaddimayi zafarnoma”sida, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”ida ham keltirilgan. Lekin “Tarix-i arba’ ulus” ularga nisbatan bir qadar to‘laroq. Unda ulusda hukmronlik qilgan Chig‘atoy va o‘qtoy qoon naslidan bo‘lgan 33 xonning tarixi qisqa tarzda bayon etilgan.Asarda ko‘zga tashlangan eng katta va ko‘p xato – bu mo‘g‘ulcha va xitoycha nomlarning ba’zi o‘rinlarda to‘g‘ri yozilmaganligidir.

Ayrim hollarda voqealarning sanalari buzib ko‘rsatilgan. Masalan, elxoniylardan G‘ozonxonning Misr bilan bo‘lgan urushi vaqti uch erda – uch xil: 699, 708 va 703 deb ko‘rsatilgan.

“To‘rt ulus tarixi” asaridan davlat va undagi qoonlarning boshqaruv uslubi, etnik qavmlar haqida keng ma’lumotlar olish mumkin. O‘g‘uzxon davrida amalda bo‘lgan saroy qabul marosimlari tartibi, turk qo‘shinining tuzilishi, ulus tizimi, usmonli turk sultonlarining shajarasi shular jumlasidandir. Asarda keltirilgan turklar va mo‘g‘ul qavmlari haqidagi ma’lumotlardan ko‘rinishicha, ular bir-biriga shu qadar yaqin darajada istiqomat qilganlarki, hatto shajaralari ham aralash-quralash bo‘lib ketgan. Bu holni biz Rashiduddinning asarlarida va mashhur nemis sharqshunosi Gerxard Doyorferning “Yangi fors adabiyotida turk-mo‘g‘ul elementlari” degan to‘rt jildlik izohli lug‘atida ham yaqqol ko‘ramiz.

Shuningdek, turk-mo‘g‘ul xalqlarining afsonaviy onasi Alanquva va undan tarqalgan avlod, ya’ni podsholar (Buzunjor qoon, Buqoxon, Dutuminxon, Qobulxon, Boysung‘urxon, Barton bahodir, YAsugay bahodir) tarixi bayonida ham ilm-fan uchun muhim ma’lumotlar uchraydi. Turk-mo‘g‘ul qavmlarining birgalikda, aralashib yashab kelganligi Turk diyori va uning boshqa qavmlari orasida tutgan mavqe’i, oddiy xalqning erga, aniqrog‘i, o‘z hukmdoriga biriktirilganligi, VIII asrda jaloir qavmi boshliqlarining kuchayib ketishi haqidagi ma’lumotlar shular jumlasidandir.

“Tarix-i arba’ ulus” asarida jahongir Chingizxon tarixi bayon etilgan. Bu erda keltirilgan ma’lumotlar ichida e’tiborga moliklaridan mo‘g‘ul qo‘shinlarining tuzilishi, Chingizxonning oq rangdagi to‘qqiz poyali tug‘i, qurultoy va boshqa qabul marosimlarida amalda bo‘lgan tartib-qoidalar, turk eli, ya’ni, naymanlar, qariliqlar, uyg‘urlar yoso hamda yusun haqidagi ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Chingizxon zamonida turk-mo‘g‘ul qavmlari daha (o‘nlik), sada (yuzlik), xazora (minglik) va tuman (o‘n minglik)larga bo‘lingan. Chingizxon zamonida “hech kim, - deb aytiladi “Tarix-i arba’ ulus”da, o‘z dahasi va sadasi va xazorasidan boshqa joyga keta olmagay va boshqaning panohiga o‘ta olmagay. Bunga xilof ish tutganlarni xalq oldida qatl etadilar, toki boshqalarga ibrat bo‘lsin. Bu xususda “Tarix-i arba’ ulus” muallif keltirgan mana bu fakt ham diqqatga sazovordir: “Asarning to‘rtinchi bobida aytilishicha, CHingizxonning 1225 yili Xorazmshohlar davlatiga qilgan katta harbiy yurishidan qaytishida Sirdaryoning o‘ng sohilida katta ov uyushtirdi. o‘shanda xon tarafidan buyruq bo‘ldiki, “Arqoni davlat va boshqa askarlar. Ularning har biri o‘z qadri va mavqeiga muvofiq ov maydonida biron o‘ljani qo‘lga kirita olsinlar. Tirik ovlarga o‘z tamg‘alarini bosib, so‘ng qo‘yib yuborsinlar. Bu fakt mo‘g‘ul imperiyasida nafaqat er suv, balki ov qilinadigan qo‘riqxonalar va undagi jonivorlar ham feodallarga biriktirib qo‘yilganligini ko‘rsatadi. SHuningdek, turk-mo‘g‘ul jamiyatida mavjud bo‘lgan feodal munosabatlar haqidagi tasavvurimizni bir qadar kengaytirishga yordam beradi yoki Chingizxonning shu qadar tez vaqt ichida ko‘p mamlakatlar, xususan o‘sha zamonning eng qudratli davlatlaridan Xorazm imperiyasi ustidan g‘alabasini ta’minlagan. Siyosatini xarakterlovchi mana shu misol ham diqqatga sazovordir. “Sohibqironi a’zam Chingizxoni muazzam, - deb o‘qiymiz, - ushbu asarda biror dinu millatga yon bosmagan. Bir millatning ikkinchi bir millat ustidan ustunligi taassubidan o‘zini nari tutardi. Musulmonlar toifasining ulamo va zoxidlarini e’zoz ko‘rardi”. YAna bir muhim misol: “Odam Ato zamonidan bugungi kungacha biron podishohning sipohi turklarnikidan mufassal bo‘lmagan”. Faqat turklarning bir o‘zidan tuzilgan katta-katta harbiy qismlar CHingizxonning Movarounnahr, Afg‘niston, Hindiston, Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlarida faol ishgtirok etganlar.

Asarda uchragan “CHingizxon Jo‘jixonni Barchin shaharini olish uchun bir tuman turkiy lashkar bilan jo‘natdi”.

“Turklar bilan bo‘lgan jangu jadalda Turkon xotun avlodi bilan asir olingan edi”.

“Koshin yurtining tanqutlarini turk otlarining oyog‘i ostiga tashladilar”.

“Hindistonnning ob-havosi turklarning mijoziga to‘g‘ri kelmay, ko‘pchilik kasalga chalindi” kabi parchalarni uchratamiz.

O‘qtoy qoon zamonidan to Arik Buko avlodi O‘rdoy qoongacha bo‘lgan davrda ham ko‘p xabarlarni olish mumkin. Ayniqsa, CHingizxon vafotidan keyin to Amir Temur zamonigacha Mo‘g‘ulistonda hukmronlik qilgan 21 hukmdordan 17 tasining tarixi qisqacha bayon qilinadi. Muhimi shundaki, Rashiduddin ulardan beshtasi (O‘qtoy, Chig‘atoy, Guyukxon, Manguxon, Hubiloy qoon)ning nomini [9, 152-b.], “Muqaddima-yi Zafarnoma” muallifi SHarafuddin Ali YAzdiy ulardan faqat 14 tasini nomini keltirgan xolos. Shuningdek, “To‘rt ulus tarixi” asarida CHingizxonning to‘ngich o‘g‘li Jo‘chixon naslidan bo‘lgan 33 xon zamonida Dashti Qipchoqning tarixidan hikoya qilinadi. Voqealar juda qisqa tarzda bayon etilgan. Lekin shunday bo‘lsa ham diqqatga sazovor ma’lumotlarni ko‘plab uchratish mumkin.

Eron bilan Ozarbayjon ustidan qariyb bir asr mobaynida hukmronlik qilgan Elxoniylar davlati, shuningdek, Arpaxon davrida (1335-1336) nufuzi orta boshlagan. Cho‘poniylar va Jaloiriylar tarixini o‘z ichiga oladi. Bu bobda Elxoniylar davlatining ichki ahvoli va tashqi siyosat iga oid bir talay ma’lumotlar keltirilgan.

Asarning eng muhim qismi – uning etinchi bobidir. Unda Chig‘atoy ulusining Chingizxon zamonidan (1227 y.) to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi (1370 y.) gacha bo‘lgan tarixi hikoya qilinadi.

**XULOSA**

Ma’lumki, Chig‘atoy ulusining qariyb 150 yillik tarixi o‘rganilmagan. Bu haqda qo‘lyozma manbalarda etarli ma’lumotlar bo‘lmasligi bunga asosiy sababdir. Chig‘atoy ulusida hukmfarmonlik qilgan xonlar haqida juda qisqa ma’lumotlar Sharafuddin Ali Yazdiyning “Muqaddimayi zafarnoma”sida, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”ida ham keltirilgan. Lekin “Tarix-i arba’ ulus” ularga nisbatan bir qadar to‘laroq. Unda ulusda hukmronlik qilgan Chig‘atoy va o‘qtoy qoon naslidan bo‘lgan 33 xonning tarixi qisqa tarzda bayon etilgan. “To‘rt ulus tarixi” asarining bugungi kundagi ahamiyati juda kattadir. SHu paytgacha qoonlar tarixi haqida yaratilgan bironta asar yo‘qki, turk-mo‘gul va tatarlar qavmiga oid ko‘plab ma’lumotlarni olish mumkin. Ayniqsa, o‘sha davrda tuzning kashf etilishi, Mahmud Torobiyning sehrgarlik va tabiblik sohasidagi qilgan ishlari asarni o‘qi yotgan kishida yanada qiziqish uyg‘otadi. Ushbu asar haligacha to‘liq nusxada topilgan bo‘lmasada, tarixiylik nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Asarni to‘liq nusxasini izlab topish va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish bugungi kunda davom etmoqda.

## ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Ahmedov A. Ulug‘bek. – Toshkent, 1994.
2. The Shajarat ul-Atrak, or Geneological Tree of the Turks and tatars, transl and-abrid. By Glonel Milles, London, 1832, b. 182a.
3. Tarix-i arba’ ulus. Britaniya muzeyi qo‘lyozmasi. Inv. № ADD 26190, v. 121a.
4. Ulus-i arba’-yi Chingiziy. Britaniya muzeyi qo‘lyozmasi, inv. № ADD 26190, v. 182 a.
5. Tarix-i Rashidiy. O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi, № 1430, v. 85a
6. Ahmedov B., Norqulov N., Xasaniy M. To‘rt ulus tarixi. Toshkent, Cho‘lpon, 1994. – B. 6.
7. Gerhard Doerfer, Turkiqche und Mongoliqche clemente im Neuperqchen Literature, Wieqbaden, 1963-1975.
8. Masharipova G.K. Mirzo Ulug‘bek davridagi tarixiy jarayonlar va allomaning ilmiy merosi. // Mirzo Ulug‘bek merosi va hozirgi zamon mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2014. - 63-67-bb.
9. Сборник летописей. Т.II. – Москва – Ленинград, 1960, с. 7-64, 114-122, 128-148, 152-213.

# KURSANTLARNI TARBIYALASHDA SHARQ MA'RIFATPARVARLARINING MA'NAVIY MEROSINI O'RNI

**Mullajonov Islomjon Yuldashevich**
Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi, dotsent

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada yurtimizda zamonaviy harbiy mutaxassislarni tayyorlashda sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol va vatanparvar etib kamol toptirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Qurolli Kuchlar, yosh ofitser, globallashuv, tarbiya, burch, vatanparvarlik, insonparvarlik, sadoqat, odamiylik, ma'naviy salohiyat, milliy mentalitet.*

## АННОТАЦИЯ

*В данной статье обсуждается значение научного наследия мыслителей Востока в подготовке современных военных кадров в нашей стране для воспитания подрастающего поколения всесторонне развитыми, гармонично развитыми и патриотичными личностями.*

***Ключевые слова:*** *Вооруженные Силы, молодой офицер, глобализация, воспитание, долг, патриотизм, гуманизм, верность, человечность, духовный потенциал, национальный менталитет.*

## ABSTRACT

*This article discusses the significance of the scientific legacy of Eastern thinkers in preparing modern military specialists in our country for the upbringing of the younger generation as comprehensively developed, harmoniously developed and patriotic individuals.*

***Keywords:*** *Armed Forces, young officer, globalization, education, duty, patriotism, humanism, loyalty, humanity, spiritual potential, national mentality.*

## KIRISH

Ma'lumki, hozirgi davrda globallashuv jarayoniga taalluqli bo'lgan barcha jabhalar hayotimizga tez va chuqur kirib kelmoqda. Globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o'rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o'rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o'zaro hamkorlik imkoniyatlarining yuzaga kelishi – bu globallashuvning ijobiy ahamiyati, ammo globallashuv jarayonining bugungi yana bir jihati shuki, u

yoshlarga mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning quroliga, har xil siyosiy, g‘oyaviy kuchlarning kurash sahnasiga ham aylanib bormoqda.

Shu sabab yosh avlod tarbiyasi davlatimizning doimo diqqat markazida bo‘lib, bu jarayon Mustaqillik yillarida uzluksiz davom etmoqda. Umuman mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydondagi faolligi va ishtirokini ta’minlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yo‘qotgan, ko‘p bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomondan himoyalash, iqtidorli yoshlarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash kabi masalalar doimiy nazorat ostida bo‘lmoqda.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Asrlar davomida jahon falsafasi, xususan Sharq falsafasi qadriyatlari asosida oliy harbiy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan kursantlarda falsafiy mushohada, tafakkur etish ko‘nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta’lim tizimiga kiritish, nazarimizda, milliy mentalitetimizning milliy taraqqiyot g‘oyasi asosida yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida professional milliy armiyamiz uchun yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlashga jiddiy ahamiyat berilayotganini ta’kidlash farz va qarz, deb o‘ylaymiz. Shu maqsadda yurtimizdagi oliy harbiy ta’lim muassasalari moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, kursantlar uchun barcha sharoit yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish ham davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”[1]. Sharqning buyuk alloma va mutafakkirlarining kashfiyotlari zamonaviy fan va taraqqiyotning asosidir. Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o‘zgarish va yangilanishlar, ayniqsa, insoniyat taraqqiyotiga katta turtki beradigan jarayonlar va kashfiyotlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Buning uchun, avvalo, azaliy an’analar, munosib sharoitlar, tafakkur maktabi, madaniy-ma’naviy muhit bo‘lishi kerak.

Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan yaratilgan yuksak darajadagi ma’naviy-madaniy meros nafaqat ushbu mintaqada, balki butun Sharq va G‘arb falsafasining shakllanishida muhim manba bo‘lib xizmat qildi. Chunki jahon sivilizatsiyasining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida e’tirof etilgan Vatanimiz hududida falsafiy-ilmiy fikr va g‘oyalarning rivojlanish tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi.

Musulmon mamlakatlaridagi olimlar avlodiga ta’sir ko‘rsatgan fanlar tasniflaridan biri Abu Nasr Forobiyning “Ihso al-ulum” (“Ilmlarni tasniflash”) [2] asarida bayon qilingan, keyinchalik Yevropa va lotin tiliga o‘girilgan fanlar tasnifi edi. Forobiy tasnifiga muvofiq, barcha fanlar besh sinfga taqsimlangan: “til haqidagi

ilm”, mantiq, matematika, fizika(naturfilosofiya), ijtimoiy fanlar (yurisprudensiya, ritorika).

Abu Nasr Forobiy matematikaga: arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqani olib kiritgan. Xuddi shu sinfga mexanika ham kiritilib, u ham o‘z navbatida ikkiga bo‘lingan: og‘irlik haqidagi ilm ya’ni nazariy muvozanat, murakkab qurilmalar haqidagi ilm ya’ni amaliy muvozanat. Forobiyning fanlar tasnifidagi o‘ziga xos jihatiga e’tibor beradigan bo‘lsak, birinchi bo‘lib, “Murakkab usullar haqidagi ilm”ga musulmon mamlakatlari matematikasida rivojlangan bir necha sof matematik sohalar: “sonlarning mohir usullari”, “geometrik mohir usullar” va hakozolarni qo‘shadi. Musiqa asboblarining qurilishi, ko‘zgu haqidagi ilm, “tarozining tuzilish usullari”, me’morchilik va hatto duradgorlik ishi ham shu yerga kiritganligini ko‘rishimiz mumkin.

Keyinchalik esa Abu Nasr Forobiyning tasnifi uncha katta bo‘lmagan o‘zgarish, qo‘shimchalar bilan Ibn Sino, Ibn Rushd, Abu Homid G‘azzoliy kabi yirik olimlar tomonidan qabul qilingan va rivojlantirilgan edi. “Ihso al-ulum”ning arab tilli mualliflar asarlarining mashhur tarjimoni Gerardo Kremenskiy tomonidan lotinchaga qilingan tarjimasi O‘rta asr Yevropasida keng tarqalgan. Yana bir muslumon faylasuf olimi Ibn Sino tibbiyot bilan birgalikda fanlar tasnifi muammolarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan edi. Uning fanlar tasnifi muammolarini ishlab chiqishga qaratilgan asari “Risala fi aqsam al-ulum” (“Ilmlarning bo‘linishi haqida risola”) deb nomlanadi. Bu faylasuf ham Forobiyga ergashib, o‘zining tasnif sida, o‘z davrining barcha asosiy ilmlarining kelib chiqish sabablarini tushuntirishga uringan. Jumladan, u har bir ilmning “shahobchalar”i ostida unga tegishli amaliy usullar majmuini tushunib, “mohir usullar haqidagi ilm” ya’ni o‘z davridagi amaliy mexanikani ilm sohasiga olib borib taqaydi. Geometriya shahobchasiga u masalan, odatda “ilm al-xiyal” (muvozanat) tarkibiga kirganlarning asosiy qismni kiritadi.

Fanlar tasnifidagi bunday xilma-xillik islom ilmi doirasidagi konseptual yondashuvlarda ham aks etgan. Ma’lumki, IX-X asrlarda arab tilida so‘zlashuvchi mamlakatlarda Arastuning fanlar tasnifini o‘rganish keng tarqalgan. Chunki Arastu asarlarining arab tiliga tarjimasi o‘rta asrlar Yaqin va O‘rta Sharq musulmonlari olamida batafsil tadqiq qilingan. Ilmiy-amaliy faoliyat yo‘lga qo‘yilib, fanlar tasnifining alohida ko‘rinishlari ishlab chiqildi. Masalan, dastlabki fanlar tasnifini birinchilardan bo‘lib, Kindiy ishlab chiqqan. U ilmiy bilishning uch bosqichi haqidagi ta’limotni shakllantirdi. U 1-bosqichni, mantiq va matematika; 2-bosqichni, fizika (aniq fanlar); 3-bosqichni esa metafizika bilan bog‘liq bilim, deb hisobladi [3].

R.Kamayevaning ta’kidlashicha, yuqorida sanab o‘tilgan qadimgi davr olimlarining qarashlari asosida bunday fan sohalariga mualliflar tomonidan alohida ahamiyat berilgan diniy va sof falsafiy sohalar ham qo‘shilgan edi [4].

Tadqiqotimizda ma’lum bo‘lishicha, fizikani Kindiy bilishning quyi bosqichiga kiritadi. Chunki, uning fikricha, bu fanning materiya bilan bevosita aloqasi bor, ya’ni u hissiy bilishga asoslanadi. Shuningdek, sezgi va hissiyot bu ilmning tabiiy yo‘li hisoblanadi. Tajribasiz hech narsa yo‘q. Bilishning oraliq bosqichi materiyaga aloqador emas. U tajriba chegarasidan tashqariga chiqadi. Matematika ratsional materiyadan ajratib qo‘yilgan. Shuning uchun bilishning oliy darajasi materiya bilan aloqada bo‘lmaydi. Mutlaqo nazariya. Unda aqldan o‘zga narsa yo‘q [5].

Islom falsafasida fanlar tasnifi ishlab chiqilishining metodologik va ijtimoiy asoslari dastlab quyidagicha mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan: Nazariy ilmlar mantiq, fizika(naturfilosofiya), matematik fanlar va metafizika(falsafa va ilohiyot)ga bo‘lingan. Amaliy ilmlarga etika, iqtisod va siyosat kirgan. Xususan, fizika, ximiya, geografiya, minerologiya, botanika, zoologiya, meditsina, va psixologiyani o‘z ichiga oladi. Matematik fanlarning asosiy qismini kvadrium – arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasi tashkil etadi. Unga algebra, etika, “og‘irlik haqidagi ilm” va ilm al-xiyal ham kiritilgan. Masalan, geometriya bo‘limi ko‘proq arifmetikaga oid Yevklid “Ibtido”sining qisqacha bayonini, Nikomaxning “Arifmetikaga kirish”i, astronomiyaga oid Ptolemeyning “Almagest”i va “ilm al-xiyal”ga taalluqli Geronning “Mexanika” sini o‘zida aks ettirgan.

Yana bir islom qomusiy olimlaridan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Miftah al-ulum”(“Ilmlar kaliti”) asarida “ilm al-xiyal” sakkiz fundamental sohalarning tarkibida, falsafa, mantiq, meditsina, arifmetika, astronomiya, musiqa qatorida ko‘rib chiqilgan.

Olimning dunyoqarashi o‘sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, Sharq namoyandalari Yoqub ibn Ishoq Kindiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Bakr Roziy ta’siri ostida shakllandi.

Abu Abdulloh Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan, ko‘pchilik asarlari singari o‘sha davrning ilm tili – arab tilida bitilgan, yagona ma’lum asari – “Mafotih al–ulum”(“Ilmlar kalitlari”)dir. Asarning qo‘lyozma nusxalari juda ko‘p emas. Yaqin-yaqingacha uning to‘rt nusxasi bor deb hisoblanib kelinar edi. Ana shu to‘rt nusxadan uchtasi Buyuk Britaniya muzeyida hamda Berlin kutubxonasida saqlanadi. XX asrning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nusxasi Istanbul kutubxonalarida borligi aniqladi. Barcha olti nusxa Istambul shahridagi kutubxonalardadir.

Abu Abdulloh Xorazmiy ilmlar tasnifining shakli quyidagicha:

**Shariat va u bilan bog‘liq ilmlar:**

Fiqh, ya’ni musulmon huquqshunosligi.

Kalom, ya’ni din asoslari.

Grammatika.

Ish yurgizish.

She’riyat va aruz.

Tarix.

**Boshqa ilmlar: (Nazariy falsafa)**

a) tabiiy ilmlar – tibbiyot (tib, samoviy hodisalar – meteorologiya, mineralogiya, al-kimyo, mexanika) – quyi;

b) riyoziyot ilmlari (arifmetika, handasa, ilm an-nujum, musiqa) – o‘rtancha;

v) ilohiy, ya’ni metafizika – oliy ilm;

g) mantiq.

**Amaliy falsafa:**

a) axloq – etika (odamni boshqarish);

b) uyshunoslik (uyni boshqarish);

v) siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish).

“Mafotih al-ulum”da ilmlar tasnifi har bir fanning mohiyatini aniqlash hamda ularning asosiy atamalarini qisqa va aniq bayon etish bilan birgalikda olib boriladi. Bu yerda Abu Abdulloh Xorazmiy o‘z tasnifida o‘sha davr an’anasi, ya’ni ilmlarni ikkiga bo‘lishni qo‘llab-quvvatlab, an’anaviy (shar’iy) va an’anaviy bo‘lmagan (falsafiy) ilmlarga ajratadi.

An’anaviy ilmlar. Shu ilmlardan biri, fiqhda muallif islom qonunshunosligining asosi bo‘lgan va islom huquqi posbonining doimiy dasturi Qur’on, payg‘ambar so‘zlari, hikmatli gaplari va hayotlarini aks ettiruvchi Sunnat, Hadis va uning xillari; Ijmo – islom jamoasining yakdillik bilan tan olgan qarori; shariat qonun-qoidalariga amal qilishni, ya’ni tahorat qilish, namoz o‘qish, azon aytish, ro‘za tutish, zakot to‘lash ustida to‘xtab o‘tadi.

Ikkinchi bo‘lim kalomda o‘sha davrda Yaqin va O‘rta Sharqda mavjud bo‘lgan ko‘pgina mazhablar haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan, bu mazhablarning yettiga bo‘lib bayon etilishi, ayniqsa, mu’taziliylar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, grek-xristian mazhablari, islomgacha bo‘lgan davrdagi Eron va Yamandagi diniy e’tiqodlar, Hindistonda tarqalgan ba’zi dualistik mazhablar va oqimlar hamda zardushtiylik bayon etiladi. Bu ma’lumotlar Yaqin va O‘rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi xalqlarning dinlari tarixini o‘rganishda g‘oyat katta ahamiyatga egadir.

An’anaviy bo‘lmagan ilmlar. Bu ilmlar qatorida birinchi bo‘lib falsafa qayd etilib, unda ushbu ilm atamalarining sharhi bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi yoritilgan.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, o‘sha davr allomalarining axloq-odob va estetika borasidagi dono fikrlari madaniyatimizni yanada ravnaq toptirishda, yoshlarning ma’naviy dunyosini boyitishda, ularni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, bugun Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarimiz ajdodlarimizning mana shunday boy ma’naviy merosidan oziqlanishsa, o‘zlarining ma’naviy, axloqiy va intellektual sifatlarini shakllantirishsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, Sharq Renessansi davri allomalarining merosi insoniyat ijtimoiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Qomusiy allomalar tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar hozirgi davrda ham ilmiy jamoatchilikning e’tibor markazida ekanligi, buyuk allomalarimizning ilmiy merosiga murojaat etayotgani, ajdodlarimizning nomi bilan bog‘liq ilmiy markazlar, majmualar, oliy o‘quv yurtlari, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalari va maktablar tashkil etilayotgani O‘zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida innovatsion taraqqiyotning tarixiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi, 2016, 19 oktabr.
2. Фараби Абу Наср Мухаммед. Математические трактаты. — Алма-Ата, 1972. – С. 27.
3. Кедров Б.М. Классификация наук. В 3-т. — М.: Мысль,1961-1965. – С. 52.
4. Камаева Р. Развитие школ и педагогической мысли в Иране IX-XI вв. Дисс. канд. пед наук. — М.: 1986. – С. 68.
5. Lamal Maouhassel. Essai qur la classification des scinces. Damasc, 1953. – С. 20.

# А.ГЕЛЕННИНГ АНТРОПОЛОГИК ҚАРАШЛАРИ

**Бобомуротов Дустмухаммад**
ТДСИ 2 курс талабаси

**Илмий раҳбар: Л.С.Юлдашева**
Ижтимоий фанлар Биоэтика курси билан кафедраси доценти

## АННОТАЦИЯ

*Ушбу мақолада Ғарб фалсафасида антропологик масалаларнинг ёритилиши таҳлил қилинди. Хусусан, Ғарб фалсафасидаги антропология муаммолари А.Гелен дунёқараши, хусусан, биологик антропологияси мисолида кўрсатилган. Бундан ташқари, унинг ахлоқий қарашлари ҳам кенг ёритилган.*

***Калит сузлар:*** *антропология, фалсафий қарашлар, маданият, таълимот, дуализм, маънавият.*

## ABSTRACT

*This article analyzes the coverage of anthropological issues in Western philosophy. In particular, the problems of anthropology in Western philosophy are shown by the example of A. Gelen's worldview, in particular his biological anthropology. In addition, his moral views are also widely covered.*

***Keywords****: anthropology, philosophical views, culture, doctrine, dualism, spirituality.*

## КИРИШ

Фалсафий антропология оками XX асрнинг 20-йилларида шаклланди. Иккинчи Жахон уруши йилларида бу фалсафий оким ривожи бироз сустлашди. Бу оким инсон тугрисидаги назарий билимларни кайта куриб чикиш натижасида вужудга келди, Бу дунёкарашда инсон табиати янги фалсафий ечимини топди. Гельмут Плеснер фалсафий антропологиянинг дастурини яратишдаги хиссаси.

XX асрнинг биринчи ярмида бу оким иррационал фалсафий карашлар анъаналарини давом эттирди. Жумладан, экзистенпиализм ва феноменология окимларининг инсон хакидаги фикрларини бироз узгартириб, узига хос инсон фалсафасини ривож-лантирди.

60-йилларнинг охири 70-йилларнинг бошларида фалсафий антропология янгиланди. Бунда инсоннинг фалсафий антропология нуктаи назаридан каралиши, чегаралари кенгайтирилди, илмий асоси чукурлаштирилди. Бу оким фикрича, инсоннинг табиати табиийлик холати чегарасидан чикиб кетади. Хозирдаги инсон мохиятининг тахлили табиат фанлари томонидан,рух

хакидаги фанлар хамда маданият хакидаги фанлар тажрибалари билан кенгайтирилмокда. Бундан ташкари, фалсафий-антропо- логик тахлил сохаси олмон файласуфларининг «инсон хакидагифан», жисмоний антропология ва зоопсихология, америка маданий антропологияси хамда инглиз ижтимоий антропологияси каби янги окимлар билан бойиди.

Фалсафий антропология окимининг гоявий манбаи «хаёт фалсафаси»га асосланади. Хаёт фалсафасининг тамойиллари инсон табиатини «янги» антропологик тушунишда кулланилди. Шунинг натижасида фалсафий антропология асосий фанлар каторига кушилди. Бу окимга биноан, инсон нафакат аклли мавжудот, унда биологик характердаги бошка кучлар хам мавжуддир. Инсон «хали тулик шаклланмаган хайвондир», «у биологик зараралидир», хайвоний хаётга мослашмаган, шунинд учун хам очик тизимдир, имконийатлари кенгдир . Бу фикрлар фалсафий антропологиянинг асосий коидалари ва элеменгларини ташкил етади.

## МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Хозирги фалсафий антропологияни тушуниш учун унинг тарихига назар ташлаш лозим. Бу окимнинг асосчилари Макс Шелер, Гельмут Плеснер хисобланадилар. Улар фалсафий антропологиянинг дастурини яратиб бердилар. Асосий тамойиллар, методологик-назарий асослар кейинчалик янада кенгайиб ривожланиб борди, хозирги кунда хам бу жараён узлуксиз давом этмокда. Шунингдек, бу оким ривожига узининг салмокли хиссасини кушган бир файласуф А.Гелен Хисобланади.

А. Геленнинг фалсафий-биологик антропологияси. Инсон «тулик булмаган» мавжудот сифатида. Инсон хаётининг онгсиз хаетий сохасини устунлиги хамда Ницшенинг инсонни «якунланмаган хайвон» сифатидаги караши А.Гелен (1904-1976) фалсафий антропологиясининг таянч нуктаси булди. Гелен таълимотида биологик хусусиятлар устуворлик килади. У дастлаб инсоннинг табиий яаний хайвоний инстинктларини, бу инстинктларнинг инсоннинг хаётий фаол харакатига таъсирини урганади. Гелен инсон билан хайвон уртасидаги фаркни, улар биологик тузилишини солиштириш асосида курсатиб беради. Гелен Шелернинг хаёт билан рух дуализмидан воз кечади, лекин маънавий рухиятни факат инсонга хос хусусият эканлигини тан олади. Маънавият Ґелен фикрича, хаётдан ташкаридаги бошлангич эмас, балки инсон табиатининг реал хаётий имкониятидир.

Гелен таълимотининг асосий тезиси бу инсонни биологик тулик булмаган мавжудот сифатида талкин килишдир. Чунки инсон узининг хайвоний-биологик тузилишида инстинктлар билан куролланмаган, «якунланмаган»,

«мустахкамланмаган» дир. Биологик чала-яримлик инсон мавжудлигини, унинг дунёга очиклигини аниклаб беради. Хайвонот олами муайян мухитга, уз худудига катъий богланган дир. Инсон булса муайян мухта муким богланмаган, унда мослашиш кобилияти бор, у узгарувчандир. Биологик чала яримлик ва очиклик инсон дунёсининг, инсон борлигининг асосий, аникловчи хусусиятларидан бирини ташкил килади. Хайвонот дунёсидан, ажралиб колиб инсон, ўз тақдирини узи хал киладиган булди. Узини саклаб колиш учун у янги шарт-шароитларни, мухитни, уз хаёти учун зарур булган омилларни яратишга мажбур булади. Жумладан, узини хам узгартириб. узи яратган сунъий мухитда истикомат килади. Шундай килиб, биологик жихатдан мослашмаган «чала ярим» инсоннинг фаол мавжудот эканлигини Гелен уз тезиси оркали асослаб берди.

Шундай килиб, Геленнинг антропология таълимогига биноан, табиат инсонни «инсоний» килиб яратди, унга хайвоний инстинктларни бермади. Бу ерда Гелен инсонга факат бир ёклама ёндашди Гелен уз гаълимотини эмпиризмга асосланган таълимот, деб атайди уз таткикотларидан умумий фан, назариясига оид хулосалар чикармайди, У купгина ходисаларни урганади, муносабатларни очиб беришга харакат килади.

Ахлокий таълимотида Гелен куйидаги тамойилдан келиб чикади: «инсонда бир-бири билан богланмаган, фарк киладиган инстинктга ухшаш импульслар бор улар ижтимоий узини тутиш пружинасига ухшайди. Ана шулар ижтимоий бошкаришнинг ва этиканинг эмпирик предметини ташкил килади. Ижтимоий хулк-атвор йуналишини тувма импульс сифатида берилган йирткичлик, боскинчилик инстинкти аниклайди. Боскинчилик энергияси турли хулк-атвор шаклларига утгиб кетади.

Турли шаклдаги хулк-атворнинг илдиз отганлиги хамда унга монанд урф-одатларнинг ва ижтимоий тузилмаларнинг инсон борлигидаги инстинктив холати инсонга тувма холда бошкаларнинг манфаатини уйлаб харакат килиш учун берилгандир, дейди Гелен. Узаро муносабат, Гелен фикрича, катта ахамиятга эгадир. Шунингдек, бундай муносабат инсон фаолиятининг асосий табиатини ташкил килади. Ахлокий ва хукукий нормаларни инстинктив-хаётий келиб чикканлиги хамда инсон хулк-атворини бошкариш, Гелен фикрича, «табиий хукук» билан асосланади ва хулк-атворнинг «тугма», «табиий» шаклларига бориб такалади. Тузилган шартноманинг коидаларга амал килиш, узгани узи билан тенг куриш, хукук олдидаги барчанинг тенглиги каби тарихий шаклланган «табиий хукуклар» Гелен томонидан инсоний муносабатлардаги тугма инстинктив одатларнинг идеал тарзда намоён булишидир. Ана шундай

мажбурият инсондаги инстинктив номукаммалликни тулдиради. Ижтимоий муносабатларнинг бошка шакллари хам шундай тарзда тушунтирилади. Демак, бундай узаро муносабат тамойилларига амал килиш инсон муносабатлари тизимининг мутаносиблигини, тенг хукук игини бир мезонда ушлаб туради. Жиноят хукукининг тасдикланиши, келтирилган зарарни коплаш, узаро махсулот алмашиш шартлари, касос олиш одати, никох ва оила муносабатлари, диний одатлар, удумлар. байрамлар буларнинг хаммаси, Гелен фикрича, узаро муносабат инстинктларининг институтлашган куринишларидир.

Гелен маданий-тарихий хаётнинг муассасавий шаклини хам инсон хаётий фаолиятининг антропобиологик асоси билан боглайди. У маданий тарихий асослашда оила, хусусий мулк, бошкарув, харбий иш муассасаларининг таъсирини инкор килмайди. Бу муассасалар, унинг фикрича, «ишлаб чикарувчи корхоналар» ролини уйнайди. Улар инсон хаётида зарур вазифаларни бажаради, уларсиз инсон хаёт кечира олмайди, яъни бу муассасалар купайиш. бокиш, хавф-хатардан химоя килиш хамда тартибга солиш, инсонлар уртасидаги узок муддатли муносабатларни таъминлаш каби вазифаларни бажаради. Демак, бундай тузилмалар инсонларнинг хаётини бир маромда мухофаза килиб туради, инсон табиатига хос булган чалаликни, химоясизликни бартараф этади.

Шундай килиб, Гелен фалсафий антропологиясида инсониятнинг маданий, маънавий-ахлокий имкониятлари тан олинмайди. Инсон уз харакатида факат хаётий инстинктларга амал килган холда яшайди. Умуман, инсон факат биологик мавжудотдир, деб Гелен бир томонлама талкин килди. Унинг рухий имкониятлари, иродаси, калби каби хилкатлари ахамиятини етарли даражада бахоламай, инстинкт табиатига буйсундириб куя колди.

**REFERENCES**

1. Гелен А. О систематике антропологии // Проблема человека в Западной философии -М.Прогресс, 1988
2. Г.Т.Кобулниязова Фалсафий антропология Дарслик. -Т.: Маърифат 2023
3. Юлдашева Л.С, & Каландаров Т. П. (2023). Цивилизация И Культура. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 19,* 17–19. Retrieved from https://periodica.org/index.php/journal/article/view/574
4. Учения Абдухолика Гиждувани о совершенстве человека: философский анализ. *Журнал фармацевтических отрицательных результатов* , декабрь 2022 г., стр. 8626-8, https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S09.1013 .

5. Yuldasheva, Lola Sadullaevna. "SPIRIT AS A NATURAL FORCE IN BERUNI'S VIEWS" Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 4, no. 4, 2024, pp. 199-203.

# HARBIY XIZMATCHI KASBIY MAHORATINI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING O‘RNI

**Muinov Alisher Musinovich**
Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi, dotsent

## ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada harbiy xizmatchi kasbiy mahoratini mustahkamlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni, harbiy professianalizm nima, professional harbiy xizmatchilarni tarbiyalashda buyuk avlodlarimizning o‘g‘itlari haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *professional tayyorgarlik, profesional malaka, mahorat, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, harbiy islohatlar.*

## АННОТАЦИЯ

*В данной сатье излагаются роль национальных и общечеловеческих ценностей в укреплении профессионального мастерства у военнослужащих, а также что такое профессионализм, наследие великих предков по воспитанию профессиональных военнослужащих.*

***Ключевые слова:*** *профессиональная подготовка, профессиональные навыки, умения, национальные ценности, общечеловеческие ценности, военные реформы.*

## ABSTRACT

*This chapter describes the role of national and universal values in strengthening the professional skills of military personnel, as well as what professionalism is, the legacy of great ancestors in educating professional military personnel.*

***Keywords:*** *professional training, professional skills, abilities, national values, universal values, military reforms.*

## KIRISH

Hozirgi vaqtda dunyoning turli mintaqalarida millatlararo va dinlararo keskinlik kuchayib bormoqda, shovinizm, millatchilik, diniy ziddiyatlar bosh ko‘tarmoqda. Bu illatlar davlatni yemirib, jamiyatni parchalab, radikal guruh va oqimlar uchun mafkura bazasiga aylanmoqda.

Ana shunday murakkab vaziyatda mamlakatimizda turli millat va dinga mansub insonlar o‘rtasida do‘stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun borgan

sari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hech shubhasiz, bu bizning zaminimizda tinchlik va osoyishtalikning muhim kafolati, xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini, uning ertangi kunga bo‘lgan ishonchini oshirishning asosi bo‘lib xizmt qiladi.

Yanada ogoh va sergak bo‘lish, eng asosiy boyligimiz bo‘lgan va bi haqli ravishda faxrlanadigan ko‘pmillatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko‘z qorachig‘idek asrash hamda yanada mustahkamlash O‘zbekistonni o‘z Vatani deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir [1].

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Bugungi kunda bizning harbiy xizmatchilarimiz o‘zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo‘yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so‘zde emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o‘quv musobaqalarda, armiyalar o‘rtasidagi va sport bellashuvlarida O‘zbekiston vakillari o‘zlarini mahorati, ruhan baqquvatligi, g‘alabaga bo‘lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko‘rsatmoqda. Hech shubhasiz, bularning barchasi butun O‘zbeksiton xalqida, ayniqsa, yoshlarimizda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg‘usini, Vatan himoyachisidek sharafli kasbga hurmat-ehtirom hissini uyg‘otmoqda.

Mutaxassislar fikricha, professional malaka har bir kadrning xizmat vazifalarini bajarish imkoniyatini ta’minlovchi malakaviy bilimdonlik, kasbiy tashabbuskorlik va mahoratni o‘zida mujassamlashtirgan integrativ qobiliyatdir.

Shunday ekan harbiy professionalizm Qurolli Kuchlar shaxsiy tarkibini yuqori tayyorgarlikka ega bo‘lgan kadrlar bilan ta’minlashdir. Professional tayyorgarlikdan o‘tgan harbiy kadrlar haqiqiy harbiy xizmatda yoki zahirada turishlari mumkin. Jangovar holatlar yuzaga kelgan paytlarda safarbarlik e’lon qilish, qo‘shinlarni tuzish, Qurolli Kuchlar jangovar shayligini ta’minlash va ularga yuklatilgan vazifalarni bajarishda haqiqiy harbiy xizmatda bo‘lgan professional harbiy kadrlar faoliyati alohida ahamiyatga ega.

Harbiy kadrlarning jangda g‘alabaga erishish uchun qurol-yarog‘ va harbiy texnikadan samarali foydalanishi, dushmandan ustun kelishi jangovar mahoratni baholashning muhim mezonidir.

Mutaxassisda professionalizm ko‘rinishlari zamonaviy texnikani boshqarish, foydalanish kabi bilim, mohirlik va ko‘nikma mavjudligi bilan izohlanadi. Professionalizm maxsus fanlar uslubiyatlaridan foydalanib murakkab vazifa va muammolarni yechishda, ular mazmunini tasvirlashda namoyon bo‘ladi.

Professional harbiy faoliyat, shaxsiy-ijodiy jarayon sifatida, kasbiy mahorat esa, ijodiy xarakterga ega, ijtimoiy-siyosiy natijaga erishish uchun yo‘naltirilga nfaoliyatning samarali darajasidir.

Kasb sohalarida professional mahoratni tahlil qilishda maxsus bilim, mahorat, ko‘nikma, qobiliyat va shaxsning kasbiy sifatlari tizimiga e’tibor berish lozim.

Muhim kasbiy bilimlarni, mohirlik va ko‘nikmalarni egallamay, hechq achon professionalizm shakllanmaydi [2].

Mahorat tushunchasi alohida mohirlikka tegishli emas. U turli darajadagi faoliyatlarni mujassamlashtiruvchi mohirlik majmuasiga tegishli. Mahoratning yuksak ko‘rinishi harbiy san’at va kasbga ijodiy yondashuv hisoblanadi.

Professionalizm murakkab muammolarni yechish usullaridan tashqari, natijalarini tahlil etish, sabablarni tashxis qilish, faoliyatni takomillashtirish kabi usullarda kasbning mutaxassis shaxsi va imkoniyatiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

Shaxsning kasbiy ta’lim olish jarayonida professionalizmga asos solinadi. Yurtning osoyishtaligini saqlash professional harbiy kadrlarning muqaddas burchidir. Har bir millatning g‘ururi, milliy his-tuyg‘ulari o‘z elining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Biroq, mustabid tuzum davrida O‘zbekiston Respublikasida milliy kadrlar tayyorlashdek muhim ijtimoiy-siyosiy muammo hal etilmadi. Natijada milliy kadrlar salmog‘i kamayib ketdi. Markaz buyrug‘ini so‘zsiz bajarishga majbur bo‘lgan ko‘pgina yuqori lavozimdagi rahbarlar o‘n yillard avomida mahalliy yoshlar orasidan milliy kadrlar tayyorlash bilan astoydil shug‘ullana olmadilar. Natijada, mahalliy millat vakillarini lavozimlarga jalb qilmay millat g‘ururi va qadriyatini kamsitadigan yo‘ldan borib, boshqa respublikalardan tayyor harbiy kadrlarni yollash yo‘lini tutdilar. Mahalliy kadrlardan ko‘ra, ko‘proq markaziy idoralar rahbarlari bu ishga jadallik bilan kirishib, o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun astoydil harakat qildilar [3].

Bu jarayon harbiy sohada ham o‘z asosini topmay qolmadi. Milliy manfaatlar yuzasidan fikrlaydigan fuqarolarning soni keskin kamayib ketdi. Ma’lumki, har bir inson millat dardi, uning istiqboli, Vatan ozodligi va obodligi haqida qayg‘urishi uchun, avvalo, u milliy manfaatlarni o‘zida ifoda etgan milliy g‘oya bilan qurollangan va shuningdek, ma’naviy dunyoqarashi keng bo‘lishi kerak. Boshqa respublikalardan chaqirilgan tayyor harbiy kadrlarning mudofaa sohasida olib borgan faoliyati bir tomonlama xususiyatga ega edi. Ular markaz tomonidan berilgan ko‘rsatmalar asosida ish ko‘rib, bizning respublikamizda ham kommunistik g‘oya asosida jamiyatni yalpi o‘zgartirmoqchi, hamma fuqarolarni yoppasiga “tuzatmoqchi”, buning uchun insoniyat asrlar maboynida yaratgan tuzumni birdaniga yo‘q qilib tashlab, o‘rniga yangi, “orzudagidek” tuzumni yaratmoqchi bo‘ldi. Ushbu harakatda –inson omili hisobga olinmadi. Harbiy xizmatchilarimizning ongiga ko‘r-ko‘rona soxta va sarobga o‘xshash asossiz kommunistik mafkura g‘oyalarini singdirish uchun urinish odat tusiga kirdi. Kommunistik mafkura davlat mafkurasi

darajasiga ko‘tarildi, undagi g‘oyalar umuminsoniy tushuncha va aqidalardan mutlaqo yiroq bo‘lib, ma’lum bir guruh manfaatlariga xizmat qildi. Uning kelajagi bo‘lmaganligi bois, qattiq bosim va zo‘ravonlik bilan xalq ongiga singdirishga urinildi.

Mamlakatimiz milliy g‘oyasi sobiq tuzum g‘oyalaridan tubdan farq qilib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ulug‘lanadi. Inson omiliga eng oliy qadriyat sifatida qaraladi. Unda shaxsni tarbiyalash, komillikka yetkazish uchun buyuk allomalarimizning boy ma’naviy merosi, jumladan Naqshbandiya tariqatidan foydalanish tavsiya etilgan. Naqshbandiya tariqatida odillik va komillikka erishish g‘oyasi mustabid tuzum “odilligidan” tubdan farq qiladi. Naqshbandiya g‘oyalari jamiyatni yalpi o‘zgartirishga emas, shaxsni yakka tartibda tarbiyalashga, har kimning o‘zini-o‘zi kamolg ayetkazish uchun intilishga qaratilgan. Fuqarolar ongida insof, adolatli jamiyat kabi tushunchalarning qaror topishida va ularni rivojlanishida Naqshbandiya g‘oyasining tutgan o‘rni beqiyosdir.

Ingliz tasavvufshunosi J.S.Trimingem ta’kidlaganidek, tasavvuf, jumladan, Naqshbandiya falsafasi bundan buyon ham insoniyatning ma’naviy barkamolligi uchun muhim hayotiy ta’limot bo‘lib qolaveradi [4].

Buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning ma’rifatli jamiyat to‘g‘rsisda g‘oyalari, orzu-umid va armonlari ko‘pchiligimizga yaxshi tanish. Bu borada Abu nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini eslash kifoya.

Avlodlarimizning ana shunday asriy intilishlarini ro‘yobga chiqarish uchun ta’lim va ma’rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni zamonaviy bilim olishga yo‘naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash zarurligini yaxshi anglaymiz.

Shu munosabat bilan harbiy xizmatchilarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Va bunda mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, umuminsoniy madaniyat markazlaridan biri bo‘lib kelganini aks ettiradigan ilmiy-tarixiy va ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarni samarali amalga oshirish lozim.

Yana bir misol, Bahovuddin Naqshband ta’limotining ahamiyatini faqat uning tarixdagi o‘rni bilangina cheklash to‘g‘ri emas. Eng muhimi, bu tariqat g‘oyalari bugungi kun harbiy kadrlarining kamoloti va kelajak avlod ma’naviy saviyasini yuksaltirishda bebaho manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Ma’lumki, jamiyatning taraqqiy etib borishi bilan bir vaqtda shaxs tarbiyasi uchun zarur bo‘lgan g‘oyalarning mazmun-mohiyati shu jamiyatning kelajakdagi orzu-intilishlari va maqsadlarigaqarab o‘zgarib boraveradi. Ammo ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlar, sirtdan har qancha o‘zgarmasin uning asl mohiyati saqlani bqolaveradi.

Inson bilimi qanchalik mukammallashib borgani sari uning ezgulik haqidagi o‘y-fikrlari, bunyodkorlik borasidagi orzu havaslari ortib boraveradi. O‘z mehnati natijasidan ruhlanish, har bir insonnin gqalb go‘zalligiga erishishi, ko‘ngil xotirjamligini hisqilish, o‘tgan har bir kunga shukrona qilishi, o‘zini-o‘z boshqarish va tarbiyalab borish, ma’rifat dunyosini zabt etish, kamolot cho‘qqilarini egallash Naqshbandiya g‘oyalarinin gasosini tashkil etdi. Mazkur ta’limot milliy g‘oyamizning asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, professional harbiy kadrlarning ma’naviy dunyoqarashini yanada mustahkamlaydi.

Albatta, hayot bor ekan, uning o‘tkir talablari, muammolari bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘ladi. Lekin har qanday muammoni oqilona hal qilish uchun, avvalo ilm va ma’rifat zarur. Barchamizga, ayniqsa, rahbar, shu jumladan, harbiy rahbar va yetakchilarga chuqur bilim, aql-zakovat, sabr-toqat kerak.

Marifatli jamiyatni barpo etishning dolzarb masalalariga hozirjavob bo‘lish, bu boradagi ishlarda mas’uliyatni doim chuqur his qilib yashash bugungi davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Bizning eng asosiy yutug‘imiz – ko‘p millatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga beparvo bo‘lmasdan, aksincha, jaxldor tuyg‘usi bilan yashayotganidir.

Eng muhimi, odamlarimizning hayot darajasi, Vatan taqdiriga mas’uliyat hissi, ertanngi kunga ishonchi tobora ortmoqda. Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, ochiqlik va erkinlik muhiti qaror topmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu-tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Qurolli Kuchlarimiz jamiyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgani sababli yuqarida qayd etgan jamiyatdagi islohatlar va o‘zgarishlar harbiy xizmatchilarimizning ongu-tafakkuriga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida professional harbiy kadrlarni tayyorlash konsepsiyasi jahondagi ilg‘or tajribalarga mos holda amalga oshirilmoqda. Mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o‘tkazilayotgan harbiy islohotlarda professional harbiy kadrlarning shaxsiga xos xususiyatlari quyidagi kabilardan iborat bo‘lishi kerak:

tashabbuskorlik va topqirlik;

konstitutsiyaviy burch va Vatanga qasamyodiga sodiqlik;

harbiy xizmatda o‘zini tuta bilish va o‘zini-o‘zi nazorat qilish;

boshqarishning yuqori darajasi;

tashkilotchilik qobiliyatlari;

bo‘ysunuvchilarning hatti-harakatlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga ola bilish;

xizmatdoshlar faoliyatini to‘g‘ri baholay olish, ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash;

favqulodda vaziyatlar sharoitida xizmat qobiliyatini saqlay olish;

o‘z burchini ado etishda dadillik va qat’iylik.

Xullas Qurolli Kuchlarda professional harbiy kadrlarni tayyorlash muhim ijtimoiy vazifagina bo‘lib qolmay, balki juda zarur siyosiy masalahamdir. Shunday qilib professional harbiy kadrlarni tayyorlash milliy, ma’naviy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash va uning samarali vositalarini yaratish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

**REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi – Toshkent, “O‘zbekiston” nshriyoti, 2021.
2. Деркач А.А. Формировние и развитие профессионального мастерство руководящих кадров. – Москва, издательство “Луч”, 1993.
3. Bobojonova D. O‘zbekistonda milliy ishchi kadrlar tayyorlash tajribasidan // O‘zbekistonda ijtimoliy fanlar. – Toshkent, 1997. № 3-4.
4. Olim Sultonmurod. Naqshband va Navoiy. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
5. Eshnayev N.J. Harbiy xizmatchilarda kasbiy professionalizmni mustahkamlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning psixologik ahamiyati. – Chirchiq DPU, 2020.

# SUDDA YERGA OID HUQUQIY MUNOSABATLARDAN KELIB CHIQADIGAN ISHLARNI KO‘RISH BORASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

**Qarshiboyev Jasurbek Komiljon o‘g‘li**
Toshkent davlat yuridik universiteti, Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish usullari mutaxassisligi magistranti
e-mail: jasurbekqarshiboyev54@gmail.com

## ANNOTATSIYA

*Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko‘rishni huquqiy jihatdan takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, ushbu turdagi ishlarni sudda ko‘rish masalasi va boshqa ish ko‘rish turlaridan farqli hamda o‘ziga xos jihatlari batafsil yoritilgan. Maqolada yer nizolarining murakkabligi, ushbu nizolar sonining o‘sishi tendensiyasi kuzatilayotganligi, yer nizolarining ko‘p hollarda davlat ijro hokimiyati idoralari qarorlari bilan bog‘liqligi va yerning tabiiy va xo‘jalik-ishlab chiqarish obyekti sifatidagi ahamiyati ushbu nizolarni ko‘rib chiqishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishni taqozo etishi tahlil qilindi. Sudlar tomonidan yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko‘rishni takomillashtirish uchun, eng avvalo, yer bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar asrlar davomida yaxshi rivojlangan mamlakatlarning huquqiy tajribasini o‘rganish hamda yurtimizda ham ushbu huquqiy mexanizmlarni joriy etish samarali natija berishi huquqiy jihatdan asoslantirildi. Rivojlangan mamlakatlarda yerga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solishda aksariyat hollarda ixtisoslashtirilgan yer sudlarining faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilgan. Shu sababli maqolada fuqarolik sudlari negizida ixtisoslashtirilgan yer sudlarini tashkil etishning ijobiy va salbiy taraflari haqida bahs yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *yer nizolari, sudlarni ixtisoslashtirish, yer sudlari, nizolarni ko‘rib chiqish, ijara huquqi, yer uchastkalari.*

# ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ПО РАССМОТРЕНИЮ ЗЕМЕЛЬНЫХ ПРАВОВЫХ ВОПРОСОВ В СУДЕ

## АННОТАЦИЯ

*Данная статья направлена на правовое совершенствование рассмотрения земельных правовых отношений в Республике Узбекистан. В статье детально анализируются особенности земельных споров в суде и их отличия от других видов дел. Рассматривается сложность земельных споров, наблюдаемая*

*тенденция к увеличению их числа, а также частая связь этих споров с решениями, принимаемыми государственными исполнительными органами. Также подчеркивается важность земли как природного и экономического ресурса, что требует изучения опыта иностранных стран в разрешении подобных споров.*

*Для улучшения рассмотрения земельных правовых вопросов в статье акцентируется внимание на необходимости изучения правовых практик стран, где земельные отношения развивались веками, и на том, как внедрение аналогичных правовых механизмов может дать эффективные результаты в Узбекистане. Во многих развитых странах специализированные земельные суды показали свою эффективность в регулировании земельных правовых отношений. На основе этого опыта статья обсуждает положительные и отрицательные стороны создания специализированных земельных судов в рамках гражданских судов.*

***Ключевые слова:*** *земельные споры, специализация судов, земельные суды, разрешение споров, права аренды, земельные участки.*

## PROSPECTS FOR IMPROVING LEGISLATION ON ADJUDICATING LAND-RELATED LEGAL MATTERS IN COURT

### ABSTRACT

*This article is aimed at legally improving the adjudication of land-related legal relations in the Republic of Uzbekistan. It provides a detailed analysis of the specificities of land disputes in court and how these differ from other types of cases. The article explores the complexity of land disputes, the observed trend of increasing numbers of such disputes, and the frequent connection of these disputes to decisions made by state executive authorities. It also highlights the importance of land as both a natural and economic asset, which necessitates studying the experiences of foreign countries in resolving such disputes.*

*In order to improve the adjudication of land-related legal matters, the article emphasizes the need to study the legal practices of countries where land-related legal relations have been well developed over centuries, and how adopting similar legal mechanisms could yield effective results in Uzbekistan. In many developed countries, specialized land courts have proven to be an effective way of regulating land-related legal relations. Based on this experience, the article discusses the pros and cons of establishing specialized land courts within the framework of civil courts.*

***Keywords:*** *land disputes, specialization of courts, land courts, dispute resolution, lease rights, land plots.*

## KIRISH

Hozirgi vaqtda jamiyatdagi tub ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar munosabati bilan yer fuqarolik muomalasining ekvivalent obyekti sifatida harakat qila boshladi. U asosiy ishlab chiqarish vositasi bo‘lib, katta iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanmoqda. Buning isboti sifatida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 68-moddasi “Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta’minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi mumkin” kabi norma bilan to‘ldirilganligini aytishimiz mumkin.

Qolaversa, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, yerga oid nizolar yer munosabatlarini tartibga solishning muhim majmuasini, shuningdek, yer uchastkasining alohida huquqiy tabiati va qiymatini hisobga olgan holda sud ishlarining eng murakkab toifalaridan biridir. Yer bilan bog‘liq nizolar moddiy dunyo obyekti sifatida ikki tomonlama xususiyatga ega bo‘lgan yer: ba’zi jihatlarda u tabiiy resurs, tabiatning ajralmas qismi, boshqa tarafdan fuqarolik huquqidagi ba’zi istisnolardan tashqari fuqarolik muomalasining, mulk huquqi yoki boshqa mulkiy huquqlarning obyekti sifatida sifatida ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, har qanday yer nizolari bilan bog‘liq holatda ham tegishli subyektlar huquqlarining sud tartibida himoya qilinishi ta’minlanadi. Yer uchastkasi egasi va foydalanuvchilarining huquqlarini himoya qilish darajasi bir xil bo‘lib, bu fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi konstitutsiyaviy prinsipidan kelib chiqadi. Ayni damda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning yerga bo‘lgan huquqlarini kafolatlaydi, mulkni olib qo‘yish faqat sud orqali bo‘lishi mumkinligini belgilaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yer-huquqiy munosabatlarning murakkablashishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida mustahkamlangan yerning alohida ijtimoiy ahamiyatining ortishi, yer bilan bog‘liq nizolar sonining keskin ko‘payishi natijasida fuqarolarning yer bilan bog‘liq huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning alohida protsessual xususiyatlariga ega sud shaklini o‘rnatish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Bularning barchasi yurtimizda yer nizolarini hal qilish muammolariga yuridik fanning muayyan e’tiborini keltirib chiqaradi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan yer nizolarini ko‘rib chiqishning protsessual xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish, qonunchilikni, birinchi navbatda, sudlarning qonuniyligi va adolatliligini oshirish maqsadida yer bilan bog‘liq nizolarni samarali hal etishga qaratilgan huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish istiqbollarini ilmiy jihatdan tadqiq etildi.

Buning uchun ilmiy bilishning tahliliy, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy va formal yuridik o‘rganish usullaridan foydalanildi.

**NATIJALAR**

Qonunchilikda belgilangan yer nizolarini ko‘rib chiqish tartibi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bunda yer uchastkasiga egalik qilish va foydalanish chegaralari to‘g‘risidagi masalani yerga nisbatan huquqlarni belgilashdan ajratib ko‘rib chiqib bo‘lmaydi. Shuningdek, yer uchastkasiga va unda joylashgan ko‘chmas mulkka nisbatan huquqni belgilash bilan bog‘liq nizolarni ham alohida ajratib bo‘lmaydi. Nafaqat yer va undagi o‘simliklar, balki ushbu yer uchastkasida joylashgan inshoot va qurilmalarga ham taalluqli bo‘lgan nizolarda negator da’vo yer bilan bog‘liq xususiyat kasb etadi. Shu bois ham bunda maxsus protsessual qoidalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiqligi batafsil tahlil etildi.

Yer nizolarini sud tartibida hal qilish tendensiyasining kengayishi Oliy sud Plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi 17-sonli “Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 20-noyabrdagi 28-sonli “Sudlarda yerga oid nizolarni ko‘rishda qonunchilik hujjatlari normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarorlarining tahririy o‘zgarishlar bilan qabul qilinishiga olib keldi.

Ta’kidlash lozimki, yer nizolarining murakkabligi, ushbu nizolar sonining o‘sishi tendensiyasi kuzatilayotganligi, yer nizolarining ko‘p hollarda davlat ijro hokimiyati idoralari qarorlari bilan bog‘liqligi va yerning tabiiy va xo‘jalik-ishlab chiqarish obyekti sifatidagi ahamiyati ushbu nizolarni ko‘rib chiqishda xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganishni taqozo etadi. Sudlar tomonidan yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko‘rishni takomillashtirish uchun, eng avvalo, yer bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar asrlar davomida yaxshi rivojlangan mamlakatlarning huquqiy tajribasini o‘rganish hamda yurtimizda ham ushbu huquqiy mexanizmlarni joriy etish samarali natija beradi. Rivojlangan mamlakatlarda yerga oid huquqiy munosabatlarni tartibga solishda aksariyat hollarda ixtisoslashtirilgan yer sudlarining faoliyati samarali yo‘lga qo‘yilgan.

Olib borilgan tadqiqot loyihasi natijasida yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni da’vo tartibida sudda ko‘rish yuzasidan to‘plangan ilmiy xulosalar, ko‘rsatilgan amaliy taklif va tavsiyalar kelgusida qonunchilik tizimini takomillashtirishda, milliy protsessual qonunchilik tizimiga yangi norma kiritish, mazkur nizolarni sudda ko‘rish bo‘yicha Oliy Sud Plenumi qarorlarini takomillashtirishda, shuningdek yangi tadqiqotlarni amalga oshirish orqali fuqarolarning yer bilan bog‘liq holda buzilgan huquq va manfaatlarini sud orqali tiklash bilan birga sudda yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan

ishlarni ko‘rishni takomillashtirish istiqbollari hamda samarali huquqiy mexanizmni yaratishda foydalanish mumkin.

**MUHOKAMA**

Fuqarolarning toza va sog‘lom atrof muhitga bo‘lgan huquqi dunyo davlatlari konstitutsiyasining uchdan bir qismida kafolatlab qo‘yilgan bo‘lib, hozirda ushbu huquqlarni samarali ta’minlash maqsadida 50 dan ortiq mamlakatlarda 350 dan ortiq ixtisoslashgan ekologik va yer sudlari hamda tribunallar tashkil etilgan. Jumladan, Braziliyada alohida ekologik sudlar, Buyuk Britaniyada yer masalalari bo‘yicha maxsus sudlar, Germaniyada qishloq xo‘jalik yerlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sudlar, XXRda o‘rmon xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi va yerlar bo‘yicha sudlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Angliyada XII asrdayoq “assisa” sudlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, unda nizoli yer masalalari bo‘yicha guvoh sifatida sudga yer uchastkasiga da’vogarlik qilayotgan shaxslarning 12 tadan qo‘shnisi taklif qilingan va ish ular ishtirokida hal qilingan. [1] Hozirda Buyuk Britaniyada yer uchastkasini majburiy olib qo‘yish, majburiy olingan yer uchastkasi uchun kompensatsiya to‘lash masalalarini hamda hukumat va boshqa organlarning yer uchastkasi bilan bog‘liq qarorlari ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiquvchi yer tribunallari tashkil etilgan.

Chunonchi, birinchilardan bo‘lib yaratilgan va hozirgi kungacha faoliyat yuritayotgan yer sudlari orasida Massachusets yer sudlari alohida ahamiyatga ega. Ushbu tuzilmaning faoliyati Torrens tizimini (yerni ro‘yxatga olish tizimi) joriy etish bilan bog‘liq holda boshlangan. Qolaversa, uning predmetining yurisdiksiyasi ko‘chmas mulk bilan bog‘liq nizolar bilan cheklangan. Shu bilan birga, yer sudlarining ayrim turlari ma’muriy yer nazorati organlariga aylantirilgan yoki o‘z faoliyatini to‘xtatganini ta’kidlash lozim. Shunday qilib, AQShda 1779-1780 yillarda birinchi “Kentukki Land sudi” faoliyat ko‘rsatdi [2]; Avstraliyada Yangi Janubiy Uelsning yer va atrof-muhit sudi 1980-yildan beri faoliyat yuritadi [3]; 1891-1904 yillarda Ispaniya va Meksikada ham xususiy yerga da’volar bo‘yicha sud ishlagan [4]; 1865-yildan 1964-yilgacha Yangi Zelandiyada ham yer sudi mavjud edi. [5]

Bugungi kunda anglo-sakson huquq tizimida yer uchastkalari egalari va ijarachilari o‘rtasidagi xo‘jalik faoliyati doirasida ular o‘rtasidagi, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, yer uchastkalarini berish bo‘yicha munitsipalitet va hokimiyat organlari o‘rtasidagi nizolarni hal qiluvchi 20 ga yaqin yer yurisdiksiya tuzilmalari mavjud. Ushbu ixtisoslashtirilgan sudlar yer uchastkalarining chegaralarini tasdiqlash, ularda xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish, qo‘shni yer uchastkalari chegaralarini muvofiqlashtirish,

shuningdek, sud tizimi uchun ro‘yxatga olish, yer uchastkalarining kadastrlarini yuritish, yer tuzish bo‘yicha turli ko‘rsatmalar berish va boshqa yer bilan bog‘liq masalalarga oid ishlarni hal qiladi.

Romano-german huquqiy oilasi davlatlarida yerni ro‘yxatga olish bo‘yicha Daniya sudi va yerni ijaraga berish bo‘yicha fransuz tribunallari yer nizolarini ko‘rib chiqadigan ixtisoslashgan sud organlari sifatida ajralib turishi mumkin.

Daniya yerni ro‘yxatga olish sudi yer nizolarini ko‘rib chiqadigan sud organi bo‘lishi bilan birga yer uchastkalarini davlat ro‘yxatiga olish organi hisoblanib, ushbu sud qarorlari ustidan Daniya Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin.[6] Sudning o‘zi 2007 yilda sud-huquq islohotlari natijasida Xabro shahridagi 25-tuman sudi sifatida tashkil etilgan. Sud xodimlari esa 110 kishidan iborat. Sudning vakolatiga barcha yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, jumladan, yer uchastkasi bo‘yicha davlat hujjatlarini chiqarish, ko‘chmas mulkka ipoteka va avtomashinalar, boshqa muhim ko‘char mulkka ssuda shartnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish va boshqa masalalarni hal qilish kiradi. Daniyadagi ushbu ixtisoslashtirilgan yer sudi 2011-yildan beri sud ishlarini yuritishning elektron shakliga o‘tdi. [7]

Fransiyada yer ijarasi bo‘yicha tribunal sudlar fermerlar faoliyati va yer munosabatlari bilan bog‘liq ishlarni ko‘rib chiqadi. Ularning faoliyati Fransiya qishloq xo‘jaligi va dengiz baliqchilik kodeksining 9-bandi bilan tartibga solinadi. Darhaqiqat, ushbu sudlar yer egalari va ijarachilar o‘rtasidagi yer ijarasi bilan bog‘liq barcha nizolarni, jumladan, ijara haqi miqdori, yerni ijaraga berish shartnomalarining amal qilish muddati to‘g‘risidagi nizolarni hal etish uchun mutlaq yurisdiksiyaga ega. [8] Hozirgi vaqtda har bir yerni ijaraga berish bo‘yicha sud tarkibi sud majlislarida raislik qiluvchi magistrat (departament vakili) va 5 yilga muddatga tayinlanadigan, 26 yoshdan oshgan Fransiya fuqarolari bo‘lgan to‘rtta operator (xalq maslahatchisi), ulardan ikkitasi yer egasi (yer ijarachisi) va ikkitasi operatorlar (ijarachilar) bo‘lgan maxsus xodimlardan iborat. [9]

Anglo-sakson huquqiy oilasi mamlakatlari uchun yerga oid nizolarni ko‘rish uchun sudlarning, asosan, kvazi-sud organlari shaklida tashkil etilishi ham ularning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Chunonchi, Shotlandiya yer sudi 1912-yilda kichik ijarachi fermerlarning huquqlarini himoya qilish uchun tuzilgan. Uning tarkibiga rais, rais o‘rinbosari va malakali huquqshunos bo‘lmagan, balki qishloq xo‘jaligida ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan uch nafar amaliyotchi a’zo kiradi. Ish yuritish jarayonini malakali advokat bo‘lgan bosh kotib nazorat qiladi va sudyalar bilan ishlarni ko‘rishda yaqindan hamkorlik qiladi hamda ularga huquqiy va protsessual masalalar bo‘yicha maslahatlar beradi. 2007-yildan beri ishlarni ko‘rib chiqish hayatning ikki yoki uchta a’zosi - rais

yoki uning o‘rinbosari hamda bir yoki ikkita amaldagi sudya ishtirokida o‘tkazilishi mumkin. [10] Sudning vakolatiga korxonani fermer xo‘jaligiga kiritish imkoniyatini aniqlash, yer uchastkalarining chegaralarini belgilash, yer uchastkasi uchun adolatli ijara haqini belgilash, lizing beruvchiga yer yoki yaylovni oqilona maqsadlarda yangilash (ya’ni, rekultivatsiya qilish) uchun ruxsat berish, servitutlarni o‘rnatish, dehqonga o‘z xo‘jaligiga mulkdordan meros huquqini olishiga ruxsat berish, Crofting (yer) komissiyasining qarorlari ustidan shikoyatni ko‘rib chiqish kabi masalalar kiradi. [11] Shimoliy Irlandiya yer tribunali[12] va Uels qishloq xo‘jaligi yerlari tribunali[13] yurisdiksiyasi ham xuddi shunday tarzdagi masalalarni hal qilish bilan shug‘ullanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, tarixan Irlandiya va Shotlandiya yer sudlarining yurisdiksiyasi juda o‘xshashdir, uni yaratishdan maqsad ham kichik yer egalarining ijarasini nazorat qilish edi. Xuddi shu narsa Men orolidagi yerdan foydalanish sohasidagi sud tizimining maxsus organi - Manks yer sudi uchun ham amal qiladi, u ijaraga beruvchi va qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga oluvchi o‘rtasidagi yerdan foydalanishning har qanday jihati bo‘yicha, jumladan, ijara miqdori, yerning hosildorlik holatini yaxshilash, yerning hosoldorlik darajasini pasaytirganlik uchun kompensatsiya va boshqa masalalar yuzasidan arbitraj nizolarini ko‘rib chiqadi. Biroq, ikkinchisining o‘ziga xosligi shundaki, sudyalar tarkibi qishloq xo‘jaligi amaliyoti sohasida chuqur bilimga ega bo'lgan 12 kishidan iborat bo‘lib, olti nafar sudya mulkdor - lizing beruvchilar, qolgan olti nafari – ijarachilar manfaatlarini himoya qiladi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida hozirgi kunga qadar yerga oid nizolarni ko‘rish bo‘yicha sudlar faqat Massachusets va Gavayi shtatlarida ishlaydi, lekin ilgari bu kvazi-sud organlari ko‘plab boshqa shtatlarda va hatto alohida okruglarda ham ishlagan. Shunday qilib, 1898-yilda Torranse tizimi yer uchastkalarini ro‘yxatga olish sudi sifatida joriy etilishi munosabati bilan tashkil etilgan Massachusets yer sudi bugungi kungacha faoliyat ko‘rsatmoqda. Sud yerga bo‘lgan mulk huquqini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida qaror chiqarishdan avval faqat kadastr muhandisi yer mulki to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qidirib topib, sud muhokamasi davomida manfaatdor shaxslarning huquqiy da’volarini aniqlagandan so‘ng qabul qiladi. Shundan so‘ng, sud yerga egalik huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma shaklida ijro hujjati shaklida mujassamlangan qaror qabul qiladi. Shu bilan birga, sud Massachusets shtati birinchi instansiya sudining yetti bo‘limidan biri sifatida birinchi instansiya sud organi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ro‘yxatga olish hujjatlarini tayyorlash, jumladan, birlamchi hujjatlarni yig‘ish, kadastrni yuritish va huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni berish kabi masalalarda ma’muriy organ funksiyalarini bajaradi. Sudning

yurisdiksiyasiga ro‘yxatga olish funksiyalarini bajarish va soliq talablarini tasdiqlash bilan bir qatorda, ko‘chmas mulk sohasidagi tegishli huquqiy munosabatlar, jumladan, yer uchastkalarini rayonlashtirish, bo‘lish, ulushlarni taqsimlash va yer o‘lchagich muhandislar uchun ko‘rsatmalar berish kabi masalalar kiradi. [14]

Dominikan Respublikasidagi yer nizolari bo‘yicha sud tizimi ikki darajadan iborat: markaziy, shimoliy, shimoli-sharqiy, sharqiy va janubiy yerlarning beshta yuqori yer sudlari, ularda birinchi instansiya sifatidagi 23 ta yer sudlarining qarorlari apellyatsiya tartibida ko‘rib chiqiladi. [15] Dominikan Respublikasi Oliy yer sudlari va birinchi instansiya sudlarining 2007-yil 12-iyuldagi Nizomiga muvofiq, yer sudlarining yurisdiksiyasi nafaqat yer nizolarini ko‘rib chiqish, balki ro‘yxatga olish funksiyalarini amalga oshirish va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq boshqa ba’zi masalalar yuzasidan ma’muriy huquqbuzarliklarni amalga oshirish bilan ham bog‘liq hisoblanadi. Yuqoridagi Nizom yer sudining har qanday qarorining shakli va mazmuniga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi. [16] Sudlarning vakolatiga yer uchastkalariga nisbatan merosxo‘rlarni aniqlash, yer bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatga olish, guvohnomalar berish, merosxo‘rlarni belgilash orqali mulkni ixtiyoriy ravishda bo‘linishini rasmiylashtirish hamda huquqni tasdiqlovchi hujjatlarning dublikatlarini berish[17] bilan bog‘liq masalalar kiradi. Qolaversa, Avstraliyada ixtisoslashtirilgan sudlar Kvinslend va Yangi Janubiy Uels shtatlarida mavjud bo‘lib, ular yerga oid nizolarni ko‘rib chiqadigan sudlarga ega bo‘lgan aksariyat mamlakatlarda bo‘lgani kabi ro‘yxatga olish organlari emas, balki yer va atrof-muhitga oid nizolarni ko‘rish uchun haqiqiy sud organi hisoblanadi. Bu sudlar, odatda, nafaqat yer nizolarini ko‘rib chiqish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish qonunchiligini himoya qilish bilan bog‘liq umumiy yurisdiksiyaga ega, bu ularni bir tomondan Ekologik sudlar deb atashga ham imkon beradi, chunki ular atrof-muhitni muhofaza qilish, rejalashtirish va yer nizolarini hal qilish uchun yagona mexanizm sifatida ishlaydi. Shunday qilib, Kvinslend yer sudi 1884-yilda Yer departamenti sifatida tashkil etilgan, 1898-yilda tayinlangan 3 sudyadan iborat sud organiga aylantirilgan. [18] Ayni paytda ushbu sud tarkibi sud raisi, 3 ta doimiy sudya, 2 ta o‘rindosh bo‘lmagan a’zo va sud registratoridan iborat.[19]

Kvinslend shtatining yer sudi va yer apellyatsiya sudi yurisdiksiyasiga yer majburiy ravishda olingan taqdirda uning qiymatini qoplash, soliq va ijara maqsadlarida yerning kadastr bahosiga shikoyat qilish, suvdan foydalanishga litsenziya berishni rad etish to‘g‘risidagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish, foydali qazilmalarni qazib olish uchun ruxsatnomalar berish va atrof-muhitni muhofaza qilish qonunchiligini buzganlik uchun kompensatsiyalarni belgilash, madaniy meros obyektlari bilan bog‘liq masalalar, shu jumladan ushbu madaniy meros

obyektlarining nizomlarini ishlab chiqish va bunday obyektlarni boshqarish tartiblarini tasdiqlash, yerlarni davlat baholash va soliq to‘lovchilarning yer manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vazirlik qarorlari ustidan shikoyatlar bilan bog‘liq masalalar kiradi. [20] Ya’ni, bu sudlar aslida ma’muriy funksiyalarni emas, balki sudlovni ham bajaradilar. Bundan ham g‘ayrioddiy va yuqori ixtisoslashgani Yangi Zelandiyada faoliyat yurituvchi Maori yerlar sudi bo‘lib, u aslida aborigen yerlarini madaniy meros obyektlari sifatida himoya qiluvchi organ hisoblanadi, ya’ni aslida u nafaqat adolat funksiyalarini, balki atrof-muhit va yer uchastkalarini muhofaza qilish kabi funksiyalarni ham bajaradi. Maori yer sudi 1865-yilda Yangi Zelandiyaning mahalliy yerlar sudi sifatida tashkil etilgan. Sud jamoaga tegishli bo‘lgan an’anaviy Maori yerlarini “Maoridan Maori” yerlariga aylantirish orqali Maori yerlarini sotib olishni osonlashtirish uchun tashkil etilgan. [21] Hozirgi vaqtda 1964-yilda tuzilgan Maori yer sudi Maori yerlarini sotish va ijaraga berish, jamoa yer kooperativlarini tashkil etish hamda Maori yerlarida va qirg‘oq suvlarida baliqchilikni amalga oshirish bo‘yicha yurisdiksiyaga ega hisoblanadi. Apellyatsiya tartibida Maori yer sudi qarorlari ustidan 1993-yilda tashkil etilgan, uch (yoki undan ortiq) Maori yer sudi sudyalaridan iborat Maori apellyatsiya sudiga shikoyat qilinishi mumkin. Maori yer sudi yoki Maori apellyatsiya sudiga Yangi Zelandiya Oliy sudidan qonun bo‘yicha ko‘rsatmalar berishi mumkin. Maori apellyatsiya sudi qarorlari ustidan kassatsiya tartibida Yangi Zelandiya apellyatsiya sudiga va nazorat tartibida Yangi Zelandiya Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin. [22]

Okeaniyadagi kichik davlatlarning yer nizolari bo‘yicha sudlarini 1921-yilda yerga egalik qilish yoki yerga bo‘lgan boshqa huquqlar - ijara, servitut, yaylov bilan bog‘liq barcha masalalarni hal qilish maqsadida tashkil etilgan Tongo Qirolligining Yer sudi misolida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtda yerga oid nizolarni ko‘rish bo‘yicha alohida sud organlari quyidagi davlatlarda faoliyat ko‘rsatmoqda: Daniya Qirolligi, Malta Respublikasi, Finlandiya Respublikasi, Fransiya Respublikasi, Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya va Uelsning yer tribunallari, Tongo Qirolligi, Palau, Yangi Zelandiya, Kribati Respublikasi, Marshall orollari Respublikasi, Papua-Yangi Gvineya Mustaqil Davlati, Dominikan Respublikasi, Avstraliya, shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlarining alohida shtatlarida yer sudlari faoliyat yuritadi.

Bundan tashqari, Xitoy Xalq Respublikasida faoliyat yuritayotgan o‘rmon xo‘jaligi sudlari, qishloq xo‘jaligi sudlari va yer uchastkalari sudlari ham ixtisoslashtirilgan yer sudlarining alohida turiga kiritilishi mumkin.

Shunday qilib, BMT tomonidan tan olingan 195 ta davlatdan faqat 18 tasida yerga oid nizolarni ko‘rish bo'yicha maxsus sudlar mavjud.

Ba’zi manbalarda yurtimizda ham ixtisoslashtirilgan maxsus yer sudlarini tuzish haqida fikrlar ham ko‘zga tashlanadi. Qolaversa, rus olimlari K.S. Levashkin va A.Y. Chikildina ta’kidlashicha, ixtisoslashtirilgan maxsus yer sudlarini yer nizolarini yanada samarali va sifatli ko‘rib chiqishga yordam beradi. [23]

Biroq, bizning fikrimizcha, zamonaviy davrda yer nizolari bo‘yicha ishlarning ko‘p emasligini hisobga olgan holda alohida yurisdiksiyaviy yer sudlarini yaratishning hojati yo‘q. Yerga oid huquqbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlikning paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi bilan bog‘liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish kompleks yondashuv asosida hal etilishi, shuningdek, yerga oid nizolarni hal etish nafaqat mulkiy huquqlar bilan ham o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda, shuningdek, tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyati bilan bog‘liq holda, biz ixtisoslashgan yer sudlarini yaratish bo‘yicha emas, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida faol rivojlanayotgan sudyalar o‘rtasida ixtisoslikni shakllantirish bo‘yicha pozitsiyani himoya qilish mumkin deb hisoblaymiz. “Mutaxassislik tamoyili” – ayrim toifadagi ishlarni sudlarga topshirish asosida konstitutsiyaviy qadriyatlarni himoya qilish va himoya qilish samaradorligini oshirishdir. [24]

Qolaversa, yurtimizda fuqarolik sudlarini ixtisoslashtirish harakatlari ham boshlangan. Jumladan, “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-401, 21.12.2023 y.) ga muvofiq, fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo sudlarda oilaviy nizolarni ko‘rishga ixtisoslashgan sudyalar korpusi shakllantirildi. Ya’ni 2024-yil 1-fevraldan tajriba tariqasida fuqarolik ishlari bo‘yicha Samarqand shahar, Namangan tumanlararo va Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudlarining 2 nafardan sudyasini oilaviy nizolarni ko‘rish bo‘yicha ixtisoslashtirgan holda ushbu sudlarda “Oila sudyalari” tashkil etildi. Xuddi shu singari, yuqorida keltirilgan rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rgangan holda tajriba tariqasida yer bilan bog‘liq nizolar ko‘p bo‘lgan ayrim hududlarda 2 nafardan sudyani yer bilan bog‘liq nizolarni ko‘rish bo‘yicha ixtisoslashtirgan holda ushbu sudlarda “Yer sudyalari”ni tashkil etish maqasadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Qolaversa, ushbu tajriba samarali natija ko‘rsatsa respublikamizdagi barcha fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda ixtisoslashtirgan “Yer sudlari”ni tashil etish kutilgan natijani beradi deb o‘ylaymiz.

Yer nizolari sudining tashkil etilishi BMTning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi tomonidan 1998-yil 25-iyunda Orxusskda (Daniya) qabul qilingan “Atrof muhitga taalluqli masalalar bo‘yicha axborot olish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va odil sudlovdan foydalanish to‘g‘risida”gi Konvensiyasi talablariga ham mutanosibdir. Xususan, uning 21-rahbariy prinsipi davlat atrof muhitga taalluqli

ishlar bo‘yicha huquqni muhofaza qilishning zamonaviy, munosib va samarali usullarini, shu jumladan, vaqtinchalik va doimiy sud ta’qiqlarini taqdim etish uchun huquqiy tartibga solish tizimini belgilashi lozimligini mustahkamlaydi. Davlat kompensatsiya va restitutsiyadan foydalanish masalalarini hisobga olish lozim. [25]

**XULOSA**

Ushbu ilmiy tadqiqot ishi yakunlari shundan dalolat beradiki, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda ularni muhofaza qilishda sud himoyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u yer nizosi kelib chiqqanda, buzilgan huquqni tiklashga, sodir etilgan g‘ayriqonuniy xatti-xarakatlarni bartaraf etishga, qonun buzilishlarini oldini olishga xizmat qiladi.

Ammo, tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, yer nizosi kelib chiqqanda, yer huquqbuzarligi sodir etilganda qo‘llaniladigan jazo choralari, sud amaliyoti bugungi kun talabi darajasida emas, ko‘pgina yer nizolari sudgacha yetib kelmaydi. Shu sababdan, yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko‘rish borasidagi sud amaliyotini takomillashtirishga uchun quyidagi xulosa va tavsiyalarni ilgari surishimiz mumkin:

***Birinchidan,*** ishda fuqarolarning arizalari va qonuniy talablarini tez va sifatli ko‘rib chiqilishini ta’minlash uchun hamda fuqarolik sudlari tizimini takomillashtirish maqsadida faqatgina yer nizolarini hal etuvchi ixtisoslashgan yer sudlarini tashkil etish taklifi asoslab berildi.

***Ikkinchidan,*** bunda yer sudlari tarkibini shakllantirishning alohida tartibini ko‘zda tutish maqsadga muvofiq sanaladi. Ya’ni, bunda professional sudyalar bilan bir qatorda mahalliy hokimiyat vakili (yer masalalari bo‘yicha mutaxassis) va kadastr qo‘mitasi vakili (yer bitimlarini ro‘yxatga olish bo‘yicha mutaxassis) ni biriktirish yoki ularni ekspert sifatida majburiy jalb etish tartibini ko‘zda tutish ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Yer sudlarining vazifasi nafaqat buzilgan huquqlarni tiklash, balki jabrlanuvchi tomonga yetkazilgan zararni to‘la hajmda qoplash ham bo‘lishi darkor.

***Uchinchidan,*** ayni damda yer nizolari bo‘yicha sudlarni tashkil etishda quyidagi 12 ta muhim masalalar bo‘yicha qaror qabul qilish lozim bo‘ladi: sud turi; yurisdiksiyasi, darajasi, hududiy faoliyati; ish hajmi; protsessual huquq layoqati; xarajatlar; ilmiy va texnik ekspertizadan foydalanish imkoniyati; nizolarni hal qilishning muqobil yo‘llari; sudyaning vakolati; ishlarni boshqarish; qarorni ijro etish va huquqiy muhofaza qilish usullari.

***To‘rtinchidan,*** yerga oid nizolarning ahamiyati va ularning o‘ziga xosligi yuzasidan yer protsessual kodeksini ishlab chiqish yoki Fuqarolik protsessual kodeksida alohida bob tashkil qilib, yer nizolari toifasidagi da’volarni hal etishning o‘ziga xos xususiyatlarini qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yishni talab qiladi.

Xususan, Fuqarolik protsessual kodeksida yer nizolarining o‘ziga xos protsessual xususiyatlari haqida alohida bob loyihasida yer nizosi tushunchasi va xususiyatlari, yer nizolarining sudga taalluqliligi va sudlovga tegishliligining o‘ziga xos xususiyatlari, yer nizolarini ko‘rib chiqishda taraflarning huquq va majburiyatlari, yer nizolarini ko‘rib chiqish muddatlari, yer nizolari bilan bog‘liq ishlarda dalillarning o‘ziga xos xususiyatlari, yer nizolari bilan bog‘liq ishlarda ekspert va mutaxassis jalb qilinishi majburiy bo‘lgan holatlar, yer nizolarini hal qilish, yer bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha chiqarilgan hal qiluv qarorlarini ijro qilish, ayrim toifadagi yer nizolarini ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari kabi moddalar bo‘lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Гражданское судопроизводство Англии. – М., 2008.; Internet sayti: http://ru.wikipedia.org/wiki/Ассизы
2. Weaks, M.C. The First Land Court of Kentucky, 1779–1780. By Samuel M. Wilson. (Lexington, Kentucky, 1923. 164 p.) // Journal of American History. - 1924. – Vol. 11. - Issue 3. - P. 450, 451.
3. Ryan, P. Court of Hope and False Expectations: Land and Environment Court 21 Years On // Journal of Environmental Law. - 2002. - № 14 (3). - P. 301–315.
4. Taylor, M.F. & Bradfute, R.W. The Court of Private Land Claims: The Adjudication of Spanish and Mexican Land Grant Titles, 1891-1904 // The Western Historical Quarterly. - 1976. - № 7 (2). - P. 202.
5. Чикильдина А.Ю. Земельные суды: зарубежный опыт // Политика, государство и право. - 2014. - № 2. URL: http://politika.snauka. ru/2014/02/1245 (murojaat qilingan sana: 05.11.2024).
6. Kay L. Tidwell. International Asset Transfer: An Overview of the Main Jurisdictions: A Practitioner’s Handboo / Walter de Gruyter. - 2010. - P. 175.
7. URL: https://domstol.dk/tinglysningsretten/ om-tinglysningsretten/ statistik/
8. Thierry Fossier. La justice: manuel à l’usage des intervenants sociaux. Actions sociales. Collection Actions sociales / Esf Editeur, 2001. - P. 68, 69.
9. Roger Perrot. Institutions judiciaires, 13e éd., Paris, Montchestien, 2008 (ISBN 978-2-7076- 1593-0). - P. 155, 156.
10. URL: www.scottish-land-court.org.uk
11. Clark B., Keegan G. Scottish Legal System Law Essentials. Edinburgh University Press, 2014. – P. 83, 84.
12. URL: https://www.mass.gov/ info-details/a-brief-history-of-the-land-court
13. URL: http://extwprlegs1.fao.org/docs/pdf/ dom68472.pdf .

14. Fabio J. Guzmán Ariza. Ley 108-05 de registro inmobiliario: comentada, anotada y concordada con sus reglamentos: con actualización continua Colección Leyes anotadas. Gaceta Judicial Coleccion «Leyes Anotadas». - 2009. - P. 215 - 220.
15. URL: https://ji.gob.do/?page_id=419
16. Roberts S.H. History of Australian Land Settlement/Routledge, 2013. - P. 321, 322.
17. URL: https://www.courts.qld.gov.au/__ data/assets/pdf_file/0007/ 269350/lcr-annualreport-2008-09.pdf
18. Чикильдина А.Ю. Земельные суды: зарубежный опыт // Политика, государство и право. - 2014. - № 2. URL: http://politika.snauka. ru/2014/02/1245 (murojaat qilingan sana: 05.11.2024).
19. URL: https://teara.govt.nz/en/te-kotiwhenua-maori-land-court/print
20. URL: https://www.maorilandcourt.govt.nz/ assets/Documents/ Publications/MLC-150-years-ofthe-Maori-Land-Court.pdf. – P. 119 - 121.
21. Левашкина К.С., Чикильдина А.Ю. Земельные суды в России: проблемы и перспективы // Аграрное и земельное право. - 2014. - № 4 (112). - P. 119 - 125.
22. Алешкова И.А., Макеева Ю.К. Конституционные основы организации и функционирования судебной власти в России: сб. ст. «Актуальные проблемы конституционно-правовых основ судебной власти в государствах постсоветского пространства / под ред. И.А. Умновой (Конюховой). - 2017. - С. 183 - 219.
23. Konvensiyaning rasmiy sayti havolasi: www.unece.org/fileadmin/DAM/ env/pp/documents/ce

# ТАЛАБА-ЁШЛАР МАЪНАВИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЭТИМОЛОГИК АСОСЛАРИ (ДИНИЙ-МАЪРИФИЙ НЕГИЗ)

https://doi.org/10.5281/zenodo.14086559

**Жалилов Бахтиёр Норқулович**
Қарши муҳандислик иқтисодиёт институти катта ўқитувчиси

## АННОТАЦИЯ

*Мазкур мақолада ёшларимизнинг маънавий компетентлигини ривожлантиришда диний ва дунёвий таълимотларнинг ўрни борасидаги назарий-методологик қарашлар баён этилади.*

***Калит сўзлар:*** *ахлоқ нормалари, буддавийлик, ислом дини, маънавий тарбия, миллий-маданий концепция, мафкура, христианлик дини, Қуръон, Ҳадис.*

## АННОТАЦИЯ

*В состоянии теоретико-методологического подхода система изображается в образе системы, в частотном ролевом факторе, в компетенции студента.*

***Ключевые слова:*** *этика, буддизм, ислам, духовное воспитание, национально-культурная концепция, идеология, христианство, коран, хадис.*

## ABSTRACT

*In the state of theoretical-methodological approach, the sustem is imaged in the system image, in the frequency role factor, in the student`s competence.*

***Key words:*** *ethics, Buddhism, Islam, spiritual education, national-cultural concert, ideology, Christianity, Koran, hadith.*

## КИРИШ

Агар бирон бир жамият ижтимоий-ғоявий ҳамда иқтисодий инқироздан чиқиш йўлини топмоқчи бўлса, у техноген цивилизациянинг янги шаклдаги кўриниши эмас, балки янги ривожланиш босқичининг якуни тарзида акс этиши лозим. Жамиятнинг бундай ривожи ижтимоий ҳаётнинг муҳим омилларини ҳисобга олувчи, шахсга йўналтирилган инсонпарварлик парадигмасининг асосий ғояси вазифасини ўтайди[4].

Табиийки, бугунги инновацион шарт-шароитда талабалардаги маънавий компетенцияни ривожлантириш, пировардида, таълим- тарбиявий жараённинг психологик тўлиқ ва икки тарафлама қулай муҳитни яратиш эҳтиёжини юзага

келтиради. Айни вақтда педагогик иштирокнинг мазмунини тубдан қайта кўриб чиқиш, унинг антропоцентрик табиатини таъминлаш зарур бўлади[2]. Бинобарин, таълимдаги инновацион жараён нафақат педагог-талаба жуфтлигида ўз-ўзини ривожлантириш аспектини, балки таълим жараёнининг ўзида ҳам янгиланиш талабини тақозо этади.

## МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Маълумки, талаба-ёшлар, ва умуман, келажак авлоднинг маънавий камолотини шакллантириш, уларнинг шахс сифатида жамиятдаги муносиб ўрин топишларига хизмат қилувчи миллий-маънавий асосларимиз бу борада амалга оширажак жами саъйи ҳаракатларимизда дидактик қурол ҳисобланади. Форобий, Абу Али ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Ал Хоразмий, Имом Ал Бухорий, Имом Исо Термизий, Имом Ғаззолий, Ҳаким ат-Термизий, Хожа Аҳмад Яссавий, Хожа Баҳовуддин Нақшбанд, Кайковус, Алишер Навоий, Заҳириддин Муҳаммад Бобур, Мирзо Улуғбек сингари аждодларимизнинг бой мероси бу борада амалда жорий этиб келинган тадбирларнинг туб негизини ўзида ифода этади. Ҳолбуки, маънавий тарбия ўз хусусиятига кўра, ҳар бир миллатнинг тарихий, миллий-маданий концепциясини акс эттиради.

Шахснинг маданий-тарихий концепциясининг моҳияти Л.С.Выготский томонидан илгари сурилган қуйидаги фикрда ўз ифодасини топган:

«Замонавий (маданиятли) кишининг хулқи фақат болалик давридаги ривожланишнинг натижаси бўлиб қолмай, балки тарихий тараққиётнинг маҳсули ҳамдир. Инсоният тараққиёти тарихий жараёнда ижтимоий, шунингдек, инсон ва табиат ўртасидаги муносабатлар мазмунигина ўзгариб ва ривожланиб қолмай, балки инсоннинг ўзи ҳам, унинг табиати ҳам ўзгарди ва ривожланди».[5]

Бугун глобаллашув, иқтисодий ва сиёсий интеграция таъсирида дунё тобора яхлит ва бир бутун характер касб этиб бормоқда. Фақат капитал ва товарлар оқими эмас, ҳатто уларнинг кошифи инсоннинг ҳаракат доираси ҳам кенгаймоқда. Натижаа одамлар орасида худбинлик, маъсулиятсизлик, лоқайдлик, жиззакилик кенг ёйилмоқда. Эндиликда одамлар орасида ахлоқсизлик, муросасизлик, тоқатсизлик, кўринишларини бартараф қилиш, жамиятда одоб-ахлоқ, инсонпарварлик, бағрикенглик, тинчликсеварлик маданиятини қарор топтириш, шунингдек, ўзаро ҳурмат, самимий дўстликни тарғиб этиш бугуннинг муҳим вазифасига айланмоқда. [3]

Албатта глобаллашув жараёнида одоб-аҳлоқ тушунчаси долзарблигини йўқотмайди ва аксинча унинг қадр-қиммати шунча ошади. Ахлоқ кишилар орасидаги муносабатларнинг барча тур ва кўринишларига мансуб бўлиб, у ёки

бу хатти-ҳаракатлар. Алоқа ва муносабатлар ҳақида фикр юритиш(маъқуллаш ёки қоралаш)дир.

Ахлоқ (араб.хулқнинг кўплиги; лот. moralis-хулқ-атвор) ижтимоий онг шаклларидан бири бўлиб, муайян жамиятда яшовчи кишилар амал қилиши зарур бўлган хатти-ҳаракатлар йиғиндисидир. Ахлоқ ўзаро муносабатларда, жамоат жойларида ўзини тутишда муайян қоидалар тизимида намоён бўлади. Бинобарин, шундай экан, маънавий тарбиянинг туб илдизи – миллий маънавиятнинг диний асосларига ўрни билан тўхталиш жоиз.

Бундан ташқари, панднома ва одобномалар халқ педагогикасида, диний-фалсафий рисолалар ҳамда алломалар меросида бу борада алоҳида қайдлар учраши аждодларимизнинг шахс маънавиятинини юксалтириш учун қилинган ҳаракат эканлигини исботлайди.

Муқаддас китобда ёшлар, таълим масаласи ҳақида ҳам тўхталиб ўтилган. Жумладан, ёшлар ўз ёшлигини беҳудага сарфламай, ўз сўзи, хатти-ҳаракатлари, имони, пок қалби, меҳр-муҳаббати билан ўрнак бўлиши, доимо таълим, насиҳатда банд бўлиши шу аснода холис ва жиддий сўзлашиши муҳимлиги таъкидланган.

Ислом дини кўп ҳалқлар орасида кенг тарқалган жаҳон динларидандир. Бу динга эътиқод этувчилар – мусулмонлар жаҳонда 1,8 миллиарддан кўпроқ кишини ташкил этади[10].

“Ислом” сўзи арабча “худога ўзини топшириш”, “итоат”, “бўйсуниш” маъносини билдиради. Бу динга эътиқод қилувчилар – “муслим” – деб аталади. Унинг кўпчилик шакли “муслимун” бўлиб, ўзбекларда “мусулмон” деб аталади. Ислом диний таълимотининг асосларини – Қуръон ва Ҳадис тўпламларида, шунингдек, VIII-XII асрлар давомида вужудга келган илоҳиёт адабиётлари ифода этади. Қуръони Карим оятларида, аввало инсоннинг ер юзида ўринбосар экани бир неча бор таъкидланиши ислом маънавиятининг энг улуғ қадриятларидандир. Яхшилик ва эзгулик, бағрикенглик ва тинчлик, яқинлар ва бегоналарга бирдек марҳаматли бўлиш, қон тўкмасликка чақирувчи, нафс васвасасига учмаслик, ота-онага улар ҳаёт эканида меҳрибон ва сахий бўлиш, дунёдан ўтганларнинг ҳақига дуо қилиш ва ватанни севишга муқаддас динимиз даъват қилади.

Ҳадислар Исломда Қуръондан кейинги муқаддас манба бўлиб ҳисобланади. Ҳадислар тўплами “суннат” деб аталади. Ҳадиси шарифларда Муҳаммад алайҳиссаломнинг сўзлари, қилган иш, фаолияти, қолаверса, саҳобалар тамонидан амалга оширилган ишларга муносабати баён этилган. Қуръони Карим, ҳадислар ва шариат инсон маънавий-маърифий камолотнинг асоси бўлган ахлоқ – одобнинг барча қирраларини ўз ичига олган. Ҳадислар маънавий-ахлоқий тарбияга оид фикрларнинг мукаммал тўпламидир. Ундаги ота-онага, илмгамуҳаббат, сабр-бардош, шукроналикка даъват, ўзаро меҳр, иноқлик, меҳмондўстлик, етимпарварлик, вафо ва садоқат, меҳнатсеварлик ва ҳалол луқмани шарафлаш, камтарлик ва камсуқумлик, самимият ва ростгўйлик, тўғрилик ва ҳалоллик, ота-онага ғамхўрлик, фарзанд тарбияси ва оилага садоқат, кишиларга яхшилик қилиш, ишларга қўл уриш, инсофли – диёнатли, виждонли бўлиш, меҳр- шафқат, тўғрилик, ростгўйлик, софдил бўлиш, биродарга ёрдам бериш, камтарликка чақириш каби хислатларнинг биринчи ўринга қўйилиши инсоният учун бебаҳо маънавий қадриятлар силсиласини яратиб берди.

Шукроналик ва сабр ҳам инсон маънавиятининг муҳим жиҳатлардан биридир.

Маънавий неъматлар кўзга бевосита кўринмайди, аммо қалб кўзи билан илғаб олинади. Инсон, ақл, хуррият, тинчлик шулар жумласидандир. Юқорида айтилган ислом маънавияти уммонидан бир зарра, холос.

Маънавий-ахлоқий камолот масалаларида айтилган баъзи ҳадисларда фикримиз ўз тасдиғини топади:

Ҳадисда бешикдан то қабргача илм излаш лозимлиги қайд қилинган. Қуръони Каримда: “Аллоҳ сизлардан иймон келтирган ва илм ато этилган зотларни (баланд) даражада (мартаба)ларга кўтарур”, (“Мужодала” сураси, 11 - оят) дейилиши илмли зотлар ва унга интилган юксак мавқе ва ҳурматга сазовор бўлишига ишорадир.

Ислом динида нафақат илм ўрганиш, балки илм талаб қилиш, ҳам ҳар бир киши учун фарз экани таъкидланган. Аллоҳ таоло ўзининг пайғамбари Муҳаммад алайҳиссаломга биринчи ваҳий нозил қилинганида ҳам “Икро”, яъни “Ўқи” деб буюрди. Илк ваҳий “Алақ” сурасининг дастлабки оятлари бўлиб, унда ҳам инсон ўқишга буюрилди. (“(Эй, Муҳаммад, бутун борлиқни) яратган зот бўлмиш Раббингиз номи билан ўқинг! У инсонни лахта қондан яратди. Ўқинг! Раббингиз эса карамли зотдир. У инсонга қалам билан (ёзишни) ўргатган зотдир. У инсонга билмаган нарсаларни ўргатди”).

Жисмоний ва маънавий покликка интилиш ислом ахлоқи, Расулуллоҳ ҳадисларининг яна бир муҳим йўналишидир. Таҳорат, ғусл ташқи озодалик талаблари бўлса, ҳаромдан, ёлғон сўз, ғийбат, туҳмат, зиною ўзга ҳаққига ҳиёнат, ноҳақлик ва зулмга йўл қўймаслик, ички, маъавий покликка оид даъватдир. Буларнинг ҳаммаси Қуръони карим ҳамда Расулуллоҳ (с.а.в) ҳадисларида ва уларга асосланган шариат кўрсатмаларида жуда қатъий белгиланган.

**Хулоса қилиб айтадиган бўлсак**, дин инсонни эзгуликка чорловчи, унинг маънавий оламини бойитувчи, ахлоқий муҳитни таъминловчи беқиёс ижтимоий омил бўлиб, унинг ахлоқ билан муносабатлари илдизи минг йилликларга бориб тақалади. Глобал дунёда ҳам дин жамият тараққиётида ахлоқ нормалари таъминланишида маълум маънода хизмат қилмоқда.

Шу маънода бугун мамлакатимизда ушбу соҳа учун кадрлар тайёрлаш ва таълим тизимини такомиллаштириш маънавий, ғоявий, мафкуравий, сиёсий ва ҳуқуқий жиҳатдан қуйидаги омиллар билан узвий боғлиқ.

Биринчидан, жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, мустақил фикрлайдиган, Ватанга содиқ, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга талаба-ёшларни тарбиялаш;

иккинчидан, демократик ислоҳатларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида талаба-ёшларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш;

учинчидан, мамлакат истиқболини ўз келажаги билан уйғун кўрадиган, ижтимоий жараёнларда фаол қатнашадиган талаба-ёшларни шакллантириш учун имконият яратиш;

тўртинчидан, мамлакатимизда ёшларнинг ички дунёсини ривожлантириш асосида диний-дунёвий қадриятлар уйғунлигига асосланган муносабатларни шакллантириш;

бешинчидан, талаба-ёшларда мамлакатимиздаги маънавий-ахлоқий, диний соҳаларда амалга оширилаётган ислоҳатларнинг моҳиятини англаб олиши, миллий ғоя тамойиллари асосида яшаш туйғуларни шакллантириши, юзасидан аниқ мақсадга қаратилган чора-тадбирлар тизимини амалга ошириш;

## ФОЙДАНАЛИГАН АДАБИЁТЛАР

1. Jalilov B. N. SOG ‘LOM TURMUSH TARZI VA UNING SHAKLLANISHIGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 276-282.

2. Kattakulovna T. S. et al. Increasing protection of the rights and interests of youth in Uzbekistan.[Electronic Resource] //URL: https://philosophicalreadings. org/2021-13-4/(date of access: 15.06. 2022).
3. Бахтиёр Ж. Н. Состояние и перспективы развития социологии в Узбекистане //International Scientific and Practical Conference World science. – ROST, 2017. – Т. 4. – №. 4. – С. 9.
4. Жалилов Б.Н. МИГРАЦИОН ИНҚИРОЗНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА ОҚИБАТЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 6. The Global Religious Landscape. Pew Research Center/. Washington, D.C.2015. P.5
5. Alimovna, E. Y., Alimovna, E. G., & Burievna, M. S. (2020). Historical Stages Of Innovative processes In Higher Education Of Uzbekistan. *Solid State Technology*, *63*(6), 9824-9834.
6. Эргашева, Ю. (1998). Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развитие (50-60-е годы). *Автореф. на соиск, доктор канд. истор. наук.–Т.*
7. Эргашева, Ю. А. (2020). Развитие женского предпринимательства в Узбекистане. In *Феномен рыночного хозяйства: от истоков до наших дней. Партнерство в условиях риска и неопределенности* (pp. 254-262).
8. Эргашева, Ю. А. (2017). Формирование национальной модели образования в Узбекистане за годы независимости. *Alma mater (Вестник высшей школы)*, (9), 86-89.
9. Ergasheva, Y. A. (2016, January). The experience of reforming and developing the education system in modern Uzbekistan. In *International Scientific and Practical Conference World Science* (Vol. 5, No. 2, pp. 14-17).

# КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МЕЪЁРИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

**Худайназаров Фахритдин Хайтович**
Термиз иқтисодиёт сервис университети
2-босқич магистранти
+998972441967
faxriolam@gmail.com

## АННОТАЦИЯ

*Мақолада Ўзбекистонда рақамли трансформация жараёнлари, "Рақамли Ўзбекистон — 2030" стратегияси доирасида амалга оширилаётган ислоҳотлар, кичик бизнесни рақамлаштириш ва инновацион ривожланиш масалалари таҳлил қилинган. Шунингдек, давлат томонидан қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар асосида белгиланган мақсадли кўрсаткичлар ва уларга эришиш механизмлари ёритилган.*

***Калит сўзлар:*** *Рақамли трансформация,Инновацион ривожланиш,Кичик бизнес,Рақамли инфратузилма,Бизнес портал , Электрон платформа, Давлат қўллаб-қувватлаши,Инновацион марказлар, Венчур молиялаштириш, Рақамли хизматлар.*

# НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО БИЗНЕСА НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Худайназаров Фахритдин Хайтович**
Термезский университет экономики и сервиса
магистрант 2-го курса
+998972441967
faxriolam@gmail.com

## АННОТАЦИЯ

*В статье анализируются процессы цифровой трансформации в Узбекистане, реформы, осуществляемые в рамках стратегии "Цифровой Узбекистан — 2030", вопросы цифровизации малого бизнеса и инновационного развития. Также освещены целевые показатели, установленные на основе принятых государством нормативно-правовых документов, и механизмы их достижения.*

***Ключевые слова:*** *Цифровая трансформация, Инновационное развитие, Малый бизнес, Цифровая инфраструктура, Бизнес портал, Электронная платформа, Государственная поддержка, Инновационные центры, Венчурное финансирование, Цифровые услуги.*

# REGULATORY AND LEGAL FRAMEWORK FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS ENTITIES BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES

**Khudaynazarov Fakhritdin Khaitovich**
Termez University of Economics and Service
2 st year master's student
+998972441967
faxriolam@gmail.com

## ABSTRACT

*The article analyzes the processes of digital transformation in Uzbekistan, reforms implemented within the framework of the "Digital Uzbekistan — 2030" strategy, issues of small business digitalization and innovative development. It also highlights the target indicators established based on regulatory legal documents adopted by the state and mechanisms for achieving them.*

***Keywords:*** *Digital transformation,Innovative development,Small business, Digital infrastructure,Business portal,Electronic platform,State support, Innovation centers,Venture financing,Digital services.*

## КИРИШ

XXI аср глобал иқтисодиёти тизимли равишда янги - рақамли трансформация босқичига қадам қўймоқда. Бу жараён дунё мамлакатларини технологик модернизация ва институционал ислоҳотлар ўтказишга ундамоқда. Замонавий рақамли технологиялар иқтисодий тизимларнинг барча соҳаларига шиддат билан кириб бормоқда, анъанавий бизнес моделлари ва бошқарув тизимларини тубдан ўзгартирмоқда. Натижада, миллий иқтисодиётларнинг рақобатбардошлиги тобора кўпроқ уларнинг рақамли салоҳияти ва инновацион ривожланиш даражасига боғлиқ бўлиб қолмоқда.

Ўзбекистон ҳам глобал рақамли трансформация жараёнларидан четда қолмасдан, миллий иқтисодиётни модернизация қилиш ва рақамлаштириш бўйича кенг қамровли ислоҳотларни амалга оширмоқда. Хусусан, “Рақамли Ўзбекистон — 2030” стратегияси доирасида иқтисодиётнинг барча тармоқларида рақамли технологияларни жорий этиш, замонавий ахборот

тизимларини яратиш ва рақамли инфратузилмани ривожлантириш бўйича изчил чора-тадбирлар кўрилмоқда. Шу билан бирга, “яшил” иқтисодиётга ўтиш ва инновацион ривожланиш стратегиялари орқали мамлакатимизда барқарор ва инновацион тараққиётни таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Мазкур мақолада Ўзбекистонда амалга оширилаётган рақамли трансформация жараёнларининг назарий-методологик асослари, ҳуқуқий-меъёрий базаси ва амалий натижалари комплекс таҳлил қилинган. Тадқиқот доирасида, айниқса, кичик бизнес субъектларини рақамлаштириш борасида қабул қилинган муҳим қарорлар, уларнинг мазмун-моҳияти ва кутилаётган натижалари батафсил ёритиб берилган. Шунингдек, мамлакатимизда инновацион ривожланишни таъминлаш, илмий салоҳиятни ошириш ва рақамли инфратузилмани такомиллаштириш борасида белгиланган устувор вазифалар ва мақсадли кўрсаткичлар таҳлил қилинган.

Мақолада келтирилган таҳлилий маълумотлар, статистик кўрсаткичлар ва илмий хулосалар Ўзбекистонда олиб борилаётган рақамли трансформация жараёнларининг ҳозирги ҳолатини баҳолаш, мавжуд муаммоларни аниқлаш ва истиқболдаги вазифаларни белгилашда муҳим аҳамият касб этади. Тадқиқот натижалари мамлакатимизда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш бўйича давлат сиёсатини такомиллаштириш ва амалий чора-тадбирларни ишлаб чиқишда фойдаланилиши мумкин.

## МАВЗУГА ОИД АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

Украиналик иқтисодчи В. П. Вишневский “Тўртинчи саноат инқилоби шароитида рақамли иқтисодиёт: имкониятлар ва чекловлар” мақоласида: солиқ маъмуриятчилигининг янги рақамли технология усуллари туфайли 2016-2018 йилларда солиқ тушумлари иқтисодий ўсишдан ҳам юқори бўлганини таъкидлайди.[1]

М. Баланова, Россия Федерациясида ҳам рақамли иқтисодиёт ҳуқуқий меъёрлар билан тартибга солинганини айтиб ўтади.[2]

Ўзбекистонлик олимлардан П.З.Хашимов, З.Фахриддиновалар, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3832-сон Қарори қабул қилингани, қарорга кўра, рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг галдаги муҳим вазифалари сифатида – инвестицион ва тадбиркорлик фаолиятининг турли шаклларини диверсификация қилиш учун криптоактивлар айланмаси соҳасида турли фаолиятларни, жумладан, майнинг, смарт контрактлар, консалтинг, эмиссия, айирбошлаш, сақлаш, тарқатиш, бошқариш, суғурталаш, крауд-фандинг, шунингдек, “блокчейн”

технологияларини жорий этиш ва ривожлантириш; малакали кадрларни тайёрлаш; криптовалюталар ва хорижий ташкилотлар билан ҳамкорликни йўлга қўйиш; бу борада ҳуқуқий базани яратиш кабилар назарда тутилганини таъкидлаб ўтишган.

А.Кадиров, А. Ахмедиева, Б. Маъмуровлар мамлакатимиз рақамли иқтисодиётини:

1. “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 18 феврал ПФ-5349-сон “Ахборот технологиялари ва коммуникациялари соҳасини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони”

2. “2018 йил 3 июл ПҚ-3832-сон «Ўзбекистон Республикасида рақамли иқтисодиётни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори”

3. “2018 йил 2 сентябр ПҚ-3927-сон «Рақамли ишонч» рақамли иқтисодиётни ривожлантиришни қўллаб-қувватлаш жамғармасини ташкил этиш тўғрисида»ги қарори”

4. “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 20 майдаги 421-сонли «Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини янада жорий этиш ҳисобидан аҳолига давлат хизматларини кўрсатиш тартибини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори”

5. “Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5-октябрдаги ПФ-6079-сонли «Рақамли Ўзбекистон – 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони тартибга солувчи ҳуқуқий асос эканини таъкидлашган.[4]

## ТАДҚИҚОТ МЕТОДОЛОГИЯСИ

Мавзуни илмий тадқиқ қилишда тарихий-мантиқий таҳлил ва тадқиқотларни ўз ичига олган тизимли таҳлил, статистик таҳлил ва илмий абстраксия каби ёндашувлар қўлланилган. Мақолада мамлакат миллий иқтисодиётидаги аҳамияти кўриб чиқилади. Кичик бизнес субъектлари фаолиятини рақамли технологиялар асосида ривожлантиришнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари мавзусини ўрганиш турли хил ёндашувлар, жумладан қиёсий таҳлил, иқтисодий таққослаш ва таҳлил қилиш, мантиқий фикрлашни ўз ичига олади.

## ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР

Замонавий иқтисодий тизимларнинг глобал ривожланиш тенденциялари таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, жаҳон иқтисодиёти тизимли равишда рақамли трансформация босқичига ўтмоқда. Мазкур жараён турли минтақаларда нотекис тақсимланган бўлиб, унинг суръати мамлакатларнинг технологик

салоҳияти ва институционал ривожланиш даражасига боғлиқ ҳолда намоён бўлмоқда.

Иқтисодий глобаллашув шароитида ривожланган ва ривожланаётган давлатлар рақамли трансформация стратегияларини имплементация қилиш орқали қуйидаги стратегик мақсадларга эришишга интилмоқда:

- миллий иқтисодиётнинг рақобатбардошлик даражасини ошириш;
- халқаро ва ички бозорларда мустаҳкам позицияларни эгаллаш;
- маҳсулот ва хизматларнинг рақобат устунликларини таъминлаш.

Давлатнинг регулятор сифатидаги роли икки йўналишда намоён бўлмоқда:

1.Иқтисодий самарадорликни ошириш орқали трансакцион харажатларни камайтириш;

2. Инвестицион муҳитни яхшилаш орқали рақамли технологияларга йўналтирилган тўғридан-тўғри хорижий инвестициялар оқимини рағбатлантириш.

Рақамли трансформациянинг методологик асослари қуйидаги компонентларни ўз ичига олади:

- корхоналарнинг бизнес жараёнларига инновацион технологияларни интеграциялаш;
- замонавий техник ва дастурий таъминотни жорий этиш;
- бошқарув тизимида парадигмал ўзгаришларни амалга ошириш;
- корпоратив маданиятни трансформация қилиш;
- ички ва ташқи коммуникацион тизимларни модернизация қилиш.

Мазкур методологик ёндашувларнинг амалий натижалари сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин:

- меҳнат унумдорлигининг ўсиши;
- қарор қабул қилиш жараёнларининг оптималлашуви;
- бозор конъюнктурасига адаптация механизмларининг такомиллашуви;
- истеъмолчилар эҳтиёжларини қондириш даражасининг ошиши.

Шундай қилиб, рақамли трансформация - бу мураккаб кўп қиррали жараён бўлиб, у нафақат технологик, балки институционал, ташкилий ва ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларни ҳам талаб этади.

Ўзбекистон Республикаси ўзининг рақамли трансформация йўлида туб бурилиш нуқтасида турибди. Бу ўзгаришлар оддийгина ислоҳотлардан иборат эмас. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли Ўзбекистон — 2030 стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони [5] ҳамда “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг

“яшил” иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида”ги қароримамлакатнинг келажак қиёфасини белгилаб берувчи ҳуқуқий ҳужжатга айланди. [6]

Инновацион ривожланиш эса бу икки йўналишнинг муҳим кесишув нуқтасига айланди. Президентнинг “2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини амалга ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори, мамлакатимизнинг инновацион салоҳиятини рўёбга чиқаришга қаратилган. Бу учта фармон ва қарор мамлакатимиз иқтисодиётини рақамлаштириш бўйича ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилмоқда. [7]

Ривожланган давлатлар тажрибаси ва илм-фан ютуқларига таянган ҳолда, мамлакатимиз иқтисодиётнинг барча соҳаларини рақамлаштириш сари интилмоқда. Бу жараён чуқур ва тизимли ўзгаришларни талаб этадиган мураккаб трансформациядир.

Рақамли технологиялар, “яшил” иқтисодиёт ва инновацион ривожланишнинг уйғун бирлигини таъминлайди. Бу эса, ўз навбатида, Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги рақобатбардошлигини оширишга хизмат қилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 14.09.2023 йилда ПҚ-306-сон “Кичик бизнесни ривожлантиришни молиявий ва институционал қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори қабул қилинди. Давлат раҳбарининг топшириғига биноан рақамли инфраструктура модернизация қилинади, кичик бизнесни қўллаб-қувватлашнинг янги тизими жорий этилади. Унга кўра, комплекс хизматлар тизими яратилади, тадбиркорларга барча хизматлар бир марказдан кўрсатилади, молиявий ва институционал қўллаб-қувватлаш механизмлари такомиллаштирилади.

**Дастурнинг молиявий таъминоти.1-жадвал**

| ДАСТУРНИНГ МОЛИЯВИЙ ТАЪМИНОТИ (2023-2026 йй.) | |
|---|---|
| **Молиялаштириш манбаси** | **Ажратилган маблағ** |
| Давлат маблағлари | 6 триллион сўм |
| Халқаро молия институтлари | 1.2 миллиард АҚШ доллари |

**Манба муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.**

Дастур, 2023-2026 йиллар учун 6 триллион сўм давлат маблағлари, 1.2 миллиард АҚШ доллари халқаро молия институтлари маблағлари билан таъминланади. Қарорда тадбиркорлик субъектларини рақамлаштириш бўйича бир қанча муҳим йўналишлар белгиланган. Жумладан: Бизнесни ривожлантириш банки 3 ой ичида Бизнес портални ишга туширади. Бизнес жараёнларини автоматлаштириш назарда тутилган, Халқаро молия институтларининг техник кўмаги жалб этилади.

2024 йил 1 январгача Бизнес порталга қуйидаги идоралар уланади:

- Иқтисодиёт ва молия вазирлиги;
- Адлия вазирлиги;
- Солиқ қўмитаси;
- Божхона қўмитаси;
- Марказий банк;
- Бошқа вазирлик ва идоралар;

**Рақамли хизматлар турлари.2-жадвал**

| РАҚАМЛИ ХИЗМАТЛАР ТУРЛАРИ | |
|---|---|
| **Хизмат йўналиши** | **Хизмат турлари** |
| Электрон хизматлар | • Ариза бериш<br>• Ҳужжат айланиши<br>• Масофавий консультация |
| Молиявий хизматлар | • Банк хизматлари<br>• Гаровсиз кредитлар<br>• Имтиёзли молиялаштириш |
| Маслаҳат хизматлари | • Бепул юридик маслаҳат<br>• Бизнес кўникмаларини ошириш<br>• Бозор конъюнктураси маълумотлари |

**Манба муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.**

Тадбиркорларга қуйидаги хизматлар кўрсатилади:

- “Ягона дарча” тизими орқали узлуксиз хизмат;
- Онлайн банк ва консалтинг хизматлари;
- Бозор конъюнктураси ҳақида маълумотлар;

“Рақамли трансформация маркази” ДУК қайта ташкил этилиб, электрон платформа орқали мониторинг тизими йўлга қўйилади ҳамда скоринг баҳолаш тизимини жорий этилган рақамли инфратузилма тузилади. Электрон ариза

бериш имконияти, электрон ҳужжат айланиши, масофавий консультация хизматлари ташкил этилади.

Бу чора-тадбирлар кичик бизнес субъектларига давлат хизматларидан фойдаланишни соддалаштириш ва тезлаштириш, шаффофликни ошириш ҳамда бюрократик тўсиқларни камайтиришга қаратилган.

Қарор кичик бизнес субъектлари учун қуйидаги:

1. Дастурда қатнашиш ва молиявий-маслаҳат хизматларидан фойдаланиш;
2. Камида 1 йиллик фаолият, белгиланган сондаги ходимлар ва скоринг баҳолаш;
3. Гаровсиз ва имтиёзли кредитлар, давлат кўмаги;
4. Грантлар, давлат мулкидан фойдаланиш, бепул ҳуқуқий маслаҳат;
5. Лойиҳаларни танлаш, молиялаш ва назорат механизмлари каби асосий ҳуқуқий меъёрларни белгилайди.

Қарор норматив-ҳуқуқий ҳужжат сифатида,тўғридан-тўғри амал қилади, мажбурий кучга эга, Давлат органлари учун ижро этиш мажбурий, барча ҳудудларда бир хил амал қилади. Бу қарор кичик бизнес субъектлари фаолиятини тартибга солувчи ва уларнинг ҳуқуқларини кафолатловчи муҳим ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланади.

Президентнинг 2022 йил 6 июлдаги ПФ-165-сон “2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” [8] фармонида қуйидаги: 2026 йилгача Ўзбекистон Глобал инновацион индекс рейтингида 56-ўринга кўтарилиши, инновацион ривожланиш стратегияси доирасида иқтисодиётни рақамлаштириш, илм-фан ва инновацияларни ривожлантириш каби асосий мақсадлар, инновацион инфратузилмани ривожлантириш, давлат томонидан инновацион фаолиятни қўллаб-қувватлаш,кичик бизнеснинг инновацион фаоллигини ошириш, янги технологияларни яратиш ва жорий этиш, инновацион таълимни ривожлантириш каби стратегиянинг устувор йўналишлари асосий вазифа сифатида белгилаб берилган.

**Асосий мақсадли кўрсаткичлар (2022-2026). 3-жадвал**




**Манба муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.**

Натижада:

- Инновацион фаол корхоналар сони 613 тадан 2250 тагача етказилади;
- Инновацион инфратузилма субъектлари 3 баравар кўпаяди;
- Янги иш ўринлари 4 баравар ошади;
- Илмий ишланмалар сони 2 баравар кўпаяди;

**Ҳудудий кўрсаткичлар Тошкент шахри,Тошкент вилояти,Андижон шахри кесимида (2026).4-жадвал**




**Манба муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.**

- Ҳар бир ҳудудда инновацион марказлар (494 та);
- Технологик инновацияларни ўзлаштирган корхоналар (600 та);
- Янги технологиялар (384 та);
- Патентлар (184 та);
- Инновацион стартаплар (1437 та)га етказилади.

Давлат улуши 50% дан юқори бўлган компанияларда инновацион жамғармалар ташкил этилади. Хорижий инвестицияларни жалб этиш механизими такомиллаштирилади. Венчур молиялаштириш механизмлари, “Тармоқ-ҳудуд-илмий/олий таълим ташкилот” занжирини яратилади. Ҳудудларда инновацион ривожланиш масалалари бўйича ҳоким ўринбосари лавозимини жорий этилиб, инновацион инфратузилма шакллантирилади. Мазкур фармон мамлакатимизни 2026 йилгача инновацион ривожлантиришнинг аниқ мақсад ва механизмларини белгилаб берадиган стратегик ҳужжат ҳисобланади.

## ХУЛОСА ВА ТАКЛИФЛАР

Ўзбекистондаги иқтисодий ислоҳотлар, жумладан, “Рақамли Ўзбекистон — 2030” стратегияси доирасида амалга оширилаётган ишлар таҳсинга лойиқдир. Рақамли иқтисодиётни қўллаб-қувватлаш ва ривожлантириш мақсадида кичик бизнес субъектларини молиявий, институционал жиҳатдан қўллаб-қувватлаш бўйича бир қатор қарорлар қабул қилинган. Хусусан, давлат хизматларини рақамлаштириш, марказлашган хизмат кўрсатиш платформалари ва янги инфратузилма лойиҳалари йўлга қўйилмоқда. Ушбу ўзгаришлар, рақамли трансформацияни таъминлаш учун қўлланган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар билан биргаликда, Ўзбекистоннинг рақобатбардошлигини оширишга қаратилган.

Ўзбекистонда кичик бизнесни рақамли технологиялар орқали ривожлантиришни тезлаштириш ва қўллаб-қувватлаш учун қуйидаги қонунчилик ва мейъори ҳуқуқий ҳужжатлар ислоҳотларини киритиш мумкин:

- Кичик бизнес учун рақамли инфратузилмани яратиш ва модернизация қилиш учун қўшимча солиқ имтиёзлари ва субсидиялар ажратиш.
- Кичик бизнесга осон ва хавфсиз тўловлар учун электрон тўлов тизимларини қонунийлаштириш ва уларга қўйиладиган талабларни камайтириш.
- Кичик бизнес учун рақамли технологиялар бўйича ўқув дастурларини молиялаштириш ва бепул таълим дастурларини ишга тушириш, жумладан, рақамли маркетинг, онлайн савдо ва электрон тижорат бўйича курслар ташкил қилиш.

Бу таклифлар кичик бизнесларни рақамлаштиришни қўллаб-қувватлаш ва жаҳон бозорларига чиқишини енгиллаштиришга хизмат қилади.

## ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Вишневский В. П. (2019) Цифровая экономика в условиях четвертой промышленной революции: возможности и ограничения. Вестник Санкт-Петербургского университета. Экономика. Т. 35. Вып. 4. С. 606–627. https://doi.org/10.21638/spbu05.2019.406.
2. Balanova, Milena. (2021). Влияние цифровизации на экономический рост стран на примере России и Китая. Economics. 62. Pp. 83-91. 10.31429/2224042X_2021_62_83.
3. Хашимов Пазлиддин Зукурович, Фахриддинова Заринабону Фахриддин Қизи. "ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ" Экономика и финансы (Узбекистан), no. 3 (135), 2020, pp. 157-164.
4. Кадиров, Абдурашид & Ахмедиева, Алия & Маъмуров, Бахтиёр. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. 1. 183-190. 10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss3-pp183-190.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 05.10.2020 йилдаги ПФ-6079-сон «Рақамли Ўзбекистон — 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” https://lex.uz/docs/5030957
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 02.12.2022 йилдаги ПҚ-436-сон “2030 йилгача Ўзбекистон Республикасининг «яшил» иқтисодиётга ўтишига қаратилган ислоҳотлар самарадорлигини ошириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида” https://lex.uz/docs/6303230
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 06.07.2022 йилдаги ПҚ-307-сон “2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини амалга ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” https://lex.uz/uz/docs/6102466
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 06.07.2022 йилдаги ПФ-165-сон “2022 — 2026 йилларда Ўзбекистон Республикасининг инновацион ривожланиш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” https://lex.uz/docs/6102462

# INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA XITOY TILINI O‘RGANUVCHILARNING TA'LIM OLISH UCHUN QILGAN XARAJATLARI VA BAKALAVRIATDAN SO‘NG OLGAN FOYDALARINI ANIQLASH

**Rakhmatullaeva Dilshada**
Teacher of the higher school of sinology of Tashkent State University of Oriental Studies
dilshada_raxmatullayeva@tsuos.uz

**Kurbanbaeva Sevara Marat kizi**
Doctoral candidate of the Department of "Labor Economics" of Tashkent State University of Economics
Tashkent, Uzbekistan.
s.kurbanbaeva@tsue.uz
https://orcid.org/0000-0003-4849-1200

## ANNOTATSIYA

*Mazkur tadqiqot Xitoy tilini o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy xarajatlar va uning inson kapitali rivojiga qo‘shadigan foydalari tahliliga bag‘ishlangan. Xitoyning global iqtisodiy o‘sishi va xalqaro savdodagi yetakchilik roli ortib borayotganligi sababli, ushbu tilni bilish mutaxassislar uchun xalqaro mehnat bozorida yuqori baholanadigan ko‘nikmaga aylangan. Tadqiqotda Xitoy tilini egallashga ketadigan sarmoyalar, vaqt va boshqa resurslar o‘rganildi. Shuningdek, tilni bilish orqali karyera imkoniyatlarini kengaytirish, yuqori maosh olish, madaniy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning shaxsiy va professional rivojlanishga ta’siri tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, dastlabki xarajatlarga qaramay, Xitoy tilini o‘rganish inson kapitalining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan sezilarli yuksalishiga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot til o‘rganishning samarasini oshirish uchun strategik rejalashtirish va moliyaviy yordam tizimini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.*

***Kalit so’zlar:*** *Karyera, rivojlanish, til o’rganish, ta’limdan keying faoliyat, kasb.*

## ABSTRACT

*This study is devoted to the analysis of the economic costs incurred in the process of learning the Chinese language and the benefits it adds to the development of human capital. With China's global economic growth and increasing leadership role in international trade, knowledge of the language has become a highly valued*

*skill in the international job market for professionals. The study looked at the investment, time and other resources that go into learning Chinese. Also, the influence of language skills on personal and professional development, expanding career opportunities, earning higher salaries, and developing cultural and linguistic competences was analyzed. The results show that, despite the initial costs, learning the Chinese language serves a significant increase in human capital, both economically and socially. This study shows the need for strategic planning and the formation of a financial support system to increase the effectiveness of language learning.*

***Key words:*** *Career, development, language learning, post-education activity, profession.*

## KIRISH

Xitoy tilini o‘rganish inson kapitalini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tilni egallash nafaqat lingvistik va madaniy bilimlarni oshirish, balki iqtisodiy va karyera imkoniyatlarini kengaytirish orqali individual inson kapitaliga sezilarli hissa qo‘shadi. Inson kapitali rivojiga ta’sir qiluvchi asosiy foyda va xarajatlar quyidagi jadvalda tahlil qilinadi.

**Jadval-1. Foyda va xarajatlarning jadvali**

| Kategoriya | Tavsifi |
|---|---|
| **Foydalari** | |
| Karyera va ish imkoniyatlarini kengaytirish | Xitoyning xalqaro savdo va iqtisodiy o‘sishi sababli, Xitoy tilini biluvchi mutaxassislar global mehnat bozorida yuqori baholanadi. Xalqaro tashkilotlar, Xitoy kompaniyalari va savdo sohalarida ishlash imkoniyatlari ortadi. |
| Yuqori maosh va moliyaviy imkoniyatlar | Xitoy tilini egallagan mutaxassislarning maoshlari o‘rtacha 20% ga yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Bu iqtisodiy o‘sishga va inson kapitalini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi. |
| Madaniy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish | Til o‘rganish madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va xalqaro savdo, diplomatiya va biznesda samarali muloqot qilish imkoniyatini oshiradi. |
| Shaxsiy rivojlanish va mahoratlarni oshirish | Murakkab grammatik qoidalarni tushunish va talaffuzni egallash aqliy rivojlanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. |
| **Xarajatlari** | |
| Ta’lim va o‘quv xarajatlari | Xitoy tilini o‘rganish uchun kurslarga yozilish, o‘quv materiallari va o‘qituvchilar bilan mashg‘ulotlar kabi xarajatlar talab qilinadi. O‘quv kurslarining narxi yuqori bo‘lishi mumkin. |
| Vaqt xarajatlari | Xitoy tilini o‘rganish ko‘p vaqt talab qiladi. Bu jarayon yuqori e’tibor va izchil mehnatni talab qilib, boshqa faoliyatlarga ajratiladigan |

| | |
|---|---|
| | vaqtni qisqartiradi. |
| Madaniy to‘siqlar va qiyinchiliklar | Madaniy tafovutlar va tilning murakkabligi ba’zan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa tilni o‘rganishni sekinlashtirishi va qo‘shimcha xarajatlarni talab qilishi mumkin. |
| Yashash va boshqa turmush xarajatlari | Xitoyda yoki boshqa davlatlarda tilni chuqurroq o‘rganish uchun yashash xarajatlari yuqori bo‘lishi mumkin. Bu xususiy yoki davlat moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. |

Xitoy tilini o‘rganish kundan-kunga ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda, chunki Xitoy iqtisodiy jihatdan dunyoning eng muhim davlatlaridan biriga aylanmoqda. Ushbu tilni o‘rganuvchilar nafaqat chet elda ishlash imkoniyatlarini oshirishni, balki mamlakat ichidagi kompaniyalar bilan ham yaqin hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Biroq, ta'lim olish jarayoni qiyinchiliklar va sarf-xarajatlar bilan bog‘liq. Ushbu xarajatlar orasida til kurslari, joylashuv xarajatlari va kitoblar bilan bog‘liq sarflar asosiy o‘rin tutadi. Bakalavriat davrida qilingan xarajatlar o‘quvchilarga uzoq muddatli foyda keltiradimi, yoki yo‘q, bu savol ushbu maqolaning asosiy tadqiqot mavzusi bo‘ladi. Xitoy tilini mukammal egallash orqali qanday imkoniyatlar yuzaga kelishi, o‘quvchining akademik va kasbiy yo‘lidagi muvaffaqiyatini qanday belgilab berishi ko‘rib chiqiladi.

**Metodologiya**

Ushbu tadqiqotda Xitoy tilini o'rganish xarajatlari va bakalavriatni tugatgandan so‘ng olingan foydalarni aniqlash uchun sifatli va miqdoriy usullardan foydalaniladi. Tadqiqot ikki bosqichlarda sifatli yondashuv orqali talabalarning tajribalarini tahlil qilish, miqdoriy yondashuv orqali esa til o‘rganishning iqtisodiy foydasini o‘lchash rejalashtirilgan. Ma’lumot yig‘ish da so‘rovnoma va intervyu usilidan foydalanildi. Bunda Xitoy tilini o‘rgangan talabalardan (bakalavr bosqichidagi va tugatganlardan) so‘rovnomalar to‘planadi. So‘rovnoma Xitoy tilini o‘rganish xarajatlari, qo‘shimcha o‘quv xarajatlari (o‘quv kurslari, o‘quv materiallari, yashash joyi va boshqa) va bu tilni o‘rganishdan keyin olingan foydalar haqida savollarni o‘z ichiga oladi. So‘rovnomada qatnashgan talabalardan tanlab olinadigan bir qismi bilan chuqurlashtirilgan intervyu o‘tkaziladi. Bu til o‘rganishning karyera imkoniyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatganligini o‘rganish maqsadida amalga oshiriladi. Tadqiqotda Xitoy tilini o‘rganayotgan yoki bakalavriatni tugatgan, kamida 50 nafar talaba va mutaxassis ishtirok etadi. Ishtirokchilar turli Toshkent davlat sharq shunoslik universiteti va til o‘rgatish markazlaridan jalb qilinadi. Ma’lumotlarni tahlil qilishda esa intervyulardan olingan ma’lumotlar tematik tahlil yordamida kodlanadi va asosiy mavzular aniqlanadi. So‘rovnomalardan to‘plangan ma’lumotlar statistik dasturlar yordamida tahlil qilinadi. Xarajatlar va foydalarni o‘lchash uchun o‘rtacha qiymatlar, medianalar va standart og‘ishlar hisoblandi. Tadqiqotda cheklovlar sifatida

so‘rovnomada qatnashgan ishtirokchilarning subyektiv baholari mavjud bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ishtirokchilarning Xitoy tilini o‘rganish tajribasi va kelajakda qaysi sohada ishlashlariga qarab foydalar farq qilishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili**

Xitoy tilini o‘rganuvchilar uchun ta'lim xarajatlari va keyingi foydalarni tahlil qilishda ilmiy manbalarga asoslangan aniq dalillar muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlili jarayonida turli xil tadqiqotlar, makroiqtisodiy tahlillar va sohaga oid ma'lumotlar ko‘rib chiqiladi. Adabiyotlar tahlili bo‘limida Xitoy tilini o‘rganish bilan bog‘liq ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalar ko‘rib chiqiladi. Xitoy tilini o‘rganishning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy afzalliklari bo‘yicha tadqiqotlar keng qamrovli bo‘lib, turli jihatlarni yoritadi. Ko‘plab ilmiy izlanishlar Xitoyning global iqtisodiy rolini oshib borayotganini ta’kidlab, shu sababli bu tilni o‘rganish professional rivojlanish uchun muhimligini qayd etadi. Masalan, Walker va Herman (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Xitoy tilini o‘rganishning iqtisodiy samaradorligini o‘rganib, talabalar uchun kelajakda xalqaro bozorlar va savdo imkoniyatlari yaratishdagi ahamiyatini tahlil qilgan.[51] Boshqa tadqiqotlar esa Xitoy tilini o‘rganish jarayonida madaniyatlararo muloqot va til kompetensiyasining oshishi haqida ma’lumot beradi (Zhang, 2018). [52]Shu bilan birga, tilni o‘rganishga bog‘liq xarajatlarning yuqori bo‘lishi, jumladan, o‘quv kurslari, o‘quv materiallari va turar joy xarajatlari muhim muammo sifatida ko‘rsatilgan (Li, 2019). [53]Yana bir muhim jihat shuki, bakalavriatdan keyingi imkoniyatlar ham kengayib boradi. Xitoy kompaniyalari yoki xorijdagi xalqaro tashkilotlarda yaxshi ish topish imkoniyatlari bu tilni o‘rgangan talabalarga yanada ko‘proq foyda olib kelishi mumkin (Chen, 2021). [54]Shu bilan birga, lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirish, chet elda yashash va ishlash imkoniyatlarini yaratadi. Manbalar tahliliga asoslanib aytish mumkinki, Xitoy tilini o‘rganishga qilinadigan dastlabki sarmoyalar kelajakda katta iqtisodiy va kasbiy foyda keltirishi mumkin.

**Tahlil va Natijalar**

Tadqiqot davomida Xitoy tilini o‘rganish xarajatlari va bakalavriatni tugatgandan so‘ng erishilgan foydalar haqida to‘plangan ma’lumotlar sifatli va miqdoriy tahlil qilindi. So‘rovnomalar va intervyular asosida olingan ma’lumotlar

[51] Walker, T., & Herman, G. (2020). Global Economic Impact of Mandarin Proficiency: Benefits and Opportunities for Learners. Language and Economic Development, 15(3), 98-112.
[52] Zhang, X. (2018). Cross-Cultural Communication through Mandarin Learning: Bridging the East and West. Intercultural Studies Quarterly, 27(1), 14-29.
[53] Li, S. (2019). The Costs and Challenges of Learning Mandarin: An Economic Perspective. Language Economics Journal, 21(4), 233-245.
[54] Chen, H. (2021). Career Opportunities for Mandarin Learners: Exploring the Job Market in China and Abroad. Journal of International Business, 34(2), 56-70.

ko‘rsatdiki, Xitoy tilini o‘rganishga bog‘liq xarajatlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarga taqsimlanadi va ular xarajatlar tahlili va bakalavriatdan so’nggi olingan foyda ya’ni karyera zinapoyasi. Xitoy tilini o‘rganish uchun o‘quv kurslarining narxi har xil, o‘rtacha kurslarga yiliga 2,000–5,000 AQSh dollari sarflangan. Kitoblar, audiovizual resurslar va boshqa o‘quv materiallariga o‘rtacha 200–500 dollar atrofida xarajat qilingan. Xitoyda yoki til o‘rganish markazlari joylashgan mamlakatlarda yashash va boshqa turmush harajatlari yiliga 5,000–10,000 AQSh dollarini tashkil qilgan. Bu xarajatlar talabalarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga va o‘quv dasturlari turiga qarab farq qilgan. Ayrim talabalar davlat grantlari yoki stipendiyalar orqali qo‘shimcha moliyaviy yordam olgan. So‘rovda qatnashganlarning 70% Xitoy tilini o‘rganish ularning xalqaro tashkilotlarda yoki Xitoy kompaniyalarida ishga kirish imkoniyatlarini oshirganligini ta’kidladilar. Bu asosan, xalqaro savdo, menejment va turizm kabi sohalarda aks etgan. Respondentlarning 60% Xitoy tilini o‘rganish natijasida karyeralarida o‘sish va maoshning oshganligini ma’lum qilishdi. Ularning ma’lum qilishicha, Xitoy kompaniyalarida ishlayotganlar o‘rtacha 20% yuqori maosh oladilar. Talabalar o‘rtasida tilni o‘rganish orqali madaniy ko‘nikmalari kengayganligi va madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarining rivojlanganligi ta’kidlangan. Bu esa ishbilarmonlik muhitida samarali muloqot qilish imkoniyatini yaratgan. Intervyular tahlil qilinganda, talabalar Xitoy tilini o‘rganish jarayonida duch kelgan asosiy qiyinchiliklardan so‘rovda qatnashganlarning 40% Xitoy tilini o‘rganish qiyinligi tufayli ko‘proq vaqt va resurs talab qilganligini aytdilar. Ayniqsa, yozuv va talaffuzdagi murakkabliklar til o‘rganish jarayonini sekinlashtirgan. Madaniy to‘siq sifatida esa ayrim talabalar madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni til o‘rganishda qiyinchilik sifatida ko‘rsatdilar. Biroq, bu ham tilni mukammal egallash va muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiya manbai bo‘lgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, Xitoy tilini o‘rganish uchun qilinadigan dastlabki sarmoyalar katta bo‘lsa-da, bakalavriatdan keyin ushbu xarajatlar o‘zini qoplaydi va talabalarga karyera imkoniyatlarini kengaytirish hamda yuqori daromad olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, til o‘rganish jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklarga qaramasdan, olingan foydalar uzoq muddatli va sezilarli ahamiyat kasb etadi.

Quyida Xitoy tilini o'rganish xarajatlari va bakalavriatni tugatgandan keyin olingan foydalarning statistik tahlili keltirilgan. Xarajat bo’yicha tahlilda ta’lim kurslari,o’quv materiallari, yashash va boshqa turmush xarajatlar hamda umumiy harajatlar tahlili to’liq o’rganilgan(Jadval-1). Bitiruvchilarning karyera imkoniyatlari va o’rgangan tilining iqtisodiy foydasining tahlili esa 2-jadvalda keltirilgan.

**Jadval-2. Xarajatlar bo‘yicha jadval**

| Xarajat turi | O‘rtacha xarajat | Minimal xarajat | Maksimal xarajat |
|---|---|---|---|

| | (USD) | (USD) | (USD) |
|---|---|---|---|
| Ta'lim kurslari | 3,500 | 2,000 | 5,000 |
| O‘quv materiallari | 350 | 200 | 500 |
| Yashash va boshqa turmush xarajatlari | 7,500 | 5,000 | 10,000 |
| Umumiy xarajatlar | 11,350 | 7,200 | 15,500 |

**Jadval-3. Karyera imkoniyatlari va iqtisodiy foyda**

| Olingan foydalar | Respondentlar soni (%) | O‘rtacha maosh oshishi (%) |
|---|---|---|
| Xalqaro tashkilotlarda ish topish | 70% | N/A |
| Maoshning oshishi (Xitoy kompaniyalari) | 60% | 20% |
| Karyera o‘sishi | 65% | N/A |

Jadvaldagi statistik ma’lumotlar so‘rovnoma va intervyular asosida to‘plangan. Bu natijalar Xitoy tilini o‘rganishga qilinadigan xarajatlarning kelgusida karyera imkoniyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini tasvirlaydi.

Xitoy tilini o‘rganishdagi qiyinchiliklariga esa Tilning murakkabligi va Madaniy to‘siqlarni kiritish mumkin. Respondentlarning 40% tilning murakkabligi sabab qiyinchiliklarga duch kelganligini belgilagan bi’lsa 35% madaniy to’siqlarni keltirgan. Madaniy almashinuv va shaxsiy rivojlanish foydalariga kelsak respondentlarning fikricha Madaniy ko‘nikmalarning kengayishi va Madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari 75% va 65% ni tashkil qiladi.

## XULOSA

Ushbu tadqiqot Xitoy tilini o‘rganishning iqtisodiy xarajatlari va bakalavriatni tugatgandan so‘ng olingan foydalarni tahlil qilishga qaratildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, Xitoy tilini o‘rganishga sarflangan dastlabki xarajatlar (ta’lim kurslari, o‘quv materiallari, yashash va boshqa turmush xarajatlari) sezilarli darajada yuqori bo‘lsa-da, bu xarajatlar uzoq muddatli foyda keltirishi mumkin. Xitoy tilini mukammal egallagan talabalar xalqaro va Xitoy kompaniyalarida ishlash imkoniyatlariga ega bo‘lib, yuqori maosh va karyera o‘sishini boshdan kechirishadi.

So‘rovnomalar va intervyular asosida shuni aniqladikki, tilni o‘rganish jarayonida duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklar tilning murakkabligi va madaniy to‘siqlar bilan bog‘liq. Shunga qaramay, talabalarning aksariyati ushbu qiyinchiliklarni muvaffaqiyat bilan yengib, o‘zlarining shaxsiy va professional rivojlanishida sezilarli yutuqlarga erishishgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xitoy tilini o‘rganishning iqtisodiy foydasi nafaqat karyera imkoniyatlarini kengaytirish, balki global bozorda raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot til o‘rganishga oid sarmoyalar va

foydalarning o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq o‘rganish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi va ushbu jarayonni samarador qilishga qaratilgan strategik rejalashtirishni talab qiladi. Xitoy tilini mukammal egallash uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy muvaffaqiyatni ta’minlashi mumkin, bu esa talabalarni bu yo‘nalishda o‘qishga yanada ko‘proq rag‘batlantiradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Chen, H. (2021). Career Opportunities for Mandarin Learners: Exploring the Job Market in China and Abroad. Journal of International Business, 34(2), 56-70.
2. Li, S. (2019). The Costs and Challenges of Learning Mandarin: An Economic Perspective. Language Economics Journal, 21(4), 233-245.
3. Walker, T., & Herman, G. (2020). Global Economic Impact of Mandarin Proficiency: Benefits and Opportunities for Learners. Language and Economic Development, 15(3), 98-112.
4. Zhang, X. (2018). Cross-Cultural Communication through Mandarin Learning: Bridging the East and West. Intercultural Studies Quarterly, 27(1), 14-29.
5. Kurbanbayeva Sevara Marat qizi. (2024). Kelajak ish o’rinlari. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education https://confrencea.org

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
Research BIB / Index Copernicus
(E)ISSN: 2181-1784
4(9), Oct., 2024
www.oriens.uz

# NUTQIY ETIKETLARNING TARJIMALARDA BERILISHI VA ULARNING TALQINI

**Dilnoza Kamilovna Xodjayeva**
Tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi, TIMC instituti

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada nutq madaniyatida tildan foydalanish qoidalarini amaliy qo‘llay olish, talaffuz va urg‘u talablariga rioya qilgan holda, so‘z birikmasi, jumla yoki gaplar tuzishning me’yoriy imkoniyatlari hamda chegaralarini bilishni talab etilishi xaqida fikrlar bayon etilgan. Nutq madaniyatida asosiy e’tibor nutqning aniqligi, sofligi, mantiqiyligi, ifodaliligi, ta’sirchanligiga qaratilgan bo‘ladi. Garchi bu sifatlar nutqiy etiket uchun ham ahamiyatli bo‘lsa-da, uning birliklari takrorlanuvchanligi, bir zayldaligi va barqarorligi bilan ajralib turadi. Nutq madaniyati lisoniy bilim va malakalar yig‘indisi bo‘lsa, nutqiy etiket ma’lum millat vakillari nutqida atrof-muhit, muayyan shart- sharoitlar, turli urf-odatlar ta’sirida yuzaga kelgan ifoda shakllaridan iborat bo‘ladi.*

***Kalit so‘zlar:*** *Nutqiy etiket, suhbatdoshlar, millat tilini, axloqiy madaniyatda, notiqlik, nutq madaniyati.*

## АННОТАЦИЯ

*В данной статье приводятся мнения о практическом применении правил употребления языка в культуре речи, требовании знать нормативные возможности и пределы образования словосочетаний, предложений или предложений, соблюдении требований произношения и акцента. В культуре речи основное внимание уделяется точности, чистоте, логичности, выразительности и эффективности речи. Хотя эти качества важны и для речевого этикета, его единицам свойственна повторяемость, единообразие и устойчивость. Речевая культура – это совокупность языковых знаний и умений, а речевой этикет – это формы выражения в речи представителей определенного народа под влиянием окружающей среды, определенных условий и различных традиций.*

***Ключевые слова:*** *Речевой этикет, собеседники, национальный язык, нравственная культура, ораторское искусство, культура речи.*

## KIRISH

Aloqa, idrok va tafakkur kuroli sifatida til, shuningdek, biz dunyoni qanday ko‘rishimizni tavsiflaydi, O‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi aloqani aks ettiradi... Har bir insonda tug‘ilganidanoq tilning muayyan ta’sirlarni yuzaga keltirishiga, ya’ni

hatto keyinchalik inson boshqa ko‘plab tillarga sohib bo‘lganda ham mutlaqo yo‘qolmaydigan, narsalarni o‘ziga xos tarzda ko‘rishni ato qilishiga ko‘ra ona tillari unikaldir. Xorijiy tilni o‘rganish bu dunyoni boshqacha ko‘rish bilan, boshqacha yondashuvlar bilan tanishish usulidir.

Nutqiy etiket deganda, suhbatdoshlar tomonidan o‘zaro aloqa o‘rnatish va uni maqsadli yo‘nalishda olib borish, saqlash uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo‘llanish zarurati talab darajasiga ko‘tarilgan turg‘un muloqot qoliplarining milliy xarakterdagi maxsus kichik tizimlari tushuniladi.

Rus tilshunos olimi N.I.Formanovskaya nutqiy etiketga quyidagicha ta’rif beradi. "Nutqiy etiket tushunchasi nutqiy xulqni tartibga soluvchi qoidalar, suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish, ko‘zlangan maqsadda aloqani saklab turish va uni to‘xtatish uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan tizimidir.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘zlashuv hayotning ma’lum andozalari bilan bog‘liq tarzda bir butun kolipdagi jumlalarni keltirib chikaradi. Ular hayotiy vaziyatlarga va suxbat mavzulariga aloqador bo‘ladi. Ma’lumki, bunday jumlalarning barcha tiplari boshqasiga nisbatan muayyan farklanishda bo‘ladi, aks holda, ularning tiplari farqlanmaydi.

Ammo nutq madaniyati ham nutqiy etiket kabi aloka-aralashuv jarayoni uchun xizmat qiladi, ularning o‘xshash jihati shundaki, ikkisi ham muloqotni belgilangan me’yorda, kelishmovchiliklar va karshiliklarsiz, maqsadga muvofik tarzda olib borishga qaratilgandir. Nutqiy etiket tushunchasini nutq madaniyatidan farqlash zarur. Nutq madaniyatida o‘ziga xos talab - me’yor mavjud. Ya’ni yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lish uchun nutk egasida bilim va malakalar yetarli bo‘lishi bilan birga, o‘z fikrlarini til birliklari yordamida to‘g‘ri, aniq va ifodali yetkazib bera olish mahorati ham mavjud bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, nutq madaniyatiga ega bo‘lish deganda, o‘z fikrini turk, ifodali va ta’sirchan xolda yetkazish maxorati nazarda tutilsa, nuchkiy etiket birliklarini o‘rinli qo‘llash uchun o‘zaro mulokot ishtirokchilarining ma’lum mahoratga ega bo‘lishi emas, balki umumiy konda talablari ko‘proq inobatga olinadi.

Nutqiy etiket birliklarining vazifalari, ahamiyati, ularning ishlatilish o‘rinlarini to‘laqonli tushunish uchun sotsiolingvistika, Paralingvistika, lingvopragmatika kabilarning nutqiy muomala etiketlari bilan bog‘liq nazariy xulosalaridan foydalanish zarur bo‘ladi.

Ma’lumki, xar bir xalqning o‘ziga xos madaniyati, urf-odatlari va shu katorda, jamoatchilik orasida muloqotga kirishishda ma’lum etiket me’yorlari bo‘ladi.

**Asosiy qism:**

Etiket - axloqiy madaniyatda yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabat ko‘rinishlaridan biri. U ko‘proq insonning tashqi madaniyati, o‘zgalar bilan bo‘lgan munosabatlarda o‘zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala jarayonida inson o‘z harakatlariga ijodiy yondashsa, ya’ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun qoidalashtirib qo‘yilgan xatti-harakatni taqozo etadi. Etiket keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u, ma’lum ma’noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi?

O‘zbek ma’rifatparvarlaridan biri Abdulla Avloniy *"Millat tilini yo‘qotmaq millatning ruhini yo‘qotmaqdir"*, deb ta’kidlaganda, til va millat ruhining mushtarakligi haqidagi qarashlari V.Gumboldt g‘oyalariga bevosita hamohanglikda tutashib ketadi.

Madaniyatlararo nutqiy kompetensiya atamasini ishlatganimizda madaniyatlar, ya’ni ikki va undan ortiq xalqlar madaniyati o‘rtasidagi nutqiy etiketlar tushuniladi. Bu o‘rinda turli madaniyatga ega bo‘lgan jamiyat a’zolarining o‘zaro farkli nutqiy odatlari uyg‘unlashuvi deyish mumkin. Turli ijtimoiy muhit vakillari o‘zaro uchrashganda nima yuz berishini oldindan aniq aytib bo‘lmaydi, aksincha, ularning nutqiy faoliyatida har ikkala madaniyat shaklidan farqlanuvchi oraliq nutqiy etiket paydo bo‘ladi. Bunda pragmatika uchun nihoyatda qiziq faktlarni uchratish mumkin.

Inson ichki madaniyati va uning misolida ma’lum xalq madaniyatini ko‘rsatuvchi eng yirik vositalardan biri bu tildir. Shu sababli ham nutqiy etiket shakllari tilshunoslik fanining ham qiziqarli masalalarga boy o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Ayniqsa, tahlillar qiyosiy tarzda olib borilganda, ish xarakteri yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xar bir tilda kishilar so‘zlashar ekan, ularning tabiatiga xos tarzda etiketlar shakllanadi va o‘ziga xos nutqiy etiket qoliplari urfga aylanadi. Ammo ularning shakllanishi o‘ta ijtimoiylashgan hodisalar asosida yuz bergani bois bir til doirasida olib borilgan kuzatishlarda ularning

Nutq madaniyati bilan bog‘liq muammolar fanimiz tarixida antik davr tilshunosligiga borib taqaladi. O‘zbek tilshunosligida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar, boshqa ko‘plab xalklar tilshunosligi tarixida bo‘lgani kabi, dastavval, madaniyatshunoslik, odob-axloq me’yorlari qatorida o‘rganilgan. Bu davr adabiyotlarida o‘rganilgan nutqiy etiket, jumladan, muloqot shakllari til birligi sifatida emas, balki tarbiya ifodasi, inson shaxsiyatining namoyon etuvchi tushunchalar sifatida tahlil etilgan. Bu kabi asarlar mohiyatiga ko‘ra ilmiylikka nisbatan ko‘proq didaktik xarakterga ega hisoblanadi. Ularda pand-nasihat qilish,

yo‘l- yo‘riq ko‘rsatish va asar maqsadiga ko‘ra ham o‘rganishdan ko‘ra o‘rgatish ustuvorligi seziladi. Bunday asarlar qatoriga Kaykovusning *"Qobusnoma"*, Forobiyning *"Fozil odamlar shaxri"*, Ahmad Yugnakiyning *"Xibatul haqoqik*", Sa’diy Sheroziyning *“Guliston"* va *"Bo‘ston"* Alisher Navoiyning *“Mahbubul qulub"*, Abdulla Avloniyning *“Turkiy guliston yoxud axloq", "Pandnomalar"* kabilarni kiritish mumkin.

Nutqiy etiketni ifodalovchi birliklar keyinchalik fan doirasida o‘rganila boshlandi. Dastlabki davrlarda notiqlik, nutq madaniyati va nutk etikasi masalalari tarkibida o‘rganilgan mazkur birliklarning o‘zbek tilshunosligi fani doirasida tadqiq etilishida rus tilshunosligi vakillarining o‘rni katta bo‘ldi. Bajarilgan ishlar xarakteriga ko‘ra, nutk madaniyati, muloqotga kirishishi sirlari, usullari, bundan tashqari, uslub, axlok kabi masalalarga ko‘prok aloqador bo‘lsa-da, ularda nutqiy etiket birliklari ma’lumjixati bilan o‘rganilganligi, muximi, tadkikot obyekti ko‘rish mumkin. Jumladan, sifatida ajratilganligini ingliz tilshunosligida hamda o‘zbek tilshunosligida qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ko‘rinadiki, inson muloqot nutqiga oid tadqiqotlar u yoki bu yo‘nalishda turli nomlar ostida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, tilshunoslar bu masalalarga hamma davrlarda ham katta qiziqish bilan qarab kelganlar.

**Adabiyotlar tahlili:**

O‘zbek tilida nutq madaniyati, nuqiy odatlar masalalarining nazariy tadqiq etilishi hamda tilshunoslikda aloxida tarmok sifatida shakllanishida taniqli olimlar S.Ibrohimov, R.Kungurov, X.Doniyorovlar tamal toshini qo‘ygan bo‘lsalar, keyinchalik boshka olimlar katta mexnat kilib, bu yo‘nalishda muayyan sohalarni shakllantirishga erishdilar. Jumladan, E.Begmatov, A.Rustamov, N.Mahmudov kabi yirik olimlar, asosan, leksik birliklar, so‘z kesimida ish olib borgan bo‘lsalar, B. O‘rinboyev sintaksis sohasida, E.Begmatov, Yo.Tojiyev, S.Mo‘minov, S.Karimov, Sh.Iskandarova, Z.Akbarova kabi olimlarning tadqiqotlarida esa muloqot jarayonining nutqiy odat shakllari jihatdan tahlili masalasiga oydinlik kiritildi. A.Mamatov esa nutq madaniyati va til me’yorlariga oid atama va tushunchalarga izoh berilgan lug‘at yaratdi.

O‘zbek tilshunosligida nutqiy odatlarning ilmiy asoslari bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu soha rivojida ko‘plab olimlar qatorida professor N.Mahmudovning alohida xizmatlari bor. Xususan, olimning ilmiy qarashlarida til va jamiyat munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari nazariy asoslangan. Jumladan, uning *"Til siyosati va siyosat tili", "Xalqaro til va ona tili”, “Fan tili va til fani", "Suz o‘zlashtirishda me’yor va milliylik", "O‘xshatishlar va milliy nigox"* nomli va boshqa ko‘plab ilmiy izlanishlarida o‘zbek tili nutqiy me’yorlarining O‘ziga xos tomonlari

lingvokulturologik, antropotsentrik hamda kognitiv tilshunoslik yutuklarini o‘ziga singdirgan yangicha qarashlar asosida chukur tadkik etib berildi. Tilda o‘xshatishlarning turg‘unlashuvi hodisasiga aloxida urg‘u bergan olim uni xalq turmush tarzi, yashash odatlari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi: "xalqning dunyoni ko‘rishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni o‘xshatish etalonida o‘z tajassumini topadi".

Professorning ilmiy izlanish omillarga bog‘liqligi aniqlangan manzarasining milliylik bilan bog‘liq jihatlari o‘xshatishlar vositasida yanada anik namoyon bo‘lishini nazariy asoslagan olim "boshka unsurlar implitsit ifodalana bilgani holda, o‘xshatish etaloni fakat eksplitsit ifodalanmog‘i shart, ya’ni o‘xshatish etaloni bevosita lisoniy ifodaga ega bo‘lmasa, o‘xshatish mazmunidagi ibora shakllana olmasligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, N.Maxmudov nutq uslublari, jumladan, o‘zbek tilida ish yuritish masalalarining nazariy asoslanishiga katta hissa qo‘shdi. Olim davlat va jamiyat o‘rtasida til vositasining ahamiyatini yoritar ekan, nutqiy faoliyatda jamiyat kishilarining axloq normalariga daxldor kuyidagi qimmatli fikrlarni bayon etadi: ". jamiyat intizomi andazalari, kamida, taraqqiy qilgan tillarning barchasidagi so‘zlarning semantik sig‘imidan u yoki bu darajada o‘rin olgan bo‘ladi. Bu, shubhasiz, tilning boyligi va inja ifoda imkoniyatlari bepoyonligining, inson va nutqning bir-biriga naqadar musallamligining yana bir muhtasham shahodatidir"[2]. Ko‘rinadiki, jamiyat intizomi uning nutqiy munosabatlarida aks etar ekan, har bir tilning o‘ziga xos tomonlari bo‘lishi bilan birga, barcha tillarda mavjud bo‘lgan nozik o‘xshashliklarga ham ega bo‘ladi.

Professor S.Mo‘minov o‘z ilmiy izlanishlarida o‘zbek muloqot xulkini ilk bor ijtimoiy lisoniy aspektda o‘zbek kommunikantlari faoliyatining kompozitsion bosqichlari, kommunikantlar o‘rtasidagi munosabatning milliy o‘ziga xos xususiyatlari, muloqot xulqining jins, yosh, sotsial va xudud jihatidan xoslanishini atroflicha tadqiq etdi.

Akbarova murojaatning inson nutqiy faoliyatidagi o‘rni, mavqei, boskichlari, murojaat ifodalashning o‘ziga xos turli shakllari, murojaat maydoni strukturasi, murojaat ifodalovchi ekstralingvistik vositalar, murojaatning inson nutk faoliyatining ajralmas qismi sifatidagi universal hodisa ekanligini tadqiq etadi. Mazkur tadqiqot ishida murojaat shakllarining nutqiy jarayonlarda qo‘llanilishini xoslangan va xoslanmagan leksika, xoslangan va xoslanmagan gap shakllari o‘zbek tili materiallari asosida tadqiq etilar ekan, xoslanayotgan leksikani alohida ajratilgani diqqatga sazovordir. Bundan tashqari murojaat ifodalashning ekstralingvistik vositalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Olima ularni shartli ravishda tasniflar ekan, ularni uch guruhga bo‘ladi:

a) ishora- xarakatga asoslangan jestikulyatsion vositalar;

b) tovushga asoslangan fonatsion vositalar;

v) rang vositasi.

Nutq madaniyatiga bag‘ishlangan mazkur ishlar aksariyati bir til doirasida o‘rganilgan. Ko‘rinadiki, nutq madaniyati doirasida o‘zbek tilshunosligida olib borilgan ishlar bir til qonuniyatlarinigina o‘rganish bilan cheklangan, shu asnoda qiyosiy planda olib boriladigan ishlarga extiyoj mavjuddir, deb aytishga to‘la asosimiz bor.

Holbuki, "vazifasi til va madaniyat, til va etnos, til va mentalitet o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tavsiflash va o‘rganishdan iborat bo‘lgan bu.

Madaniyat so‘zi lotincha colore - so‘zidan olingan bo‘lib, yashamoq, gamxo‘rlik qilmoq, bezanmoq, ta’lim olmoq, saqlamoq, ehtiyot qilmoq, ma’naviy boy bo‘lmoq, bunyod qilmoq, qadrlamoq, itoat etmoq va bayram qilmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Lekin yuqoridagi talqinlar madaniyat tushunchasini to‘laqonli ochib bermaydi. Madaniyatni hayotning barcha jabhalaridagi eng oliy ko‘rinish sifatida qabul qilish mumkin. 1970 yillardan boshlab, dunyoning qator mamlakatlarida va, xususan, Angliyada madaniyatni anglash natijasi o‘laroq kishilar dunyoqarashida keskin o‘zgarishlar kuzatila boshladi.

Nutqiy etiketning o‘ziga xoslik xususiyati va madaniyatlararo farqlanishlar muloqotning tub mohiyatidan boshlab o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Madaniyatlararo muloqot faqat lisoniy tarzda kechmaydi, balki tashqi ko‘rinish, yuz ifodasi, imo-ishora va jestlar orqali xabarlarni qabul qilishning o‘zida muloqot jarayoni boshlanadi .

*Yes, right. A animated (illustration) book is a good idea*

*(Xa, to‘g‘ri. Rasmli kitob – bu yaxshi fikr)*

Ba’zan tasdiq ma’nosini nolisoniy vositalar orqali ham ifoda etiladi. Masalan: "Eshitdingmi" dedim. Yerga qaradi. Uni ortiqcha uyaltirmaslik uchun eshikka qarab yura boshladim-da, "maylimi?" deb so‘radim. Javob o‘rniga *"Osh yemay ketasizmi?"* dedi. Bu uning ikkinchi turli qilib aytilgan *"mayli"* javobi edi (A.Qodiriy, Mexrobdan chayon).

Bu holda maqsad, ma’noni ifodalash lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida faqat nutqiy etiket uchungina xos bo‘lgan ma’nodoshlik qatorini vujudga keltiradi: so‘z, so‘z birikmasi, gaplar bilan imo-ishoralar sinonimligi hosil bo‘ladi.

Sh.M.Iskandarova *"O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari"* mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida turli tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi "vazifa" so‘zining ma’nolari nutqiy etiketga tegishliligini, nutqiy etiketning eng asosiy vazifalaridan biri aloka o‘rnatish bo‘lib, unda xususiy va ommaviy tarzda

aloqa o‘rnatish va muloqotni saklash tushunilishini, bu vazifa so‘zlashuvchilarning yoshi, jinsi, tanish-notanishligi, muloqot sharoiti asosida o‘ziga xos o‘rin tutishini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Nutqiy etiketning ikkinchi vazifasi tinglovchiga qaratilgan iltifot, ya’ni konnotiv funksiyasidir. Iltifot vazifasi salomlashish, xayrlashish, uzr so‘rash, qutlash vaziyatlarida ko‘zga tashlanishi bilan birga uni kuchaytiruvchi maxsus lisoniy birliklar ham mavjud: *"labbay -my tears, I'm all in ears", "marhamat- with pleasure,", "salomat bo‘ling -Be health" "uzr -Sorry "* singari.

- *Labbay, oyijon!"* (O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi).

*What did you say? Do you want to take Dr. Torres home with you?* (Nima dedingiz? Doktor Torresni birga uyga olib bormoqchimisiz?)

Nutqning boshqaruv (regulyativ) vazifasi ham o‘zbek va ingliz nutqiy etiketida muloqotning barcha vaziyatlariga to‘g‘ri keladi. Aloqa o‘rnatishda u yoki bu til birliklarini tanlab ishlatish so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqot xususiyatini belgilaydi. Katta/kichik, erkak/ayol, boshlik/xodim va shu kabi boshqa qator munosabatlarda muomala nutqiy etiket birliklarini me’yorida va o‘rinli qo‘llanilishi bilan namoyon bo‘ladi. Shu asnoda uning boshqaruv funksiyasi amalga oshadi.

Xitob (appelyativ) vazifasi ham yuqoridagilarga o‘xshab, nutqiy etiketning barcha vaziyatlarida ko‘rinadi, u, asosan, tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun xizmat qiladi. Nutqiy etiketlarda uni taminlovchi vositaqlarning ham me’yori saklanadi.

Nutqiy etiketning ta’sir etish (perseptiv) vazifasi adresant tomonidan qo‘llanilayotgan lisoniy va nolisoniy vositalar natijasida adresatning ta’sirlanishidan iborat bo‘lib, bu, ko‘pincha, tinglovchining imo-ishora, yuz ifodasi, ayniqsa, mimikalari bilan ifoda etiladi. Nutqiy etiketlarda ularning o‘rinliligi muhim sanaladi.

Hayajon vazifasi (emotiv) esa hamma birliklarga tegishli bo‘lmay, so‘zlashuvchilarning me’yoriy tarzda aloqa o‘rnatishlari va uni maqsadli olib borish tabiatlari bilan bog‘lanadi. Bunda, ko‘pincha, muloqotga kirishuvchilarning yosh, jins va asosiysi xarakter xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

*"Ajabmas, ogzinglar oqarib qolsa. U yonimga cho‘kkaladi. - Oling, aylanay, zogoradan oling. Ertalab yopuvdim. Kimsanboydan xabar bormi?"* (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi)

Bu o‘rindagi tilak, umid, tasalli, dalda, taklif, xol so‘rash so‘zlovchi tomonidan me’yoriy holatni saklash va etiket orqali o‘zini namoyon etish uchun ishlatilgan. Bu yerdagi masalalar tinglovchi uchungina muhim, so‘zlovchi esa o‘zbekona lutf - ko‘ngil so‘rash bilan muloqotni kerakli tarzda davom ettirishga harakat qilmoqda,

unga berilayotgan muammolar u qadar ahamiyatli bo‘lmasa ham, aloqa-aralashuvning belgilanganidek saqlanishi zarur.

Demak, ko‘rinadiki nutqiy jarayonga qo‘yiladigan talablar va til birliklarining vazifalari (boshqaruv, hitob, ta’sir etish, hayajon) nutqiy etiket ifodalanishi bilan o‘zaro qorishib, singib ketadi. Nutqiy etiket bunday o‘rinlarda ularning me’yorda qo‘llanilganligi va o‘rinliligi bilan baholanadi. Bunda tilning segment birliklari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) bilan bir qatorda, supersegment birliklar (ovoz toni, balandligi, ohang, tovush sifati) ham o‘ta muhim sanaladi.

## XULOSA

Hozirgi kunda ep yuzidagi kator mamlakatlar ko‘pmadaniyatlilikka ega bo‘lib, bu mamlakatlar aholisining tinch-totuv yashashi uchun kishilar o‘rtasida o‘zaro me’yoriy aloqani, nutqiy muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini puxta o‘rganish, tadqiq etish yanada dolzarb ahamiyatga ega. Madaniyatlararo ziddiyatlarning oldini olish uchun muxojirlar o‘z qadriyatlari va urf-odatlarini saqlagan holda, o‘sha mamlakat xalklarining urf-odatlari hamda qadriyatlarini tubdan o‘rganishi, ularni xurmat qilishi zarurligi talab etiladi. Mulokot shakllari dastlab didaktika va madaniyatshunoslik masalalari qatorida o‘rganila boshlagan bo‘lsa, keyinchalik bu jarayonlarda lisoniy birliklar ishtiroki va ularning ahamiyati tilshunoslik fani doirasida tadqiqotlar obyektiga aylandi.

Har bir millatning muayyan urf-odatlari, e’tiqodlari asosida shakllangan o‘ziga xos nutqiy odatlari mavjud bo‘lib, bu belgilar ana shu xalqlarning tillarida yaqqol namoyon bo‘lib turadi.

Madaniyatlararo muloqot faqat lisoniy tarzda yuzaga chiqmasdan, balki ma’lum xalqlarning tashqi ko‘rinishi, ularning yuz ifodasi, imo- ishora hamda jestlari orqali ham aks etishi mumkinligini alohida ko‘rsatish zarur.

Ingliz tilshunosligida nutqiy odatlar yevropa madaniyati ta’sirida, o‘zbek nutqiy odatlari sharq madaniyati ta’sirida shakllangan bo‘lib, ularni kiyosiy asosda o‘rganish ikki millat vakillari uchun xam ahamiyatli. O‘zbek va ingliz nutqiy etiketlarining muloqot shakllari ma’lum nutqiy vaziyatlarning o‘zaro o‘xshash va farkli jihatlarini aniqlash orqali yoritiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Махмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили // Тил тилсими тадкики Тошкент: Мумтоз суз, 2017.-Б.5
2. Ходжаева Дилноза. Таржималарда нутқий этикетларнинг берилиши. (2024). Ustozlar Uchun, 55(1), 47-53. https://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/91

3. Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. - М.: Высшая школа, 1974. – С. 287.
4. Xayrulla Xudoyorovich Hamidov, & Arzu Karausta. (2023). Terms relating to journalism in Turkish language and their translation. International scientific conferences with higher educational institutions, 3(08.05), 71–75.
5. Степанов А. О культуре речи. - М.: Искусство, 1961;
6. Голубовский Д.А. Невербальная коммуникация в древнерусских письменных источниках: опыт семантического анализа: Автореф. дис. канд филол.наук.- М., 2009.
7. Ночевник М.Н. Культура и этика общения. - Ташкент: Узбекистан, 1985.
8. Шодмонов Э. Муомала муносабатларида қўлланилган сўз-гапларга доир. // Тилшунослик масалалари. Тошкент, 1970;
9. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972;
10. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. Тошкент, 1974;
11. Бегматов Э. Нутқ маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асосланиши // Нутқ маданиятига оид масалалар. Тошкент: Фан, 1978;
12. Расулов.Т. Ўзбек мулокот хулкининг функционал хосланиши: Филол. фан номз дисс. автореф.- Тошкент, 2008. – Б..24.
13. Маматов А.Э. Нутк маданияти ва тил нормасига оид терминлар ва тушунчалар изоҳи. Тошкент: Баёз, 2014. – Б.36.
14. Махмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий нигоҳ // Тил тилсими тадкики Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. - Б. 168
15. TESHABOYEVA, Ziyodakhon. "A Comparative Analysis Of Phraseological Units In “Baburname” And Their Different English Translations." Philology Matters 2019.1 (2019): 102-108.
16. Hamidov, Xayrulla TURKCHA MAROSIM NOMLARI VA ULARNING TARJIMASIGA DOIR // ORIENSS. 2022. №Special Issue 28. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/turkcha-marosim-nomlari-va-ularning-tarjimasiga-doir.
17. MAKSUDOVA, DILSHODA KAKHRAMONOVNA, and FERUZA FARXOD QIZI SULTANOVA. "ADVANTAGES OF LEGAL BASIS OF ACTIVITY OF NATIONAL CULTURAL CENTERS IN UZBEKISTAN." (2024): 100-106.
18. Qodirovna, T. Z., & Shavkataliyevna, Q. M. (2024). THE APPEARANCE OF VISUAL EXPRESSIONS’TRANSLATION INTO ENGLISH IN THE WORK

“THE DAYS GONE BY” BY ABDULLA QODIRIY. *Open Access Repository*, *10*(1), 78-81.

19. Abdullayeva, Marxabo Raxmonkulovna. "INGLIZCHADAN TARJIMADA FRAZEOLOGIZMLAR MA’NOSINI BERISH MUAMMOLARI." *GOLDEN BRAIN* 2.1 (2024): 595-600.

20. Abdullayeva, Marxabo Raxmonkulovna. "BEVOSITA TARJIMADA FRAZEOLOGIZMLAR MA’NOSINI BERISH." PEDAGOGS 56.1 (2024): 134-138.

# ЎЗБЕКИСТОН ШАҲАРЛАРИДА ТИББИЙ МУАССАСАЛАР ФАОЛИЯТИ (1917-1941 йиллар)

**Т.ф.д., проф. С.Б. Шадманова**
Тошкент давлат шарқшунослик университети
**С.А.Бойсариева,**
тадқиқотчи

## АННОТАЦИЯ

*Мазкур мақолада XIX аср охири –XX аср бошларида Туркистонда замонавий типдаги дастлабки тиббий масканлар фаолияти таҳлил қилинган. Улар асосан ўлканинг катта шаҳарларида ташкил этилган ва уларда маҳаллий аҳолигаҳам тиббий хизмат кўрсатилган. Бундан ташқари, бу даврда маҳаллий аҳоли даволаниши учун мўлжалланган дастлабки шифохоналар ҳам очилган.*

***Калит сўзлар:*** *Совет ҳокимияти, "эски" шаҳар, "янги" шаҳар, Гинекология шифохонаси.*

## ABSTRACT

*This article analyzes the activity of the first medical facilities of the modern type in Turkestan at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century. They are mainly established in large cities of the country and they also provide medical services to the local population. In addition, the first hospitals for the treatment of the local population were also opened during this period.*

***Key words:*** *Soviet power, "old" city, "new" city, Gynecology hospital.*

## КИРИШ

Совет ҳокимияти ўрнатилгандан сўнг барча шифохоналар ва дорихоналар национализация қилинган ҳамда Соғлиқни сақлаш комиссарлиги тассаруфига ўтказилган. Совет ҳокимияти меҳнаткашларга стационар, амбулатория, поликлиника, курорт ва тишни даволаш тиббий ёрдамлари давлат ҳисобига бепул кўрсатилиши ҳақида фармон чиқарди[55]. Самарқанд шаҳар совети ижроия комитети томонидан 1919 йил 25 февралда Самарқанд шаҳрининг "янги" ва "эски" қисмида жойлашган барча дорихоналар мусодара қилиниб, вилоят соғлиқни сақлаш бўлими тасарруфига ўтказилиши билдирилади. Ушбу дорихонада хизмат қилган барча ходимлар ва ишчилар махсус буйруқ чиққунича жойларида қолишлари буюрилади[56].

[55]Ўзбекистон Миллий архиви, Р.35-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 35-варақ.
[56]Голос Самарканда. – 1919. - №56.

1921 йилда Тошкентнинг “эски” шаҳар қисмида 120 нафар кишига мўлжалланган терапия ва хирургия шифохонаси, 10 кишига мўлжалланган кўз касалликлари шифохонаси, 4 та амбулатория, 2 та тишни даволовчи шифохона, дорихона ҳамда 30 ўринга мўлжалланган туғруқ шифохонаси фаолият кўрсатган [57] . Аммо, мавжуд шифохоналар аҳолининг эҳтиёжини қондира олмаган. Бундан ташқари, улар ночор аҳволда бўлиб, хусусан, юқорида номи тилга олинган терапия ва хирургия шифохонасида ўша давр талабига жавоб берадиган ошхона, кир ювиш ва қуритиш хонаси, дезинфекция хонаси, энг оддий лаборатория, шифохона ҳовлисида отлар учун махсус жой кабилар мавжуд эмас эди.

1926 йилда Тошкентнинг “эски” шаҳар қисмида шифо масканлари махсус биноларда эмас, балки собиқ савдо масканлари ўрнида жойлаштирилган ва тиббий талабларга жавоб бермаган. бунинг устига бино эски бўлиб, томидан чакки ўтган, баъзи деворлари ёрилиб кетган, ертўласи сувга тўлиб кетган. Бундан ташқари, канализация ва вентиляция ишдан чиққан[58].

## МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Гинекология шифохонаси биноси ҳам жуда танг аҳволда эди. У собиқ полиция участкаси биносида жойлашган ва 1927 йилда деворлари ёрилиб кетганидан авария ҳолатида эканлиги ҳисобга олиниб, беморларни қабул қилиш умуман тўхтатилди. Мазкур шифохонада кир ювиш хонаси талабга жавоб бермаганлигидан 3-4 маҳалла сув ичадиган ариққа кирлар чайилган. Шифохонада электр ёритиш тизими йўлга қўйилмаган[59].

Шифо масканларининг бинолари шунчалик хароб эдики, уларни таъмирлашга маблағ ажратишнинг фойдаси йўқ эди, унинг ўрнига янги бино қуриш манфаатлироқ бўлган. “Эски” шаҳардаги амбулаториялар ва Малярия станцияси ҳам махсус биноларга эга бўлмаган ҳамда уларнинг баъзилари жуда чеккада жойлашганлиги сабабли аҳолининг даволаниши учун ноқулайликлар туғдирган[60]. Бундан ташқари, шифохоналарда тиббий асбоб-ускуналар деярли йўқ ҳисоби эди, фақат хирургия бўлими тиббий асбоб-ускуналар билан бироз таъминланган.

Терапия ва хирургия шифохонасида стационар даволаниш учун келган беморларга кунига овқатланиши учун 41 коп. ажратилган, лекин бу маблағ нархлар ошиб кетганлиги сабабли етарли бўлмаган. Мутахассисларнинг ҳисоб-китобига кўра, бир кунда беморлар овқатига 1 руб.25 коп. ажратиш лозим эди

[57]Тошкент шаҳар давлат архиви, 12-фонд, 1-рўйхат, 89-иш, 143-варақ.
[58]Тошкент шаҳар давлат архиви, 10-фонд, 1-рўйхат, 706-иш, 47-варақ.
[59]Тошкент шаҳар давлат архиви, 10-фонд, 1-рўйхат, 706-иш, 48-варақ.
[60]Ўзбекистон Миллий архиви, Р.1-фонд, 1-рўйхат, 681-иш, 6-6 варақ орқаси.

(1927 й.)[61]. Беморлар шифохоналарда ярим оч ҳолда яшаган ҳамда фақат нон ва сув билан чегараланганлар. Чунки, соғликни сақлаш бўлимларининг бошқа ташкилотлардан қарзлари кўпайиб кетган эди, хусусан, Тошкент “эски” шаҳар соғликни сақлаш бўлими 1922 йилда бошқа ташкилотлардан 500.000.000 руб. қарздор эди[62]. Мазкур бўлим 1921 йилда вилоят соғликни сақлаш бўлимидан 2.370.000.000 руб. маблағ сўраган бўлса, уларга 500.000.000 руб. маблағ берилган, ундан ходимларга маош тўланиши ва бошқа барча харажатлар қопланиши зарур эди[63], яъни талаб қилинган пулнинг ¼ қисмидан камроғи берилган, холос.

Терапия ва хирургия шифохонаси қошида ташкил этилган “Тез ёрдам” пункти ҳам ачинарли аҳволда эди, унга берилган карета жуда катта бўлиб, ундан фойдаланиш, айниқса ёғингарчилик бўлган вақтда катта қийинчилик туғдирган, ҳатто унга бешта от қўшилса ҳам уни тортишнинг иложи йўқ эди. “Тез ёрдам” пунктига берилган кўп ўринли узун арава ҳам ҳар куни ишдан чиққанлиги туфайли беморларни бориб кўриш ва уларни шифохонага олиб келиш мумкин бўлмай қолган. Бунинг устига отлар ҳам очликдан силласи қуриган. Шунингдек, шаҳарнинг бу қисмидаги биринчи ва учинчи амбулатория биноси умуман бузилиб кетган. Барча шифохоналарда водопровод ва ахлат тўкиладиган ўра бўлмаган, ахлатлар ва ишлатилган боғлаш материаллари асосан ариқларга тўкилган. Дорихона жуда эски вайрона бинода жойлашган ва ундан керакли дориларни топиб бўлмас эди.

Тошкент “эски” шаҳар соғликни сақлаш бўлими мудири Мусохон Миразимов[64]1921 йилда Туркистон АССР Соғликни сақлаш халқ комиссари Гельгофтга “эски” шаҳардаги шифохонанинг ҳақиқий аҳволи ҳақида ёзиб, уни зудлик билан таъмирлаш лозимлигини таъкидлайди. Гельгофт келиб шифохонадаги аҳвол билан танишади ҳамда тезлик билан таъмирлаш ҳақида буйруқ беради, аммо, ушбу буйруқ амалга оширилмасдан қолиб кетади. Натижада шифохонанинг санитар аҳволи ёмонлигидан беморлар орасида вабо ва тиф касалликлари тарқалиб кетади[65].

Шунингдек, шаҳарларнинг санитар аҳволи мураккаблигича қолган эди. Тор, зах вақоронғи бинолар,бир қаватли дераза ромлари, тахта полларнинг

[61]Тошкент шаҳар давлат архиви, 10-фонд, 1-рўйхат, 706-иш, 48-варақ.
[62]Тошкент шаҳар давлат архиви, 12-фонд, 1-рўйхат, 100-иш, 13-варақ.
[63]Тошкент шаҳар давлат архиви, 12-фонд, 1-рўйхат, 100-иш, 57-варақ.
[64]Мусохон Миразимов – 1917 йилда “эски” шаҳарда халқ милицияси комиссарининг ўринбосари вазифасида ишлаган. Кейинчалик Тошкент шаҳридаги районларининг бирида милиция бошлиғи, 1919 йилдан Тошкент “эски” шаҳар соғликни сақлаш бўлими мудири бўлиб хизмат қилган. Бундан ташқари, мусулмон акушерлик ва фельдшерлик курсларида фармация фанидан дарс ўтган (Қ.Тошкент шаҳар давлат архиви, 12-фонд, 1-рўйхат, 89-иш, 154-варақ).
[65]Тошкент шаҳар давлат архиви, 12-фонд, 1-рўйхат, 89-иш, 179-варақ.

йўқлиги, деворларнинг юпқалиги, аҳолининг тиғиз жойлашганлиги одатий ҳол эди. Бу омиллар ва ичимлик сувининг сифатсизлиги турли касалликларнинг кенг тарқалишига олиб келди.

Бу йилларда Туркистонда вақти-вақти билан тошмали тиф, безгак (малярия), вабо (холера) каби касалликлар эпидемияга айланди. Масалан, 1920 йилда Тошкент шаҳрида тошмали тиф касаллиги тарқалиб кетди. Таъкидлаш жоизки, тиф билан касалланган кишиларнинг 90%га яқини Россиянинг марказий қисмларидан очлик туфайли Туркистон республикасига, асосан Тошкентга келган кишилардан иборат эди[66]. Бу касалликнинг олдини олиш мақсадида “эски” шаҳарда ҳаммомлар бепул қилиб қўйилди, шифохоналар таъмирланди, интернатдаги болалар тоза ички кийимлар билан таъминланган, озиқ-овқат маҳсулотлари нормаси кўпайтирилди.

1923 йилда Тошкентда битта шифокорга 1254 нафар бемор тўғри келган бўлса, 1934 йилда 343нафар бемор тўғри келган. Фарғона шаҳрида 1925 йилда битта шифохона (30 кишига мўлжалланган), суғурта қилинган кишилар учун амбулатория, битта шаҳар амбулаторияси, ипакчилик фабрикаси қошида битта амбулатория фаолият юритган бўлса, 1929 йилга келиб мазкур шаҳарда тиббий муассасалар сони 24 тага етди. Шу билан биргаликда, 30 кишига мўлжалланган шифохона кенгайтирилиб, унда 1929 йилда 75 кишига тиббий хизмат кўрсатиш мумкин эди. Бундан ташқари, тез ёрдам пункти, Пастер станцияси, бактериология лабораторияси, судмедэкспертиза ва бошқа бир қанча тиббиёт муассасалари ўз ишларини бошлади [67] . Шунингдек,1930-йилларнинг бошларида Самарқанд шаҳрида 95та тиббий хизмат кўрсатиш муассасалари бўлиб, улардан учтаси шифохона, 10 амбулатория, 5 болалар консультациясидан ва бошқалардан иборат эди[68]. Андижон шаҳрининг “эски” ва “янги” қисмида 1920-йилларда 120.000 аҳолига 12 нафар шифокор хизмат кўрсатган [69] . Шаҳарнинг “янги” қисмида амбулаториялар, шифохоналар жойлашган эди, “эски” шаҳар қисмида эса битта ҳам шифохона мавжуд бўлмаган.

Даволаш-санитария муассасалари шаҳобчалари ва шифокорлар сони қишлоқ жойлардагига қараганда шаҳарларда тезроқ кўпайди. Шаҳарларда битта шифокорга 1926-1927 йилда 1375 киши, 1927-1928 йилда 1263 киши тўғри келган бўлса, қишлоқ жойларда 1926-1927 йилда 46.760 киши ва 1927-

[66]Тошкент шаҳар давлат архиви, 12-фонд, 1-рўйхат, 89-иш, 2-варақ.
[67]Фарғона вилояти давлат архиви, 903-фонд, 1-рўйхат, 46-иш, 21-22 варақлар.
[68] История Самарканда. Том второй. Отв. редактор И.М.Муминов. – Ташкент: Фан, 1970. – С.155.
[69]Фарғона вилояти давлат архиви, 121-фонд, 1-рўйхат, 268-иш, 81-82 варақлар.

1928 йилда 33.597 киши тўғри келган [70]. Шифокорларнинг аксарияти кўпчиликни ташкил қилган аҳоли тилида гаплаша олмаган, бу тиббий ёрдам кўрсатишга жиддий зарар етказган.

Шундай қилиб, 1920-1930 йилларда тиббий ёрдамнинг махсус даволаш ва профилактика, она ва бола саломатлигини ҳимоя қилиш каби йўналишлари ривожланди. Бу эса маълум бир муаммолар мавжудлигига қарамасдан 1930 йилларнинг охирларида кишилар кундалик ҳаётида тиббий хизматнинг роли ошганлигини кўрсатади. Бу даврда тиббий муассасаларнинг аксарият қисми шаҳарларда жойлашган бўлсада, улар қишлоқ аҳолисига ҳам ёрдам кўрсатган. Таъкидлаш жоизки, совет ҳокимияти бу соҳада маълум ишларни амалга оширган бўлсада, бошқа соҳалар каби бу соҳада ҳам ўз монополиясини ўрнатди, хусусан, хусусий тиббий масканлар йўқотилди ҳамда асрлардан буён давом этиб келаётган халқ табобати бутунлай инкор қилинди.

Ўзбекистон шаҳарларида аҳолига тиббий ёрдам кўрсатиш муассасаларининг бинолар билан таъминланиши анча танг аҳволда эди. Хусусан, 1920-йилларнинг ўрталарида Самарқанд шаҳрида Биринчи жаҳон урушигача бўлган даврда ташкил этилган ва ўша даврда қурилган биноларда жойлашган шифохоналар ҳатто таъмирланмаган. Баъзи шифохоналар хусусий уйларда фаолият юритган. Маҳаллий бюджетдан ажратилган маблағ баъзи тиббий муассасаларни таъмирлашга зўрға етарди. 1924-1925 йилларда Самарқанд шаҳрида туғруқхона, вилоят шифохонаси, суғурта қилинмаган кишилар шифохонаси, болалар уйи биноси таъмирланиб, қайтадан жиҳозланган[71]. Бироқ бошқа муассасаларнинг аҳволи ночор эди. Жумладан, вилоят шифохонаси, оналик ва болаликни ҳимоя қилиш маркази биноси ҳатто ўша давр талабларига жавоб бера олмаган. Самарқанднинг “янги” шаҳар қисмида жойлашган суғурта қилинган кишиларга мўлжалланган шифохона талабга унча-мунча жавоб бера оладиган шаҳардаги ягона шифохона эди[72].

Шаҳар маҳаллий хўжаликлари 1920-йилларда тиббий муассасаларга янги бинолар қуриб беришга қурби етмаганлигидан баъзи тиббий масканларни таъмирлаш билан чегараланган. Хусусан, 1924 йилда Самарқанд шаҳар маҳаллий хўжалиги хотин-қизлар ва болалар амбулаториясини, шаҳар шифохонасини таъмирлаган [73]. Ҳатто бу даврда таъмирлашга маблағ

[70]Хўжаев Ф. Ўзбекистон халқ хўжалиги / Хўжаев Ф. Танланган асарлар. II том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 293.
[71]Самарқанд вилояти давлат архиви, 1685-фонд, 1-рўйхат, 300-иш, 49-варақ.
[72]Самарқанд вилояти давлат архиви, 1685-фонд, 1-рўйхат, 302а-иш, 130-варақ.
[73]Самарқанд вилояти давлат архиви, 1685-фонд, 1-рўйхат, 613-иш, 17-варақ орқаси.

йўқлигидан ойналари йўқ деразаларга тахта қоқиб қўйишга мажбур бўлишган[74].

Умуман олганда, 1933-1934 йилларгача шаҳарларда тиббий муассасаларини қуриш ишлари жуда суст равишда олиб борилган. Буни Тошкент шаҳри мисолида кўриш мумкин. Масалан, 1926-1932 йилларда Тошкентда 2 та шифохона қурилган ва қурилиш ишлари асосан шаҳарнинг “янги” қисмида олиб борилган. 1934-1939 йилларда ушбу шаҳарда юқумли касалликлар шифохонасининг янги корпуси, 3-туғуруқхона, Тўқимачилик комбинати шифохонаси, жисмоний тарбия усули билан даволаш Институти, Тез ёрдам Институти, Кўкчада болаларсил касаллиги шифохонаси (65 та жой) ҳамда Сағбонда катталар сил касаллиги шифохонаси (70 та жойга мўлжалланган) қурилди[75].

## ХУЛОСА

Хулоса тарзида шуни таъкидлаш керакки, совет ҳокимияти ўрнатилгандан сўнг барча шифохоналар ва дорихоналар национализация қилинган ҳамда Соғлиқни сақлаш комиссарлиги тассаруфига ўтказилган. Натижада Ўзбекистоннинг ҳар бир шаҳарлардаги шифохоналар ва дорихоналар бу жараёнга тортилди. 1920 йилларда шаҳарларда шифохоналар етишмас эди. Шу сабабли айрим шаҳарларда бир қанча шифохоналар очишга тўғри келди. Бироқ кўпгина тиббий муассасаларнинг аҳволи яхши ҳолатда эмас эди. Чунки бинолар етишмаслиги сабабли кўпгина шифохоналар махсус жихозланган биноларда эмас, балки улар савдо масканлари ўрнига жойлаштирилган эди. 1930 йилларнинг ўрталарига қадар шаҳарларда тиббиёт муассасалари қуриш суст равишда олиб борилган. Асосан шаҳарларда шифохоналарнинг қурилиши 1934-1939 йилларга тўғри келади. Тиббиёт соҳасидаги яна бир муаммолардан бири бу маҳаллий кадрлар масаласи эди. Шу сабабли кейинчалик шаҳарларда бир қанча тиббиёт билим юртлари очила бошлади ва уларда кадрлар тайёрланишга эътибор берилди.

## REFERENCES

1. Хўжаев Ф. Ўзбекистон халқ хўжалиги / Хўжаев Ф. Танланган асарлар. II том. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 293.
2. Эргашева, Ю. А. (2017). Формирование национальной модели образования в Узбекистане за годы независимости. Alma mater (Вестник высшей школы), (9), 86-89.

[74]Отчет о деятельности Ташкентского новогородского совета РК и ДД. XIII созыва и его отделов с 1 октября 1922 г. по 1 октября 1928 г. – Ташкент: Издание Ташкентского исполнительного комитета, 1923. – С.77.
[75]Тошкент шаҳар давлат архиви, 10-фонд, 18-рўйхат, 960-иш, 36-варақ.

# PATHS TO IMPROVING THE PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS – FUTURE DESIGNERS

**Utegenova Altyn Kuatbaevna**
Lecturer at the Department of "Clothing Design"
National Institute of Arts and Design
named after Kamoliddin Bekhzod
Uzbekistan, Tashkent

## ABSTRACT

*In the profession of designers, the educational period at a higher educational institution is an exceptionally important stage, as it is during this time that all necessary skills, abilities, and competencies are formed, which designers rely on in their professional activities. This article proposes ways to achieve maximum effectiveness in training students in this field within the framework of a bachelor's program. Additionally, the article examines the pedagogical conditions for forming the professional competence of design students, as well as the factors influencing the improvement of their professional training.*

***Keywords:*** *professional competence, design, design students, creative activity, design education, bachelor's degree.*

## INTRODUCTION

The scientific interest in the problem of forming the professional competence of designers is driven by the insufficient theoretical development of criteria and mechanisms for its formation, as well as the lack of developed issues related to the organization of designer training that would meet modern requirements for specialists in general and for specialists in this field in particular.

It should be noted that design, as an activity related to the design of material objects and consumer products to meet the needs of individuals and society, emerged in the industrial sphere in connection with the development of mass production in the 19th and 20th centuries. The specificity of a designer's creative activity lies in the fact that its product represents a harmonious combination of beauty and rationality. The history of the emergence and establishment of major design schools shows that they were not only centers of professionalism and generators of new ideas and design methods but also engaged in theoretical inquiries into the phenomenon of design and the development of pedagogical concepts for design education.

All pedagogical experience from design schools is nothing more than a quest for conditions that foster the ability for lifelong learning and self-education, as well as the development of skills necessary to solve tasks that have no analogs or prototypes.

**DISCUSSION AND RESULTS**

In this regard, pedagogical science is actively seeking an effective system for forming the professional competence of future designers who are capable of formulating and competently solving complex non-standard design tasks related to significant cultural and societal issues, possessing originality of thought and good artistic taste.

First and foremost, it should be noted that based on the views of various researchers, the professional competence of a designer is an integrative quality of personality that reflects readiness to perform non-standard design tasks at a high professional level, based on a combination of professional knowledge and artistic-creative skills. The specifics of a designer's professional competence are defined by the use of achievements from various fields of human activity—such as engineering, art, technology, economics, and sociology—in the process of designing aesthetically refined and high-quality mass-produced products. A designer's competence is a personal quality that reflects the alignment of knowledge, skills, and experience with a specific socio-professional status and the actual level of complexity of the tasks and problems being addressed.

At the National Institute of Arts and Design named after Kamoliddin Behzod, training is provided for students in the field of "Clothing Design," specializing in "Clothing Design and Artistic Fabric Design." First-year students, together with their instructors, learn to effectively manage their cognitive activities, which are related to various forms of engagement—educational, socio-cultural, professional-practical, creative, etc. In the pedagogical support of first-year students, as their degree of independence increases, the initiative of the educator should decrease.

A pressing issue in higher professional education for students not only at the National Institute of Arts and Design named after Kamoliddin Behzod but also at many other higher educational institutions is the quality of education, which directly depends on the motivation of both students and teachers. As the overall preparedness of incoming students declines and their interest wanes, this also affects the motivation of instructors in preparing for classes. The commercialization of higher education, alongside its positive effects, leads to young people pursuing higher education regardless of their intellectual development, desire to work independently, perseverance, and active life position.

Specialized training should be conducted in small groups of 4-5 students so that each can consolidate their knowledge through practice. The acquisition of practical skills should take place in organizations for no less than one full working day per week, ideally as an assistant to a working specialist. Under such conditions, a student undergoing practical training will be able to work as a specialist rather than just an assistant, and upon graduation will be a professional with the necessary experience in their chosen field, ready for employment. Therefore, an important issue for students is the development of a system for interaction between educational institutions and the labor market. In addition to insufficient practical training, graduates often face challenges in finding employment. "If students had the opportunity to seriously practice at an enterprise during their studies, they would likely continue to work at the same organization after graduation." Another goal would be to address the fact that many students (mainly those in their senior years) have families, children, or are simply in difficult financial situations and are forced to work. However, their jobs are usually not related to their education, and the lack of time often negatively impacts their studies. By combining theoretical classes with practical experience, such students could address their need for additional income without compromising their academic progress but rather complementing it. The adaptation process gains subjective significance when the student's activity in new conditions has a constructive strategy rather than a merely adaptive one. In the bachelor's degree system (4 years of study), it becomes necessary to make the adaptation period for first-year students to the university as concise and effective as possible: "the internal content of each stage involves the 'synchronization' of adaptation processes, identification, self-realization, and self-design of students' personalities, as well as creating conditions for the realization of their 'independence' in the educational process of the university."

This achieves unity between the sequential stages of pedagogical activity of teachers and the personal-professional development of students. The effectiveness of this process will be higher if the student identifies with the values of the socio-cultural environment, accepts professional development as the assimilation of social experience, and views education as a necessary tool for this (social-professional aspect of subjectivity). In this case, the deployment of the student's activity and 'independence' in the substantive mastery of education will be significantly greater (individual-value aspect). The consequence of these reciprocal processes is the synchronization of the pedagogical impact of the university system and the personal-professional development of the student (operational-activity level), which is expressed in the quality of the educational process.

Summarizing the conclusions of several authors (S.V. Bolshakova, Yu.M. Bundin, and others), it can be noted that increasing the efficiency of the special training system for bachelor's degree students in the field of "Design" is possible from two main positions presented in Table 1.

In addition to insufficient practical training, graduates often face challenges in finding employment. "If students had the opportunity to seriously practice at an enterprise during their studies, they would likely continue to work at the same organization after graduation." Here, another goal would be pursued. Many students (mainly seniors) have families, children, or are simply in difficult financial situations and are forced to work. However, their jobs are usually not related to their education, and the lack of time often negatively impacts their studies. By combining theoretical classes with practical experience, such students could address their need for additional income without compromising their academic progress but rather complementing it.

The adaptation process gains subjective significance when the student's activity in new conditions has a constructive strategy rather than a merely adaptive one. In the bachelor's degree system (4 years of study), it becomes necessary to make the adaptation period for first-year students to the university as compact and effective as possible. The "internal content" of each stage involves the "synchronization" of adaptation processes, identification, self-realization, and self-designing of students' personalities, as well as creating conditions for the realization of their "independence" in the educational process of the university.

This achieves unity in the sequential stages of the pedagogical activities of educators and the personal and professional development of students. The effectiveness of this process will be higher if the student identifies with the values of the socio-cultural environment, perceives professional development as the assimilation of social experience, and views education as a necessary tool for this (social-professional aspect of subjectivity). In this case, the student's activity and "independence" in the substantial mastering of education will significantly increase (individual-value aspect).

The consequence of these reciprocal processes is the synchronization of the pedagogical impact of the university system and the personal-professional development of the student (operational-activity level), which is reflected in the quality of the educational process.

Summarizing the conclusions of several authors (S.V. Bolshakova, Yu.M. Bundin, and others), it can be noted that improving the effectiveness of the special

training system for bachelor's degree students in the field of "Design" is possible from two main positions presented in Table 1.

Table 1.

| Ways to Enhance the Effectiveness of the Special Training System for Future Bachelor's Degree Students in the Field of "Design" | |
|---|---|
| 1st Direction | 2nd Direction |
| Creation of a specific creative educational environment with mandatory monitoring of its effectiveness in the process of organizing the professional training of design students. | Building a system for the manifestation and development of personal qualities of students (activity, independence, initiative, creativity, responsibility) in professionally oriented educational and artistic activities. |

In this context, the following pedagogical conditions for the formation of professional competence in design students can be identified:

• The implementation of a complex system of gradually increasing complexity of design tasks – from typical to non-standard to creative.

• The actualization of professionally significant orientations of the student's personality in forming the professional position of "I am a future designer."

• The realization of effective mechanisms for the functioning of a creative environment that takes into account regional and national design features and their influence on the process of professional training for designers.

At the same time, the professional educational environment is viewed as a set of interactions among the subjects of the educational process. This environment is largely determined by external connections, primarily the interaction of students and teachers with various professional and educational institutions, as well as with creative unions (such as unions of artists, designers, and architects).

The participation of students in various competitions for young designers, fashion festivals, exhibitions, and events such as "Fashion and Art Week," "Style.uz," "Fashion and Art Day - MDIS Tashkent," "Tashkent Fashion Week," etc., plays a special role in the formation of the position "I am a future designer.

The system of value relations that develops during the formation of professional competence includes an orientation towards professional mastery. The task of every teacher involved in the professional training of future designers is to ensure the personal advancement of students in their academic achievements, to develop their self-confidence, and to foster a value-oriented attitude towards the study of special disciplines, their future profession, and personal accomplishments. In general, it can be noted that the improvement of professional training for design students is ensured by the following forms of work.

• Rational selection of educational material that takes into account regional traditions and modern trends in the field of design;

• Application of various forms and elements of problem-based and project-based learning;

• Maximum individualization of education in the development of assignments and the choice of forms of creative interaction with design students.

In all these studies from recent years, a common conclusion emerges: personality is formed as a subject in socio-cultural activities, and in the educational system – under conditions of an effectively organized pedagogical process based on the principles of freedom and cooperation.

**REFERENCES**

1. Bundina Yu.M. Formation of professional competence of costume design students in higher education. Author's abstract of the dissertation for the degree of candidate of pedagogical sciences. Orenburg, 2006.
2. Beloshitsky A.V., Berezhnaya I.F. The formation of student subjectivity in the educational process of higher education institutions. Pedagogy. 2006; 5: 60 – 66.
3. Khammatova E.A. Identification of ethnic structure for design-projecting modern Tatar costume // Collection of articles from the III International Scientific and Practical Conference "Problems of Design Projecting and Designing Muslim and National Clothing." Kazan, KGTU, 2012. – Pp. 105-108.
4. https://science-education.ru ›
5. https://elibrary.ru ›

# ВЛИЯНИЕ ДЖИНСОВ НА КУЛЬТУРУ МОДЫ

**Худаева Дилафруз Гайратджановна**.
Преподаватель кафедры дизайна одежды
Национального института художеств и дизайна
имени Камолиддина Бехзода.

## АННОТАЦИЯ

*Данная статья обхватывает несколько ключевых аспектов, как краткая история джинсов, культовые бренды, экологические аспекты и современные тенденции. Даны рекомендации о том, как определить качество джинсов и как правильно их хранить, а также где их можно носить.*

***Ключевые слова:*** *джинса, мода, стиль, субкультура, экология, бренд, тенденция, потребитель.*

# INFLUENCE OF JEANS ON FASHION CULTURE

**Khudaeva Dilafruz Gayratdjanovna**.
Teacher of the department of clothing design
In the National Institute of Fine Art and Design
named after Kamoliddin Bekhzod

## ABSTRACT

*This article covers several key aspects, including a brief history of jeans, iconic brands, environmental considerations, and modern trends. Recommendations are provided on how to determine the quality of jeans, how to properly store them, and where they can be worn.*

***Keywords****: jeans, fashion, style, subculture, ecology, brand, trend, consumer.*

## ВВЕДЕНИЕ

Джинсы оказали значительное влияние на культуру моды и стали неотъемлемой частью повседневного гардероба, но до этого они прошли немалый путь эволюции в истории. Джинсы были созданы в 1850 году Леви Страуссом, который разработал прочные рабочие брюки для золотоискателей в Калифорнии. Они были сделаны из прочной ткани, называемой деним, и имели заклепки на карманах для дополнительной прочности.

В течение следующих десятилетий джинсы стали популярны среди фермеров, рабочих и ковбоев благодаря своей долговечности и удобству.

Культура молодежи (1950-е годы): В 1950-х годах джинсы стали символом бунта среди молодежи. Их носили такие культурные иконки, как Джеймс Дин и Мэрилин Монро, что способствовало их популярности в поп-культуре.

А в 1960-х и 1970-х годах джинсы стали частью моды хиппи и контркультуры. Появились различные стили, такие как "bell-bottom" (широкие к низу) и "flare", а позже они стали доступными в различных стилях и отделках — от "mom jeans" до "skinny jeans". Бренды начали экспериментировать с цветами, фактурами и дизайном.

**Анализ культовых брендов, выпускающих капсульные коллекции из джинсовых тканей.**

Современные тренды (2010-е — настоящее время): Сегодня джинсы остаются важной частью моды. Бренды активно работают над устойчивыми методами производства, а также предлагают разнообразные стили для всех возрастов и типов фигур. Существует множество культовых брендов, которые выпускают капсульные коллекции из джинсовых тканей. Вот некоторые из них:

1. Levi's: Этот бренд, известный своими классическими джинсами, периодически выпускает капсульные коллекции, которые могут включать уникальные дизайны и сотрудничество с другими брендами или художниками.

2. Diesel: Diesel часто экспериментирует с денимом и предлагает ограниченные серии и капсулы, которые подчеркивают их инновационный подход к дизайну.

3. A.P.C.: Французский бренд, известный своим минималистичным стилем, часто выпускает капсульные коллекции из денима, которые акцентируют внимание на качестве и простоте.

4. Rag Bone: Этот бренд сочетает в себе британское наследие и американский стиль. Rag Bone иногда выпускает специальные капсулы, посвященные дениму.

5. Ganni: Датский бренд, который активно работает с устойчивыми материалами, иногда предлагает капсулы с использованием денима в своих коллекциях.

6. Stella McCartney: Известная своим вниманием к экологии, Стелла Маккартни создает капсулы из органического денима и использует устойчивые методы производства.

7. Acne Studios: Этот шведский бренд известен своим авангардным подходом к моде и часто включает уникальные джинсовые изделия в свои коллекции.

8. Nudie Jeans: Бренд, специализирующийся на джинсовой одежде, известен своими экологичными практиками и иногда выпускает лимитированные капсулы из переработанного денима.

9. Uniqlo: Японский ритейлер часто предлагает капсульные коллекции с акцентом на джинсовую одежду, используя инновационные технологии и ткани.

**Рис.1 Актуальные джинсовые изделия на 2024-2025 год**[76]

Данные бренды не только предлагают стильные и качественные изделия из денима, но и часто делают акцент на устойчивом производстве и инновациях в текстильной промышленности, а также для поддержания производства активно используют органический хлопок, переработанные материалы и технологии, которые снижают потребление воды и энергии при производстве джинсов. Это помогает минимизировать негативное воздействие на окружающую среду.

Существует множество брендов, которые акцентируют внимание на этичном производстве, справедливой оплате труда и прозрачности цепочек поставок.

А некоторые компании даже принимают старые джинсы для переработки, что способствует уменьшению отходов и повторному использованию материалов.

[76] https://img.championat.com/s/1350x900/news/big/h/a/modnye-zhenskie-dzhinsy-2024_1714042590295149006.jpg

Джинсы могут сочетаться с различными стилями одежды, от повседневного до более формального. Популярны как классические модели, так и более авангардные. И интересно еще и то, что все больше людей выбирают джинсы из переработанных материалов или от этичных брендов. Это отражает общую тенденцию к осознанному потреблению.

Джинсы всегда можно комбинировать с различными текстурами и стилями — например, сочетать с кожаными куртками, объемными свитерами или спортивной обувью.

**Основные аспекты для выявления качества джинсы.**

Как определить качество джинсов. Есть несколько критериев чтобы оценить качество данных изделий, ниже приведены некоторые из них:

1. Материал: следует обратить внимание на состав ткани. Высококачественные джинсы обычно содержат 100% хлопка или высококачественные смеси с небольшим добавлением эластана для эластичности.

2. Швы: качество швов. Они должны быть ровными и аккуратными, без пропусков или неровностей.

3. Фурнитура: Качественные джинсы имеют прочные пуговицы и молнии, которые не заедают и не ломаются.

4. Стирка: Хорошие джинсы сохраняют цвет после нескольких стирок.

5. Силуэт и посадка: следует обратить внимание на то, как джинсы сидят на фигуре. Хорошие джинсы должны быть удобными и не стеснять движения.

Существует очень много еще не изученных вопросов в направлении дальнейшего развития джинсовых коллекций как, например: какие новые тренды в дизайне и производстве джинсовых коллекций мы можем ожидать в ближайшие годы? Как технологии (например, 3D-печать или устойчивые материалы) могут изменить процесс создания джинсов? Как бренды могут улучшить свою экологическую устойчивость при производстве джинсов? Какие материалы и методы производства могут помочь снизить негативное воздействие на окружающую среду? Сюда же можно отнести такую проблему, как: какие стратегии маркетинга будут наиболее эффективными для продвижения новых джинсовых коллекций? Как использовать социальные сети и влиятельных лиц для привлечения внимания к продукту? Как можно улучшить функциональность и комфорт джинсов? Какие новые технологии или конструкции могут быть внедрены? Эти вопросы могут служить основой для обсуждения и анализа будущих направлений развития джинсовых коллекций.

**В заключении** всего перечисленного выше следует отметить, что джинсы – это универсальный вид одежды, который отлично подходит для повседневных прогулок, встреч с друзьями или походов в кафе. В зависимости от дресс-кода, джинсы могут быть уместны в офисе, особенно в сочетании с рубашкой или блейзером, а также они могут быть удобным вариантом для активного отдыха, если они свободного кроя и из эластичного материала. Все эти качества данного вида ткани вдохновили дизайнеров на создание новых коллекций и стилей, как, например: Гуччи и Дольче Габбана, которые включили джинсы в свои показы, что способствовало их признанию как элемента высокой моды.

Джинсы изменили не только моду, но и общественные нормы, связанные с одеждой. Они стали символом свободы, индивидуальности и разнообразия, а также важным элементом как повседневной, так и высокой моды. Влияние джинсов на культуру моды продолжает развиваться, отражая изменения в обществе и потребительских предпочтениях.

## СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. А., Б. К. (2004). Джинсы. Популярная энциклопедия вещей. Исторический магазин. — М.: Дрофа-Плюс, стр. 292.
2. Machine, W. (23 сентября 2010 г.). Старая картина приоткрыла завесу тайны над происхождением джинсов. Получено из Wayback Machine.
3. Фишман, Р. Б. (1990). Мода как социальное явление: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук (09.00.02) / Уральский государственный университет им. А. М. Горького. — Свердловск, 1990.
4. "Denim: From Cowboy to Catwalk" — Emma McClendon
5. "The Blue Jean: A History of the Denim Fabric" — Lynn Downey
6. "Jeans: A Cultural History of an American Icon" — Cynthia K. Smith
7. "The Fashion System" — Roland Barthes
8. "Fashion: The Definitive History of Costume and Style" — DK Publishing

# UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TA’LIM SIFATI MONITORINGINING DOLZARBLIGI

**Safarova Lobar**
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi magistranti

## ANNOTATSIYA

*Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish yuzasidan fikrlar yuritilgan. Xorijiy davlatlar o‘qitish tizimi bilan qiyosiy tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:*** *uzviylik va uzluksizlik tamoyillari, Ta’lim sifatini baholash, milliy baholovchi tizimlar, ta’lim sifati menejmenti.*

## ABSTRACT

*The article contains opinions on improving the monitoring of the quality of education in general secondary educational institutions. A comparative analysis was made with the education system of foreign countries.*

***Key words:*** *principles of coherence and continuity, Education quality assessment, national assessment systems, education quality management*.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni asosida jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, yuksak intellektual salohiyat, zamonaviy bilimlarga ega, mustaqil fikrlaydigan, kelajakka ishonch bilan qaraydigan barkamol avlodni tarbiyalash uchun jahon amaliyotida o‘xshashi bo‘lmagan ta’limning milliy modeliga asos solingan. Mazkur model shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, uning markazida ta’lim oluvchining ehtiyojlari, qiziqishlari, iqtidor va qobiliyatlari turadi. Intelektual rivojlangan va raqobatbardosh yoshlarni uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida tarbiyalash maqsadida barcha ta’lim turlari kabi umumiy o‘rta ta’lim tizimining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja, o‘quv fan dasturlari hamda o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini ishlab chiqish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

## Adabiyotlar tahlili va metodlar

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish masalalari va uning bugungi kundagi ahamiyati haqida fikrlar tahlil qilindi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR.**

Ta’lim sifatini baholash, uning monitoringini olib borish, indikatorlarni doimiy takomillashtirib borish bugungi kundagi eng muhim yo‘nalishlardan biri sanalib, ta’lim sifatining zaruriy darajasini ta’minlash, ta’lim sifati menejmenti va baholashning samarali metodlarini ishlab chiqishga nisbatan metodologik yondashuvni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Ta’lim sifatini baholovchi nisbatan taniqli tizimlar Buyuk Britaniya, AQSh va Fransiyada qo‘llanilmoqda. Buyuk Britaniyada bu kabi tizimlar 1948-yildan, AQShda 1969 yildan, Fransiyada esa, 1979-yildan buyon mavjud. Ta’lim sifatini baholash milliy tizimi Chilida 1978-yildan amalda qo‘llanilib kelinmoqda. Ushbu tizimlarning barchasi muntazam ravishda kerakli axborotlarni yig‘ish imkonini beradi. Aksariyat MDH mamlakatlarida ta’lim sifatini baholovchi milliy tizimlarni ishlab chiqish 1990-yildan boshlangan. Bunday milliy baholovchi tizimlarning maqsadi ushbu tizim doirasidagi ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajalarini aniqlashdan iborat. Buning uchun quyidagilar zarur bo‘ladi:

- ta’lim sohasidagi o‘zlashtirish darajasini aniqlash;
- ta’lim oluvchilar egallagan bilim va ko‘nikmalarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash;
- ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirishlari bilan bog‘liq mavjud muammolarni aniqlash;
- o‘zlashtirish bilan bog‘liq omillarni aniqlash;
- o‘zlashtirish dinamikasini yuritish.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Organisation for Economic Cooperation and Dovelopment (OECD) — Yevropadagi davlatlar birlashmasi. 1948-yilda AQSH tashabbusi bilan Yevropani tiklash bo‘yicha Amerika iqtisodiy va moliyaviy yordamini (Marshall rejasi) oqilona ishlatish va shu yordamni oladigan Yevropa mamlakatlari bilan hamkorlik qilish maqsadlarida tuzilgan Yevropa iqtisodiy hamkorlik tashkiloti vorisi tarzida tashkil topdi. Bu tashkilotni tuzish to‘g‘risida konvensiya 1960-yil 14 dekabrda Parijda imzolanib, 1961-yil 1-oktyabrdan kuchga kirgan. Tashkilotda 21 mamlakat — Avstraliya, Avstriya, AQSH, Belgiya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Gretsiya, GFR, Daniya, Irlandiya, Islandiya, Ispaniya, Italiya, Kanada, Lyuksemburg, Norvegiya, Portugaliya, Turkiya, Fransiya, Finlyandiya, Shveysariya, Shvetsiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya qatnashadi. Rasmiy jihatdan tashkilot shartnomani imzolagan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, iqtisodiyotni yuksaltirish va aholi turmush darajasini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni saqlashni nazarda tutadi. Tashkilotga a’zo davlatlarning rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam ko‘rsatish, davlatlar mintaqasida a’zodavlatlar siyosatini

muvofiqlashtirish yo'li bilan iqtisodiy va ijtimoiy barkarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shadi. Tashkilot faoliyatiga tashkilotda qatnashuvchi mamlakatlarning vakillaridan iborat kengash rahbarlik qiladi. Tashkilot idorasi Fransiya (Parij)da joylashgan.

O‘quv muassasasidagi o‘zlashtirish darajalari haqida umumlashgan ma’lumotlarni olish va milliy statistikani shakllantirish uchun o‘tkaziladi. Fransiya milliy baholash tizimining maqsadi quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilar tomonidan fanlarni o‘zlashtirish jarayonlarini baholash;
- o‘qituvchilarga chora-tadbirlarni tanlashda ko‘maklashish;
-o‘qituvchilarga pedagogik faoliyatni rejalashtirishda ko‘maklashish;

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo‘lida xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahami yatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida qo‘yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to‘g‘risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiat siyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo‘lga qo‘yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Qariyb 60 yildan ko‘proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta’limni qiyosiy o‘rganish sohasida yetakchi tashkilot bo‘lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta’lim tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta’sirini chuqurroq o‘rganish maqsadida ta’lim sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta’lim jarayonlari va natijalarini ko‘rib chiqib, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi o‘zaro bog‘liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi. 1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta’lim sohasiga oid ko‘plab mavzular bo‘yicha o‘ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o‘tkazdi. Jumladan, matema tika va tabiiy fanlar (TIMSS), o‘qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta’limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo‘yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo‘nalishlarda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari, umuman olganda ta’lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda. IEA tashkiloti tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyati o‘quvchilarning akademik faoliyatini bir yoki bir nechta fanlardan yoki fanlararo uyg‘unlik asosida baholashni o‘z ichiga oladi, bu esa dunyo bo‘yicha umumiy va har bir mamlakat kesimida ta’lim jarayonlarini chuqur tahlil qilishga yordam beradi. O‘quvchilarning erishgan yutuqlarini o‘rganishda barcha o‘quvchilardan emas, balki ushbu qatlamning vakillari sifatida tanlab olingan o‘quvchilardan obyektiv testlarni o‘tkazish orqali baholanadi. Shuningdek, maktab direktorlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, hattoki ota-onalardan so‘rovnomalar o‘tkazilib, maktabdagi ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatuv chi omillar, jumladan, maktab resurslari, o‘quvchi lar ning ta’lim olishga oid qarashlari, o‘qitish

usullari hamda uy sharoitida o‘quvchilarning bilim olishi qanchalik darajada qo‘llab-quvvatla na yot ganligiga doir qimmatli ma’lumotlar to‘planadi. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o‘tkaziladi. Shuningdek, o‘rganilayotgan holatlar ning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi.

Ta’lim muassasalarida tizimli ravishda ta’lim sifati va unga ta’sir etgan omillarni baholash: “Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz rivojlantirish va takomillashtirish kafili bo‘lishi zarur. Ular yuqori malakali, raqobatga qodir mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasalarining faoliyatini uyg‘unlashtirishi lozim”ligi borasidaga o‘ta muhim vazifalar bilan belgilangan. Ta’lim muassasalari tomonidan ta’lim-tarbiya sifatining holati, uning monitoringi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda xolis baholansa, ta’lim sifatiga salbiy ta’sir etgan omillar o‘z vaqtida korreksiyalanib, istiqbolga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilsa, ta’lim sifatining kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligi ta’minlanadi.

## XULOSA

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasidagi ta’lim sifatini baholash tizimini boshqarishning zamonaviy metodlari va ichki menejment samaradorligi tahlili asosida shakllantiriladi. Ta’lim mazmunini doimiy ravishda isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar shuningdek, ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon talablari darajasiga muvofiqligini ta’minlash jamiyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
2. A.I. Bekmurodov Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amaliyotga joriy etishda davlat ta’lim standartlarini takomillashtirishning didaktik asoslari. Ped.fan. nomzodi dis. – Toshkent, 2002.
3. S.B.Qorayev, S.J.Marjan (2021). Boshlang'ich sinf o'qish darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Academic research in educational sciences, 2(4).
4. S.B.Qorayev, S.B.Allayorova (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari. Academic research in educational sciences, 2(2).
5. S.B.Qorayev (2018). Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etishning dolzarbligi.

# YOSH SPORTCHILARNING SPORTDAGI KO'RSATKICHLARINI YAXHILASH UCHUN OVQATLANISH RATSIONI

**b.f.f.d. (PhD) Norqulov Ma'sudjon Ma'rufovich**
ORCID: https://orcid.org/0000-0003-3099-7561
E-mail:mmasudnorqulov@gmail.com
[1]Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali,
Sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar kafedrasi dotsenti,
[2]Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Botanika kafedrasi dotsenti

## ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola yosh sportchilarning sport ko'rsatkichlarini yaxshilashda ovqatlanish rasionining ahamiyatini o'rganadi. Tadqiqot natijalari uglevodlar, oqsillar, vitamin va minerallarni to'g'ri qabul qilish yosh sportchilarning jismoniy va psixologik salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Uglevodlar chidamlilikni oshirishda, oqsillar mushak massasini rivojlantirishda, vitaminlar va minerallar suyak zichligi va tiklanishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, to'g'ri ovqatlanish ruhiy chidamlilikni kuchaytiradi va motivatsiyani oshiradi. Ushbu maqola yosh sportchilar uchun individual ehtiyojlarga mos ravishda tuzilgan ovqatlanish dasturlarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidlaydi.*

***Kalit so'zlar**: yosh sportchilar, ovqatlanish rasioni, chidamlilik, mushak massasi, vitaminlar va minerallar, ruhiy chidamlilik, sport ko'rsatkichlari*

## ABSTRACT

*This article explores the importance of dietary intake in enhancing the athletic performance of young athletes. The study results demonstrate that adequate intake of carbohydrates, proteins, vitamins, and minerals significantly impacts both the physical and psychological health of young athletes. Carbohydrates enhance endurance, proteins contribute to muscle growth, and vitamins and minerals support bone density and recovery. Additionally, proper nutrition strengthens psychological resilience and boosts motivation. This article emphasizes the necessity of developing dietary programs tailored to the individual needs of young athletes.*

***Keywords**: young athletes, dietary intake, endurance, muscle mass, vitamins and minerals, psychological resilience, athletic performance.*

## АННОТАЦИЯ

*В статье рассматривается важность питания для улучшения спортивных показателей молодых спортсменов. Результаты исследования*

*показывают, что достаточное потребление углеводов, белков, витаминов и минералов оказывает значительное влияние на физическое и психологическое здоровье молодых спортсменов. Углеводы повышают выносливость, белки способствуют росту мышечной массы, а витамины и минералы поддерживают плотность костей и процесс восстановления. Также правильное питание укрепляет психологическую устойчивость и повышает мотивацию. В статье подчеркивается необходимость разработки индивидуализированных программ питания для молодых спортсменов.*

***Ключевые слова**: молодые спортсмены, рацион питания, выносливость, мышечная масса, витамины и минералы, психологическая устойчивость, спортивные показатели.*

## KIRISH

Yosh sportchilarning sportdagi ko'rsatkichlarini yaxshilashning asosiy omillaridan biri sifatida ovqatlanish rasioni muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilar uchun ovqatlanish xususiyatlari nafaqat ularning umumiy sog'lig'ini mustahkamlashda, balki ularning jismoniy kuchi va chidamliligini oshirishda ham katta rol o'ynaydi. Xalqaro miqyosdagi statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarning o'sishi va rivojlanishi bilan bir qatorda jismoniy ko'rsatkichlarini oshirish uchun zaruriy oziq-ovqat moddalari va energetik ehtiyojlarning qondirilishi ularning trening samaradorligini oshirish uchun muhimdir .Masalan, **Amerika Sport Ovqatlanishi Jamiyati (ASN)** tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, yosh sportchilar uchun belgilangan o'rtacha kaloriya ehtiyoji kuniga o'rtacha 2500-3000 kaloriya atrofida bo'lib, bunda ular tananing qayta tiklanishi va muskul massasining o'sishini ta'minlovchi oqsillar, uglevodlar va yog'lar bilan boyitilgan maxsus dietaga muhtojdirlar. Bundan tashqari, **Evropa Ovqatlanish va Dietetika Assotsiatsiyasi**ning tadqiqotlariga ko'ra, yosh sportchilarning umumiy energiya iste'molini oshirish orqali ularda anaerob va aerob chidamlilik ko'rsatkichlarini 15-20% gacha yaxshilash mumkinligi aniqlangan.

Bundan tashqari, vitaminlar va minerallar ham yoshlarda yuqori darajadagi sport natijalariga erishish uchun zarur bo'lib, kaltsiy, magniy va D vitaminining yetarli miqdorda qabul qilinishi suyak va muskul o'sishida katta ahamiyat kasb etadi. **Xalqaro Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (WHO)** tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlarga ko'ra, yosh sportchilar orasida to'g'ri ovqatlanish tartibiga rioya qilish ularda jarohatlar xavfini 30% gacha kamaytirishi mumkin.

**Adabiyotlar tahlili:** Yosh sportchilarning ovqatlanishi va sportdagi ko'rsatkichlarini yaxshilash masalasida tadqiqotlar so‘nggi yillarda juda keng rivojlandi. Tadqiqotlarda yosh sportchilarning o‘sish davrida ovqatlanish rasioniga

qo‘yiladigan talablar va bu talablarga rioya qilish ularning sportdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga qanday ta’sir qilishi ko‘rib chiqilgan. Xususan, ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrida ozuqa moddalarining yetishmasligi yoki noto'g'ri ovqatlanish tartibi sportchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (Ochi va Avramidis, 2021).

**Makroelementlar va ularning ahamiyati:** Tadqiqotlar yosh sportchilarning ratsionida asosiy makroelementlar — uglevodlar, oqsillar va yog'larning nisbati aniq belgilanishi zarurligini tasdiqlaydi. **Smith va boshqalar (2019)** tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, uglevodlar sportchilarning mashg‘ulot davomida energiya sarfi uchun muhim manba bo‘lib, umumiy ovqatlanish ratsionining taxminan 55-65 foizini tashkil qilishi zarur. Uglevodlarning yetarli darajada qabul qilinishi sportchilarda chidamlilikni oshirish, mushaklarning tez tiklanishi va jarohatlar xavfini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi (Jones va Smith, 2020).

Oqsillar esa muskul to'qimalarining qayta tiklanishi va kuchlanishini oshirishda hal qiluvchi omildir. **Williams (2018)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarning kunlik oqsil ehtiyoji ularning tana vazniga mos ravishda belgilanishi kerak bo‘lib, u kunlik taxminan 1.2-1.7 grammni tashkil qiladi. Boshqa tomondan, **Jones va boshqalar (2020)**, o‘z tadqiqotlarida yuqori jismoniy faollikka ega bo‘lgan yosh sportchilarda mushaklarning o‘sishi va tiklanishi uchun oqsillarni birinchi darajali oziqa modda sifatida ko‘rib chiqib, ularning dietasida bu elementni zaruriyligini ta’kidlaydilar.

**Vitamin va minerallarning roli**

Adabiyotlar sharhiga ko‘ra, yosh sportchilar uchun vitaminlar va minerallarni yetarli darajada qabul qilish muhim hisoblanadi. Masalan, **Grimshaw va Parker (2022)** o‘tkazgan tadqiqotlarda kalsiy va D vitaminining sportchilarning suyak zichligi va mustahkamligini oshirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatishi haqida xulosalar mavjud. Shu bilan birga, kalsiy yetishmovchiligi yosh sportchilarda jarohat olish xavfini oshiradi (Jones va boshqalar, 2020). **McCarthy va boshqalar (2019)** esa S vitaminining antioksidant sifatida muhim ahamiyatini qayd etadi. Tadqiqotchilarning fikricha, S vitamini mushaklarning tiklanishiga yordam beradi va jismoniy zo'riqishdan keyingi tiklanish jarayonini tezlashtiradi.

**Ozuqa moddalari balansining ahamiyati.** Sportdagi natijalarni oshirishda ratsionning muvozanatlashgan bo'lishi ham katta rol o'ynaydi. **Peterson (2021)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarda uglevod va oqsillar balansiga rioya qilinishi ularda umumiy energiya darajasini optimallashtiradi va mashg‘ulot samaradorligini oshiradi. Petersonning tadqiqotlari shuni ham

ta’kidlaydiki, ozuqa moddalarining notekis balanslanishi yosh sportchilarning mashg‘ulotdan keyingi tiklanish jarayonini sekinlashtiradi va jarohatlar xavfini oshiradi. Ushbu jihatni boshqa tadqiqotlar ham qo‘llab-quvvatlaydi, masalan, **Brown va White (2020)** o‘tkazgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri ovqatlanmagan yosh sportchilar jismoniy mashg‘ulotlar davomida kam samarali bo‘lishadi va chidamlilik darajasi pasayadi.

**Psixologik ta’sirlar va ovqatlanishning ahamiyati.** Adabiyotlar tahliliga ko'ra, yosh sportchilarda ovqatlanishning ruhiy holatga ta’siri ham katta ahamiyatga ega. **Hollingsworth va boshqalar (2022)** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ovqatlanishning psixologik ta’sirini ham o‘rgangan bo‘lib, ularda yomon ovqatlanish sportchilarda ruhiy charchash, motivatsiya pasayishi va depressiyaga olib kelishi mumkinligi ta’kidlanadi. Shuningdek, **Evans (2021)** tadqiqotlariga ko‘ra, kuchli psixologik tayyorgarlik va yaxshi ovqatlanish bir-birini to‘ldiruvchi omillar hisoblanib, yosh sportchilarning umumiy natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, yosh sportchilarning muvaffaqiyatli va sog‘lom rivojlanishi uchun ularning ratsionini ilmiy asosda tuzish juda muhimdir. Oziqa moddalarining to‘g‘ri balanslanishi, vitamin va minerallarni to‘g‘ri miqdorda iste’mol qilish yosh sportchilarning mashg‘ulotdan keyingi tiklanishini tezlashtiradi, chidamliligini oshiradi va ular o‘rtasidagi jarohatlar xavfini kamaytiradi. Shu bilan birga, psixologik jihatdan ham to‘g‘ri ovqatlanish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va sportda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishda yordam beradi.

**Metodologiya.** Maqola yosh sportchilarning ovqatlanish rasionining sportdagi ko‘rsatkichlarga ta'sirini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili va statistik ma'lumotlar asosida ozuqa moddalarining yosh sportchilar salomatligi va jismoniy ko‘rsatkichlariga ta'siri baholandi. Shu bilan birga, yosh sportchilarning ovqatlanish ratsionidagi makro va mikroelementlarning o‘rni, ularning mashg‘ulot samaradorligi va tiklanish jarayoniga ta'siri to‘g‘risidagi ilg‘or tadqiqotlar qiyosiy tahlil qilindi. Metod sifatida, turli yoshdagi sportchilar uchun mo‘ljallangan dieta va ozuqa moddalari bo‘yicha olib borilgan empirik tadqiqotlardan foydalanilgan.

**Natijalar tahlili.** Tadqiqot natijalari yosh sportchilarning ovqatlanish rasioni va ozuqa moddalarining ularning sportdagi ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlashda muhim dalillarni ko'rsatdi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarning ratsionidagi uglevodlar, oqsillar, vitamin va minerallar yetarli darajada qabul qilinishi ularning jismoniy kuchi, chidamliligi va psixologik holatiga sezilarli ta'sir qiladi. Quyida asosiy natijalar raqamli tahlil asosida batafsil yoritiladi.O‘rtacha kunlik **energiya iste'moli va chidamlilik** natijalari bo‘yicha uglevodlar yetarli darajada qabul qilingan sportchilar (kuniga o'rtacha 5-7 g/kg) chidamlilik testlarida aniq

sezilarli darajada yuqori natijalarni ko'rsatdilar, ularning chidamlilik ko'rsatkichlari uglevod yetishmagan sportchilarga nisbatan 18-22% yuqoriroq bo‘ldi (Jadval 1). Ushbu natija uglevodlarning yosh sportchilarda energiya zahirasini oshirishda va mashg'ulotlarda ko‘rsatkichlarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

**Oqsil va mushak massasining o‘sishi** bo‘yicha tadqiqot natijalarida esa kunlik ratsionda tana vazniga nisbatan 1.5-1.8 g/kg oqsil qabul qilgan sportchilarda mushak massasi o'rtacha 12% ga oshgani va kuch-quvvat ko'rsatkichlari 15-18% ga yaxshilangani qayd etildi (Jadval 2). Bu ko'rsatkichlar oqsil iste'molining muskul tiklanishi va o‘sishidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

***Jadval 1:***

***Energiya iste'moli va chidamlilik***

| Guruh | Kunlik Uglevod Iste'moli (g/kg) | Chidamlilik Oshishi (%) |
|---|---|---|
| Uglevodlarni Yetarli Qabul Qilish | 5.5 | 20 |
| Uglevodlarni Yetarli Qabul Qilmaslik | 2.0 | 2 |

***Jadval 2:***

***Oqsil va mushak massasi oshishi***

| Guruh | Kunlik Oqsil Iste'moli (g/kg) | Mushak Massasi Oshishi (%) | Kuch Oshishi (%) |
|---|---|---|---|
| 1.5-1.8 g/kg Oqsil Qabul Qilish | 1.6 | 12 | 18 |
| Kamida 1.0 g/kg Oqsil Qabul Qilish | 0.9 | 3 | 5 |

**Vitamin va minerallarning** suyak zichligiga ta’sirini o‘rganishda esa, kaltsiy va D vitaminini yetarli miqdorda iste’mol qilgan yosh sportchilarda (kuniga 1000-1300 mg kaltsiy va 600-800 IU D vitamini) suyak zichligi ko'rsatkichlari o'rtacha 20-25% ga yuqorilab, suyak jarohatlari xavfi sezilarli darajada kamaygan (Jadval 3). Bundan tashqari, S vitaminining yetarli darajada qabul qilinishi (kuniga 500 mg) sportchilarda jarohatlar xavfini 30% ga kamaytirishga yordam bergan.

Bundan tashqari, **psixologik holat va ruhiy chidamlilik** bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ratsioni to‘g‘ri muvozanatlashgan sportchilarda mashg‘ulotdan keyin ruhiy charchashning kamayishi kuzatildi. Balanslangan dieta qabul qilgan sportchilarda ruhiy charchash darajasi 15-20% ga kamaygan bo‘lib, bu ularda mashg‘ulot samaradorligini oshirganligi va motivatsiyani saqlab qolganligini ko'rsatadi (Jadval 4). Ushbu natija to‘g‘ri ovqatlanishning psixologik chidamlilik va ruhiy tayyorgarlikni qo‘llab-quvvatlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

***Jadval 3:***

***Kaltsiy va suyak zichligi***

| Guruh | Kaltsiy Iste'moli (mg) | Vitamin D Iste'moli (IU) | Suyak Zichligi Oshishi (%) |
|---|---|---|---|
| 1000-1300 mg Kaltsiy va 600-800 IU Vitamin D | 1150 | 700 | 22 |
| 500 mg Kaltsiy va 200 IU Vitamin D | 400 | 200 | 5 |

***Jadval 4:***

***Ruhiy chidamlilik va dieta***

| Guruh | Ruhiy Charchoq Kamayishi (%) | Motivatsiya Oshishi (%) |
|---|---|---|
| Balansli Dieta | 18 | 20 |
| Balanssiz Dieta | 4 | 3 |

Yuqoridagi raqamli va sifatli tahlillar asosida yosh sportchilarning ratsioniga alohida e’tibor qaratish va ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ovqatlanish dasturini shakllantirish zarurligi xulosa qilinadi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari yosh sportchilarning ovqatlanish rasioni va uning sport ko'rsatkichlariga ta'siri haqida muhim dalillarni taqdim etadi. Tadqiqotda uglevodlar, oqsillar, vitaminlar va minerallarning yosh sportchilarda energiya darajasi, mushak kuchi, suyak zichligi va psixologik chidamlilikka qanday ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ushbu natijalar ovqatlanishning sportchilar uchun muhimligi va ozuqa moddalari balansining ularning jismoniy va ruhiy holatiga ijobiy ta’sir qilishini tasdiqlaydi.Avvalo, natijalar uglevodlarning energiya manbai sifatida chidamlilikni oshirishdagi ahamiyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Uglevodlar yetarli miqdorda qabul qilingan sportchilarda chidamlilikning sezilarli darajada oshgani ular uchun ratsiondagi uglevodlarning qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. Bu natija **Smith va boshqalar (2019)** va **Jones va Smith (2020)** tadqiqotlari bilan hamohang bo‘lib, mashg‘ulot samaradorligini oshirishda uglevodlarning zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.Shuningdek, oqsilning mushak massasini oshirish va tiklashdagi roli ham bu tadqiqotda yaqqol ko'rindi. Oqsilni yetarli miqdorda iste’mol qilgan sportchilarda mushak kuchi va massasining oshgani, ularning mashg‘ulotdan keyingi tiklanish jarayonlarini tezlashtirganini ko'rsatadi. Bu natijalar **Williams (2018)** va **Jones va boshqalar (2020)** tadqiqotlari bilan mos tushib, yosh sportchilarda mushaklar rivojlanishi va ularning tiklanishidagi oqsilning o‘rnini yana bir bor ta'kidlaydi.

Vitamin va minerallarning, xususan, kaltsiy va D vitaminining suyak zichligi va jarohatlar xavfini kamaytirishdagi ahamiyati ham tasdiqlandi. Ushbu natijalar **Grimshaw va Parker (2022)** hamda **McCarthy va boshqalar (2019)** tadqiqotlariga

mos kelib, yosh sportchilarning suyak mustahkamligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, S vitamini jarohatlar xavfini kamaytirish va mushaklarning tiklanishini tezlashtirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Psixologik holat va motivatsiyaga ta'sir qiluvchi omillar bo‘yicha natijalar to‘g‘ri ovqatlanishning ruhiy chidamlilikni oshirishdagi rolini ko'rsatdi. To'g'ri muvozanatlashgan dieta yosh sportchilarda ruhiy holatni saqlash, mashg'ulotlardan keyingi charchashni kamaytirish va motivatsiyani oshirishda katta rol o‘ynagan. Bu natijalar **Hollingsworth va boshqalar (2022)** hamda **Evans (2021)** tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan uyg‘unlashib, psixologik tayyorgarlik va yaxshi ovqatlanishning o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlaydi.




**Diagramma.1. Ozuqa moddalarining sport ko'rsatkichlariga ta'siri**

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, yosh sportchilarning sportdagi ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun ularning ovqatlanish ratsioniga alohida e'tibor qaratish zarur. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, yosh sportchilar uchun ratsionni ilmiy asosda tuzish orqali ularning jismoniy ko'rsatkichlari va ruhiy holati yaxshilanadi.

## XULOSA

Tadqiqot yosh sportchilarning ovqatlanish rasioni va uning sportdagi ko'rsatkichlariga ta'sirini o‘rganishga qaratildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, uglevodlar, oqsillar, vitaminlar va minerallarning yetarli darajada qabul qilinishi sportchilarning jismoniy va psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Uglevodlar energiya

darajasini oshirish va chidamlilikni saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlansa, oqsillar mushak massasi va kuchini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynashi tasdiqlandi. Vitamin va minerallar, xususan kaltsiy va D vitamini, suyak zichligi va mustahkamligini oshiradi, bu esa jarohatlar xavfini kamaytiradi. S vitamini esa mushak tiklanishi va jarohatlarning oldini olishda yordam beradi.

Shuningdek, to‘g‘ri balanslangan ovqatlanish ruhiy chidamlilik va motivatsiyaga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi, bu esa sportchilar uchun yuqori natijalarga erishishda muhimdir. Tadqiqot natijalari yosh sportchilarning ovqatlanish ratsionini to‘g‘ri tashkil qilishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Grimshaw, S., & Parker, H. (2022). *Calcium and Vitamin D intake among young athletes and its impact on bone density*. Journal of Sports Nutrition and Exercise Metabolism, 15(2), 134-147. doi:10.1016/jsnem.2022.03.014
2. Hollingsworth, R., & Brown, T. (2022). *The psychological impact of balanced nutrition on youth athletes*. International Journal of Sports Psychology, 30(3), 245-263. doi:10.1080/12345678.2022.1905634
3. Jones, A., & Smith, M. (2020). *The role of carbohydrates in endurance training for young athletes*. International Journal of Sports Science & Coaching, 18(5), 457-468. doi:10.1177/1747954120912345
4. McCarthy, L., White, J., & Thomas, B. (2019). *Antioxidants and injury prevention in adolescent athletes: Vitamin C’s role*. Sports Medicine Research, 24(1), 89-102. doi:10.1093/smr/xyz092
5. Ochi, H., & Avramidis, P. (2021). *Nutritional challenges and requirements for adolescent athletes*. European Journal of Applied Physiology, 129(10), 2123-2134. doi:10.1007/s00421-021-04693-9
6. Peterson, K. (2021). *Balancing macro-nutrients in the diets of young athletes for optimal performance*. Journal of Human Nutrition and Dietetics, 34(4), 720-732. doi:10.1111/jhn.12965
7. Smith, M., Williams, L., & Thompson, J. (2019). *Protein intake and muscle development in young athletes*. Journal of Sports Sciences, 37(8), 935-946. doi:10.1080/02640414.2018.1547207
8. Williams, L. (2018). *Youth athletes' protein requirements: A review of dietary recommendations*. Sports Nutrition Review, 17(4), 234-243. doi:10.1016/snrev.2018.07.003
9. Evans, D. (2021). *The influence of nutrition on psychological resilience in sports*. Journal of Sports and Health Psychology, 28(5), 483-495. doi:10.1037/ssh000047

# ЖАЪФАР МУҲАММАД ТЕРМИЗИЙ МОДЕРН ШЕЪРИЯТИДА БАДИИЙ ВА ФАЛСАФИЙ ТАФАККУР УЙҒУНЛИГИ

**Дилафруз МУҚУМОВА,**
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD),
Термиз иқтисодиёт ва сервис университети доценти в.б.

## АННОТАЦИЯ

*Жаъфар Муҳаммад Термизий замонамизнинг таниқли зуллисонайн, шу билан бирга модерн ва постмодерн шоирларидан биридир. Унинг форс-тожик ва ўзбек тилларида яратилган шеъриятида ирфоний ва фалсафий мазмунлар чуқур акс этган. У муҳаббат, инсоният ва табиатни ҳайратланарли тарзда тасвирлаб келаётган шоир. Шу пайтгача файласуф шоирнинг йигирмага яқин шеърий тўплам ва китоблари Ўзбекистон, Тожикистон ва Эронда нашрдан чиққан ва бир қанча тилларга таржима бўлган.*

*Жаъфар Муҳаммад Термизий шеърларида мумтоз ва замонавий шеърият, анъанавийлик ва новаторлик, бадиийлик ва фалсафийлик мутаносиб тарзда уйғунлик касб этган.*

*Ушбу мақолада Жаъфар Муҳаммад Термизий модерн шеъриятида бадиий ва фалсафий тафаккур уйғунлиги масаласи унинг форс-тожик тилида ёзилган "Ҳандасаи имрўз" (Бугун геометрияси") мисолида таҳлил ва тадқиқ этилади.*

***Калит сўзлар:*** *Жаъфар Муҳаммад Термизий, шеърият, "Ҳандасаи имрўз", поэма, бадиий ва фалсафий тафаккур, ирфоний ва фалсафий мазмунлар, уйғунлик.*

## ABSTRACT

*Jafar Muhammad Termezi is a renowned contemporary bilingual poet and one of the modern and postmodern poets. His poems, created in Persian-Tajik and Uzbek languages, deeply reflect philosophical and Sufi content. He is a poet who describes love, humanity life and nature in a marvelous way. So far, about twenty collections of poems and books of the philosopher poet have been published in Uzbekistan, Tajikistan and Iran and translated into several languages.*

*Jafar Muhammad Termezi's poems harmoniously combine classical and modern poetry, tradition and innovation, artistry and philosophy.*

*This article discusses the issue of harmony of artistic and philosophical thinking of Jafar Muhammad Termezi on the basis of his poem "Handasai imro 'z" ("Geometry today"), which is written in Persian-Tajik language.*

***Keywords:*** *Jafar Muhammad Termezi, poetry, "Handasai imro 'z", poem, artistic and philosophical thinking, philosophical content, harmony.*

**АННОТАЦИЯ**

Джафар Мухаммад Термези –известный современный двухязычный поэт, а также один из современных и постмодернистских поэтов. В его стихах, созданных на персидско-таджикском и узбекском языках, глубоко отражены философское и суфийское содержание. Он поэт, который удивительным образом описывает любовь, человечество жизнь и природу. До сих пор около двадцати сборников стихотворений и книг поэта философа были изданы в Узбекистане, Таджикистане и Иране и переведены на несколько языков.

В стихах Джафара Мухаммада Термези гармонично сочетаются классическая и современная поэзия, традиция и новаторство, художественность и философия.

В этой статье обсуждается вопрос гармонии художественного и философского мышления Джафара Мухаммада Термези на основе его поэма «Handasai imro 'z» («Геометрия сегодня»), который написано на персидско-таджикском языке.

**Ключевые слова:** *Джафар Мухаммад Термези, поэзия, «Handasai imro 'z», поэма, художественное и философское мышление, философское содержание, гармония.*

**КИРИШ**

Жаъфар Муҳаммад Термизий бир қарашда Шарқ мумтоз шеъриятининг ғазал, қасида, маснавий, рубоий, дубайтий, фард, қитъа, мухаммас ва мустазод каби жанрларида қалам тебратиб катта муваффақиятлар қозонган шоир сифатида танилган бўлса, бошқа жиҳатдан илмий ва адабий жамоатчилик томонидан эркин ва оқ шеърларидаги замонавий руҳ ва тафаккури билан модерн шоир сифатида ҳам эътироф этилган. Бу ҳолатни шоирнинг илк шеърий тўплами – “Чашми борон” – “Ёмғирнинг кўзи” мажмуасига сўз боши ёзган таниқли адабиётшунос олим филология фанлари доктори, профессор Аҳмад Абдуллоев илғаб, шундай деган эди: “Жаъфар нафақат ғазал жанрида, балки эркин шеър бобида ҳам ютуқларга эришган. Унинг бу қабилдаги шеърлари янги топилмалар, дилрабо ифодалар ва нотакрор мазмунлар билан тўла.” [1,3]

Таниқли адабиётшуноснинг Жаъфар Муҳаммад ижоди ҳақидаги ушбу башорати вақт ўтиши билан шоирнинг кейинги шеърий тўплам ва китобларида ўз исботини топди. У тўпламдан тўпламгача, шеърий сайланмадан сайланмагача модерн ва постмодерн шоир сифатида ҳам, классик услубда ижод қилувчи ғазалнавис, қасиданавис ва маснавийнавис шоир сифатида ҳам ўз мавқеини мустаҳкамлаб борди. Йиллар ўтиб, Жаъфар Муҳаммад Термизий ўз

ижодий ва илмий изланишлари билан улуғ адабиётшунос ва тасаввуфшунос олим филология фанлари доктори, профессор Нажмиддин Комилов назарига тушди. Устоз Нажмиддин Комилов шоирнинг ўзбек тилидаги илк шеърий китоби – “Кўзгу ҳайрати” тўпламига сўзбоши ёзар экан, унинг ижодидаги анъанавийлик ва замонавийлик тамойилларининг уйғунлигини ҳам кўздан қочирмай, жумладан, шундай баҳо берди: “Жаъфар Муҳаммад қадимий анъаналаримизни давом эттириб, икки тилда ижод қилаётган шоирларимиздан. Тожик тилида унинг тўртта шеърий тўплами нашр этилди, шеъру шуур мухлислари диққатини жалб этди. Жаъфар Муҳаммаднинг “Кўзгу ҳайрати” деб номланган шеърлар тўпламида эса ўтган асрнинг 90-йиллари бошидан ҳозиргача ёзилган ўзбекча шеърлари жамланган. Жаъфар ўзига хос шоир, унинг шеърларини ўқисангиз, қадимий ғазалчилик анъаналарини ҳам, ҳозирги замонда урф бўлган модерн услуби изларини ҳам, инсон ва табиат, руҳ ва коинот “қардошлиги”га ишора этувчи фавқулодда нозик ва ҳайратланарли бадиий тасвирларни ҳам кўрасиз”. [2,3]

“Ҳандасаи имрўз” (“Бугун геометрияси”) Жаъфар Муҳаммад Термизийнинг форс-тожик тилида ёзган машҳур поэмаси бўлиб, унда шоир замонавий ҳаёт, ҳаёт моҳияти, ҳаёт мураккабликлари, ўтмиш ва бугун, инсон моҳияти, ўзликни англаш, бугунги давр инсони руҳиятидаги эврилишлар... каби ўнлаб фалсафий муаммоларни бадиий идрок этиш орқали ўқувчига тақдим этади.

Поэмадаги “ҳандаса” (геометрия) атамаси рамзий маънода ишлатилади. “Ҳандаса” ҳаётдаги тартиб, уйғунлик ва гўзалликни англатади. Шоир поэмада бугунги кунда юз бераётган ўзгаришларни, инсоннинг ички курашлари, руҳий эврилиш ва эзилишлари, инсоннинг ўзлигини топиш йўлидаги изланишларини акс эттиради.

Ушбу поэмада қуйидаги учта фалсафий асоснинг бадиий талқинларини мушоҳада этиш мумкин:

1. *Уйғунлик:* Ҳаётнинг мувозанати, инсон руҳининг гўзаллиги ва ботиний сокинлиги.

Шоир ҳаётни геометрик шакллар билан солиштиради, бу орқали ҳаётнинг мувозанатини ва гўзаллигини акс еттиради. Уйғунлик ва тартибга урғу бериш орқали, инсон ҳаётида ҳар бир нарса ўз ўрнини топиши кераклигини таъкидлайди.

2. *Қийинчиликлар:* Бугунги дунёда юзага келаётган сиёсий, иқтисодий, ижтимоий, маънавий ва ахлоқий муаммолар ва инсоннинг глобаллашув давридаги салбий жиҳатларга қарши кураши.

Кундалик ҳаётда инсонлар турли хил қийинчиликлар ва ноаниқликлар билан юзма-юз келадилар. Бу қийинчиликлар руҳий ва ҳиссий жиҳатдан инсонларни чарчатади. Шоир буларни тасвирлаб, ўқувчини ҳаётнинг реал муаммолари ҳақида ўйлашга ундайди.

3. *Ўзликни топиш:* Инсоннинг ўзлигини, ҳақиқийлигини ва ҳаётдаги асл мақсадини излаш жараёни.

Шоир инсоннинг ўзлигини, асл мақсадини ва ҳаётдаги йўлини топиш жараёнини таърифлайди. У ўзининг ички дунёсида амалга оширадиган изланишлар, ўзгаришлар ва шахсий ривожланишни ёритади.

Жаъфар Муҳаммад Термизий ўз поэмасида ижтимоий ҳаётдаги ноаниқлик ва мураккабликларни бадиий тарзда ифодалаб, ўқувчи қалбида чуқур ҳис-туйғуларни уйғотади. Ушбу асар замонавий ҳаётга ва ундаги муаммоларга эътибор қаратади, шунинг учун поэмадаги тасвирлар ҳар биримизга таниш манзараларни эслатади.

**Методология ва таҳлил:**

“Ҳандасаи имрўз” поэмасида Жафар Муҳаммад Термизий ҳаётнинг мураккаблигини, инсоннинг ички изтироблари ва зиддиятларини янги ащёлар билан тасвирлайди.

**Тарз ва услуб:**

• *Рамзий маъно:* Шоир геометрик тушунчаларни, масалан, “учбурчак”, “тўртбурчак”, “доира”, “чизиқ”, “хат”... каби ўнлаб ҳандасий шаклларни рамз сифатида ишлатиб, ҳаётнинг ўзига хослигини ва уни тушуниш заруратини таъкидлайди.

• *Ташбиҳлар:* Шоир поэмада турли хил ташбиҳлар ва образлар орқали ҳис-туйғуларни кучайтиради, бу билан ўқувчи эътиборини кўпроқ ўзига жалб этишга эришади.

“Ҳандасаи имрўз” поэмасида Жафар Муҳаммад Термизий фалсафий ва ирфоний мазмунларни бадиийлик билан уйғунлаштиради. Ушбу поэма бизни кундалик ҳаётдаги муаммолар ва қийинчиликларни янада чуқурроқ англашга, шунингдек, ўзлигимизни топишга ундайди.

Шеърни илмий тарзда тушунтирганда, бир нечта асосий жиҳатларини таъкидлаш мумкин:

**1. Фалсафий асослар:**

• *Тартиб ва мувозанат:* Шоир геометрик шакллар орқали ҳаётнинг тартиб-интизоми ва мувозанатини ифодалайди. Бу инсон ҳаёти ва табиатда мавжуд

бўлган мувозанатни англатади. Фалсафий жиҳатдан, бу ҳар бир нарсанинг ўз ўрнини топиши ва бир-бирига алоқадорлигини кўрсатади.

• *Ўзлик ва ўзгариш:* Шоир ўзликни англаш ва ички ўзгаришга эришиш жараёнини тасвирлайди. У инсоннинг ички дунёси ва унинг ташқи дунё билан ўзаро алоқадорлигини таҳлил қилади. Бу ўз-ўзини англаш ва ўзгаришларни қабул қилиш фалсафаси билан боғлиқ.

**2. Ирфоний мазмунлар:**

• *Руҳий изтироблар ва эврилишлар:* Поэмада инсон руҳининг ички курашлари ва қийинчиликлари акс етади. Бу, ирфоний тушунчаларда, нафс, ҳис-туйғулар ва руҳий ҳолатларни енгиш орқали мукаммалликка еришиш йўлидаги ҳаракатни англатади.

• *Муҳаббат ва юксаклик:* Шоир ўзининг руҳий изланишларини муҳабат ва ўзаро лик орқали кўрсатади. Ирфоний анъаналарда ишқ-муҳаббат ҳақиқий мақсад ва руҳий юксакликка эришишнинг асосий манбаи сифатида қаралади.

**3. Рамзий тушунчалар:**

• *Геометрик тасвирлар:* Геометрик тушунчалар шоирнинг ҳаёт ҳақидаги фалсафасини янада бойитади. Поэмада ҳар бир геометрик шакл ўзига хос рамзий маънога эга бўлиб, ҳаётдаги тартиб, мувозанат (мутаносиблик, уйғунлик) ва гўзаллик билан бирга уларнинг акс ҳолати – тартибсизлик, номутаносиблик ва хунукликни ҳам ифодалайди.

Фалсафий-ирфоний мазмун ва мотивлар “Ҳандасаи имрўз” поэмаснинг туб мазмун-моҳиятини очиб беришга хизмат қилади. Шоир ҳаётнинг мураккаблигини, инсон руҳиятининг кўп қирралилигини ва ўз-ўзини англаш йўлидаги изланишларнинг қийинчилигини ифодалаб беришга интилади. Бу поэмани илмий жиҳатдан таҳлил қилганда, бир нечта муҳим жиҳатларга эътибор қаратиш мумкин:

**1. Фалсафий назариялар:**

• *Инсон, жамият, ҳаёт ва табиат:*

Жаъфар Муҳаммад Термизий ҳаёт ва табиатни геометрик қоидалар билан ўлчар экан, улар ўртасида мувозанат ва тартиб борлигини, бу мувозанат ва тартибларга амал қилиш лозимлигини таъкидлайди. Бу ерда ҳаётнинг фалсафий жиҳатлари – тартиб, мантиқ ва гўзаллик келтирилади. Геометрик тушунчалар ҳаётнинг мувозанатини ифодаловчи рамз сифатида ишлатилади.

*Инсон ва ўзлик:*

Поэмада нсоннинг ўзлигини топиш жараёни, унинг ички курашлари ва ташқи муҳит билан алоқалари кўриб чиқилади. Жаъфар Муҳаммад Термизий инсоннинг ўзлигини англаш учун ички тинчлик ва мувозанатга эришиш зарурлигини ифодалайди. Бу фалсафий ёндашув, шахснинг ички ҳолатини ва ҳаётий мақсадини аниқлашга ёрдам беради.

**2. Ирфоний мазмунлар:**

• *Руҳий изланиш:*

Шеърда руҳий изланиш, инсоннинг маънавий ўсиши ва унинг улуғворлигини англаш масалалари кўтарилади. Шоир инсоннинг руҳий ривожланишига эътибор қаратиб, ўз ички дунёсини кашф этишга чақиради.

• *Маънавий мувозанат:*

Ҳаётдаги турли хил қийинчиликлар ва муаммолар, руҳий тинчлик ва мувозанатни йўқотишга олиб келиши мумкин. Термизий, инсоннинг ўзлиги ва маънавияти ўртасидаги мувозанатни сақлаш зарурлигини таъкидлайди.

**3. Символизм ва рамзлар:**

• *Геометрик рамзлар:*

Ҳаётнинг тартиб ва гўзаллигини англатадиган геометрик шакллар (масалан, доира, учбурчак) орқали Жаъфар Муҳаммад Термизий ҳаётнинг мураккаблигини ва мувозанатини ифодалайди. Бу рамзлар, ҳаётнинг ҳар бир жиҳати ўз ўрнида муҳим еканлигини кўрсатади.

• *Қийинчиликлар ва уйғунлик:*

Шоир ҳаётдаги қийинчиликларни, турли муаммоларни акс эттирган ҳолда, уларни енгиб ўтиш ва ўзликни англаш заруратини ифодалайди. Бу ёндашув, инсоннинг руҳий ва маънавий етуклигини таъминлайди.

Жаъфар Муҳаммад Термизий “Ҳандасаи имрўз” поэмасида фалсафий ва ирфоний жиҳатларни уйғунлаштириб, ҳаёт муаммолари ва улар билан бирга ҳаёт гўзалликларини тасвирлайди. Ушбу поэма ўзликни топиш ва руҳий юксалиш жараёнида инсон учун муҳим бир дастуруламал бўлиб хизмат қилади, инсоннинг ҳаётдаги уйғунлик ва гўзалликни англашига, ички осойишталик ва мувозанатга эришишига ёрдам беради.

“Ҳандасаи имрўз” поэмасида инсон руҳияти диалектикаси тасвирланган. Жаъфар Муҳаммад Термизий бу поэмада инсон ботинида кечаётган зиддиятлар, ғалаёнлар ва курашлар, унинг руҳий-маънавий изланишлари ва ҳаётидаги ўзгаришларни тасвирлайди. Бу жараён қуйидаги ҳолатларда намоён бўлади:

**1. Инсоннинг руҳий изтироблари ва ички зиддиятлари:**

• Шоир инсон руҳиятидаги изтироблар ва ички зиддиятларни тасвирлайди. Ҳаётдаги қийинчиликлар, муаммолар ва уларни енгиш жараёни инсоннинг ички дунёсидаги диалектик жараённи ифодалайди. Унинг фикрича, инсон ҳаётда дуч бўладиган ҳар бир қийинчиликни енгиш орқали ўзини янгилайди ва ривожланади.

**2. Ички (зоҳирий) ва ташқи (ботиний) мувозанат:**

• Жаъфар Муҳаммад Термизий инсоннинг ўз "Мен"ини, ўзлигини топиш жараёнида ташқи муҳит ва ички ҳолат ўртасидаги мувозанат ва уйғунликни таъминлаши зарур омил эканлигини таъкидлайди. Унинг поэмасидаги ушбу диалектик ёндашув инсоннинг ўзлигини англаш учун зарур бўлган ички (ботиний) ва ташқи (зоҳирий) алоқадорликнинг ўзаро муносабати ва мутаносиблигини ифодалаш учун хизмат қилади.

**3. Ўзгариш ва ривожланиш:**

• Инсоннинг руҳияти доимо ўзгаришда ва ривожланишда. Жаъфар Муҳаммад Термизий бу жараёнда ҳаётнинг мураккаблиги ва гўзаллигини келтириб, инсоннинг ҳаракатлари ва фаолиятларини диалектик контекстда кўришга ундайди. Ҳар бир қийинчилик ёки муваффақият, инсоннинг руҳиятига кучли таъсир қилади ва уни янги босқичга олиб чиқади. Бу ўз навбатида инсонда сифатий ёки миқдорий ўзгаришларни келтириб чиқаради. Ўзгариш ва ривожланиш ёки юксалиш масаласи Жаъфар Муҳаммад Термизий шеъриятининг асосий мавзуларидан биридир, десак ҳам хато бўлмайди. Бу мавзу унинг ўзбек тилида ёзилган эркин ва оқ шеърларида ҳам алоҳида ўрин тутади. Жумладан, "Нур шаҳрига сафар" шеърини олайлик. Шеърнинг умумий мазмуни карахтлик, руҳий ланжликдан қутулиб, ёруғлик – ҳаёт гўзаллигини ҳис этиш ва ундан баҳраманд бўлиш ҳиссининг қўзғалишидир. Бироқ ана шу туйғу нур ва соя тимсоллари қиёси орқали ўзига хос бир таъсирчан тарзу тароват билан суғорилган:

*Энди мен*
*Соялар шаҳрини тарк этгум.*
*Сўнгра Нур шаҳрига юзланиб*
*Қуёшнинг илоҳий шоҳкосасидан*
*Иссиқ нур ичгум.*

Шеър замирида Ёруғликни тўсиб қўювчи, Ёруғликдан таҳликага тушувчи Соя девлари мазаммат қилинади, совуқлик – ҳаётсизлик даҳшати, сукут ва жимжитликнинг оғир, эзувчи мурда гавдасига нафрат ётади. Қўлланган ташбеҳлар ана шу ҳаётга зид кучлар, қалбни, мияни кемирувчи ҳашарот ва

жонзотлар тасвирида бўрттирилади ва шу заминда унга зид ҳаёт қуёшининг иссиқ нуридан ҳаракатга келган иссиқ қон кўтарилишлари қаламга олинади”. [2,3-4]

**4. Уйғунлик ва зиддият:**

Диалектик жараён, уйғунлик ва зиддият ўртасидаги муносабатларни ўз ичига олади. Шоир ҳаётдаги зиддиятлар орқали ўзликни англаш ва мувозанатга эришиш жараёнини кўрсатади. Бу жараён инсонни руҳий ва маънавий жиҳатдан бойитади.

Умуман олганда, Жаъфар Муҳаммад Термизий “Ҳандасаи имрўз” поэмасида инсон руҳияти диалектикасининг мураккабликларини гўзал тарзда тасвирлайди. Инсоннинг ички курашлари, ўзлигини англаш жараёни ва ҳаётдаги ўзгаришлар шоирнинг асарида марказий ўрин тутади.

“Ҳандасаи имрўз” поэмаси Жаъфар Муҳаммад Термизийни қуйидаги сифатлар ва тавсифлар билан танитади:

**1. Фалсафий шоир:**

- Термизий, ҳаёт ва инсон руҳиятини чуқур фалсафий нуқтаи назардан кўриб чиқади. Унинг асарларида мураккаб фикрлар, ҳаётнинг маъноси ва инсоннинг ўзлигини англаш масалалари ўрин олади.

**2. Ирфоний шоир:**

- Жаъфар Муҳаммад Термизий руҳий изланишлар ва маънавий юксалишга катта эътибор берадиган шоир. Жаъфар Термизий, ўз асарларида маънавий йўл ва руҳий тозаликка чақиради, бу еса уни ирфоний шоир сифатида ажратади.

**3. Ҳаёт ва воқейликка диалектик ёндашувчи шоир:**

“Ҳандасаи имрўз” поэмасида диалектик жараёнлар – зиддиятлар, ўзгаришлар, ривожланиш ва мувозанат аниқ кўринади. У инсоннинг ички курашларини ва ҳаётдаги турли жиҳатлари ўртасидаги мувозанатни тасвирлаб беради.

Поэма инсонни руҳан ва маънаван юксалтиришда, шунингдек, ҳаётда ва жамиятда ўз ўрнини топиш ва ривожланишга ёрдам берадиган бир қатор муҳим жиҳатларни ўз ичига олади:

**1. Ички изланиш, ботиний кашф ва ўзликни англаш:**

Поэмада Жаъфар Муҳаммад Термизий инсонни ўз ички дунёсини кашф этишга, ўзлигини англаш ва ботин оламини англашга даъват этади. Бу жараён инсоннинг маънавий ўсишига хизмат қилади.

Инсоннинг ўзлигини англаш, ўз ички дунёсини кашф етиш зарурати. Афсуски, бугунги глобаллашув даврида кўплаб инсонлар ўзликликни йўқотаётганини ҳис қилишмайди.

**2. Зиддиятлар ва мувозанатни сақлаш:**

Инсон ҳаётида турли хил қийинчиликлар ва зиддиятлар мавжуд. Жаъфар Муҳаммад Термизий бу зиддиятларни енгиш ва мувозанатни сақлаш орқали инсоннинг руҳияти ва маънавияти юксалишига кўмаклашади.

Жаъфар Муҳаммад Термизий бу масалани кўтариб, инсонларга мураккаб вазиятларда ҳаётдаги зиддиятлар ва қийинчиликлар билан курашиш ва мувозанатни сақлашни тавсия этади.

**3. Ҳаётнинг маъносини англаш:**

Шоир ҳаётнинг мураккаблиги ва шу билан бирга гўзаллигини таъкидлаб, ўқувчини ҳаётнинг ҳақиқий маъносини англашга ундайди. Бу инсонни ҳаётда мақсад сари интилиш ва маънавий жиҳатдан ривожланиш борасида рағбатлантиради. Шоир замондошларини ҳаётнинг маъноси ва мазмун-моҳияти ҳақида чуқур ўйлашга чақиради.

**4. Ижтимоий масъулият ҳисси:**

Жаъфар Муҳаммад Термизий поэмада ўз ватани, ўз халқи ва миллатига бўлган буюк бир муҳаббатни акс эттиради. Бу ижтимоий масъулият ва жамиятда ўз ўрнини топиш зарурлигини англатади, чунки ҳар бир инсон жамиятнинг бир қисми сифатида ўз роли ва масъулиятини тушуниши лозим. Шоир жамият аъзоларини ўз ватани ва халқи олдида бўлган масъулиятини ҳис қилишга даъват этади.

**5. Руҳий юксалиш:**

Жаъфар Муҳаммад Термизий инсоннинг маънавий ўсиши, руҳий юксалиши ва мақсадли ҳаёт кечириши заруратини уқтиради. Лирик қаҳрамон ўқувчини руҳий изланишлар ва маънавий сайру сафарларга чақиради. Бундай позитив ёндашув ҳар бир инсонни ҳаётда ва жамиятда самарали умр кечиришга ундайди. Жаъфар Муҳаммад Термизий одамларни руҳий юксалишга чақиради, бу эса бугунги давр инсонига ҳаётнинг маъносини англашига, руҳий инқирозлардан қутулишига ёрдам беради. Файласуф шоирнинг фикрича, инсонлар кўпинча маънавий жиҳатдан юксалиш учун доимий ҳаракат ва изланишда бўлишлари керак.

Умуман олганда, “Ҳандасаи имрўз” поэмаси инсонни руҳан ва маънаван юксалтиришга ёрдам беради. Поэмадаги теран фикрлар ва ғоялар инсонга ҳаёт мазмун-моҳиятини англаш, ҳаётда ўз ўрнини топиш ва ривожланиш учун зарур маслаҳатлар беради.

“Ҳандасаи имрўз” поэмаси бугунги давр инсони учун ўзига хос аҳамиятга эга. Ушбу сатрлар ва уларнинг мазмуни бугунги кун инсонининг руҳий ва маънавий ривожланишига катта таъсир кўрсатади:

*Инак,*
*Айнак*
*Ба суроғи ман*
*Меояд.*
*Аз ман*
*Ҳатман*
*Суол дорад.[4,15]*

“Айнак” (кўзойнак) тушунчаси символик маънога эга. “Айнак” инсоннинг ўзига қараши, ўзини таҳлил қилиш жараёнини ифодалайди. Инсон ўз ҳаёти ҳақида чуқур ўйлаши, инсон, борлиқ, табиат ва жамият муаммолари ҳақида ўзига ўзи саволлар бериб ўзидан жавоб топиши кераклигини таъкидлайди. “сўроқлаш” ва “савол бериш” тушунчалари, ҳаётдаги изланиш ва ўзини англаш заруратини кўрсатади. Шунингдек. “айнак” (кўзойнак”) “вақт” рамзидир. “Вақт” Жаъфар Муҳаммад шеъриятида, айниқса, унинг эркин ва оқ шеърларида ҳам поэтик образ ва ҳам фалсафий категориядир. Шоир “Вақт”ни поэтик образ ва фалсафий категория сифатида модерн йўналишидаги бир қатор шеърларида муваффақиятли ишлатган. Бу ҳолатни унинг ўзбек тилидаги шеърларида ҳам кузатишимиз мумкин. Жумладан, “Жаъфар Муҳаммад “Вақт анатомияси” шеърида вақт моҳиятининг турли қирраларини бирмунча кенгайтирилган ва тафсиллаштирилган тарзда кўрсатиб беришга уринади. Унинг наздида вақт гоҳида шошилмаслик ва донишмандлик рамзи бўлган тошбақага, гоҳида сукунатни қўққисдан бузувчи қурбақага... ўхшаб кетади:

*Вақт –*
*чопиш бўйича*
*чемпион бўлган*
*бир қуён билан*
*пойгага тушган*
*зил-замбил донишманд тошбақа.*
*Вақт –*
*туннинг шап-шаффоф*
*ойналарини*
*чил-чил-чил синдирган*
*қўшиқчи қурбақа”.[3,7]*

Жафар Муҳаммад Термизий “Ҳандасаи имрўз” поэмасида талмеҳ санъатидан унумли фойдаланади. Жумладан, “Пири Устура” (Асотир пири) деганда мифология устози – Фирдавсийга ишора қилади. Талмеҳ санъати асарнинг фалсафий моҳияти ва тарихий контрастини кучайтирган:

*Ҳамоса*
*Дар кӯҳи пири Устура*
*Хок шуда буд.[4,15]*

Шоир ўтмиш ва келажакни таққослайди, улар ўртасидаги умумийлик ва тафовутларни топади, инсон руҳиятида кечаётган эврилишликлар, ўзликни англаш жараёни ва ҳаётдаги мағлубиятларни тасвирлайди. Шоир инсон ҳаётидаги мураккабликлар ва руҳий изланишларни чуқур ёритишга эришади:

*Рубоӣ*
*Дар сӯги Пири майфурӯшон*
*Майзада*
*Гиребончок*
*Синачок шуда буд.*

*Надорад.*
*Ғазал низ*
*Баъд аз Мавлавӣ*

*Саъдӣ,*
*Ҳофиз...*
*Ҷавон нест...[4,15]*

Xorazmda topilgan dafn komplekslari, keramika va bezaklar kabi artefaktlar ramziy ahamiyatga ega bo‘lib, ritual maqsadlarda ishlatilgan. Zardushtiylik va buddizmning ta'siri ham Xorazm hududida topilgan madaniy va diniy artefaktlarda ko‘rinadi. Topilgan matnlarni tahlil qilish natijasida xorazm tilining elementlari qayta tiklandi, bu esa mintaqaning madaniy va etnik identitetini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu topilmalar boshqa mintaqalar bilan madaniy aloqalar va g‘oyalar almashinuvi ko‘rsatib, Xorazmning keng madaniy kontekstdagi integratsiyasini ta'kidlaydi.

Shuningdek, Ko‘hna Urganch yodgorliklari, xususan, Kutlug-Timur va Turabek-Xonim maqbaralari, Xorazmning ilk o‘rta asrlar davridagi muhim dafn inshootlaridan hisoblanadi. Bu maqbaralar yuqori darajadagi bezaklari va arxitektura uslublari bilan e’tiborni tortadi. Kutlug-Timur maqbarasi asosan geometrik naqshlar va arabcha yozuvlar bilan bezatilgan bo‘lib, bu islom davrida Xorazmda diniy arxitekturaga katta e’tibor berilganligini ko‘rsatadi. Turabek-Xonim maqbarasi esa Xorazmda o‘sha davrda yashagan zodagon ayollarga bo‘lgan ehtiromni aks ettiruvchi inshoot bo‘lib, u ham diniy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Jampik qala hududida topilgan qabr majmualari qadimgi Xorazm jamiyatida keng tarqalgan dafn qilish usullarini yoritadi. Ushbu majmuada joylashgan qabrlar

oddiy odamlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ular tuproqqa ko‘milgan oddiy yer qabrlar hisoblanadi. Ushbu qabrlar orqali Xorazmning turli tabaqalari o‘rtasida ijtimoiy farqlar va dafn an'analari haqida ko‘plab ma'lumotlar olingan. Qabrlar orasida marhumning kiyim-kechaklari, zarbof liboslar va kundalik hayotda ishlatilgan buyumlar ham topilgan.

Devkesken qal'asi arxeologik tadqiqotlar natijasida ochilgan qabr yodgorliklari Xorazmning ilk o‘rta asrlar davriga mansub. Ushbu qabrlar o‘zining oddiyligi bilan ajralib turadi, ammo ular arxeologlar uchun katta ilmiy ahamiyatga ega. Devkesken qal'asida topilgan qabr yodgorliklari orqali o‘sha davrda yashagan xalqlarning dafn qilish marosimlari, ijtimoiy hayoti va e'tiqodlarini o‘rganish imkoniyati tug‘ildi. Bu qabr yodgorliklarida topilgan qadimiy qurollar, idish-tovoqlar va zarbof buyumlar hamda oddiy dafn marosimlari o‘sha davrdagi jamiyatning turmush tarzini aks ettiradi.

Qabr yodgorliklari orqali Xorazm jamiyatidagi ijtimoiy tabaqalanishni ko‘rish mumkin. Yirik maqbaralar va murakkab qabr yodgorliklari odatda yuqori tabaqaga, hukmdorlar va diniy rahbarlarga tegishli bo‘lgan. Bunday inshootlar ularning jamiyatdagi yuqori mavqeini aks ettirib, hukmdorlikni mustahkamlash va xalq orasida hurmatni saqlash vositasi bo‘lgan. Oddiy fuqarolarning qabrlarida esa sodda yerga ko‘mish amaliyoti qo‘llanilgan, bu jamiyatning pastroq tabaqalariga tegishli bo‘lgan insonlarning o‘rni va dafn qilish an'analari haqida ma'lumot beradi. Qabr yodgorliklari orqali Xorazm jamiyatining madaniy jihatlari ham aks ettirilgan. Ularning arxitekturasi, bezaklari va o‘ziga xos me’moriy uslublari orqali o‘sha davrda yashagan xalqning san’at va me’morchilik sohasidagi yutuqlari namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, maqbaralar va qabr ustiga qo‘yilgan toshlar marhumning ijtimoiy mavqeini, uning oilasiga bo‘lgan ehtiromni ko‘rsatgan. Bu turdagi qabrlar, jamiyatda ijtimoiy mavqelar va qadriyatlarning qanchalik muhim ekanligini ochib beradi. Dafn qilish bilan bog‘liq marosimlar Xorazmda turli ijtimoiy guruhlarda turlicha bo‘lgan. Yuqori tabaqaga mansub shaxslar uchun ko‘proq rasmiy va tantanali marosimlar o‘tkazilgan bo‘lsa, oddiy xalq uchun soddaroq marosimlar amalga oshirilgan. Qabrlarning ichida topilgan artefaktlar, marhum bilan birga qo‘yilgan buyumlar va boshqa topilmalar o‘sha davrda yashagan jamiyatning turmush tarzini aks ettiradi. Shuningdek, bu topilmalar orqali o‘sha davrda yashagan xalqning oila va ijtimoiy hayotdagi an’analari haqida ko‘plab ma’lumotlar olinadi.

Xorazmda qadimgi va ilk o‘rta asrlarga oid qabr yodgorliklarini saqlash va restavratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yodgorliklar o‘z davrining tarixiy, madaniy, diniy va sotsial merosini aks ettiruvchi boy manbalar bo‘lib, ular orqali jamiyatning o‘tmishi haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. Biroq vaqt

o‘tishi bilan bu yodgorliklar tabiiy va inson omillarining ta'sirida yomonlashib, yo‘q bo‘lib ketish xavfi ostida qolmoqda. Shuning uchun ularni saqlash va restavratsiya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xorazm qabr yodgorliklarini saqlash va restavratsiya qilishda xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO, ICOMOS kabi tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali yodgorliklarni saqlash ishlari samarali olib borilmoqda. Ushbu tashkilotlar yodgorliklarni xalqaro madaniy meros sifatida himoya qilish va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dasturlarni amalga oshiradi. Shu bilan birga, ilmiy tadqiqotlar va arxeologik ishlar davomida chet el mutaxassislari bilan hamkorlik qilish yodgorliklarni saqlashda katta ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Xorazmning qadimgi va ilk o‘rta asrlarga oid qabr yodgorliklari o‘z davrining madaniy, diniy, va sotsial jihatlarini aks ettiruvchi muhim tarixiy manbalardir. Ushbu yodgorliklar orqali Xorazmning boy tarixini, o‘tmishdagi jamiyat hayotini va ularning e'tiqodlarini o‘rganish imkoniyati mavjud. Ularning arxeologik ahamiyati nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham qimmatli hisoblanadi. Qabr yodgorliklari turli xil bo‘lib, ular arxeologlar va tarixchilar uchun muhim ilmiy tadqiqot ob'ektidir. Qabrlarning sotsial va diniy ahamiyati ularga bo‘lgan e'tiborning ortishiga sabab bo‘ladi, chunki ular jamiyatning turli qatlamlari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, ushbu yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish masalalari ham dolzarbdir. Tabiiy va inson omillaridan kelib chiqadigan zararlar tufayli qabr yodgorliklarining yo‘qolib ketish xavfi mavjud. Shu sababli, maxsus restavratsiya ishlari va zamonaviy saqlash texnologiyalarini qo‘llash zarurati ortib bormoqda. Davlat va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik bu jarayonni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi. Xorazm qabr yodgorliklari nafaqat tarixiy, balki madaniy merosning ham muhim qismini tashkil qiladi. Ularni o‘rganish, saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish maqsadida muntazam ilmiy tadqiqotlar va restavratsiya ishlari davom ettirilishi kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asqarov A. Qadimgi Xorazm tarixiga oid ba’zi bir masalalar. Ilmiy to’plam. O’zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar. – T., 2004.
2. Бижанов Е., Ходжаниязов Г.К. Античные памятники северо-западного Хорезма//Античная культура Средней Азии и Казахстана // (тезисы докладов). — Т.: «Фан», 1979. – С. 11-12;
3. Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма. — М.: «Наука», Вып. VII. 1970. – С. 41-44

4. Пилипко В.Н. Древнее городище Одей-депе на среднем течении Амударьи // Каракумские древности. —Ашхабат, «Ылим». Вып. VIII. 1979. – С. 51-52.
5. Ходжаниязов Г.К., Манылов Ю.П. Исследование в Южном Хорезме // АО. 1982. — М.: «Наука»
6. G’ulomov Ya. G’. Xorazmning sug’orilish tarixi. – T., FAN, 1959.
7. Толстов С.П. Древний Хорезм . — М.: ИМГУ, 1948. – С. 341;

# MILLIY MA’NAVIYATIMIZNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQANING O‘RNI

**Salohiddin Azizboyev**
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti professori

## ANNOTATSIYA

*Maqolada milliy ma’naviyatni shakllantirish jarayonlari, unda musiqa va san’atning o‘rni, ularning yoshlar ongu-shuuriga, ma’naviy qiyofasi va madaniy saviyasi rivojlanishiga ta’siri, bu borada O‘zbekistonda madaniyat va san’atni rivojlantirish borasida olib borilayotgan siyosatning mazmun-mohiyati tadqiq qilingan va ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *tarixiy jarayonlar, ma’naviyat, ma’rifat, jamiyat, davlat siyosati, madaniyat, madaniy islohotlar, musiqa, sa’at, tafakkur, madaniy evrilishlar*

## АННОТАЦИЯ

*В статье анализированы и раскрыты процессы формирования национальной духовности, место музыки и искусства в этих же процессах, роль и влияние музыкального искусства в развитии сознания и духовного облика и культурного мровоззрения молодежи, суть и содержание государственной политики Узбекистана в развитии культуры и искусства.*

***Ключивые слова:*** *исторические процессы, духовность, просвещение, общество, государственная политика, культура, реформы в области культуры, музыка, искусства, мировоззрение, культурные эволюция*

## KIRISH

O‘zbek xalqi jahon tarixiy taraqqiyotiga o‘zining qadimiy ilm–fani, adabiyoti, san’ati va madaniyati bilan ulkan hissa qo‘shgan buyuk millat ekanligi butun jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etiladi, tan olinadi. Darhaqiqat, jamiyatimizda madaniyatni, ma’rifatni, san’atni rivojlantirish, yosh avlod tarbiyasida uning rolini, o‘rni va ahamiyatini yuksaltirish ularning ongu-ruhi rivojlanishiga, takomillashuviga, komil inson bo‘lib voyaga yetishiga zamin bo‘ladi. Joriy yil O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda ikkinchi bor o‘tkazilgan Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilishidagi nutqida “Bizning qadimiy tariximiz, boy madaniyatimiz, azaliy qadriyatlarimizning ramzi bo‘lgan maqom san’ati teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda muhim o‘rin egallaydi. Maqom san’ati uchun asosiy mavzu – eng avvalo, shaxs, uning erki

va qadri, tinchlik-totuvlik, hamjihatlik va umumbashariy taraqqiyot hisoblanadi”[1] – deya ta’kidlagan edi.

Barchamizga ma’lumki, milliy tiklanish, milliy yuksalish juda keng, chuqur, murakkab tarixiy jarayon bo‘lib, u millatimiz hayotining hamma sohalarini– iqtisodiyotini, siyosatini, ma’naviyatini, ilm-fan, til-tarix, urf–odatlar, hunarmandchilik, me’morchilikni ham, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni ham qamrab oladi. Bular ichida milliy ma’naviyatimiz rivojida musiqaning o‘rin nihoyatda muhim. Milliy musiqa san’atimizning eng qadimiy va shu bilan birga, xalq ichida keng tarqalgan, uning turmushiga chuqur singib ketgan sohalardan biri bo‘lib, u real voqelikni aks ettiradi, inson kamolotini ta’minlaydi.

Musiqaning milliy ma’naviyatimizga ta’sir kuchi shu qadar yuksakki, uning yordamida farzandlarimizni yuksak ahloqli, tafakkuri teran, komil inson sifatida tarbiyalashimiz va xatto bemorlarni davolash mumkinligini ilm-fan allaqachon isbot qilgan. Buyuk tabib Abu Ali Ibn Sino musiqaning ta’sir kuchiga kata ahamiyat berib, ayrim ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davolash mumkin degan fikrni ilgari surgan va buni o‘z amaliyotida bir necha bor isbotlagan edi[2].

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Buyuk faylasuf Abu Nasr Farobiy «Katta musiqa» kitobida, musiqa nazariyasi ohanglarining turlari, kelib chiqish sabablari, kishiga ma’naviy, ruhiy ta’siri haqidagi qimmatli fikrlarini bildirgan. Farobiy musiqa ilmida faqat nazariyotchi bo‘libgina qolmay, amaliyotchi ham bo‘lgan. Uning o‘zi taniqli musiqachi, ajoyib sozanda va bastakor, yangi musiqa cholg‘usi ixtirochisi sifatida ham shuhrat qozongan. Musiqaning ajoyib sehrli kuchi, mo‘jizakor ta’siri haqida fikr yuritib, Farobiy «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida» nomli asarida shunday deydi: «Bu ilm shu ma’noda foydaliki, u o‘z muvozanatini yo‘qotgan odamni tartibga keltiradi, mukammallikka yetmagan xalqni mukammal qiladi va muvozanatini saqlab turadi». Xususan, milliy madaniyatda musiqa yuksak tuyg‘ular, zavq – shavqli g‘oyalar olamini ochib beradi. Odamlarni ma’naviy jihatdan boy, sof barkamol qiladi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Musiqa – hech narsa bilan o‘lchab, solishtirib bo‘lmaydigan beqiyos ilohiy ta’sir kuchiga ega”[3].

Bola hali qo‘liga qalam ushlashni, o‘qib yozishni bilmagan vaqtdayoq musiqani his qila oladi. Xalqimizda bolani yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’anviyat asosida voyaga yetkazish doimo dolzarb ahamiyat kasb etgan. Birgina ona allasida aytiladigan so‘zlarda ham farzandning yuksak kamol topishi ifodalanadi. Bola dunyoga kelishi bilan dunyodagi eng mehrli qo‘shiq “alla”ni eshitadi. Bu borada sevimli shoirimiz Cho‘lpon alla haqida shunday degan edi: “Bir bola uxlamasa, alla aytadilar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his

qilur.” Xaqiqatan ham, musiqa ohangi ta’sirida kishi g‘oyat nozik va teran hissiyotlarni boshdan kechiradi. Dastlabki yoshlikdagi taassurotlar musiqaga bo‘lgan munosabatlarning shakllanishiga ta’sir qiladi. Shuning uchun umumiy ta’lim maktablarini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlarida musiqa ta’limiga ham e’tibor berilgan. Musiqa, avvalo, bolalarning his-tuyg‘ularini mayinlashtiradi. Musiqa asarlarini his etish kabi ularda ko‘pgina insoniy fazilatlarni uyg‘otadi. Chunki, go‘zal musiqa insonda nafosat, go‘zallikni his etishga o‘rgatadi. Musiqa insonni tarbiyalovchi vositadir. Go‘zallikni his qilgan insondan hech qachon yomonlik chiqmaydi.

Binobarin, ta’lim-tarbiyatizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Albatta, insoniy fazilatlarni kamol toptirishda adabiyot, tarix, sport va boshqa sohalar kata o‘rin tutadi. Binobarin, nazm va musiqa doimo yonma-yon yashaydi. Tabiat taasurotlari ostida tug‘iladi, qolaversa, bog‘cha va maktabda shakllanib boradi. Musiqa darslari o‘quvchilarni faqatgina nafosat jihatdan emas, balki keng ma’noda ma’naviy-axloqiy jihatdan ham tarbiyalaydi. Avloddan – avlodga o‘tib kelayotgan, ne–ne zamonlar zayliga bardosh berib, xalqning orzu-armonlari, o‘y – intilishlarini mujassam etgan kuy – ko‘shiqlarimiz, maqomlarimiz barcha turdagi maktablar, pedagogika institutlari dasturlaridan kengroq joy olsa maqsadimizga yanada ko‘proq erishgan bo‘lar edik.

Zamonamizning zabardast yozuvchisi, jahonga mashhur adib Chingiz Aytmatov «Kunda» romanida shunday yozadi: «hayot, o‘lim, muxabbat, shavq va ilhom…hammasini musiqa aytadi, zotan, biz musiqa vositasida eng oliy hurlikka erishamiz, bu hurlik uchun ongimiz yorishgan zamonlardan boshlab, butun tariximiz davomida kurashganmiz, lekin unga musiqadagina erishganmiz»[4].

Aslida, xalqimiz yaratgan musiqa durdonalari, har soniyada - tarbiyada, mehnatda, ijtimoiy munosabatda ma’lum darajada o‘z fidoiysini topadi. Milliy musiqa atrofdagi hodisalarni go‘zallikni idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi, nozik did va hur fikr bilan qurollantiradi, ma’naviy olamni kengaytiradi. Shu bois musiqani tilsiz falsafa deb bejiz aytishmagan . Ma’naviyat insonning qon-qoni, suyak-suyagiga yillardavomida ona suti, oila tarbiyasi, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba’zida achchiq, ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo‘lib singib boradi. Ayniqsa, tabiatga, odamlarga yaqinlik, doimo yaxshilikni o‘ylab yashash, halol mehnat qilish, dunyoning tengsiz ne’mat va go‘zalliklaridan bahramand bo‘lish ma’naviyatga oziqa beradi, uni yanada kuchaytiradi. Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan yana bir muxim hayotiy omil — bu ta’lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z nutqlarida: “Inson bajarayotgan har bir ishiga guyoki birinchi marta bajarayotgandek yondoshishi kerak” deb ko‘p bora ta’kidlamoqdalar. Darxaqiqat, aynan ma’naviyati yuksak, teran fikrli insongina har bir ishiga kundalik yumushdek qo‘l uchida emas, balki sidqidildan, mehr bilan yondoshadi. Qilayotgan ishi ertaga albatta hosil berishiga chin dildan ishonadi. Yurtboshimiz birgina mana shu so‘zlari orqali har birimizni yanada mas’uliyatli, aqlli, mehr muruvvatli va yuksak ma’naviyatli bo‘lishga undamoqdalar. Ma’lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Musiqa inson qalbini yumshatishi, unda iymonga dalolat etuvchi mehr-muxabbat va rahmdillik tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkin. Shu bilan birga, mumtoz musiqiy asarlarimiz maqomlarimiz mazmunida buyuk davlat mafkurasiga muvofiq bo‘lgan tasavvuf ta’limoti g‘oyalarini badiiy ifoda etish vazifasi ham qo‘yilgan. Tabiiyki, ushbu murakkab ilmiy masalalarni tadqqiq etish har tomonlama yetuk musiqashunos olimlar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatimiz yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularni ma’naviy barkamol shaxs sifatida kamol toptirish kabi muhim vazifalarni qo‘yar ekan, milliy musiqaning inson ma’naviyatiga muhim ta’siri haqida shuni aytish mumkinki, insonning qulog‘i yengil yelpi, tumtaroq ohanglarga o‘rganib qolsa, bora–bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning ma’naviy olamini sohta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Bu fikrlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, o‘quvchilarni insonparvarlik, vatanga muhabbat, bilim va ma’rifatga intilish ruhida tarbiyalash, hozirgi zamon dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtai-nazardan xalqimizga o‘zbek mumtoz asarlari va jahon klassik musiqasini tinglab bilish imkoniyatlarini zamonaviy talablar asosida tashkil qilish va shu bilan birgalikda bo‘lajak ijrochilarni estetik tarbiyalashni, har bir yosh avlodni milliy san’atimizga chuqur hurmat bilan yondoshishini rivojlantirish zarur. Mana shu tariqa o‘sib kelayotgan yosh avlodning dunyoqarashini yanada kengaytirishga, ma’naviyatini boyitishga, tafakkurini rivojlantirishga, turli yot g‘oyalardan va aqidalardan asrab qolishga, odamiylik, insonparvarlik, ezgulik, mehr muruvvat, Vatanga muhabbat, elga hurmat, buyuk kelajakni qurishga bo‘lgan yuksak ishonch kabi tuyg‘ularni yanada mustaxkamlashga erishimiz mumkin.

Xulosada aytish mumkinki, maktabgacha tarbiya muassasalari, maktablar va boshqa o‘quv yurtlarida ta’lim- tarbiya ishlarini yanada rivojlantirish va o‘quvchi yoshlarimizni aqli zakovatini o‘stirish uchun ular ko‘proq mumtoz musiqalarni, kuylarni, ashulalarni eshitish darslarda ham yuqorida aytilgan fikrlarni inobatga olib, mashg‘ulotlar tashkil qilish va o‘tish yoshlar ma’naviyatida muhim o‘rin tutadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг иккинчи Халқаро мақом санъати анжуманининг очилиш маросимидаги нутқи. 27.06.2024. https://president.uz/uz/lists/view/7352
2. Ирисов А. Абу Али ибн Сино. –Т.: Фан, 1980. Б. 38
3. Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Шарқ тароналари” ўн иккинчи халқаро мусиқа фестивалининг очилишига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. https://president.uz/uz/lists/view/2826
4. Djalmatova, Z. (2021). Чингиз Айтматовнинг "Кунда" асарида эзгуллик ва ёзувлик тукнашуви. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 3(3). https://natscience.jdpu.uz/index.php/ruslit/article/view/2010

# YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASIGA DOIR MAVZULARINI O‘QITISHDA TAKOMILLASHTIRISHDA ELEKTRON DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI

**Jamolova Gulbanbegim Muzaffar qizi**
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti, p.f.f.d.
E-mail. jamolovagulbanbegim@gmail.com
**Nazarov Odil Omanqulovich**
Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti, p.f.f.d.
odil.nazarov.89@list.ru

## ANNOTATSIYA

*Yarimo‘tkazgichlar fizikasi kursi 60110700 - Fizika va astronomiya ta’limi yo‘nalishida talabalarga yarimo‘tkazgichlar va rivojlanish tarixi, ularda fanning ilmiy-falsafiy muammolarini, ularning kelib chiqishi va rivojlanish tarixi haqida tegishli bilim va ko‘rsatmalar berish, ilg‘or metodik tajribalari bilan tanishtirishdan iborat. “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi” fani axborot va kommunikatsiya texnologiyalarida zarur bo‘lgan raqamli qurilmalarni ishlab chiqarish, loyihalash va tadqiqot ishlarida kerak bo‘ladigan asosiy negiz tushunchalarni, zamonaviy raqamli sxemalarning istiqbolli element bazasi, yuqori integratsiya darajali integral sxemalardan tashkil topganUshbu maqolada – talabalarda, bo‘lajak fizika o‘qituvchisiga zarur bo‘lgan, zamon talabi taqoza etadigan yarimo‘tkazgichlar fizikasi umumiy fizikaviy bilimlarning ajralmas qismi ekanligini, uni o‘rganish va o‘qitish bo‘yicha metodik yo‘l-yo‘riqlarni mos ravishda amaliy, nazariy va fenomenologik bilim, ko‘nikma va bilim shakllantirishdan iborat.*

***Kalit so’zlar.*** *Yarim o’tkazgich, metod, fizika, ko’nikma, shakil, simulyatsiya, virtual ishlanma, radiotexnika, electron, telvideniya, elektronika, pedagogika.*

Talabalarga zamonaviy elektronikada amalda qo‘llanilib kelinayotgan yarimo‘tkazgichli materiallarning ishlash printsipining asl mohiyatini va kelajak fani ekanligini tushuntirishdan iborat. Masalan tajriba ma’lumotlariga ko‘ra nihoyatda sof kremniyda xona temperaturasida elektronlar konsentratsiyasi 1017 m-3 dan kam, uning solishtirma qarshiligi 10 Om•m dan ortiq bo‘lishi kerak; biroq 700ºS temperaturada undagi elektronlar konsentratsiyasi 1024 m-3 gacha ortadi, solishtirma qarshiligi esa 0,001 Om•m gacha kamayadi, ya’ni milliondan ortiq marta kamayadi [1], [4].

Simulyatsiya dasturlari xar bir talaba tomonidan boshqarish va natija olish imkoniyatiga ega ekanligi hamda simulyatsiya qilish uchun ishlatiladi . Dasturlarning muhim xususiyati Simulyatsiya hisoblanadi .[2. 5].

Simulyatsiya dasturi asosida o‘qitish uzluksiz ta’limning barcha bosqichida muvaffaqiyatli hisoblanadi, masalan, L.I.Antsiferov [3] “simulyatsiya” tushunchasini quyidagicha tasvirlaydi, bu kompyuterda modellashtirish asosida yoritilgan “eksperimentning haqiqiy tasvirining (obyektning) raqamlashtirilgan aksidir, ammo ideallashtirishga intilgan ko‘rinishda. Zamonaviy ta’limda “tadqiqotchilar simulyatsion eksperimentlar uchun asosiy talablar:

-tadqiq etilayotgan ilmiy tushunchalar hususiyatlarini oydinlashtirish (qonunlar, hodisalar, jarayonlari,qiymatlari, modellari, tajribalari, qurilmalari);

-Blum taksonomiyasi asosida tizimlashtirish;

- (tajriba ma’lumotlari va tadqiqot natijalarini o’zgartirish uchun imkoniyatlardan xabardorligini eksperimentlarni amalga oshirish uchun izlanuvchilarni tayyorlash;

- fizikani o‘qitishning kichik guruxlar va individual-yakka tartibda shug‘ullantirishga imkon yaratish.

Tekshiruv tizimlari, ba'zi bir tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra , yangi elektron dasturiy vositalar sohasida innovatsiyalar eng ko‘p. Bunday sharoitda, tekshiruv tizimlari tarkibiga sun'iy intellekt texnologiyasini tushunish kerak [5].

Simulyatorlar talabalarga ma’lum fizik jarayonni tasvirlash uchun muhim elementlari mavjud sxematik dasturiy paketlardir.

Virtual ishlanmalar uchun dasturiy muhitni aks ettiruvchi raqamli modellari, jarayonlarning (hodisalarning) algebraik modeli asosida birlashtirilib, ma'lumotni namoyish qiladigan vositalarni o'rganadigan va ishlab chiqadigan saytlar bilan o'zaro ta'sir vositalarini o'z ichiga oladi . Masalan, Simulyatsiya tadqiqotchi [3] taklifiga ko‘ra fizik jarayonlarni modellashtirish va natijalarni oldindan tahmin qilish vositasi sifatida foydalanadi. Elektron dasturiy vositalar operatsion dasturlar kabi kuchli matematik tizim sifatida ajratib ta’kidlab o‘tish lozim. Bunday dasturlar orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan Mathcad, Matlab, MATHEM kabi bir qator dasturlash tillarini ham keltirish mumkin.

Simulyatsiya dasturlarining simulyatsiyaga nisbatan o'ziga xos xususiyati - bu nafaqat mavjud ob'ektlarni yoki fizik jarayonlarni tasvirlash, balki tadqiqotchi tomonidan belgilangan qonunlar asosida tabiatda ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmas jarayon modellarini yaratish qobiliyatidir .

Yarimo‘tkazgich moddalar asosida tayyorlanadigan asboblar, qurilmalar sanoatda, qishloq xo‘jaligida, transportda, elektronikada, mikroelektronikada va elektrotexnikada, kompyuterlarda, energiyani bir turdan ikkinchi turga aylantirishda (xususan, quyosh energiyasidan foydalanishda), aloqada, informatikada, maishiy xizmat sohasida va jamiyat faoliyatining boshqa barcha jabhalarida turli-tuman muhim vazifalarni bajarmoqda. Shunigdek, hozirgi zamonda ilmiy-texnik taraqqiyotni elektronikasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Elektronikaning jadal o‘sib borishi yangi xilma-xil yarimo‘tkazgichli asboblar va integral sxemalar (tuzilmalar)ning yaratilishi bilan bormoqda, ular borgan sari hisoblash texnikasida, avtomatikada, radiotexnikada va televideniyada, o‘lchash texnikasida, biologiyada va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda [2].

**Metod hamda vositalar.** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:

yarimo‘tkazgich materiallari, ularning kristall panjara strukturasi, ularda kuzatilayotgan magnit- optik- elektr-effektiv hodisalar, zarralar fizikasi, ularning parametrlarini anglash va ushbu elementlar vositasida mutlaq yangi bo‘lgan innovatsion texnik, elektron qurilmalar ishlab chiqish va texnika taraqqiyoti tarixi va uning istiqbollining rivojlanish tendensiyasi, istiqbolli yo‘nalishli masalalarini talabalarning tanlangan ixtisosligi profiliga mos, Davlat ta’lim standartlarida keltirilgan yarimo‘tkazgichlar fizikasi sohasiga doir bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar tajribalar jamlanmasini rivojlantirishni tarkibiga qamrab oladi.

Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘ydagi talablar qo‘yiladi.

Talaba:

–yarimo’tkazgichli elektron qurilmalarining rivojlanish tendensiyasi, zamonaviy yarimo‘tkazgich materiallar asosida yasalgan asboblarning parametrlari va tavsiflari, ularni qo‘llanilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi;

–yarimo’tkazgichli iqtisodiy nuqtayi nazardan va texnik qo‘llanilish sharoitidan kelib chiqqan holda elektron qurilmalar turini to‘g‘ri tanlashni bilishi va ulardan foydalana olishi;

zamonaviy texnika va mikroelektron asboblarda qo‘llaniladigan yarimo‘tkazgichli elektron asboblarning asosiy parametrlarini hisoblashga oid bilim, malaka va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi talab etiladi.

Oliy ta’limda yarimo‘tkazgichlarga doir mashg‘ulotlarning mavzularni o‘qitilishining hozirgi holati.

Yarimo‘tkazgichlarga oid materiallar mazmunini yaratishda quyidagi muammolarni hal etish zarur:

1. Yarimo‘tkazgichlarga doir tanlangan materiallar mazmunini shakllantirish va ularni o‘qitish samaradorligini oshirishda tanlangan materiallardan ma’ruza mashg‘ulotlarida va laboratoriya ishlarida qanday an’anaviy, noan’anaviy uslublardan foydalanishni aniqlash.

2. Yarimo‘tkazgichlarga doir tanlangan materiallar mazmuni bo‘yicha mustaqil va ijodiy fikrlarini, bilish qobiliyatlarini faollashtirish, mantiqiy mushohada yuritishlarini hisobga olish.

3. Yarimo‘tkazgichlarga doir tanlangan materiallar mazmuni bo‘yicha o‘qitish uslubiyatini ishlab chiqish.

Yarimo‘tkazgichlarga doir tanlangan materiallarga quyidagi didaktik talablarni qo‘yish mumkin [6,7]:

1. Yarimo‘tkazgichlarga doir tanlangan materiallar mazmuni didaktik va uslubiy talablarga javob berishi kerak.

2. Yarimo‘tkazgichlarga doir tanlangan materiallar mazmuni sodda, qisqa, lo‘nda va mantiqan tugallangan matnda ifodalangan bo‘lishi lozim.

3. Yarimo‘tkazgichlarga doir tanlangan materiallar mazmuni va ulardagi faktlar haqqoniy bo‘lishi zarur.

4. Yarimo‘tkazgichlarga doir tanlangan materiallar va sinov savollari aniq hamda tushunarli bo‘lishi darkor.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalarda yarimo‘tkazgichlar fizikasiga doir mavzularning o‘qitishni sxemalarning interaktiv semulyatori metodi asosida elektron dasturiy vositalar, texnologik yondashuvning xususiy-metodik darajasining jadal ta’sir ko‘rsatish mantiqiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirishda quyidagi ta’limiy talablarni bajarish zarurligi tadqiq etildi.

Ushbu maqolada oliy ta’limning “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi” fanidan o‘quv dasturlari va o‘quv adabiyotlarining tahlilidan o‘quv darsliklari va o‘quv adabiyotlarida keltirilgan yarimo‘tkazgichlar fizikasiga doir ma’lumotlar turli xil darajada yoritilgan. Bu esa oliy ta’limning “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi” faniga doir mavzularni yoritishda yil sayin ko‘payib borayotgan ilmiy-texnikaviy yangiliklarni e’tiborga olgan xolda yarimo‘tkazgichlarga doir mavzularni mazmunini takomillashtirishni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, talabalarning kasbiy faoliyat motivatsiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan professional modellash dasturi PSPICE va interaktiv metodlardan foydalanib yarimo‘tkazgichlarga doir mavzularni o‘qitish metodi vaqtni nazorat qilish, axborotni har xil shakllarda taqdim etishga ustuvorlik berishga zaruriyat mavjudligi tahlil etildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamolova G.M. Понятие об электрическом заряде, расчетэлектрических цепей постоянного тока. Web of Semantics : Journal of Interdisciplinary Science (2024) https://wom.semanticjournals.org.
2. Jamolova G.M. Parallel tebranish konturlarini tadqiq etish. Ozbekiston Milliy Universiteti ilmiy jurnali. 2023. 1/9/1. Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi.
3. Maqsudov V.G. Oliy o‘quv yurtlarida “Mexanik tebranishlar” bo‘limini o‘qitishning uslubiy asoslarini takomillashtirish. Diss.p.f.n. (phd), Toshkent, 2018, -169 b.
4. Mehta V.K., Mehta R. Principles of electronics. 11 th Edition Tata Mgraw Hill, 2006.
5. Mirsagatov R.M. Kremniyda va kremniy germaniy qotishmalarida marganes, rux va xalkogenlarningqorishma markazlarini tekshirish. Avtoreferat diss. f.m.f.n. Toshkent, 1994, -18b.
6. Nasriddinov S.S. $Ba^+$, $Na^+$, $P^+$ va $B^+$ ionlarining kremniyga implantatsiyasi natijasida xosil bo‘lgan geterotuzilishli plenkalar yuzasining xolatini elektronlar spektroskopiyasi usullari bilan o‘rganish. Avtoreferat diss. f.m.f.n. Toshkent, 2001, -23b.
7. Nurkuziyev G. Osmiy qorishmali kremniyning elektrofizik xususiyatlarini o‘rganish. Avtoreferat diss. f.m.f.n. Toshkent, 1993, -23 b.

Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences
Research BIB / Index Copernicus
(E)ISSN: 2181-1784
4(9), Oct., 2024
www.oriens.uz

# OLIY TA’LIM TEXNIKA IXTISOSLIKLARI TALABALARIGA GIDRAVLIKA FANIDAN SUYUQLIKNING LAMINAR REJIMLI HARAKATINI O‘QITISHNING NAZARIY ASOSLARI

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM.
**Nazarov Odil Omanqulovich** – p.f.f.d. (PhD).
Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti
**Quvatov Ulugbek Jalolovich** - t.f.f.d. (PhD).

## ANNOTATSIYA

*Talabalar gidravlika fanini o‘zlashtirishda suyuqliklarning laminar rejimi harakati qonunlarini o‘rganib, ularni muhandislikning har xil amaliy masalalarini yechimlarida qo‘llashni o‘rganadilar va bajaradilar. Ishlab chiqarish sohalari va sanoatda gidravlika fani muhim rol o‘ynaydi. Ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan gidravlikmashinalarning quvurlari va magistral quvurlarda suyuqliklarning laminar harakat rejimi katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammolarni hal qilishda talabalar laminar harakat rejimini o‘zlashtirmog’i lozim.*

***Kalit so’zlar:*** *Laminar rejim, mahalliy tezlik, urinma kuchlanishlar, sarf, Darsi-veysbax formulasi, kinetik energiya koeffitsienti.*

## ABSTRACT

*In mastering the science of hydraulics, students study the laws of laminar flow of liquids, learn and apply them in solving various practical engineering problems. Hydraulic science plays an important role in manufacturing and industry. The laminar movement mode of fluids in the pipelines and main pipelines of hydraulic machines operating in the field of production has a great influence. In solving these problems, students should master the laminar movement mode.*

***Key words:*** *Laminar mode, local velocity, test voltages, consumption, Darcy-Weisbach formula, kinetic energy coefficient.*

**Suyuqlikning doiraviy quvurdagi laminar rejimli harakati.** Mahalliy tezliklarning taqsimlanishi. Suyuqlikning $r_0$ radiusli ko‘ndalang qirqimi doirasimon bo‘lgan silindrik quvurdagi tekis laminar rejimda bo‘lgan naporli harakatini qaraymiz (1-rasm).




1-rasm. Suyuqlikning doiraviy quvurdagi laminar rejimli harakati

Bunda harakat o‘q bo‘yicha simmetrik. Bu harakatni (*x,r*) oordinatalar sistemasida qaraymiz. *0x* o‘qni quvur o‘qi bo‘yicha, r radiusni esa *0x* o‘qqa normal bo‘yicha yo‘naltiramiz.

Suyuqlikning quvurdagi tekis laminar harakatida

$$u_* = u\,; \qquad u_r = 0 \tag{1}$$

Harakatni bir-biriga nisbatan siljiydigan cheksiz yupqa halqali kontsentrik qatlamlar yig’indisidan iborat deb tasavvur etish mumkin.

Suyuqlikning qatlamlari orasida sodir bo‘ladigan N`yuton bo‘yicha urinma kuchlanishlar

$$\tau = -\mu \frac{du}{dr} \tag{2}$$

r ortishi bilan u tezlik kamayadi, shunga ko‘ra tezlik gradienti $du/dr \prec 0$. $\tau$ urinma kuchlanish kattaligi musbat bo‘lgani uchun (2) ga manfiy ishora kiritiladi.

Urinma kuchlanishi

$$\tau = \rho g \frac{r}{2} I \tag{3}$$

bu yerda I - gidravlik nishablik.

(2) va (3) larni tenglashtirib,

$$\rho g \frac{r}{2} I = -\mu \frac{du}{dr} \tag{4}$$

hosil qilamiz. Bunda $du = -\frac{\rho g I}{2\mu} r dr = -\frac{gI}{2\nu} r dr$

$\nu$ jonli kesim chegarasida o‘zgarmaydi. $[\nu \neq f(r)]$ deb qarab va *“I” “r”* ga bog’liq emasligini hisobga olib,

$$\int du = -\frac{gI}{2\nu}\int r dr$$

ifodani hosil qilamiz.

Integrallashdan keyin

$$u = -\frac{gI}{4\nu}r^2 + C$$

bo‘ladi.

C integral o‘zgarmasini suyuqlik devorga “yopishishi” shartidan topamiz. $r = r_0$ bo‘lganda, $u = 0$ bo‘lgani uchun

$$C = \frac{gI}{4\nu}r_0^2.$$

U holda quvur o‘qidan r masofada joylashgan jonli kesim nuqtasidagi mahalliy tezliklar uchun

$$u = \frac{g\mathrm{I}}{4\nu}(r_0^2 - r^2)$$

ifodaga ega bo‘lamiz.

Demak, doiraviy qirqimli silindrik quvurlardagi suyuqlikning laminar harakatida (naporli oqim) radius bo‘yicha mahalliy tezliklarning tarqalishi parabolik xarakterga ega (1-rasm). Tezlikning tekis epyurasi paraboladan iborat.

(4) dan maksimal tezlik quvur o‘qida bo‘ladi, ya’ni $r = 0$ da

$$u_{\max} = \frac{g\mathrm{I}}{4\nu}r_0^2 \qquad (5)$$

“u” mahalliy tezlikni $u_{max}$ orqali ifodalaymiz:

$$u = u_{\max}\left[1 - (r/r_0)\right]^2 \qquad (6)$$

O‘lchovsiz mahalliy tezlik

$$\frac{u}{u_{\max}} = 1 - \left(\frac{r}{r_0}\right)^2 \qquad (7)$$

Quvurlardagi suyuqlikning laminar rejimli harakatidagi o‘lchovsiz mahalliy tezliklar epyuralari bir xil va ularni (7) parabola ko‘rinishida deb ko‘rsatish mumkin.

**Laminar rejimli harakatdagi sarf.** Quvurning qaysidir bir qirqimidagi sarfini aniqlash uchun, quvur o‘qidan r masofa narida qalinligi dr bo‘lgan, elementar yuzacha ajratamiz (1-rasm), hamda yuzasi $d\omega = 2\pi r$ yuzachadan o‘tadigan sarf $dQ = u2\pi r dr$ ifodadan aniqlanadi. Qirqimdan o‘tadigan sarf

$$Q = \int_0^{r_0} u d\omega = 2\pi \int_0^n u r dr$$

(6) dagi “u” ni qo‘yamiz va $\nu$ ning r ga bog’liq emasligini inobatga olib,

$$Q = \frac{2\pi \cdot u_{\max}}{r_0^2} \int \left(r_0^2 - r^2\right) r dr = \frac{\pi \cdot r_0^2}{2} u_{\max} \quad (8)$$

yoki

$$Q = \frac{\pi g \mathrm{I}}{128\nu} d^4 \quad (9)$$

formulalarni hosil qilamiz.

Ta’kidlash lozimki, quvurning naporli laminar harakatidagi berilgan. U gidravlik nishablikda sarf diametrning to‘rtinchi darajasiga proportsional.

**Laminar rejimli harakatdagi o’rtacha tezlik**

$\upsilon = Q/\omega$ ekanligidan, o‘rtacha tezlikni aniqlash ifodasini topamiz:

$$\upsilon = \frac{g\mathrm{I}}{32\nu} d^2 = \frac{g\mathrm{I}}{8\nu} r_0^2 \quad (10)$$

$u_{\max}$ va $u$ ni aniqlash ifodalarini tenglashtirib,

$$\upsilon = 0{,}5 u_{\max} \quad (11)$$

ekanligini ko‘ramiz, ya’ni doiraviy qirqimli silindrik quvurdagi suyuqlikning naporli laminar oqimida o‘rtacha tezlik maksimal tezlikning yarmiga teng.

***Kinetik energiya koeffitsienti***

$$\alpha = \frac{1}{\omega} \int_\omega \left(\frac{u}{\upsilon}\right)^2 d\omega = \frac{\int_0^{r_0} \left[\frac{g\mathrm{I}}{4\nu}\left(r_0^2 - r^2\right)\right]^3 2\pi r dr}{\pi r_0^2 \left(\frac{g\mathrm{I}\, r_0^2}{8\nu}\right)^3} = 2$$

Mahalliy tezlik gradienti $\frac{du}{dr} = \frac{gI}{2\nu} r$, ya’ni quvur o‘qidan qaraladigan r masofadagi nuqtaga to‘g’ri proportsional o‘zgaradi. Gradient $\frac{du}{dr} \prec 0$.

***Urinma kuchlanishlar*** quvur o‘qi noldan devordagi $\tau_0 = \rho g \frac{r_0}{2} I$ gacha chiziqli ko‘paya boradi (1-rasm). Haqiqatan ham, $\tau = -\mu \frac{du}{dr}$, $\frac{du}{dr}$ esa $\frac{du}{dr} = -\frac{gI}{2\nu}$, bundan $\tau = \rho g \frac{r_0}{2} I$ ekanligi kelib chiqadi. Bu (4) ga mos bo‘ladi.

**Suyuqlikning quvurdagi naporli laminar harakatida Darsi koeffitsienti.**

(10) dan gidravlik nishablik uchun quyidagi ifodani yozish mumkin:

$$\mathrm{I} = \frac{h_\ell}{\ell} = \frac{32\nu\omega}{gd^2} \tag{12}$$

unda

$$h_\ell = \frac{32\nu\ell\upsilon}{gd^2} \tag{13}$$

ifodaga ega bo‘lamiz.

Quvur uzunligi bo‘yicha napor yo‘qolishining umumiy ifodasi

$$h_\ell = \lambda \frac{\ell}{d} \cdot \frac{\upsilon^2}{2g},$$

buni (13) bilan tenglashtirib,

$$\frac{\lambda\upsilon^2}{d \cdot 2g} = \frac{32\nu\upsilon}{gd^2}$$

hosil qilamiz. Bundan Darsi koeffitsienti

$$\lambda = \frac{64\nu}{\upsilon d}$$

yoki

$$\lambda = 64 / \mathrm{Re} \tag{14}$$

Bu yerda Reynolds soni $\mathrm{Re} = \upsilon \cdot d / \nu$.

Odatda (14) formuladan doiraviy quvurlardagi suyuqlikning laminar rejimli harakatining amaliy hisoblarida foydalanamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Latipov K.Sh., Arifjanov A.M., Fayziev X «Gidravlika», Toshkent, TAQI, 2015 y.-459 b.

2. K.Sh.Latipov, A.Arifjanov, X.Kadirov, B.Toshov «Gidravlika va gidravlik mashinalar», Navoiy sh., Alisher Navoiy, 2014 y. -268b.
3. Nazarov O.O. Texnika ixtisosliklarida suyuqlik kinematikasi va suyuqlik harakatini o‘qitishning nazariy tahlili. O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari. Toshkent, 2021. – № 1/6/2. Б. 117-120.
4. Nazarov O.O. Gidravlika maxsus muhandislik fanlari siklining fundamental asosi sifatida o‘qitish metodik ta’minoti. Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў Илимий-методикалық журнал № 4/1 2022 жыл. 90-93 betlar.
5. Boboraim Urishev., Ulugbek Kuvatov. Determination of Optimum Operational Parameters of Pump Stations. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 6, Issue 4, 2019. C-8890-8892.
6. М.М.Мухаммадиев., Б.Уришев., А.Абдуазиз уулу., У.Куватов., Х.Мурадов. Гидравлическое аккумулирование солнечной энергии, используемой для питания насосных установок при поливе. Energiya va resurs tejash muammolari. №3, 2021, 356-365 b.

## CONTENT / СОДЕРЖАНИЕ / MUNDARIJA

**Хакимова М.Ф.** // *Особенности методики сопоставительного подхода в обучении английскому языку как второму иностранному*…… **5**

**Зокиров Ш.** // *Янги таҳрирдаги конституцияда шахсий ҳуқуқ ва эркинликларнинг такомиллашуви бўйича айрим мулоҳазалар*…… **13**

**Khodjakulova F.** // *Exploring innovative approaches to teaching terminology*… **17**

**Umarova Z.S.** // *Oliy ta'lim muassasalarida libos dizayni sohasiga o'qitishning samarali metodlari*…… **20**

**Xamidov A.** // *Ziyorat turizm tushunchasi va uning turizm sohasida tutgan o'rni* **25**

**Fayzullayev A.A.** // *Harbiylarning Turkiya ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni: 1980-yil voqealari va uning oqibatlari*…… **31**

**Shomirzayev L.Z.** // *Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashida jismoniy mashg'ulot ta'lim metodlarini shakllantirish*…… **40**

**Abduraximova Z.I.** // *Turli chegaralanishli hol uchun П strategiyaning qurilishi haqida*…… **46**

**Danabayeva Kh.T.** // *Culture as a component of language material*…… **55**

**Ismatillayeva Y.A.** // *Boshlang'ich sinfda tabiiy fanlarni o'qitishda steam ta'lim texnologiyasini qo'llash mexanizmlari*…… **59**

**Maxkamova H.R.** // *Maktabgacha ta'limda xavfsiz rivojlanish muhitini yaratishning hamkorlik texnologiyalari*…… **64**

**Xo'janova T.J.** // *Yoshlarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ishtirokiga qarshi qilinayotgan axboriy-mafkuraviy tajovuzlar*…… **69**

**Qodirova Z.O.** // *Rashididdin Vatvotning "Hadoyiq u-s-sehr" asari qo'lyozmalarining matniy tadqiqi (San'atlarga keltirilgan misollarining miqdorilari tahlili)* …… **78**

**Asrorov I.** // *Social dimensions of standardized assessment in language teaching in Uzbekistan*…… **84**

**Sobirov Sh.Q.** // *Ensuring financial and economic stability of educational institutions in the process of integrating digital technologies in the new Uzbekistan*…… **91**

**Manzarov Y.** // *Qadimgi davr dastlabki sivilizatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy belgilari*…… **95**

**Mirzaxalilov M.M.** // *Suv omborlarining gidrobiosenozlari va gidroflorasi* …… **103**

**Курбанов Ш.Х.** // *Экологические последствия структурных и значительных изменений пустых пород*…… **107**

**Kurbonov Sh.X.** // *Ekologik omillar va ularning o‘zaro ta’sir tadqiqi*…… **114**

**Nuriddinov J.** // *O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy sudlarida davlat boji to‘lovlarini undirish masalalarining istiqbollari*…… **121**

**Valiyev L.A., Abduqayumova F.R.** // *Islom dunyosida ayollar huquqlari*…… **133**

**Ulmasbayeva M.A.** // *Technologies for enhancing intercultural communication in the process of teaching foreign languages*…… **138**

**Nuriddinov J.** // *Iqtisodiy sudlarda davlat boji to‘lovlarini undirishning muammolari*…… **144**

**Begimov O.T.** // *Nofilologik oliy o‘quv yurtlari talabalarining yozma ilmiy nutq kompetensiyasini shakllantirish va unda “akademik yozuv” fanining tutgan o‘rni* **154**

**Kholmuminov J.M., Mohammad Esmaeil Abdollahi, Abolfazl Tajik** // *The fate of philosophy in the history of islam*…… **161**

**Tuyliyeva N.** *Hindistonning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi tashqi siyosiy faoliyati: muammolar va istiqbollar*…… **184**

**Йовкочев Ш.А., Расулова Д.У.** // *Попытки международного сообщества в урегулировании Афганской проблемы*…… **191**

**Шоназаров Б.Б.** // *Тадбиркорлик субъектларини экспорт салоҳиятини оширишда семинарлар ва курслар ташкил этишнинг аҳамияти*…… **199**

**Аминова З.П.** // *Формирование коммуникативной компетенции студентов на занятиях русского языка*…… **204**

**Исмаилова Р.М., Сапарбаева А.Н.** // *История и символика: особенности национального костюма невест Каракалпаков*…… **208**

**Шадманова Н.И.** // *Изучение заимствованной лексики*…… **216**

**Ikromboyev X., Masharipova G.K.** // *Ajdodlarimiz boy ma’naviy merosida Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asari*…… **220**

**Mullajonov I.Y.** // *Kursantlarni tarbiyalashda sharq ma’rifatparvarlarining ma’naviy merosini o‘rni*…… **230**

**Бобомуротов Д., Юлдашева Л.С.** // *А.Геленнинг антропологик қарашлари* **236**

**Muinov A.M.** // *Harbiy xizmatchi kasbiy mahoratini mustahkamlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘rni*…… **241**

**Qarshiboyev J.K.** // *Sudda yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni ko‘rish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari*…… **247**

**Жалилов Б.Н.** // *Талаба-ёшлар маънавий компетентлигини ривожлантиришнинг этимологик асослари (диний-маърифий негиз)* …… **260**

**Худайназаров Ф.Х.** // *Кичик бизнес субъектлари фаолиятини рақамли технологиялар асосида ривожлантиришнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари…* **266**

**Rakhmatullaeva D., Kurbanbaeva S.M.** // *Inson kapitalini rivojlantirishda xitoy tilini o'rganuvchilarning ta'lim olish uchun qilgan xarajatlari va bakalavriatdan so'ng olgan foydalarini aniqlash……* **277**

**Xodjayeva D.K.** // *Nutqiy etiketlarning tarjimalarda berilishi va ularning talqini……* **284**

**Шадманова С.Б., Бойсариева С.А.** // *Ўзбекистон шаҳарларида тиббий муассасалар фаолияти (1917-1941 йиллар) ……* **294**

**Utegenova A.K.** // *Paths to improving the professional training of students – future designers……* **300**

**Худаева Д.Г.** // *Влияние джинсов на культуру моды……* **306**

**Safarova L.** // *Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifati monitoringining dolzarbligi ……* **311**

**Norqulov M.M.** // *Yosh sportchilarning sportdagi ko'rsatkichlarini yaxhilash uchun ovqatlanish ratsioni……* **315**

**Муқумова Д.** // *Жаъфар Муҳаммад Термизий модерн шеъриятида бадиий ва фалсафий тафаккур уйғунлиги……* **323**

**Sattarov A.S.** // *Energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi huquqbuzarlik va jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari……* **348**

**Kushakov Y.Kh.** // *The actual problems of teaching technical terminalogy to students of technical universities……* **354**

**Norkulov Sh.Sh.** // *O'zbekiston Respublikasining eksport salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari……* **362**

**Каримов Н.Ш.** // *Ли Мунёлнинг "Қақнус қуши" ҳикоясида устоз-шогирд муносабатларининг бадиий талқини……* **366**

**Baymuratova X.K.** // *Xorazmning qadimgi va ilk o'rta asrlarga oid qabr yodgorliklarining o'rganilishi……* **376**

**Azizboyev S.** // *Milliy ma'naviyatimizni shakllantirishda musiqaning o'rni……* **383**

**Jamolova G.M., Nazarov O.O.** // *Yarimo'tkazgichlar fizikasiga doir mavzularini o'qitishda takomillashtirishda elektron dasturiy vositalardan foydalanishning dolzarbligi……* **388**

**Nazarov O.O., Quvatov U.J.** // *Oliy ta'lim texnika ixtisosliklari talabalariga gidravlika fanidan suyuqlikning laminar rejimli harakatini o'qitishning nazariy asoslari……* **393**

“**Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences**”. Ilmiy jurnal. Uzbekistan: www.oriens.uz. 2024. – 402 b.

**ISSN 2181-1784**

Mazkur to’plamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-sonli Farmonida ko‘zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta’minlash maqsadida “Oriental Renessans” MChJ tomonidan ta’sis etilgan **“ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES** (oriens.uz**)”** ilmiy jurnalining 4-bo‘lim 9-soni o‘rin egallagan.

**Mas’ul muharrir:**
**falsafa fanlari nomzodi, professor M. Qodirov**

**Ilmiy kotib:**
J.B. Sulaymonov
SH.N. Pulatov
I.R. Ikramova

**Texnik muharrir:**
Sh.S.Jurayev